

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 1, 2025

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 1, 2025

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 1, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 1-son Buxoro - 2025. - 266 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 1. Бухара - 2025. - 266 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 2.02.2025 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 16,6 Buyurtma № 11. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 1, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Karimova Vasila Mamanosirovna
Nizomiy nomidagi TDPU professori, psixologiya fanlari doktori,
Madvaliyeva Gulra'no Sharipovna
mustaqil izlanuvchi

IJTIMOIY TASAVVURLAR KONSEPSIYASI – IJTIMOIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi – ijtimoiy psixologik tadqiqotlar sohasida muhim metodologik asos bo'lib, shaxs va guruhlar dunyoqarashini o'rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ijtimoiy voqeliklarni shaxsiy va jamoaviy darajada qabul qilish, tushunish va baholash jarayonlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tasavvurlar jamiyatdagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tasavvurlar, ijtimoiy psixologiya, metodologiya, guruh dinamikasi, madaniy o'zgarishlar.*

КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ – МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. *Концепция социальных представлений выступает важной методологической основой в социальных психологических исследованиях, позволяя изучать мировоззрение индивидов и групп. Данный подход помогает выявить процессы восприятия, понимания и оценки социальной реальности на личностном и коллективном уровнях. Исследования показывают, что социальные представления проявляются как динамическая структура, отражающая культурные, исторические и социальные изменения в обществе.*

Ключевые слова: *социальные представления, социальная психология, методология, групповая динамика, культурные изменения.*

THE CONCEPT OF SOCIAL REPRESENTATIONS – THE METHODOLOGICAL BASIS OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. *The concept of social representations serves as an essential methodological foundation in social psychological research, enabling the study of individuals' and groups' worldviews. This approach helps uncover processes of perceiving, understanding, and evaluating social realities at both personal and collective levels. Research shows that social representations emerge as a dynamic structure reflecting cultural, historical, and social changes within society.*

Keywords:
social representations, social psychology, methodology, group dynamics, cultural changes.

O'zbekistonda so'ngi yillarda ijtimoiy psixologik tadqiqotlar o'tkazilishiga talab ortib, ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borayotgan yosh izlanuvchilar soni ham yil sayin oshib bormoqda. Bunda xolatni izohlash mumkin, zero, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sayin odamlar o'rtasidagi shaxslararo, guruhlardagi hamda guruhlararo munosabatlar ham takomillashib, ularni muvofiqlashtirishga bo'lgan talab ortib boraveradi, yangi dolzarb muammolar yuzaga chiqaveradi. Zero, har doim ta'kidlaydigan fikrimiz - jamiyatda ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb bo'lmagan muammoning o'zi yo'q. Bunday vaziyat o'z navbatida insoniy munosabatlarni muvofiqlashtirishda ham, bu muammo bilan bog'liq tadqiqotlarni tashkil qilish, o'tkazish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda aniq metodologiyaga tayanishni taqozo etadi. Aniq metodologiya esa ijtimoiy psixologik kategoriyalarni belgilash, ularning mohiyatini bilishdan boshlanadi.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik asosi sifatida ijtimoiy tasvvvurlarning belgilanayotganligini juda to‘g‘ri, deb hisoblaymiz. Zero, o‘z vaqtida E. Dyurkgeym, I. Kant kabi buyuk allomalar ta’kidlaganidek, olamni bilish - tasavvurlardan boshlanadi. Bizningcha ham, aql va uning rivoji oddiy tasavvurlardan kuch-quvvat oladi.

Biz o‘tkazgan o‘nlab tadqiqotlarimizda ham o‘z izlanishlarimizning metodologik asoslari sifatida ijtimoiy tasavvurlarni qabul qilganmiz va muayyan ishonchli nataijalarga yetishganmiz. Bunda asosiy g‘oya sifatida ijtimoiy tasavvurlarni shaxs ijtimoiy xulq-atvorining psixologik mexanizmlari va sababchisidir, degan ilmiy qarash xizmat qilgan. Oddiy tasavvurlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy tasavvurlar o‘zgacha mohiyat va mazmun kasb etishini isbot qilganmiz va bunda jaxon progressiv psixologlari ilmiy qarashlariga tayanganmiz. E.Dyurkgeym nazariyasidan boshlangan yondashuvga ko‘ra, xar bir shaxsda shakllanajak ijtimoiy muhit va undagi voqea-xodisalar, vaziyatlar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy tasavvurlarda aks etib, individni jamiyat bilan bog‘laydi, o‘zaro bir-biriga ta’sir va shaxslararo o‘zaro munosabatlar tizimini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Biz o‘z tadqtqotlarimiz doirasida oilaviy ijtimoiy tasavvurlarni alohida ahamiyat kasb etuvchi ilmiy kateogoriya sifatida o‘rganganmiz va barcha ishlarimizning metodologiyasi uchun asos qilganmiz. Mualliflik ta’rifiga ko‘ra, ijtimoiy tasavvurlar har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, subyektiv reallikni ob’ektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmdir. Bu ta’rif orqali biz ijtimoiy tasavvurlarning bir necha muhim xususiyatlarini ajratishimiz mumkin.

Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqotlar maxsuli, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning oqibatidir;

ikkinchidan, shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan ongli munosabatlarni ta’minlaydi;

uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar – ijtimoiy borliqni bilish, analiz va sintez qilish vositasidir;

to‘rtinchidan, jamiyatda qabul qilingan turli ijtimoiy me’yorlar, xatti-xarakat shakllari, qadriyatlar va baholarning interiorizatsiyasini ta’minlaydi:

va nihoyat, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosi, ya’ni, usiz shaxsda ijtimoiy xulq, unga asoslangan ijtimoiy ustanovkalar shakllanmaydi.

Shaxsning yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, bajarayotgan rollarining rang-barangligi, ijtimoiy tajribasiga ko‘ra ijtimoiy tasavvurlar turli darajalarda namoyon bo‘ladi, shakllanadi.

Masalan, tasavvurlar shakllanganligining quyi darajasi odamdagi oddiy, sodda, kundalik ikir-chikirlar yuzasidan paydo bo‘ladigan tasavvurlardir. Unda ob’ektlar haqidagi tasavvurlar ancha xira, tartibga solinmagan, tizimsiz, tarqoq bo‘lib, ularning yo‘qolishi xam shunchalik oson kechadi. Sodda obrazlardan shaxs o‘zi uchun muhim, mohiyat jihatdan ahamiyatlisini ajratib olishi qiyin bo‘ladi.

Tasavvurlar shakllanganligining o‘rtacha darajasi ob’ektlar xaqidagi xaqqoniy qarashlarni o‘z ichiga oladi-yu, lekin bu tizimda xam shaxs uchun muhim axamiyatga ega bo‘lgan, shaxsiy ma’no kasb etadigan xodisalar kirmaydi.

Bizning fikrimizcha, tasavvurlar shakllanganligining yuqori darajasi o‘spirinlik yoshidan boshlanib, unda borliq xaqidagi bilimlar tizimi shakllangan bo‘lib, muhim, hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa va ob’ektlar haqida aniq tasavvurlar mavjud bo‘la boshlaydi. Bu tizimda shaxs uchun o‘ta muhim elementlar, ma’noviy qadriyatlar bo‘lib, shaxsning boshqa tasavvurlari ana shu muhim elementlar atrofida uyg‘unlashib, barqarorlashib boradi. Bu darajada tasavvurlarning ob’ektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanish jihatidan ijtimoiy tabiatga ega bo‘ladi. Xuddi shu ma’noda oilaviy ijtimoiy tasavvurlar (OIT) yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlardir.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, dastlabki tadqiqotlarimizning hamda shogirdlar bilan hamkorliklda amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlarimizning metodologik asosi bo‘lib, G‘arb mamlakatlarida, birinchi navbatda Fransiyada hamda Rossiyada shakllangan ijtimoiy tasavvurlar va subyektiv obrazlar haqidagi nazariyalar xizmat qiladi. Masalan, ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasining G‘arbdagi asoschisi xisoblangan fransuz sotsiologi va psixologi Serj Moskovisi o‘z vaqtida ijtimoiy

tasavvurlarga unga quyidagicha ta'rif bergan edi: "ijtimoiy tasavvurlar bixevioristlar ta'riflagan mexanik obraz ham, tashqi va ichki muhit o'rtasida ziddiyat tug'diradigan narsa ham bo'lmay, bu - ...faol ravishda ob'ektiv borliqni sotsial psixologik tarzda qayta o'zlashtirishning mahsuli hamda jarayondir" /Moscovisi S, 1979, 34/.

Fransiya mutaxassislarining yana bir yorqin vakili Jorj Jodele esa ijtimoiy tasavvurlarga shunday ta'rif beradi: "Ijtimoiy tasavvurlar qanchalik sodda yoki murakkab mazmunga ega bo'lmasin, ular doimo "odamning kundalik xayot tarzini anglash va o'ziga xos tarzda bayon etish usuli, ijtimoiy bilishning ma'lum shakli sifatida individlar va guruhlarning faolligini, ularning o'zlariga qarashli, ahamiyatli bo'lgan vaziyatlar, hodisalar, ob'ektlar va xabarlarga nisbatan tutgan mavqeini va munosabatini bildiradi.

Ijtimoiy tasavvurlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, biz ularning qanday usul bilan o'lchanishiga e'tiborni qaratamiz. Fikrimizcha, ularning psixologik o'lchovi vazifasini tasavvurlar egasining tasavvurlar ob'ekti haqidagi ma'lumotlari darajasi, shu ob'ektga nisbatan baholari xarakteri hamda xulq atvorida bevosita namoyon bo'ladigan ijtimoiy ustanovkalari ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday uch o'lchovli model bizning fikrimizcha, ijtimoiy tasavvurlarning dinamik strukturasiga mos keladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi ma'lumot darajasi deganda, biz tasavvurlar ob'ekti to'g'risidagi bilimlar yig'indisini tushunamiz. Masalan, biz oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni o'lchash uchun oilaning turli tomonlariga taalluqli ma'lumotlar sonini ob'ekt haqidagi bilimlar darajasi sifatida o'lchashimiz mumkin. Bunda biz, ma'lumotga ega bo'lganlikning ma'lum darajasi-tasavvurlar shakllanganligining shartidir, deb hisoblaymiz. Ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi ma'lumotlarning asosiy vazifasi bilish, tushuntirish bo'lib, ular ijtimoiy ob'ektlar haqidagi bilimlarning yig'indisidan iboratdir. Shuning uchun ham alohida individda ular ijtimoiy tasavvurlarning miqdoriy tomonini tashkil etadi. Oxir-oqibat ma'lumotlar darajsi shaxsning ob'ekt xususida bilimdonligini ta'minlaydi. Demak, subyektdagi konkret bilimlar, g'oyalar, fikr va tushunchalar ma'lumotlar darajasining sotsial psixologik natijasidir.

Ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi baholar xarakteri – tasavvurlarning sifat tomoniga taaluqli bo'lib, ma'lumotlar tizimiga ega shaxsda o'sha ma'lumotlar ichidan o'zi uchun shaxsiy ma'no va mazmun kasb etganlarini ajratib olish, ularga nisbatan subyektiv baho berish imkoniyati xosil bo'ladi. Masalan, oilaviy ijtimoiy tasavvurlar tizimida baholarning bo'lishi uchun shaxsda umuman oila, uning qadriyatlari, jinslararo rollar va ularning taqsimoti, oilada bolalar va kattalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar, sibling munosabatlar kabi qator tasavvurlar tizimi bo'ladiki, shularning har birida differensial baholarning bo'lishi va ular ichida ahamiyatlisini ajrata olish muhim mazmun kasb etadi (1-jadval).

Jadval – 1

Ijtimoiy tasavvurlar va ularning psixologik xossalari

O'lchovlari	Funksiyalari	Psixologik jabhalari	Tasavvur egasi uchun natija
Ma'lumotlar darajasi	Bilish, bayon etish, tushuntirish	Ijtimoiy ob'ekt haqidagi bilimlar yig'indisi-miqdoriy tomon	Ma'lumotlar to'plami: ma'lumotlik, bilimdonlik bilimlar, g'oyalar, fikr va tushun-chalar
Baholar xarakteri	Tartibga solish, tabaqalash, tavsiflash, moslashtirish	Subyektiv ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatning shakllanishi; "shaxsiy ma'noga"	Umumlashtirilish hamda individualizatsiya nati-jasida ahamiyatli ob'ektlar xususida subyektiv obrazlar tizim-ining paydo bo'lishi.

		ega bo‘lgan tizimning ajratilishi. (ITning sifat tomoni)	
Ijtimoiy ustanovka	Xulq-atvor vositachisi; ijtimoiy ko‘nikmalari hosil qilish	Ijtimoiy ob’-ektga nisbatan ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlarni amalga oshirish-ga tayyorgarlik xolati.	Verbal yoki xatti-harakat bilan bog‘liq reaksiyalar; ijtimoiy xulq-atvor

Ijtimoy ustanovka esa ijtimoiy tasavvurlar ob’ektiga nisbatan subyektning munosabatini bildiradi, va u baholar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ustanovkaning ijobiy yoki salbiy bo‘lishi baholar xarakteridan kelib chiqadi.

Demak, ijtimoiy tasavvurlar individning ongidagi kognitiv belgilari bilan xulq-atvori o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi. Bu xususda biz yana bir fransuz olimi J.Kodol fikriga qo‘shilamiz. U shunday yozadi: “Ob’ekt haqidagi yangi ma’lumot subyektning kognitiv sohasida /universum/ tabaqalanadi, aniqrog‘i, yani shu sohaning ma’lum tizimida-tasavvurga aylangan bo‘lagida – qayta ishlanib, ma’lum xulq-atvorni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tasavvurlarning o‘zgarishi avvalo tashqi omillar ta’siriga bog‘liq bo‘lib, bu o‘zgarish jarayonida bir qancha bosqichlarni ajratishimiz mumkin.

I bosqich. Ma’lumotlar oqimining idrok qilinishi va ulardan shaxsga ma’lum ma’noda ahamiyatlilarini ajratib olinishi.

II bosqich. Ajratib olingan ma’lumotlarning eskilari bilan solishtirilishi va ular orasida o‘zaro bog‘liqlilarining qidirilishi.

III bosqich. Kognitiv tizimda yangidan ma’lumotlarning tabaqalanishi va klassifikatsiyasi. Har bir alohida tabaqada eng ahamiyatli, ma’noli “mohiyat - mag‘izning” ajratilishi va unga ahamiyatsiz ma’lumotlarning qarama-qarshi qo‘yilishi.

IV bosqich. Tasavvurlar “yadrosi”ning tashkil topishi va uning xulq-atvor shakllarida mustahkamlanishi.

Shunday qilib, tasavvurlar shakllanishi davrida individ noma’lum axborotlarni o‘z tajribasida bo‘lgan ma’lum narsalarga o‘xshatib, ularni odatdagi tasavvurlari razryadiga ikki mexanizm orqali qo‘shadi- generalizatsiya hamda subyektiv jihatdan, ularning o‘ziga xos va qaytarilmas ekanligini anglashga /individualizatsiya/ harakat qiladi.

Yuqoridagilar ijtimoiy tasavvurlarning har qanday ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun metodologik asos, izlanish vositasi sifatidagi rolini ta’kidlaydi. Ushbu kategoriyalar asosida to‘planadigan ilmiy natijalarda eng avvalo ijtimoiy psixologik so‘rovnomalarning ishlab chiqilishi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, subyektning ijtimoiy ob’ekt to‘g‘risidagi tasavvurlari baholar tizimiga aylanishi uchun har bir tadqiqotchi jiddiy yondashuv asosida so‘rovnomalar tuza olishi, undagi savollar ham javob variantlari orqali shaxsning ijtimoiy tasavvurlari tizimini baholash orqali aniqlashi mumkin. Bunday yondashuv har qanday ijtiomiy psixologik tadqiqotning ilmiy muqaddimasini tashkil etadi.

Xulosa. Ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiyasi ijtimoiy psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, shaxslar va guruhlar atrof-muhitni qanday qilib ijtimoiy jihatdan konstruksiya qilishi va talqin qilishini o‘rganadi. Bu kontseptsiya orqali odamlar o‘zaro munosabatlarda, ijtimoiy normalar, stereotiplar va jamoaviy e’tiqodlar asosida qanday qarashlar shakllantirishi tushuniladi. Ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik asosi sifatida madaniy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi.

Ushbu kontseptsiya orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan umumiy qarashlar, e’tiqodlar va qadriyatlar tizimi o‘rganiladi, bu esa ijtimoiy o‘zgarishlar, guruhlararo munosabatlar va jamoatchilik fikri shakllanishini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy tasavvurlar nafaqat nazariy jihatdan, balki

amaliy tadqiqotlarda ham katta ahamiyatga ega, chunki u insonning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiyasi ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va u orqali jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlar chuqurroq tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya . Darslik.- 2012 – 172 b.

2. Karimova V.M. Yoshlarda oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar.- Doktorlik dissertatsiya- Toshkent, 1994.- 291 b.

3. Codol I.P. Influence de la representation d’autrui sur L’activite des members d’un group experimental // Annee Psychol. -1970.-Vol.70. -N1

4. Jodelesn D. Representetion sociale: phenomenes, concept et theorei // Moscovici S. (ed) psychologie social. -P.,1984.-412p.

5. Moscovici S. Sur les representations jociles, -p.1979

Акрамова Феруза Акмаловна
Профессор ТашГПУ кафедры Общей психологии,
доктор психологических наук

КЛАССИФИКАЦИЯ СЕМЕЙ И ПРОБЛЕМА НАСИЛИЯ В СЕМЬЕ

Аннотация. *Семья - это приоритет любого государства, которое заинтересовано в сохранении своего народа, укреплении своего международного статуса и всех социокультурных институтов. В статье даётся психологическая классификация семей, которые отличаются своими особенностями и семейными отношениями. Анализированы результаты опроса, проведенного среди специалистов работающих с семьями, с помощью которых раскрыты последствия негативных отношений, насилия в семье и составлены индикаторы различных видов насилия.*

Ключевые слова: *семья, классификация семей, полная, неполная, нуклеарная, многопоколенная, смешанная, семейное насилие, последствия насилия, индикаторы видов насилия, психологическая служба семье.*

OILALAR TASNIFI VA OILADAGI ZO‘RAVONLIK MUAMMOSI

Annotatsiya. *Oila – har qanday davlat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, xalqni saqlab qolish, xalqaro mavqeini mustahkamlash va barcha sotsiomadaniy institutlarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ushbu maqolada o‘ziga xos xususiyatlari va oilaviy munosabatlari bilan ajralib turadigan oilalarning psixologik tasnifi keltiriladi. Oilalar bilan ishlovchi mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari tahlil qilingan bo‘lib, unda salbiy munosabatlar, oilaviy zo‘ravonlik oqibatlari ochib berilgan va zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlarini aniqlovchi indikatorlar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, oilalar tasnifi, to‘liq, to‘liq bo‘lmagan, nuklear, ko‘p avlodli, aralash, oilaviy zo‘ravonlik, zo‘ravonlik oqibatlari, zo‘ravonlik turlari indikatorlari, oilaga psixologik xizmat.*

CLASSIFICATION OF FAMILIES AND THE PROBLEM OF DOMESTIC VIOLENCE

Abstract. *The family is a priority for any state that is interested in preserving its population, strengthening its international status, and developing all socio-cultural institutions. This article provides a psychological classification of families, highlighting their distinctive features and family relationships. The results of a survey conducted among specialists working with families are analyzed, revealing the consequences of negative relationships, domestic violence, and developing indicators of various types of violence.*

Keywords: *family, family classification, complete, incomplete, nuclear, multigenerational, mixed, domestic violence, consequences of violence, indicators of types of violence, psychological services for families.*

С давних времен считалось, что семья - это первичная ячейка общества, возникающая гораздо раньше классов, наций, государств и которая основана на кровном родстве или браке.

В науке нет единого взгляда на определение семьи, особенно противоречия, наблюдаются у представителей разных наук, изучающих человека и человеческое общество.

По мнению социолога А.Г.Харчева: семья - малая социальная группа, члены которой, связаны брачными или родственными отношениями, общностью быта, взаимной помощью и моральной ответственностью [2].

А.В.Мудрик же определял семью как - основанную на браке или кровном родстве малую группу, члены которой связаны общностью быта, взаимной моральной ответственностью и

взаимопомощью; где вырабатывается совокупность норм, санкций и образцов поведения, регламентирующих взаимодействие между супругами, родителями и детьми, детей между собой [2].

Однако социологи, демографы и психологи сходятся во мнении о том, что процессы глобализации могли повлиять на возникновение качественно иного статуса современной семьи и на их классификацию.

1. По признаку полноты: полные, неполные и реорганизованные (второй брак) семьи.
2. По количеству поколений: нуклеарные (родитель и ребенок) и многопоколенные семьи (два или более поколений живут вместе).
3. По количеству детей: семьи без детей, семьи с одним и двумя детьми, семьи с более детей. Эти критерии различаются в разных странах по разному. Например, семьи с 3-4 детьми в США, Франции, Германии, Греции, России и других развитых странах - это многодетные семьи. В Узбекистане эти семьи входят в число семей со средним числом детей.
4. По социальному происхождению: семья рабочих, крестьян, служащих, интеллигенции, предпринимателей и т.д.
5. По образованию супругов: среднее образование среднее специальное, семья с высшим образованием и другое.
6. По «возрасту» семьи: молодая семья (семьи с 3-5 лет и 6-10 лет жизненного опыта), семья среднего возраста, семья старшего поколения.
7. По региональному признаку: городская, сельская, смешанная семья.
8. По уровню удовлетворенности браком: семья с низким уровнем удовлетворенности браком, семья с высоким уровнем удовлетворенности браком.
9. По стилю управления семьи - авторитарная, демократическая, либеральная, семья смешанного типа.
10. По национальности: интернациональные, семьи одной национальности [4].

Самым распространенным типом современной семьи является семья, состоящая из многих поколений. В ней живут вместе родители и дети, дедушки и бабушки. Но в современном обществе дети чаще всего живут отдельно, при этом сохраняются родственные отношения со своей семьей. Так и получается «нуклеарная семья» - состоящая из мужа, жены и их детей. «Полная семья» - увеличенный по своему составу союз: супружеская пара и их дети, плюс родители других поколений, например: бабушки, дедушки, дяди, тети, живущие все вместе или в тесной близости друг от друга и составляющие структуру семьи. «Смешанная семья» является «перестроенной» семьей, образовавшейся вследствие брака разведенных людей. Смешанная семья включает неродных родителей и неродных детей, так как дети от предыдущего брака вливаются в новую единицу семьи. «Семья родителя - одиночки» является хозяйством, которое ведется одним родителем (матерью или отцом) из-за развода, ухода или смерти супруга либо потому, что брак никогда и не был заключен [4].

Каким бы ни была семья - это приоритет любого государства, которое заинтересовано в сохранении своего народа, укреплении своего международного статуса и всех социокультурных институтов. Тенденции в семье, положение, характеризующее её состояние, это и есть показатель дел в стране и ее перспектив на будущее.

В последнее время в семье происходят негативные взаимоотношения, последствия которых несомненно приводят к распаду семей, к насилию, к суициду и т.д. [5].

В рамках научного исследования нами в Узбекистане изучены последствия негативных отношений и насилия в семье – респондентами оказалисьм N=972 человек. По результатам исследования стало известно, что основным негативным последствием семейного насилия для общества является увеличение числа разводов и неполных семей. В исследовании изучены мнения сотрудников ОВД – 35,8%, специалистов органов самоуправления граждан – 33,6%, медицинских работников – 35%).

Кроме того, сотрудники ОВД, специалисты органов самоуправления граждан, медицинские работники отмечают, что последствия семейного насилия влияет на: увеличение числа детей сирот, детей, оставшихся без опеки (в домах «Милосердия») (сотрудники ОВД – 8,4%,

специалисты органов самоуправления граждан – 8,8%, медицинские работники – 15%); увеличение числа детей правонарушителей, которые попадают в Республиканские учебно-воспитательные учреждения и детскую воспитательную колонию (сотрудники ОВД –8,4%, специалисты органов самоуправления граждан – 8,1%, медицинские работники – 8%); рост количества суицидов среди женщин и девочек (сотрудники ОВД –5,8%, специалисты органов самоуправления граждан – 6,3%, медицинские работники – 9%).

В числе негативных последствий семейного насилия специалисты отмечают ряд социальных проблем: рост числа гражданских браков и внебрачных детей (5,7%); рост количества преступлений и правонарушений на бытовой почве (6,6%), миграцию женщин и девочек с целью избежать семейно-бытовое насилие (5,9%).

В исследовании также были анализированы мнения 472 семей, что 17,8% жён, 44% мужей и 40,6% свекров/свекровей не осознают в полной мере, к чему могут привести негативные ситуации, возникающие в их семьях.

Респонденты также считают, что последствия семейно-бытового насилия увеличивают риски: разводов, лишения родительских прав одного из родителей, воспитание детей одним родителем (жёны – 13,6%, мужья – 14,5%, свекры/свекрови – 9,1%); совершения мужем или женой преступлений и правонарушений на бытовой почве в ходе конфликта (жёны – 7,4%, мужья – 13%, свекры/свекрови – 9%); совершения детьми правонарушений, преступлений (кражи, побеги из дома, непосещение школы, драки, хулиганство, употребление алкоголя, табака и психотропных веществ).

Тревожным является тот факт, что насилие в семье повышает риски совершения суицидов среди женщин и девочек (5,4% и 9,1% соответственно).

Среди ответов жен также отмечаются следующие варианты: ухудшение состояния здоровья женщины, потеря трудоспособности (7,7%), вероятность отказа от повторного создания семьи после развода (7,4%), вероятность проживания в гражданском браке и рождения внебрачных детей (5,9%).

Таблица 1. Индикаторы различных видов насилия

Физическое насилие	Психологическое насилие	Сексуальное насилие	Экономическое насилие
Синяки и кровоподтеки на теле в различной степени заживания, нанесенные шнуром, ремнем, палкой и т. д.	Психосоматические жалобы, такие как головная боль, боли в животе, в области сердца и т. д.	Жалобы на боль в области половых органов, боли в животе,головная боль.	Плохое состояние здоровья жены, несоответствие веса норме - излишняя худоба, анемия
Переломы, вывихи, растяжения, черепа, носа, лица, в разных стадиях заживания	Нервные тики, заикание, нервозность, раздражительность и т.д.	Трудности при ходьбе и сидении	Психосоматические жалобы, такие как головная боль, боль в животе, колет в области сердца и т.д.
Повышенная тревожность, наличие страхов, растерянность	Излишняя боязливость, нежелание идти на контакт	Повреждение половых органов	Наличие задолженностей в магазинах за продукты питания
Депрессивность, плаксивость, эмоциональный шок	Темные круги под глазами, красные глаза от плача	Депрессия, изоляция, замкнутость	Наличие задолженностей за коммунальные услуги
Боязнь мужа	Бессонница, ночные приступы страха, навязчивые идеи	Опухоли, синяки, раздражение, гематомы на теле, кровотечение	Плохой сон, ночные приступы страха

В таблице-1 приведен анализ ответов специалистов: сотрудников ОВД, специалистов органов самоуправления граждан и медицинских работников позволил определить, наличия фактов насилия в семье, соответственно значимых индикаторов различных видов насилия,

Вместе с тем для сотрудников ОВД и медицинских работников значимыми показателями экономического насилия являются повышенная тревожность, взволнованность, стресс предполагаемой жертвы; плохое состояние здоровья детей, несоответствие веса норме (излишняя худоба, анемия); отсутствие новой одежды, сезонной, старые ветхие вещи у членов семьи (жена и дети); непосещение детьми образовательных учреждений в результате неудовлетворения их потребностей в школьных принадлежностях, одежде [1].

Таким образом, анализ ответов специалистов и семей относительно последствий семейно-бытового насилия показал, что необходимо проведение психологической помощи семьям в виде психологических консультаций, психологической коррекции, психологической профилактики различных форм семейного насилия, регулярного проведения разъяснительных работ по вопросам семьи и семейных отношений. Также необходимо формировать у каждого члена семьи ответственность и отношение за создания благоприятного психологического климата в семье [3].

Литература:

1. Акрамова Ф.А. Основные проблемы проведения психологической службы семьям // ТДПУ илмий ахборотлари 2021. № 2, Б. 89-93.

Варга А. Домашнее насилие. // «Трудные взрослые – трудные дети». О домашнем насилии и подростковых правонарушениях. – Москва: Издательский дом «Самокат», 2014. Стр.82-83.

2. Дружинина В.Н. Психология семьи. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2006. 176 с.

3. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - М.: Гардарики, 2008. - 320 с.

5. Психология семейных отношений: конспект лекций //Сост. С.А.Великова. – М.: АСТ; - СПб.: Сова, 2005. – 127 с.

6. Русланова Р.И., Милюхин К.В. Насилие в семье. Учебное пособие. М. 2010. С.46.

Ostanov Shuxrat Sharifovich
Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLARDA KREAKTIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada deviant xulq-atvorga ega bo'lgan o'smirlar orasida kreativlikni rivojlantirishning psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit va psixologik to'siqlar kabi kreativ fikrlashni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Kreativlik deviant xulq-atvorni tuzatishda vosita bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi, bu esa ijobiy ijtimoiy ko'nikmalar va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'smirlarning ijodiy potensialini ochish uchun shart-sharoitlar yaratishda pedagoglar va psixologlarning roli alohida e'tiborga olinadi.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, o'smirlar, deviant xulq-atvor, ijodiy fikrlash, psixologik jihatlar, ijtimoiylashuv, xulq-atvorni tuzatish*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические аспекты развития креативности у подростков с девиантным поведением. Анализируются основные факторы, влияющие на развитие творческого мышления, включая индивидуальные особенности личности, социальное окружение и психологические барьеры. Подчеркивается, что креативность может стать инструментом для коррекции девиантного поведения, способствуя развитию положительных социальных навыков и эмоциональной устойчивости. Отдельное внимание уделяется роли педагогов и психологов в создании условий для раскрытия творческого потенциала подростков.*

Ключевые слова: *креативность, подростки, девиантное поведение, творческое мышление, психологические аспекты, социализация, коррекция поведения.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Annotation. *The article examines the psychological aspects of developing creativity in adolescents with deviant behavior. It analyzes key factors influencing creative thinking, including individual personality traits, social environment, and psychological barriers. The study emphasizes that creativity can be a tool for correcting deviant behavior, fostering the development of positive social skills and emotional resilience. Special attention is given to the role of educators and psychologists in creating conditions for unlocking the creative potential of adolescents.*

Keywords. *creativity, adolescents, deviant behavior, creative thinking, psychological aspects, socialization, behavior correction.*

Kirish. Ijodkorlik insonning asosiy qobiliyatlaridan biri sifatida murakkab va ko‘p qirrali psixologik hodisani tashkil etadi. U shaxsning yangi va orginal g‘oyalarni yaratish, noodatiy yyechimlarni topish hamda bilimlarini odatiy bo‘lmagan vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini belgilaydi. Ijodiy fikrlashni aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’lim va tarbiyaning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Ko‘plab tadqiqotlarda ijodiy fikrlashning psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratiladi, ammo shaxsning me’yoriy rivojlanishi bilan bog‘liq jihatlar ustunlik qiladi. Biroq, deviant xulq-atvorli

o‘smirlar orasida ijodkorlik masalasi kam o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda chuqur va maxsus tahlilga ehtiyoj seziladi.

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining tanqidiy bosqichi bo‘lib, bu davrda ichki ehtiyojlar, ijtimoiy kutishlar va xulq-atvor qoidalari o‘rtasidagi ziddiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ba’zi o‘smirlar bu davrni nisbatan oson yengib o‘tsa, boshqalarda umumqabul qilingan me’yor va qoidalarga zid turli xil deviant xulq-atvor shakllari paydo bo‘ladi.

Mazkur toifadagi o‘smirlar ijodkorligini rivojlantirishning psixologik jihatlari ularning ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantirish va shaxsiy salohiyatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu mavzu ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu izlanishlar samarali tarbiyaviy va ijtimoiy ish usullarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ijodkorligini rivojlantirishning psixologik jihatlarini tahlil qilish:

Deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlar orasida ijodkorlikni rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb va murakkab mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni rivojlantirish har tomonlama tahlilni talab qiladi, chunki deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ko‘pincha psixologik, ijtimoiy va shaxsiy to‘siqlar bilan duch kelib, o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda qiyinchiliklarga uchraydi.

Ijodkorlik – bu yangi va original g‘oyalarni yaratish, noan’anaviy yyechimlarni topish qobiliyati bo‘lib, Guilford (1950) va Amabile (1983) kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ijodkorlikning o‘smirlik davridagi ahamiyati nafaqat shaxsiy rivojlanish jarayonidagi roli, balki deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga ta’siri bilan ham belgilanadi.

Psixologik omillar nuqtai nazaridan, ijodkorlikning rivojlanishi kognitiv jarayonlar, hissiyotni boshqarish va motivatsiya bilan bog‘liq. Masalan, Runco (2004) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlikning yuqori darajasi fikrlash moslashuvchanligi va divergent fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq. Ammo deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar, odatda, ushbu sohalarda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa salbiy hissiy fon, past o‘zini-o‘zi baholash va ijtimoiy ko‘nikmalarning yetishmasligi bilan izohlanadi (Bandura, 1977).

Ijodkorlikni rivojlantirishda ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Deci va Ryan (1985) tadqiqotlari shuni ta’kidlaydiki, o‘zini o‘zi boshqarish va tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydigan muhit ichki motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ammo deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ko‘pincha tanqid, qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va salbiy kutilmalar bilan tavsiflangan muhitda yashaydilar, bu esa ularning ijodiy salohiyatini bostiradi. Masalan, Martin va Greene (2020) o‘qituvchilar va tengdoshlar tomonidan stigmatizatsiya o‘smirlarning ijodiy tashabbuslarda ishtirok etish istagini kamaytirishini ta’kidlashadi.

Adabiyotlarda deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar bilan ishlashda art-terapiya va boshqa ijodiy usullarning roli alohida ta’kidlangan. Kramer (2000) tadqiqotida aytilishicha, badiiy amaliyotlardan foydalanish o‘smirlarning hissiyotlarini ifodalash, o‘z-o‘zini boshqarishni yaxshilash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish imkonini beradi. Nelson va McCarthy (2008) tadqiqotida bu yondashuvlar orqali o‘smirlar uchun xavfsiz muhit yaratilishi, bu esa ular o‘zini erkin ifodalashi va yangi narsalarni sinab ko‘rishiga imkon berishi ta’kidlangan.

Terapevtik usullardan tashqari, deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ijodkorligini rag‘batlantirishga qaratilgan ta’lim strategiyalari ham muhokama qilinadi. Torrance (1966) tadqiqotlari kognitiv muammolarni hal qilish, guruhda ishlash va loyihaviy metodlarni qo‘llash orqali ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish zarurligiga e’tibor qaratadi. Biroq, Hansen (2013) fikriga ko‘ra, bunday yondashuvlar yuqori darajadagi o‘qituvchi malakasini va ta’lim muassasalarining tizimli qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi.

Tadqiqotlarning qiziqarli yo‘nalishlaridan biri bu ijodkorlik va xavf-xatarli xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Masalan, Lubart (1994) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarga xos xavfga moyillik ularning ijodiy salohiyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo o‘zini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi bu qobiliyatlarning konstruktiv ishlatilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarda ijodkorlikni rivojlantirish kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Muvaffaqiyatli intervensiyalar o‘smirlarning individual xususiyatlarini hisobga olib, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi va ijodiy salohiyatni ochishga qaratilgan usullardan foydalanishi zarur. Amabile, Torrance va boshqa olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlikni rivojlantirish deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy o‘sishini yaxshilash uchun muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Muhokama.

Deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlarda ijodkorlikni rivojlantirish psixologiyaning murakkab va ko‘p qirrali hodisasi bo‘lib, u chuqur tahlil va fanlararo yondashuvni talab qiladi. O‘smirlarning deviant xulq-atvori odatda umumqabul qilingan normalardan chetga chiqish sifatida tavsiflanadi va u tajovuzkorlik, antisotsial harakatlar, psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish yoki ijtimoiy moslashuvdagi boshqa buzilishlar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Ammo bunday o‘smirlarning ichki dunyosida ko‘pincha ulkan ijodiy salohiyat yashiringan bo‘ladi, va to‘g‘ri yordam bilan bu salohiyat konstruktiv o‘zini namoyon etish shakllariga yo‘naltirilishi mumkin.

Ijodkorlik psixologik hodisa sifatida yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarni orginal tarzda hal qilish va stereotipli tafakkur doirasidan tashqariga chiqish qobiliyati bilan belgilanadi. Deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlar uchun ijodkorlikni rivojlantirish ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi uchun asosiy omilga aylanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy qobiliyatlar ko‘pincha mustaqil fikrlash, xavf-xatarga moyillik, yuqori sezgirlik va yangi tajribalarga ochiqlik kabi shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq. Deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarda bu xususiyatlar odatda juda yorqin ifodalangan bo‘ladi, bu esa ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, agar ularga mos psixologik yordam ko‘rsatilsa.

Bunday o‘smirlar bilan ishlashning asosiy jihatlaridan biri ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga ko‘maklashuvchi sharoitlarni yaratishdir. Eng avvalo, bu hukm qilish va salbiy stereotiplardan xoli xavfsiz muhitni tashkil etishni talab qiladi. Deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlar ko‘pincha marginalizatsiya va stigmatizatsiyaga uchraydilar, bu esa ularning ijtimoiy ajralishini kuchaytiradi va ijobiy o‘zini ifodalash shakllarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ular o‘z qiziqishlarini o‘rganish, turli faoliyat turlarida o‘zini sinab ko‘rish va atrofdagilar bilan konstruktiv muloqot qilish usullarini topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Psixologning bu jarayondagi roli nihoyatda muhimdir. Eng samarali strategiyalardan biri art-terapiya usullaridan foydalanishdir. Unga rasm chizish, musiqa, teatr sahnalashtirish va boshqa badiiy faoliyat turlari kiradi. Ushbu usullar o‘smirlar uchun o‘z hissiyotlarini ifodalash, ichki nizolarni yengish va energiyasini ijobiy oqimga yo‘naltirish imkonini beradi. Bundan tashqari, art-terapiya empatiya, o‘z-o‘zini anglash va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy moslashuvning muhim elementi hisoblanadi.

Shuningdek, divergent fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv katta ahamiyatga ega. Noodatiy yyechimlarni izlash, "aqliy hujum" usullari va tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar o‘smirlarning kognitiv doiralarini kengaytirishga va o‘z kuchlariga ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar o‘yin va interaktiv shaklda tashkil etilishi muhimdir, chunki deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ko‘pincha formal va buyruqboz ta’lim usullariga salbiy munosabatda bo‘ladilar.

Shu bilan birga, har bir o‘smirning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Psixologlar ijodkorlik darajasi, shaxsiy xususiyatlar va motivatsion sohani diagnostika qilish orqali har bir bola uchun moslashtirilgan rivojlantirish va tuzatish dasturlarini ishlab chiqadilar. Masalan, yuqori tajovuzkorlik darajasiga ega o‘smirlar uchun salbiy hissiyotlarni ijodiy energiyaga aylantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, masalan, sport raqslari yoki performans san’ati foydali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, introvert xarakterga ega o‘smirlar uchun kichik guruhlarda ishlash, ularda o‘z salohiyatini bosqichma-bosqich ochish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash joizki, deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlarda ijodkorlikni rivojlantirish faqat kompleks yondashuv orqali muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Bu jarayon ota-onalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy ishchilar bilan hamkorlikni, shuningdek, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olishni

talab qiladi. Masalan, jamoat loyihalarida, ko‘ngillilik faoliyatida yoki ijodiy tanlovlarda ishtirok etish o‘smirlarning ijtimoiy integratsiyasiga va o‘z-o‘zini baholashini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa.

Deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarda ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik jihatlari shaxsiy va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali mavzu hisoblanadi. Ushbu kontekstda ijodkorlik nostandart fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida qaraladi, bu esa deviant xulq-atvor shakllarini tuzatish va konstruktiv ijtimoiylashuv uchun muhim resurs bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Deviant xulq-atvorga ega o‘smirlar ko‘pincha o‘z hissiyotlarini ifodalash, atrofdagilar bilan muloqot qilish va moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ammo aynan ijodkorlik ular uchun o‘zini ifodalashning alternativ usullarini topishga imkon beruvchi vosita bo‘lishi mumkin, bu esa shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan dasturlar (masalan, art-terapiya va ijodiy ustaxonalar) o‘smirlarda tajovuzkorlik va tashvish darajasini kamaytirishga hamda o‘z-o‘zini baholashni oshirishga yordam beradi.

Ushbu jarayonda kattalarning – o‘qituvchilar, psixologlar va ota-onalarning ko‘magi juda muhim rol o‘ynaydi. Empatiya, xavfsiz muhit yaratish va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish orqali o‘smirlar o‘z salohiyatlarini ochib bera oladilar. Shu tariqa, ijodkorlikni rivojlantirish o‘smirlarda deviant xulq-atvorni oldini olish va uni tuzatish strategiyasining muhim qismi bo‘lishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Аверин, В. А. (2006). Психология подростка. Санкт-Петербург: Речь. 368 с.
2. Выготский, Л. С. (1983). Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика. 94 с.
3. Захаров, В. П., и Еникеев, М. И. (2013). Девиантное поведение: социологический и психологический аспекты. Москва: Юрайт. 256 с.
4. Личко, А. Е. (2011). Психопатии и акцентуации характера у подростков. Санкт-Петербург: Речь. 512 с.
5. Мудрик, А. В. (2007). Социальная педагогика. Москва: Академия. 336 с.
6. Панов, В. И. (2007). Экологическая психология: подростковая среда и личностное развитие. Москва: Смысл. 310 с.
7. Рогов, Е. И. (2010). Психология девиантного поведения. Москва: ВЛАДОС. 320 с.
8. Торренс, Э. П. (2006). Тесты творческого мышления: руководство и интерпретация. Москва: ИОП РАН. 140 с.
9. Фельдштейн, Д. И. (1995). Психология развития личности в онтогенезе. Москва: Наука. 432 с.
10. Эльконин, Д. Б. (1989). Психология игры. Москва: Педагогика. 304 с.

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
Samarqand davlat universiteti professori
psixologiya fanlari doktori,
Hazratqulov Sardor Furqat o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

PROFESSIONAL BASKETBOLCHILAR FAOLIYATIDA O‘ZINI-O‘ZI NAZORAT QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada professional basketbolchilarni faoliyatida o‘z-o‘zini nazorat qilishning psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, professional basketbolchilarning sport faoliyati jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish holatlari emperik jihatdan o‘rganilib, tadqiqot natijalari asosida izohlangan.*

Kalit so‘z. *Professional basketbolchilar, sport faoliyati, xulq-atvorni va o‘z-o‘zini nazorat qilish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМОРЕГУЛЯЦИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ

Аннотация. *В стате рассматриваются психологические особенности самоконтроля в деятелности профессионалных баскетболистов. На основе результатов исследования эмпирически изучается и объясняется самоконтрол профессионалных баскетболистов в протсессе спортивной деятелности.*

Ключевое слово. *Профессионалные баскетболисты, спортивные результаты, поведение и самоконтрол.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SELF-CONTROL IN THE ACTIVITY OF PROFESSIONAL BASKETBALL PLAYERS

Abstract. *The article examines the psychological characteristics of self-control in the activities of professional basketball players. Based on the results of the study, self-control of professional basketball players in the process of sports activities is empirically studied and explained.*

Keyword. *Professional basketball players, sports performance, behavior and self-control.*

O‘zini-o‘zi nazorat qilish harakatlarda xulq-atvorni va o‘zini-o‘zi boshqarish hamda turli vaziyatlarda o‘zini-o‘zi tartibga solishning shakllaridan biri hisoblanadi. Uning muhimligini mazkur muammo bo‘yicha ikkita monografiya muallifi hisoblangan G.S.Nikiforov alohida ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, u o‘zini-o‘zi nazorat qilish ong va o‘zini-o‘zi aglashning majburiy belgisi hisoblanadi hamda insonning o‘z ichki dunyosi bilan uni o‘rab turgan ob’ektiv voqelikni psixik aks ettirishning adekvat sharti sifatida yuzaga chiqadi deb aytadi. G.S.Nikiforov o‘zini-o‘zi nazorat qilishni o‘zini-o‘zi boshqarish va o‘zini-o‘zi tartibga solish jarayonining ajralmas (integral) komponenti sifatida ko‘radi.

O‘z davrining buyuk allomasi sanalgan Arestotel ham o‘zini-o‘zi nazorat qilish masalasida fikr bildirib ketgan, biroq o‘zini-o‘zi boshqarish mavzusini ilmiy jihatlarini o‘rganish XIX-XX asrlar oralig‘ida boshlangan. Bu borada Ch.Bellning (Bell,1826) ishida ham fikr bildirilgan bo‘lib, jumladan, unda harakatni nazorat qilishda teskari aloqa sifatida priorepsiya ustuvorligi haqida savol qo‘yilgan. Keyinchalik mazkur g‘oya I.M.Sechenov tomonidan ham bildirilgan edi. Biroq, bu yondoshuvlar ixtiyoriy boshqaruv prinsipi sifatida o‘zini-o‘zi nazorat qilish emas, balki, harakatni boshqarish va nazorat qilish bo‘lgan tor masalaga tegishli bo‘lgan.

Psixologik nuqtai nazardan ushbu muammo bilan shug‘ullanganlardan biri Z.Freyd bo‘ldi (Freyd, 1922). Freyd insonning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini tushuntirishda psixika tarkibida xatti-harakatlarni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qiluvchi ichki

tuyg‘u mavjudligini taxmin qiladi. Freyd o‘zini-o‘zi nazorat qilishni o‘z «Men» ini saqlab qolish instinkti sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra “Men” ni rivojlanishi avtomatik tarzda o‘zini-o‘zi nazorat qilishni kuchayishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, biz professional basketbolchilar faoliyatida ularning o‘zini-o‘zi nazorat qilish xususiyatlarini o‘rganishga harakat qildik. Buning uchun biz G.S.Nikiforov, V.R.Vasilev va S.V.Firsovlar tomonidan ishlab chiqilgan «Hissiy sohada, faoliyatda va xatti-harakatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ifodalanishini aniqlash so‘rovnomasi»dan foydalandik. Ushbu so‘rovnoma insonning hissiy, xulq-atvor va ijtimoiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilishga bo‘lgan moyillikni aniqlashga mo‘ljallangan. Metodika asosida bir tomondan, subyektning psixik jarayonlarini tafovuti bilan faolligi o‘rtasidagi funksiyalarning muvofiqligini o‘rnatish bo‘yicha o‘zini-o‘zi nazorat qilish to‘g‘risidagi tushuncha yotgan bo‘lsa, ikkinchidan, subyektga o‘zi tomonidan yoki boshqa odamlar (referent guruh) tomonidan da’vo etilayotgan talab va normalar yotadi. Irodaviy tartibga solish bilan o‘zini-o‘zi nazorat qilishning o‘zaro aloqasi murakkab va noaniq xarakterga ega bo‘ladi. O‘zini-o‘zi nazorat qilish jarayonida inson individual moyilligi va vaziyat xususiyatidan kelib chiqib, bir qancha iroda kuchini ko‘rsatishi mumkin. O‘zini-o‘zi nazorat qilish ijtimoiy ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishning majburiy asosi bo‘lib, ular birinchi navbatda o‘zaro ta’sir jarayonida namoyon bo‘ladi. Subyektning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan uning o‘zini-o‘zi nazorat qilish usuli va texnik repertuari kengayib boradi xamda o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida ulardan keng va oqilona foydalanishga harakat qiladi.

Mazkur so‘rovnoma matni 36 ta tasdiqlardan iborat bo‘lib, har bir tasdiqda 3 ta javob varianti mavjud. So‘rovnoma uchta subshkaladan tashkil topgan va har bir subshkala 12 ta mulohazadan iborat. Birinchi subshkala - hissiy o‘zini-o‘zi nazorat qilish, ikkinchisi - faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish va uchinchisi - ijtimoiy o‘zini-o‘zi nazorat qilish. O‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasi har bir subshkala uchun alohida va butun so‘rovnoma uchun umumiy ball bilan belgilanadi.

Biz tadqiqotimizda professional basketbolchilar faoliyati jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ifodalanishini aniqlashni vazifa sifatida belgilab olgan edik, biz tadqiqot ishimiz natijalari quyidagi 1-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

1.Hissiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilish. Mazkur shkala insonning faoliyat jarayonida va muloqotda namoyon bo‘ladigan hissiy holatini va xatti-harakatini nazorat qilishga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

Professional basketbolchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari har uchala jamoada ham o‘rtadan yuqori ko‘rsatkichni namoyon qilmoqda (Toshkentning «AGMK» - 26,8261; Jizzaxning - «Ziyokor» 26,2273; Navoiyning «So‘g‘diyona» - 25,6364). Mazkur shkala bo‘yicha professional basketbolchilarning tadqiqot natijalari foiz hisobida 77 % ni tashkil qiladi.

1-jadval

Professional basketbolchilarning «hissiy sohada, faoliyatda va xatti-harakatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ifodalanishini aniqlash» so‘rovnomasi tadqiqot natijalari (ANOVA)

Shkala	Jamoalar	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	F	p
Hissiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilish	Toshkent (AGMK)	23	26,8261	1,49703	3,739	,029*
	Jizzax (Ziyokor)	22	26,2273	,97257		
	Navoiy (So‘g‘diyona)	22	25,6364	1,78740		
Faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish	Toshkent (AGMK)	23	27,8261	1,87452	1,569	,216
	Jizzax (Ziyokor)	22	27,1818	1,09702		
	Navoiy (So‘g‘diyona)	22	27,1918	1,09702		
Ijtimoiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilish	Toshkent (AGMK)	23	29,8261	3,22846	1,230	,299
	Jizzax (Ziyokor)	22	28,9545	1,86387		
	Navoiy (So‘g‘diyona)	22	28,5000	3,32021		

Izoh: *-r≤ 0,05

Professional basketbolchilarning hissiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilishi ularning sport faoliyatida, musobaqa jarayonida yuzaga keladigan turli darajadagi vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishi, hissiyotga berilmaslik, o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, jamoadoshlarining o‘yin va musobaqa jarayonida yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklariga nisbatan tolerant munosabat, raqiblarining qo‘pol harakatlariga qarshi javob berishdan o‘zini tutishi kabi xislatlarda namoyon bo‘lganini ta’kidlab o‘tish lozim. Professional basketbolchilarda hissiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ushbu darajasi musobaqa jarayonini samarali o‘tkazishda hamda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, ularning musobaqa reglamentida qisqa muddat ichida bir nechta turlarni o‘tkazilishi nazarda tutilgan va bu jarayonda o‘z hissiyotlarini boshqara oladigan va nazorat qilish darajasi yaxshi shakllangan basketbol jamoasi yangi natijalarni qo‘lga kiritadilar, buni professional basketbolchilar ham ular bilan o‘tkazilgan suhbat jarayonida alohida ta’kidlab o‘tdilar.

2. Faoliyatda o‘zini-o‘zi boshqarish. Ushbu shkala odamning prognoz qilish, rejalashtirish, amalga oshirishni nazorat qilish va natijalarni baholash bosqichlarini o‘z ichida olgan turli faoliyat turlarini amalga oshirish jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilishga moyilligini baholashga qaratilgan.

Faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish shkalasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari Toshkentning «AGMK» basketbol jamoasida – 27,8261 ball; Jizzaxning «Ziyokor» basketbol jamoasida – 27,1818 ballni; Navoiyning «So‘g‘diyona» basketbol jamaosida esa – 27,1918 ballni ko‘rsatmoqda, umuman olganda har uchala professional basketbolchilarning natijalari o‘rtadan yuqori ballni, foiz hisobida esa 76% ko‘rsatkichni tashkil qilmoqda.

Professional basketbolchilarning faoliyat jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilishi o‘quv mashg‘ulotlari hamda musobaqa jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, basketbol mashg‘ulotlarida bo‘lajak musobaqaga tayyorlanishda o‘yin taktikasini prognoz qilish, o‘yin strategiyasini rejalashtirish, uning stretegiyasini ishlab chiqish, musobaqa yakunini prognoz qilish hamda o‘zlarining harakatlarini baholashda, shuningdek, musobaqa jarayonida o‘z xatti-harakatlarini samarali tashkil qilishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, professional basketbolchilarda o‘z faoliyatlarini nazorat qilishlari musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishda faoliyatlaridagi xato va kamchiliklarni aniqlashtirish, musobaqa jarayonida hamda musobaqa yakunidan so‘ng o‘z harakatlarini tahlil qilishga moyilliklari bilan izohlanadi. Ushbu holat professional basketbolchilarninig musobaqaga tayyorgarlik ko‘rish mashg‘ulotlari, musobaqa jarayonida hamda musobaqadan keyingi jarayonlarni kuzatish vaqtida va ular bilan o‘tkazilgan suhbat natijalarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

3. Ijtimoiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilish. Ushbu shkala odamning shaxslararo va guruhlararo o‘zaro harakatlar hamda komunikativ muloqot jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, shuningdek, hamkorlik qilishga moyillik holatini baholashga va aniqlashga qaratilgan.

Professional basketbolchilarda mazkur shkala bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari ham metodika ko‘rsatkichi negizida o‘rtadan yuqori darajani ko‘rsatmoqda (Toshkentning «AGMK» basketbolchilarida-29,8261 ball; Jizzaxning «Ziyokor» basketbol jamosida – 28,9545 ball; Navoiyning «So‘g‘diyona» jamoasida esa – 28,5000 ballni, umumiy foiz hisobida 79% ni tashkil etdi. Ijtimoiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilish shkalasi bo‘yicha olingan natijalar asosida aytish mumkinki, professional basketbolchilar sport mashg‘ulotlari hamda musobaqa jarayonlarida o‘z xatti-harakatlarini, bildiradigan fikr-mulohazalarini, xulq-atvorini, o‘zini tutishini, xattoki, kiyinish normalarida, umuman olganda nafaqat sport faoliyati jarayonida, shuningdek, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilishga harakat qilishlarida namoyon bo‘ldi. Professional basketbolchilarning ijtimoiy sohada o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ushbu darajasi ularning jamoadagi o‘zaro munosabatlarida, musobaqa va sport mashg‘ulotlarida o‘zaro hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro hurmat, jamoaning ichki tartib qoidalarini bajarish hamda murabbiy ko‘rsatmalariga rioya qilish, unga bo‘lgan hurmat, jamoada o‘z mavqesi negizida harakat qilishlaridan dalolat beradi. Professional basketbolchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi (hissiy sohada, faoliyatda hamda ijtimoiy sohada) samarasi ularning oliy liga musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtiroklarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Bu holatni professional basketbolchilar ham ular bilan o‘tkazilgan suhbatlarda tasdiqladilar. Tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, professional basketbolchilarning irodaviy sifatlarini yuzaga chiqishida ular o‘zini-o‘zi nazorat qilish asnosida hissiy o‘zini-o‘zi nazorat

qilish, faoliyatda o‘zini-o‘zi nazorat qilish hamda ijtimoiy o‘zini-o‘zi nazorat qilishning ifodalanishi professional basketbolchilarning sport faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Demak, aytishimiz mumkinki, sport faoliyati professional basketbolchilarning nafaqat irodaviy sifatlarini, shuningdek, ularning shaxs sifatlarini ham shakllanishida ahamiyati yuqori ekan.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1.Ivannikov V. A. Psixologiya volya. Uchebnik / V.A. Ivannikov. - L.: , 2015. – 223 c.

2.Ivannikov, V. A. Mesto ponyatiya «volya» v sovremennoy psixologii [Tekst] / V. A. Ivannikov, D. D. Barabanov, A. V. Monroz, V. N. Shlyapnikov, Ye. V. Eydman // Voprosы psixologii. – 2014. - № 2. – S. 15–23.

3. Kul Yu. Die Handlungskotrollskala: Handlungs- vs. Lageorientirung. Neopublikovannaya anketa. Rurskiy universitet, Boxum, Zapadnaya Germaniya, 1979.

4.Morosanova V.I. Oprosnik «Stil samoregulyatsii povedeniya»/ V. I. Morosanova// Jurnal prakticheskoy psixologii i samoanaliza.- 2004. - №2. - S.32 - 40.

5.Selivanov V.I. Osnovnыe podxodы k psixologicheskomu issledovaniyu volevoy aktivnosti lichnosti / V.I. Selivanova // Eksperimentalnыe issledovaniya volevoy aktivnosti. - Ryazan, 1996. – S.23.

6.Shapkin S.A. Eksperimentalnoe izuchenie volevыx protsessov // M.: Smыsl, 2008. – 144 s.

Abdullayev Baxodirjon Maxamadjonovich
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILAR HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA- SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotasiya. *Ushbu maqolada kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga doir ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta'lim, huquqiy me'yorlar, o‘quvchi, madaniyat, ko‘nikma, texnologiya, fuqaro, kar va zaif eshituvchi bola, tajriba-sinov, bosqich, metodik model, boshlang‘ich sinf*

METHODOLOGY OF ORGANIZING EXPERIMENTAL WORKS ON FORMING THE LEGAL CULTURE OF DEAF AND HARD OF HEARING STUDENTS

Abstract. *This article provides information on the organization of experimental work on the formation of legal culture of deaf and hard-of-hearing students.*

Key words: *education, legal standards, student, culture, skills, technology, citizen, deaf and hard of hearing child, experiment-test, stage, methodical model, primary class*

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ГЛУХИХ И СЛАБОГО СЛЫША СТУДЕНТОВ

Абстрактный. *В данной статье представлена информация об организации экспериментальной работы по формированию правовой культуры глухих и слабослышащих студентов.*

Ключевые слова: *образование, правовые нормы, учащийся, культура, навыки, технология, гражданин, глухой и слабослышащий ребенок, эксперимент-проверка, этап, методическая модель, начальный класс.*

Kirish. Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha miliy va xorijiy tajribalar hamda adabiyotlarni o‘rganish asosida “Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning metodik modeli”ni tuzish va amaliyotga joriy etish hamda uning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha 3 bosqichda tajriba – sinov ishlari olib borildi.

Tajribalar. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha pedagogik tajriba uch bosqichda: **aniqlash, shakllantirish, natijalarni** tahlil qilish.

1-bosqich-aniqlash. Ushbu bosqichda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga oid mazmun, metodik ishlar o‘rganildi. Bundan tashqari bu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat mazmunida huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid yondashuvlarning aks etgani ham alohida tahlil etildi.[1] Shuningdek, o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlashning innovasion ish shakllarining qo‘llanilishi, o‘quvchilar huquqiy tarbiyasida oilalarning ishtiroki va harakatlari ham o‘rganildi. Mazkur bosqichda ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va tarbiyachilari uchun anketa so‘rovlari ishlab chiqildi. Anketa so‘rovnomalar mazmuni asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi, o‘ziga xosligi, o‘quvchilar bilan ishlashda qaysi ish turlarini qo‘llash samara berishi, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini o‘rganishga qaratildi. Anketa so‘rovnomalarning mazmunida ota-onalar bilan ishlashda qanday to‘siqlar mavjudligini o‘rganishga ham oid savollar berildi.[2] Pedagogik eksperimentning dastlabki, ya'ni aniqlash bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy tushuncha va atamalar haqida bilishi va axloqiy hamda huquqiy

me'yorlarga rioya etishga tayyorlik darajalari aniqlandi. Bunda o‘quvchilarning muammo doirasidagi bilim va ko‘nikma darajalari hamda madaniyatni namoyon etish imkoniyatlarini baholashda “Bajardi”, “Qisman bajardi”, “Xato bajardi”, “Bajarmadi” mezonlari belgilab olindi (1.3-paragrafda keltirildi).

Aniqlash bosqichida o‘qituvchi, tarbiyachi, ota-onalar va o‘quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishning metodik modelini joriy etish zaruratini ko‘rsatdi. [2]

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichi shakllantirish bosqichi bo‘lib, unda ta'limiy tajriba-sinov ishlarining mazmuni ishlab chiqildi. Dastlab o‘qituvchi, tarbiyachi va ota-onalar uchun “Huquqiy madaniyat ijtimoiylashuv omili” mavzusida seminar-trening dasturi va mazmuni ishlab chiqildi. Ushbu seminar davomida o‘qituvchi, tarbiyachi va ota-onalarning kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari huquqiy madaniyatini tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida intensiv shakllantirish erishildi. Ushbu bosqichda huquqiy madaniyatni shakllantirishda samarali qo‘llaniluvchi yondashuvlar aniqlandi. Buning uchun dastlab “Huquqiy madaniyatli o‘quvchi portreti” tuzildi. Portret o‘quvchining huquqiy savodxonligi va axloqiy sifatlarini o‘zida mujassam etdi. Ushbu portret doirasida metodik ishlarni rejalashtirish bo‘yicha o‘qituvchi va tarbiyachilarga metodik tavsiyalar berildi. O‘qituvchi va tarbiyachilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid maxsus kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga mo‘ljallangan metodik ishlar amalga oshirilmaganligi sababli, amaliyotchilarda kar va zaif eshituvchi bolalarga qaysi huquqiy tushuncha va atamalarni o‘rgatish lozim va ularga huquqiy hatti-harakatlarning turli modellarini qanday o‘rgatish kerak?- degan savollar yuzaga kelgan. Shuning uchun bizning tadqiqotimizda o‘qituvchi, tarbiyachi va ota-onalarni o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan didaktik topshiriqlar va hayotiy vaziyatlar modellarini tayyorlashga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratildi. Bunda huquqiy madaniyat elementlariga oid topshiriqlarni tayyorlashda konsentrik yondashuvga ustuvorlik berildi. Konsentrik yondashuvda dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi huquqiy madaniyatga oid mazmunlarning integrasiyasi ta'minlanadi. [3]

O‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-metodik, pedagogik-psixologik aspektlarini tadqiq etish va amaliyotga tavsiyalar joriy etish muammosining hal etilishida asosan, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar tomonidan huquqiy tushuncha va atamalarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi va ijobiy huquqiy hamda axloqiy hatti-harakatlar modellarining egallanishini ta'minlashga o‘qituvchilarni tayyorlash tadqiqotimizning ilmiy konsepsiyasini tashkil etdi.

O‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishga tayyorligi quyidagi kasbiy-metodik harakatlar tizimidan tashkil topadi:

kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar uchun nutqiy va aqliy rivojlanish darajasiga mos va xos bo‘lgan topshiriqlarni hamkorlikda tayyorlash va adaptiv taqdim etish;

mazkur topshiriqlarning o‘quvchilar tomonidan dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida bajarilishini ta'minlovchi usullarni tanlash va qo‘llash;

o‘quvchilarning axloqiy va huquqiy madaniyatga doir akademik-amaliy faoliyatini nazorat qilish va baholash. [4]

Ko‘rinib turibdiki, ta'limiy tadqiqotimizda huquqiy madaniyatga doir hatti-harakatlar modellarini tayyorlashga o‘qituvchi, tarbiyachilarni tayyorlash tadqiqotimizning ilmiy-metodik asosini tashkil etdi.

Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichida rejalashtirilgan ishlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga korreksion-pedagogik jarayonda o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarga va manfaatlar to‘qnashuvi jarayonlariga tayyorlashning metodik, tashkiliy-pedagogik, psixologik yondashuvlarini o‘rgatish modelini takomillashtirgan holda amaliyotga joriy etish maqsadini ko‘zladi.[5]

Maqsadni amalga oshirish:

Mazkur maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan qulay,

optimal va differensial o‘qitish shakllari, adaptiv usullari va didaktik vositalari belgilandi;

2) dars va mashg‘ulotlarning ilmiy-uslubiy ta'minoti takomillashtirildi, ya'ni taqdimotlar, roliklar, rasmli testlar, ishchi matnlar amalda qo‘lanildi. Anketa savollari asosida pedagoglarning o‘quvchilarda huquqiy madaniyatga oid sifatlarni tarkib toptirish bo‘yicha faoliyati o‘rganildi. Ma'lumki, boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar uchun maxsus darsliklar chop etiladi. Ya'ni bu davrda sog‘lom bolalar uchun chiqarilgan darsliklardan emas, balki korreksion-kompensasion tamoyillar inobatga olingan, o‘quvchilarning nutqiy, aqliy va ruhiy imkoniyatlari uchun mos maxsus ishlab chiqilgan darsliklar qo‘llaniladi. Faqat Tarbiya darslarida umumta'lim maktablari uchun chiqarilgan darslik qo‘llaniladi. Shuning uchun pedagoglarning o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid faoliyati tahlil qilinganda aynan maxsus darsliklar bilan bog‘liq muammolar ham aniqlandi. Ular quyidagilar:

Imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning 1-sinf “Nutq o‘stirish” darsligini o‘rganganimizda huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid darslikning 1- dars O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni, 2-sinf Nutq o‘stirish darsligini 52-sahifasida “Konstitusiya kuni” va 73-sahifa “Qoidabuzarlar”, 3-sinf Nutq o‘stirish darsligini 24 - 25-sahifalarida “Svetafor” va “Yo‘l belgilari”, 44-46-sahifalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi hamda 55-sahifasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi” matnlarida huquqiy savodxonlik yoki huquqiy madaniyatni shakllanishiga xizmat qiluvchi juda sodda manbalar bo‘lsada, 4-sinf Nutq o‘stirish darsligida esa huquqiy bilimlarga oid ma'lumotlar berilmagan. [6]

1-sinf O‘qish kitobida 7-8-sahifasida “Uydan maktabgacha bo‘lgan yo‘limiz”, “Svetafor” hamda 27-sahifada 8-dekabr- O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni, Qomusimsan- hayotim she'ri, 2-sinf O‘qish kitobida 39-40-sahifasida “O‘zbekiston”, “Toshkent”, 42-sahifasida “Ko‘chada yurish qoidalari”, 44-sahifada “Svetafor so‘zi” she'ri, 57-sahifasida 8 dekabr – “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni”, “Baxtimiz qonuni”, 3-sinf O‘qish kitobida 41-sahifasida 8 dekabr – “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni”, 103 sahifada “Poytaxt” matnlari huquqiy ongni shakllantishga ko‘maklashsada, lekin 4-sinf O‘qish kitobida esa hech qanday ma'lumot berilmagan.[7]

Ona tili 1-sinf 3-sahifasida “O‘zbekiston Respublikasi” 87-sahifada 1-iyun-“Bolalarni himoya qilish kuni”, 2-sinf darsligining 104, 121, 231- mashqlarda mulkiy munosabatlarga oid gramatik topshiriqlar, 3-sinf darsligida 1 va 7 mashqlarlarda “davlat va poytaxt” so‘zlariga oid eng sodda tushunchalar, 4 sinf darsligida esa deyarli huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ma'lumotlar keltirilmagan.

Uchinchi bosqichda boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning huquqiy madaniyati shakllanganligi maxsus o‘quv topshiriqlari, huquqiy masalalar va rasmli keyslar orqali o‘rganildi.

Xulosa. Tajriba-sinov ishlarimizda Andijon, Jizzax va Toshkent viloyatlari kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining boshlanig‘ich sinf o‘quvchilari, 48 nafar pedagoglari va 78 nafar ota-onalar ishtirok etishdi.

Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga mo‘ljallangan va metodik jihatdan takomillashtirilgan modelning natijadorligi statistik tahlil qilindi.

Huquqiy tushuncha va atamalarni keltirishda ham bir xil va oddiy tushunchalarni yozganliklari kuzatildi. Demak, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan tushuncha va atamalarga alohida e'tibor qaratish kerakligi haqida metodik xulosalari mavjud emas. Ko‘rinib turbidiki, kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirishning asosini tashkil etuvchi huquqiy savodxonlikni oshirishga amaliyotda e'tibor berilmayapti.

Shuning uchun biz ta'limiy tadqiqotimiz davomida aynan o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga oid metodik ish tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalarni joriy etdik. Natijada kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017.-48b

2. Aliqulova H.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy adolat tushunchalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fanl.nomz... diss. - T.: 2008. - 130 b.

3. Baumova M.G. “Funksii pravovoy kulturi”, yur.fanlar nomz.diss. avtor, 2005 y., Nijniy Novgorod 27-B, 7-bet.

4. Jumaev N.E. Umumiy o‘rta ta'limni insonparvarlashtirishda o‘qitish tamoyillari va metodlarining o‘zaro aloqadorligi: Ped. fanl. nomz. ... diss. avtoref. - T.: 2005. - 22 b.

5. Галустян Н.В. “Правовая активность личности в механизме формирования социально-полезного поведения”, юр.фанлар номз.дисс.автореф, Ростов-на-Дону, 2005, 26-б,-17-Б.

6. Хасанова С.А. “Правовое воспитание старших подростков в средней обшеобразовательной школе”, пед.фан.номзоди дисс автореф.-Сургут, 2007 йил, 21-б, 5-Б.

7. Ibodullaeva O.N. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nom. diss.-T.: 2005.-141 b.

8. Munira, Voxobova, and Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna. "Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 15.1 (2024): 33-35.

9. Vaxobova, Muxtabar. "O‘smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar." Журнал Педагогики и психологии в современном образовании 4.2 (2024): 53-57.

Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi
ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARDA KASBIY TANLOVNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ularni kasbiy tanlovi va kasbiy tanlovdagi psixologik va ijtimoiy determinantlari haqida ilmiy fikr va mulohazalar bildirilgan. Kasb-hunar - insonning hayotida muhim o‘rinni egallaydi. Har bir yosh avlodni kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish uning hayotda o‘z o‘rnini topish uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Kasbiy tanlovda o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari va hozirgi kunda imkoniyatlari ham hisobga olinadi.*

Kalit so‘z: *kasbiy tanlov, kasbiy shakllanish, determinantlar, motiv, qiziqish, qobilyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫБОРА СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы профессиональной ориентации учащихся, их профессионального выбора, а также психологические и социальные детерминанты, влияющие на этот выбор. Профессия занимает важное место в жизни человека. Правильная организация работы по профессиональной ориентации каждого молодого поколения служит основным фундаментом для их успешной самореализации в жизни. При выборе профессии учитываются интересы, стремления и современные возможности учащихся.*

Ключевые слова: *профессиональный выбор, профессиональное становление, детерминанты, мотив, интерес, способности.*

PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CHOICE IN STUDENTS

Annotation. *This article discusses the issues of students' career guidance, their professional choice, as well as the psychological and social determinants influencing this choice. A profession holds a significant place in a person's life. Proper organization of career guidance work for each young generation serves as a fundamental basis for their successful self-realization in life. When making a career choice, students' interests, aspirations, and current opportunities are also taken into account.*

Keywords: *professional choice, professional formation, determinants, motive, interest, abilities.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlari asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlash orqali ularni kasbga yo‘naltirish pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Jahonda Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) Global Employment Trends for Youth 2024 hisobotida “….mamlakatlar yoshlarga ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlaydigan siyosat va dasturlarga hamda ularning samarali band bo‘lishiga ko‘maklashuvchi siyosatga ko‘proq e’tibor qaratishlari kerak”[1.4-bet.] - deb yozilgan. Bu kasbiy tanlov va ta’lim orqali yoshlarni mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirishga tayyorlash zarurligini ifodalaydi. Davlatimiz rahbati Sh.M.Mirziyoyevning “Maqsadimiz maktab bitiruvchisi hech bo‘lmaganda bitta hunarni puxta egallashi, kattalar hayotiga tayyor bo‘lishidir. Agar yoshlar maktab davrida hech bo‘lmaganda bitta kasb-hunarni egallashsa, ular albatta kelgusi hayotda o‘z yo‘lini topadilar” [2.1-bet] degan fikrlari buning yorqin misolidir. Ushbu nuqtai nazar yoshlarning kasbiy tanlovlarida ta'lim va mehnat bozoriga tayyorlash jarayonining uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Adabiyotlar tahrir qilinganda John Holland, Donald Super, Linda Gottfredson kabi xalqaro olimlar ta’kidlashlaricha

kasbiy rivojlanishning bosqichlari haqida chuqur nazariyalar yaratilganligi ularning tadqiqotlarida shaxsning kasbiy rivojlanishi hayot davomida o‘zgarishi, shaxsning o‘z “men” konsepsiyasiga asoslanganligi va kasb tanlashni hayot sikli bilan bog‘liq ravishda o‘rganish kabi kasbiy tanlovni rivojlanishi uchun muhim hisoblanishi aytib o‘tilgan.

G’oziev E.G’, Davletshin M.G, Karimova V.M, Xo’jaev N, Tojiboeva D, Mamaraximov B, Shomuratova N, Qodirov B.R, Qodirov K.R, Skatkin M.N kabi psixolog va pedagog olimlarning ta’kidlashlaricha, o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish muhimdir. Masalan M.G. Davletshin [3.191-b.] qobiliyatlar va ularning diagnostikasi, yosh va pedagogik psixologiya sohalarida tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va ularga mos kasb tanlashda yordam berishga qaratilgan.Shuningdek, professor V.M. Karimova[4.206-b.] o‘zbek ayollarining shaxsiyati, ijtimoiy mavqei va milliy qadriyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari yoshlarning, xususan, qizlarning kasb tanlash jarayonida ijtimoiy va madaniy omillarning rolini o‘rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, professor SH. Baratovning ilmiy izlanishlari bo‘yicha “Olingan ma’lumotlar miya faoliyatida kasb tanlash, kasbga moyillik va layoqat turlarini ta’minlab turadigan muqobil neyrofiziologik xislatlar borligini isbot etdi. Zehn testlari majmuasi shakllantirildi”[5.204-b.]. Ushbu olimlarning ilmiy qarashlari o‘quvchilarda kasbiy tanlovni rivojlantirishning psixologik va ijtimoiy determinantlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va bu jarayonni samarali boshqarish uchun muhim asos yaratadi.

Tadqiqotlar natijalari va muhokama: Tadqiqotimizda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda - “Differensial diagnostika so‘rovnoma (DDS) E.A Klimov rahbarligida ishlab chiqilgan va insonning qiziqishlari va moyilligini aniqlash uchun mo‘ljallangan metodikasidan foydalanildi.

"Differensial diagnostika so'rovnoma” (DDS E. A. Klimov) insonning kasbiy moyilligini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot ob’ekti sifatida Andijon shahar 35-DIM Namangan shahar 89-maktab, umumta’lim maktab va farg’ona shahar 6-maktab 10-11-sinf o‘quvchilari olindi. O‘quvchilarga kasb tanlash bo‘yicha individual maslahatlar berish, ularning qobiliyatlari va qiziqishlarini tahlil qilindi. Maxsus ishlab chiqilgan trening texnologiyasi asosida kasbga yo‘naltirish, kasbiy bilimlarini rivojlantirish, zamonaviy va bugungi kun talabidagi kasblar haqida ma’lumotlar berildi.

Trening texnologiyalaridan so‘ng tajriba natijalari Andijonda 10-sinflar Inson – inson tipi, 11-sinflarda esa Inson-inson, Inson- texnika tiplari moyillik aniqlandi. Namangan 10-11sinf o‘quvchilarida Inson-inson, Inson-tabiat tiplari ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi, Farg‘ona shahar 10-sinflarida inson-inson, inson-tabiat, 11-sinflarda inson-inson, inson-texnika tiplari yaqqol namoyon bo‘ldi.

Kasbiy tanlovni rivojlantirishning psixologik va ijtimoiy determinantlari tadqiqotimiz doirasida o‘rganilib ularni quyidagicha tadqiq etildi. Psixologik determinantlarga Qobiliyat va qiziqishlar: Kasbiy tanlovni shakllantirishda o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlari muhim rol o‘ynaydi. Bu qobiliyatlar kognitiv ko‘nikmalar, texnik yoki ijodiy qobiliyatlar bo'lishi mumkin. Masalan, matematik qobiliyatlar kuchli bo‘lgan o‘quvchilar odatda muhandislik yoki informatika sohasiga qiziqadi. Motivatsiya - o‘quvchining o‘zini rivojlantirish va ma’lum bir sohaga erishishga bo‘lgan motivatsiyasi kasbiy tanlovda muhim omillardan biridir. Motivatsiya ichki va tashqi manbalar orqali shakllanadi. Ichki motivatsiya qiziqish va kasbga bo‘lgan muhabbatdan kelib chiqsa, tashqi motivatsiya ko'pincha jamiyat va oilaviy bosimlar orqali yuzaga keladi. Shaxsning o‘zini anglash darajasi. Kasbiy tanlovda o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari va maqsadlarini to‘g‘ri baholash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Shaxsning o‘zini anglash darajasi kam bo‘lsa, u noto‘g‘ri kasb tanlashi mumkin, bu esa keyinchalik hayotda qoniqarsiz natijalarga olib kelishi mumkin.

Kasbiy tanlov shakllantirishning psixologik determinantlari bilan bir qatorda ijtimoiy determinantlari hozirgi kundagi ijtimoiy talablardan kelib chiqib paydo bo‘lmoqda. Psixologik determinantlar – bu shaxsning kasbiy jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan ichki va tashqi omillarni anglatadi. Bu omillar shaxsning kasbiy tanlovini shakllantiradi va ularning o‘zaro ta’siri individual kasbiy yo‘nalishni

belgilaydi. Ijtimoiy determinantlar – bu shaxsning kasb tanlashiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar bo‘lib, ijtimoiy munosabatla, madaniy va iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy guruhlar, hamda boshqa ijtimoiy faktor orqali shakllanadi.

Kasbiy tanlovni shakllantirishda ijtimoiy determinantlariga misol qilib ushbularni keltirdik. Oila va atrof-muhit Ota-onalar, aka-uka yoki opa-singillar, va boshqa yaqinlar o‘quvchilarning kasbiy tanlovlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ota-onalar ko‘pincha o‘z kasbiy tajribalari va qadriyatlari orqali bolalarining tanloviga yo‘nalish beradilar. Masalan, ko‘pincha tibbiyot yoki huquq sohasida ishlaydigan oilalarning farzandlari ham shu yo'nalishlarga qiziqadi.

Maktab tizimi va pedagogik yordam. Ta’lim muassasalarining kasbiy yo‘naltirish xizmatlari va psixologik maslahatlari o‘quvchilarning to‘g‘ri kasb tanlashiga yordam beradi. Maktabdagi o‘qituvchilar va psixologlarning o‘quvchilarga kasb tanlashda taqdim etadigan ma'lumot va ko‘rsatmalari ularning tanloviga bevosita ta’sir qiladi.

Ijtimoiy me’yorlar va stereotiplar Ijtimoiy stereotiplar va kasblar haqidagi ijtimoiy me’yorlar ham o‘quvchilarning tanloviga ta’sir qiladi. Masalan, ayrim kasblar “erkaklar kasbi” yoki “ayollar kasbi” sifatida qabul qilinishi o‘quvchilarning tanlov imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ushbu stereotiplarni yengib o‘tish uchun gender tengligi haqida ma'lumotlar berilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktab o‘quvchilarida kasbiy tanlovni shakllantirish ko‘plab psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlaridan tortib, oilaviy va ijtimoiy bosimlar, ta’lim tizimi va mehnat bozori talablariga qadar ko‘plab omillar ularning tanloviga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Global Employment Trends for Youth 2024 1.4-bet.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalarni muhokama qilish bo'yicha videoselektor yig‘ilishida so'zlagan nutqi.
3. Psixologiya tarixi N.S.Jo’rayev D.A. Saliyeva N.A.Sultonov T. “Noshir” 2019 191-b.
4. Psixologiya tarixi N.S.Jo’rayev D.A. Saliyeva N.A.Sultonov T. “Noshir” 2019 206-b.
5. Psixologiya tarixi N.S.Jo’rayev D.A. Saliyeva N.A.Sultonov T. “Noshir” 2019 204-b.

Ag‘amurodov Sarvar Istamovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM TALABALARIDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda ijodiy faoliyat motivatsiyasi shakllanishining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, shuningdek, talabalarda ijodiy tafakkur, innovatsion kompitensiyalarni takomillashtirish orqali talabalarda ilmiy va ijodiy faoliyatining samaradorligini oshirish kabi omillar ilmiy jihatdan keng yoritilgan. Shu bilan birgalikda talabalarda narsa va hodisalarga nisbatan tanqidiy fikrlash, aqliy faoliyatning barqarorligi, kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajasi psixodiagnostik usullar orqali tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodkorlik, kreativ tafakkur, motivatsiya, tanqidiy fikrlash, ijodiy faollik, ijodiy munosabat, shaxsiy intellekt.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Аннотация. *В данной статье научно освещены уникальные психологические особенности формирования мотивации творческой деятельности у студентов, а также такие факторы, как повышение эффективности научной и творческой деятельности студентов за счет совершенствования творческого мышления и инновационных компетенций у студентов. При этом психодиагностическими методами исследовались критическое мышление студентов о вещах и событиях, устойчивость мыслительной деятельности, уровень развития творческого мышления.*

Ключевые слова: *креативность, творческое мышление, мотивация, критическое мышление, творческая деятельность, творческое отношение, личностный интеллект.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY MOTIVATION IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

Annotation. *In this article, the unique psychological features of the formation of creative activity motivation in students, as well as factors such as increasing the efficiency of students' scientific and creative activities by improving creative thinking and innovative competences in students are scientifically covered. At the same time, students' critical thinking about things and events, stability of mental activity, development level of creative thinking were researched by psychodiagnostic methods.*

Key words: *Creativity, creative thinking, motivation, critical thinking, creative activity, creative attitude, personal intelligence.*

Kirish. Shuni alohida ta’kidlash joizki shaxs har doim o‘tmishi, bugungi kuni va kelajakka ishora qilib, o‘zining faoliyatini hamda xulq-atvorini boshqaradi. Shaxsning umumiy sa’y-xarakatlari qanday qadriyatlarga yo‘naltirilganligiga qarab, unda amalga oshirilgan, o‘zlashtirilgan, boshdan kechirilgan yoki sodir bo‘layotgan narsalar ustunlik qiladi. Konservator odatda o‘tmishni an'analarini kelajakka olib o‘tishga xarakat qiladi. Oddiy odam hozirgi kun bilan, yashaydi. Novator, strateg kelajak bilan yashaydi. Afzal vaqtni tanlashga yosh, potensial, muvaffaqiyat va muvafaqqiyatsizlik, intilishlar, o‘z-o‘zini baholash, faoliyat shartlari, atrof-muhit kabi omillar ta’sir qiladi. Ijodkor, faol shaxs kelajak uchun ustunlik bilan ajralib turadi. Hozirgi kun va o‘tmish unga mo‘ljallangan kelajakni tayyorlaydi. Kelajaksiz xayot tugaydi. Kelajakda ham, ijodda ham, ajablantiradigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan, dasturlanmaydigan, improvizatsiya elementlari mavjud. Shaxs ijodiy faolligining

namoyon bo‘lishi tarbiyaning ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq emas, qattiq psixofiziologik determinasiyaga ega emas va shaxsiy namoyishlar o‘ziga xosligida aks etmaydi.

Adabiyotlar tahlili. “Ijodiy faollik” atamasi odatda yangi, o‘ziga xos yaratishlar uchun intensiv samarali mehnatni va ijodiy g‘oyalarni tug‘dirish qobiliyatini, ularning haqiqatga aylantirilishini anglatadi.

Shaxsning ijodiy faolligi diqqatlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ilhom, fikrlashning rivojlanishini, uning namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar mavjudligi, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish kabi o‘ziga xos tarkibiy qismlarning mavjudligini taxmin qiladi.

L.N. Shulpina bo‘yicha «Ijodiy faollik bu – shaxsning mustahkam integral sifati bo‘lib, ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar va hatti-harakatlarning maqsadga yo‘naltirilgan birligi hisoblanib, ijodiy vaziyatlarni anglangan ravishda qidirish bilan tavsiflanadi» [1]. Ushbu ta’rifda ijodiy faoliyatni egallashga yo‘nalganlik yyetarli darajada yaxshi taqdim etilsa-da, biroq ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ajratilayotgan – ijod bilan shug‘ullanishning muhim tuzilmaviy elementi yo‘qdir.

T.Bradber fikriga ko‘ra, ijobiy emotsiyalar “rigid determinantalarning” yo‘q bo‘lishiga asos yaratadi, qo‘rquv va qayg‘u kabi emotsiyalar motivasiyani pasaytiruvchi ta'sirga ega. Motivasiya yuqoriligicha qolishi mumkin, biroq yuqorida ko‘rsatilgan emotsiyalarning ta'siri tafakkur faoliyati samaradorligini funksional omil sifatida pasaytiradi, ushbu ichki motivasiyani his qilayotganlar ma'lumotlarni qayta ishlashda emotsiyalar yaxlit intuitiv uslubini qurshaydi, yashiradi [2].

Shaxs ijodiy jarayonga nisbatan emotsional-ijobiy munosabatni yaratishi, uning atrof dunyoni ijodiy o‘zgartirishga intilishi hamda chuqur munosabatlar, ahamiyatli aloqalar va qonuniyatlar mohiyatini ochgan holda muloqotning oliy shakllarini rivojlantirishga ko‘mak beradi. Intellektual va emotsional omillar ijodiyot uchun bir xil ahamiyatda zarurdir, deb taxmin qilgan L.S. Vigotskiy ta’kidlashicha, bilishning mantiqiy usulidan tashqari, to‘g‘ri kuzatish yo‘li mavjud, insonga mulohazalar emas, balki hissiyotlarga asoslangan bilish xosdir [3].

Bu yerda ilhom, fikrlash va xayot tajribasining organik birikishi muhimdir. Ushbu hodisaning manbalarini, rag‘batlantiruvchi kuchlarini, sabablarini aniqlamay turib, insonning faolligini tushunish mumkin emas. Shaxsiyat faolligi maqbul tashkil etilganda va maqsadga yo‘naltirilganda yuqori samaraga erishadi, bunda shaxsning faolligi ierarxiya ustunlik prinsipi bilan ta’minlanadi. Uning ruhiy tarkibini aniqlovchi tizimni tashkil etuvchisi bo‘la turib, inson faolligining yo‘naltirilgan uslubi, xarakteri, xulq-atvori xususiyatlarini aniqlaydi. Biroq bu bilan odamlarning barcha sabab va asoslarini cheklamaydi. Shaxs psixologiyasi uchun eng ahamiyatlisi uning hayot va faoliyat subyekti sifatida tavsiflanishi. Shaxsiyatni belgilovchi omil bu uning ichki faolligidir. O‘z qarashlarining cheklovlarini yengib o‘tish, ko‘p narsani boshidan boshlash, avvalgi o‘ziga qarshilik ko‘rsatishni boshlash – bu haqiqiy shaxsiy o‘sish, ijodiy rivojlanishning asosidir. Va agar bu amalga oshmasa, unda hozirgi kunda “to‘xtab qolish”, deb ataladigan narsa muqarrar. Motiv (psixologiyada) – inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida “Motiv” atamasi subyektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo‘lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba’zan «Motiv» tushunchasini «emotsiya», «maqsad», «ustanovka» atamalari bilan almashtirish hollari uchraydi. Talabalarda motivasiya ta’lim olish jarayonini yaxshilashning eng samarador usuli hisoblanadi. Motivlar ta’lim olish jarayoni va yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini harakatga keltiruvchi kuch hisoblandi.

Ta’lim olishga nisbatan motivasiya juda murakkab va munozarali jarayon bo‘lib, unda shaxsning alohida fanga yoki butun o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati o‘zgarib borishi kuzatiladi. Motivasiya inson xulq-atvori va faoliyatida, shuningdek, bo‘lajak mutaxasisni shakllanish jarayonida bosh yetaklovchi omil hisoblanadi. **Muhokama.** Shuning uchun, aynan, talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatida stimullar va motivlarga doir masalalar dolzarblashib bormoqda. Ma’lumki, talabalarda

bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishida mazmundor, mantiqiy fikrlashda ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tadqiq qilish talabalar va ularning intellekti, ijodiy salohiyatini, o‘quv faoliyatiga safarbar qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy tadbirlar ko‘lamini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dj.Bruner ijodkorlikni aniqlash metodikasining 1-2 kurs o‘g‘il va qizlardagi ko‘rsatkichlari n=205

Omillar	Yigitlar (1-2 kurslar) n=105	%	Qizlar (1-2 kurslar) n=100	%	Yigitlar (3-4 kurslar) n=90	%	Qizlar (3-4 kurslar) n=75	%
Obyektiv fikrlash	29	27,6	18	18,0	28	31,1	14	18,7
Ramziy fikrlash	25	23,8	19	19,0	22	24,4	13	17,3
Aniq fikrlash	22	21	18	18,0	19	21,2	16	21,3
Majoziy fikrlash	13	12,4	21	21,0	10	11,1	15	20,0
Ijodkorlik	16	15,2	24	24,0	11	12,2	17	22,7
Jami:	105	100	100	100	90	100	75	100

Tadqiqotimizning navbatdagi jarayonida talabalardagi ijodiy fikrlash motivasiyasining umumiy holatini o‘rganishda Dj.Bruner testini tatbiq etishdan olingan qiymatlar ustida tahlil amalga oshirildi. Talabalarning ijodiylik motivasiyasi xususiyatlarini darajasi tahlili Dj.Bruner metodikasining dastavval beshta subtestida olib borildi. Bular obyektiv fikrlash, ramziy fikrlash, aniq fikrlash, majoziy fikrlash, ijodkorlikdan iborat.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jami 370 nafar talabalarining «obyektiv fikrlash» qobiliyati 1-2 kurslarda yigitlarda 27,6 %, qizlarda 18,0%, , 3-4 kurslarda yigitlarda 31,1 %, qizlarda 18,7 %,, «ramziy fikrlash» qobiliyati 1-2 kurslarda yigitlarda 23,8 %, qizlarda 19,0%, , 3-4 kurslarda yigitlarda 22 %, qizlarda 13%,, «Aniq fikrlash» 1-2 kurslarda yigitlarda 21 %, qizlarda 18,0%, , 3-4 kurslarda yigitlarda 21,2 %, qizlarda 16 %, «majoziy fikrlash» qobiliyati 1-2 kurslarda yigitlarda 12,4 %, qizlarda 21,0%, , 3-4 kurslarda yigitlarda 10 %, qizlarda 15 %, «ijodkorlik» qobiliyati 1-2 kurslarda yigitlarda 15,2 %, qizlarda 24,0%, , 3-4 kurslarda yigitlarda 11 %, qizlarda 17 %, tashkil qildi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ayon bo‘lyaptiki, 1-2 kurslarda yigitlarda «ob'ektiv fikrlash» qobiliyati (27,6%) qizlarda ijodkorlik» qobiliyati (24,0%) eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, 1-2 kurs talabalari ijodiy fikrlashni afzal ko‘radilar; muammolarga, kamchiliklarga yoki qarama-qarshiliklarga nisbatan sezgirlar; muammolarni hal qilish bo‘yicha yangicha g‘oyalarni ilgari suradilar. Shuningdek muammolarni osonlik va tezlik bilan hal qila oladilar. Har qanday yangilikni osongina o‘zlashtiradilar.

«Majoziy fikrlash» qobiliyati mezoni bo‘yicha 1-2 kurs yigitlarda (12,4), qizlarda «Aniq fikrlash» qobiliyati (18,0%) eng quyi ko‘rsatkichni tashkil qildi. Demak, talabalarda o‘qish davrining ilk yillarida shaxslararo munosabatga kirishish, o‘z fikrini bemalol ayta olish va atrofdagilar bilan tez til topib ketish uquvi yetishmas ekan. 3-4 kurs talabalarida esa, yigitlarda «majoziy fikrlash» qobiliyati (10 %), qizlarda%, «ramziy fikrlash» (13%) eng quyi, yigitlarda «ob'ektiv fikrlash» (31,1%), qizlarda «ijodkorlik» qobiliyati (17 %) eng yuqori o‘rinni egalladi. Demak, talabalar har xil noodatiy holatlarda ham vaziyatni real tahlil qilib to‘g‘ri bashoratlay oladilar. Muammolarni

yyechimini aniq va ravshan hal qilib, turli xildagi yangicha g‘oyalarni qo‘rqmasdan amaliy yyechimini topa oladilar.

Xulosa. Yuqoridagi empirik natijalardan ko‘rinib turibdiki, talabalarning ijodiy fikrlash motivasiyasi shakllanishida yyetarlicha farqlar mavjud. Bu esa talabalarning kelajakda jamiyat uchun kerakli barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida bir qancha muammoli vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

Aytish mumkinki, barcha nazariy-metodologik asoslar bugungi kunda talabalarda ijodiy faollik xususiyatlarini shakllantirish haqidagi tegishli tasavvurlarni hosil qilish uchun ma'lum darajadagi ilmiy tadqiqotlarni olib borishda tegishli ilmiy oydinliklar kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari ijodiy faollik jarayoni o‘zining maqsadi va mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli bo‘lishi bilan birga har bir faoliyat doirasida uni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, talabalarda ijodiy faollik xususiyatlarini shakllantirish ishlari ko‘lamining tadqiq qilinishi esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy imkoniyatlar kalitini berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шульпина Л. Н. Развитие творческой активности детей в процессе дополнительного образования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Л.Н.Шульпина. — М.: 2003. — 142 с.
2. Bradber T., Greaves J. The Emotional Intelligence Quick Book. – New York: Simon and Schuster, 2005, – 401 p.
3. Выготский Л.С.. Психология развития человека. - Москва «Смысл» 2005. – С. 1136.
4. Ag‘amurodov S.I Study of students' motivation problem by foreign scientists. //Вестник интегративной психологии. – Ярославль. № 34, 2024. – С. 17-21.
5. Ag‘amurodov S.I. Oliy ta’lim talabalarida o‘quv motivlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik omillari. // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro. № 10, 2024. – B. 14-17
6. Ag‘amurodov S.I. Oliy ta’lim talabalarida ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. // Ta’limda istiqbolli izlanishlar Xalqaro ilmiy-metodik jurnal– Buxoro. № 7, 2024. – B.134-137.
7. Ананьев Б.Г. «Психология педагогической оценки». – Ленинград: Изд-во интитута по изучению мозга им. В.М. Бехтерева, 1935.

Axmedova Shaxzoda Axtamovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY IDENTIKLIK SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining o'ziga xos jabhalari tahliliy yondashuvlar asosida ta'kidlab o'tilgan. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishida shaxsning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini rivojlantiruvchi asosiy jihatlarga ham e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *kasb, bo'lajak pedagog, kasbiy identiklik, ijtimoiy-psixologik omil, psixologik xususiyat.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье дается анализ социально-психологических факторов, влияющих на формирование профессиональной идентичности будущих педагогов. Также на основе аналитических подходов выделены специфические аспекты формирования профессиональной идентичности будущих педагогов. Также уделено внимание основным аспектам, развивающим социально-психологические показатели личности при формировании профессиональной идентичности будущих педагогов.*

Ключевые слова: *профессия, будущий учитель, профессиональное самосознание, социально-психологический фактор, психологическая характеристика.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE EDUCATORS

Annotation. *This article provides an analysis of socio-psychological factors influencing the formation of professional identity in future educators. Also, specific aspects of the formation of professional identity in future educators are highlighted based on analytical approaches. Attention is also paid to the main aspects that develop the socio-psychological indicators of the individual in the formation of professional identity in future educators.*

Keywords*: profession, future educator, professional identity, socio-psychological factor, psychological characteristic.*

Kasbiy identifikatsiyaning umumiy identifikatsiyalar tuzilishida tutgan o‘rni hali to‘liq yoritib berilmagan, lekin fenomen va ijtimoiy identifikatsiya tuzilishi hamda uning alohida turlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanganligi kasbiy identifikatsiyani ijtimoiy “Men” tuzilishidagi muhim elementlardan biri sifatida o‘rganish imkonini beradi. Ijtimoiy identifikatsiya hayotdagi o‘zaro hamkorliklar, ijtimoiy taqqoslashlar va subyekt ijtimoiy qurilishining tayanch tizimi sifatida namoyon bo‘luvchi faol ijtimoiy ta’limni yo‘lga qo‘yish natijasida bunyod bo‘luvchi dinamik jarayon sifatida yuzaga keladi. Biz ijtimoiy identifikatsiya yagona kognitiv, motivatsion va qadriyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab olishini kuzatishimiz mumkin.

Bu yondashuvga muvofiq kasbiy identifikatsiya faoliyat va u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro hamkorlikning individual emotsional bilimlar bilan boyitilishi, faoliyatga yo‘nalganlik ta’siri ostida yuzaga keluvchi shaxsning o‘z-o‘zini anglashi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu bilimlarga muvofiq tarzda individ qadriyatlar tizimini, qolaversa, mehnat jamoasiga xos bo‘lgan xulq-atvor shakllarini va mehnat jamoasining status-rolli, axloqiy, motivatsion ta’sirlariga muvofiq maqsadlarni ham o‘zlashtiradi. Kasbiy identifikatsiya ijtimoiy identifikatsiya tuzilishining muhim elementlaridan biri

bo‘lib, shaxsiy va kasbiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va inson hayotining ko‘p jihatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, kasbiy identifikatsiyani o‘zida kasblar dunyosiga yo‘nalganlik va o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning potensialini to‘liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlangan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo‘nalishini oldindan ko‘ra biluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deb hisoblasak bo‘ladi. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsiy kasbiga nisbatan subyektiv munosabatlar bilan hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o‘rni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. Bu g‘oyalar kasbiy identifikatsiya kognitiv-motivatsion va axloqiy komponentlar bilan yaxlitilikni tashkil qilishi ko‘rsatib berilgan emperik tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan.

Identifikatsiyaning kognitiv, motivatsion va axloqiy komponentlarini ajratib ko‘rsatar ekanmiz, ular ichida kogntiv komponentlarni tadqiq qilish mushkul ekanini ta’kidlab o‘tamiz, chunki, aynan kognitiv komponent identifikatsiya tuzilishining yadrosi hisoblanadi.

Demak, kasbiy identifikatsiya zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan predmeti hisoblanadi. Bu integrativ tushunchada shaxsning kasblar olamiga, mehnat jamoasi va keng ijtimoiy muhitga yo‘nalishini ta’minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxs potensialini to‘liq namoyon qilish imkonini beruvchi, qolaversa tanlangan kasbning kutilayotgan natijalarini va shaxsiy taraqqiyot imkoniyatlarini oldindan ko‘ra biluvchi kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarining o‘zaro aloqasi aks etadi. Kasbiy yo‘nalganlik va o‘z-o‘zini anglash kasbiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy identifikatsiyani o‘zida kasblar dunyosiga yo‘nalganlik va o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning potensialini to‘liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlangan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo‘nalishini oldindan ko‘ra biluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deyish mumkin. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsiy kasbiga nisbatan subyektiv munosabatlar bilan hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o‘rni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi.Ushbu konsepsiya psixologiyaning markaziy tushunchalaridan biriga aylanadi, chunki u ijtimoiy nazariya va amaliyot muammolari majmuasi bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy o‘ziga xoslik shaxsning kasbiy rivojlanishining asosiy mezoni va mehnat subyektining yetakchi xususiyati sifatida ajralib turadi.

1-jadval

Kasbiy identiklikni aniqlash so‘rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o‘rtacha qiymati	shkalaning standart og’ishi	Shkalaning α-koeffitsienti (Alfa-kronbax bo’yi-cha) (0,25-1 oralig’ida ishonch darajasi)
Kasbiy faoliyatda mavhumlik	6	0,65	0,36
Moratoriylik	7	0,72	0,40
Kasbiy bosim	5	0,48	0,44
Kasbiy identiklik	9	0,89	0,52
Alpha (α) koeffitsienti			0,38

Yuqorida tanlab olgan metodika bo'yicha sinaluvchilarning natijalari quyidagicha aks etgan. Kasbiy faoliyatda mavhumlik shkalasi bo'yicha Qarshi davlat universiteti talabalarida 6, shkalaning standart og'ishi 0,65ni tashkil etadi. Bu esa standart ko'rsatkich bo'yicha o'rtachani tashkil etadi.

Kasbiy faoliyatga qadam qo'yganda moratoriylik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich Qarshi davlat universiteti talabalarida 7, shkalaning standart og'ishi 0,72 ni tashkil etadi. Tadqiqot davomida tekshirilayotgan shaxslarning ba'zi xarakteristik xususiyatlari va individual psixologik fazilatlarini aniqlash mumkin, bu haqda jamoatchilikka ma'lum qilish kerak emas.

Bundan tashqari, kasbiy identiklik natijalari o'z-o'zidan nomzodning kasbiy istiqboliga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, kasbiy identiklik mutaxassisi kasbiy yaroqlilikni aniqlash jarayonida olingan ma'lumotlardan faqat rasmiy maqsadlarda foydalanishi, ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Kasbiy bosim shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich Qarshi davlat universiteti talabalarida 5, shkalaning standart og'ishi 0,48 ni tashkil etadi. Salbiy xulosa to'liq kasbiy yaroqsizligi haqidagi "hukm" sifatida, shaxsning umumiy salbiy bahosi sifatida qaralmasligi kerak. Ma'lum bir foiz xatolarga yo'l qo'yib, kasbiy yaroqlilikni baholashning ehtimollik xususiyatini ko'rsatish kerak.

Shunday qilib, kasbiy identiklik o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Insonlarning identiklik masalalasi uzoq tarixiy davrdan buyon mavjud bo'lishiga qaramay, kasbiy psixologik saralash ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Uning paydo bo'lishiga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish orqali turli sohalar mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'lgan.

Oxirgi shkala kasbiy identiklik bo'yicha talabalarning natijalari 9, shkalaning standart og'ishi 0,89 bilan xarakterlangan, mazkur metodika bo'yicha sinaluvchilarning metodikaga bergan mulohazasiga ko'ra, ishonchlilik darajasi 0,38 daraja bilan quyi darajada ishonchli ko'rsatkichni taqdim etgan.

2-jadval

Shaxsning ko'p omilli xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o'rtacha qiymati	shkalaning standart og'ishi	Shkalaning α-koeffitsienti (Alfa-kronbax bo'yicha) (0,25-1 oralig'ida ishonch darajasi)
muloqotga moyillik	5	0,48	0,32
hissiy barqaror	7	0,65	0,48
hukmronlikka intilish	3	0,30	0,22
ijtimoiy yetuklik	6	0,52	0,42
dadillik	8	0,72	0,63
ishonuvchanlik	5	0,47	0,38
o'ziga ishonch	4	0,32	0,26
mustaqillik	4	0,28	0,20
o'zini nazorat qilish	6	0,52	0,40
zo'riqish	7	0,61	0,52
Alpha (α) koeffitsienti			0,44

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'rni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari ikkinchi so'rovnoma bo'yicha ya'ni ko'p omilli shaxs xususiyatlaridan olingan natijalar universitetda tahsil oluvchi talabalarda birinchi shkala bo'yicha muloqotga moyillik 5, shkalaning standart og'ishi esa 0,48 qiymatdagi darajani ko'rsatgan. Bunday

shaxslar muloqotga moyillik sezmaydi va o‘z faoliyatida avtoritar uslubida ish tutadi. Bunday shaxslar boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat e’tiborli, qattiq g‘azablanish yoki xursand bo‘lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmaydilar, xulqini boshqara olish qobiliyatiga ega, rahmdil va samimiy, lekin talabchandir.

Ikkinchi shkala ya’ni hissiy barqaror bo‘yicha natijalar 7, shkalaning standart og’ishi 0,65 darajani tashkil qilgan. Kasbiy identiklik mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiyaning bir tarmog‘i sifatida boshqa fanlar bilan ham bog‘langan bo‘lib, personal bilan ishlash, uni saralash masalalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Keyingi shkala hukmronlikka intilish bo‘yicha olingan natijalar standart me’yorga ko‘ra, 3, shkalaning standart og’ishi esa o,30 darajani qayd etgan. Bundan tashqari, kasbiy psixologik saralash – juda murakkab tadbirlar jamlanmasi bo‘lib, nafaqat ilmiy va tashkiliy-boshqaruv masalalarini, balki ma’naviy-axloqiy va etika muammolari bilan bog‘liq masalalarni yechish bilan ham shug‘ullanadi.

To‘rtinchi shkala ijtimoiy yetuklik bo‘yicha talabalarning to‘plagan natijalari 6, shkalaning standart og’ishi esa 0,52 ni tashkil qilgan. Shunday ekan, faoliyat davomida diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va ma’naviy-axloqiy va etika qoidalariga amal qilish uchun kasbiy psixologik saralash chora-tadbirlarini maxsus tayyorgarlik va ilmiy-amaliy ish tajribasiga ega mutaxassilar amalga oshirishlari kerak.

Keyingi shkala dadillik bo‘yicha 8, shkalaning standart og’ishi 0,72 qiymatni tashkil qilganligi va biror-bir noxushlikni ijobiy darajada qabul qilishi bilan belgilanadi.

Navbatdagi shkala ishonuvchanlik 5, shkalaning standart og’ishi 0,47 nisbatlangan. O’ziga ishonch shkalasi bo‘yicha talabalarning olgan qiymatlari 4, shkalaning standart og’ishi 0,32 ni tashkil qilganligi va bu o‘zgalar bilan shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda tez ranjib qolmasliklaridan dalolat beradi.

Navbatdagi shkala mustaqillik 4, shkalaning standart og’ishi 0,28 bilan nisbatlangan. Keyingi o’zini nazorat qilish shkalasiga ko’ra, o’rtacha qiymatlar 6, shkalaning standart og’ishi 0,52 ni tashkil qilgan. Oxirgi shkala zo’riqish shkalasiga ko‘ra, talabalarda 7, shkalaning standart og’ishi 0,61 nisbat bilan birorta ishni noto‘g‘ri bajargan holda ham aybdorlik hissi juda quyi darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday kasbiy faoliyat insonga ma’lum talablarni qo‘yadi va uning shaxsi va butun hayot tarzida o‘ziga xos iz qoldiradi. Bo’lajak pedagoglar kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning o‘zini psixologik tahlil qilish, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tuzilishini ochib berish kerak. Kasbiy identilkning namoyon bo’lishida kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash nafaqat uni o‘rganish, balki uni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Жуковская В.И. Психологические основы выбора профессии.- Минск.: Народная асвета, 1978.-112 с

2. Кондаков И.М. “Индивидуально – психологические особенности подростков в выборе профессии” Москва, 1989. С 36.

3. Завалишина Д.Н. Способы идентификации человека с профессией. //Психология субъекта профессиональной деятельности. М.-Ярославль: ЯрГУ, под. Ред. А.В. Карпова, 2001. С. 104 – 128.

4. Мищенко Т.В. Становление профессиональной идентичности у студентов педагогического вуза: Канд. дис. Ярославль, 2005. С. 57.

Babayeva Nazira Asatullayevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi o‘qituvchisi
E-mail: nbabaeva987@gmail.com

ZAMONAVIY OTALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PORTRETI

Annotasiya. *Maqolada ota bu kim, zamonaviy ota kim, “katta ota” atamasi, ichki ota figurasini shakllantirish, ota boquvchi, ota oila boshlig'i, farzandlar otaga suyanadi, ergashadi, ishonadi va faxrlanadi. Zamonaviy ota yanada qiyin va uzoq yo'lni bosib o'tishi kerak.*

Kalit so’zlar: *Ota, zamonaviy ota, “katta ota” atamasi, ichki ota figurasini, farzandlar otaga suyanadi, ergashadi, ishonadi va faxrlanadi.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОРТРЕТ СОВРЕМЕННЫХ ОТЦОВ

Аннотация. *В статье кто такой отец, кто такой современный отец, рассмотрен термин «большой отец», формирование внутренней фигуры отца, главы семьи, дети полагаются, следуют, доверяют и являются гордятся своим отцом. Современному отцу предстоит пройти более трудный и долгий путь.*

Ключевые слова: *Отец, современный отец, термин «большой отец», внутренняя фигура отца, дети полагаются на отца, следуют за ним, доверяют ему и гордятся им.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF MODERN FATHERS

Abstract. *In the article, who is a father, who is a modern father, the term "big father", the formation of an internal father figure, the breadwinner, the head of the family, children rely on, follow, trust and are proud of their father. The modern father has a more difficult and long way to go.*

Key words: *Father, modern father, the term "big father", internal father figure, children rely on, follow, trust and are proud of father.*

Kirish. Bola tug‘ilishining dastlabki onlarida ona va bola o‘zaro hissan va psixologik jihatdan bog‘langan bo‘lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo‘shilib ketganlik, yaxlitlik) bo‘ladi. Bola ulg‘ayib, katta bo‘lgani sari ular o‘rtasidagi masofa, psixologik distantsiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi.

Onalik psixologiyasiga nisbatan kam o‘rganilgan soha. Otalar xulqini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular ham g‘amxo‘rlik va samimiylik jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo'lsa, ulardan ham mehribon bo‘lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo‘lgani uchun, ular o‘rtasidagi farqni chaqaloq deyarli his etmaydi. Bir yoshga to‘lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o‘zaro munosabatlar triada shakliga o‘tadi. Otasi va onasining o‘zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil, distansion munosabatlaming ma’nosini tushuna boradi.[11]

O‘zbek oilasida otaning o‘ziga xos o‘rni bor. U oilaning sarbonidir. Otaning oiladagi o‘rnini o‘lchaydigan toshu-tarozi yo‘q. Oilada otaning obro‘-e'tibori qadrlanadi, farzandlar otaga suyanadi, ergashadi, ishonadi va faxrlanadi.[2]

Ota-oilaning ustuni, chinakam va yengilmas qo‘rg‘oni. Oila qo‘rg‘onining poydevori ota tarbiyasi bilan mustahkamlanadi. Bola tarbiyasida onaning o‘rni ham alohida va fanda allaqachon isbotlanib, qayta-qayta e’tirof etilgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari quyidagi hikmatli misralarni bejiz bitmagan: Boshni fido ayla ato qoshig’a. Jismni qil sadqa ano boshig’a. Tun-kununga aylagali, nur fosh. Birisin oy ayla, birisin quyosh.[1]

Asosiy qism. An’anaga ko’ra, erkak va ayolning oila ichidagi rollari quyidagicha taqsimlangan: er boquvchi, oila boshlig‘i, barcha asosiy masalalarni hal qiladi, xotin – o‘choq qo‘riqchisi, kundalik

hayot, uy-ro‘zg‘or ishlari uchun javobgardir. Boshqacha qilib aytganda, erkakning mas’uliyat sohasi tashqi tarkibiy qism, jamiyat, oila va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik, ayollar esa oila ichidagi makondir.[3]

Zamonaviy dunyoda vaziyat biroz o‘zgardi. O‘tgan asrda er va xotin oila qurish va bolalarni tarbiyalash masalalarida teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘ldilar. Hech bo‘lmaganda qonuniy ravishda.

So‘nggi 10 yil ichida "katta ota" atamasi paydo bo‘ldi - bu ona bilan teng ravishda bolani tarbiyalash va rivojlantirishda chinakam ishtirok etuvchi ota-ona.[3]

Bola (ayniqsa o‘g‘il) va uning otasi o‘rtasidagi munosabatlarning muhim jihatlari uzoq vaqt davomida psixologlarning nuqtai nazaridan tashqarida qolmoqda. Aksariyat hollarda bolani tarbiyalash va uni shaxs sifatida shakllantirish jarayonini tahlil qilishda asosiy tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan ona edi.[4]

Ichki ota figurasini shakllantirish erta bolalikdan boshlanadi. Yaqinlarimiz, shu jumladan otamiz bilan bo‘lgan munosabatlar o‘zimizda iz qoldiradi. Otamiz bilan muloqot qilish tajribamiz, ona va ota o‘rtasidagi munosabatlar tajribasiga asoslanib, biz qanday ota ekanligimiz haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.[9]

Yaqin vaqtgacha oilada ayol va erkakning roli aniq ajratilgan edi: ayol uy ishlarini olib borishi, erkak esa pul topishi kerak edi.

Erkak – oila boshlig‘i, xonadon ustuni. Zamonaviy dunyoda otalardan umidlar boshqacha. Ota yanada qiyin va uzoq yo‘lni bosib o‘tishi kerak.

1. Avval ota hayotda o‘z o‘rnini topishi yoki yaratishi lozim.[9]

2. Agar ota o‘z farzandi bilan haqiqiy, yaqin va ishonchli munosabatda bo‘lishni xohlasa, u albatta bolaga vaqt berishi kerak. U bilan yolg‘iz bo‘lgan vaqt, bu davrda ota bolaga qanday g‘amxo‘rlik qilishni, uning ehtiyojlariga qanday javob berishni - sherigining maslahati va ko‘rsatmalarisiz o‘rganish imkoniyatiga ega. Ota bola uchun ona kabi zarur va unga g‘amxo'rlik qilishga qodir.[9]

3. Zamonaviy ota tarbiya haqida ko‘proq bilishga intiladi, ta‘lim muammolari bilan qiziqadi va bu sohada rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ota maxsus adabiyotlarni o‘rganadi, dasturlarni, ma‘ruzalarni va vebinarlarni tomosha qiladi. Bolalarning tarbiyasi va rivojlanishiga oid ma‘lumotlarni to‘playdi va tahlil qiladi va buning natijasida ongli ravishda harakat qiladi. Uning rafiqasi bilan birgalikda ular masalani o‘rganadilar, yyechim topadilar va qabul qilingan kontseptsiyaga muvofiq harakat qiladilar.[3]

Otalar tarbiyasi ishtirok etgan bolalar ko‘proq hissiyotli bo‘lib o‘sadi. Ular boshqalarning his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunishadi, boshqalarning tajribalariga ko‘proq e‘tibor berishadi, ularni yaxshiroq tushunishadi va shunga mos ravishda ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu tasodif emas. Agar siz ayoldan o‘zi uchun qanday sherikni xohlashini so‘rasangiz, u shunday javob beradi: g‘amxo‘r, diqqatli, e’tiborli.[3]

Anglagan holda oiladagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishi lozim. Lekin buning aksi bo‘lsa, u otalik mas‘uliyatini chuqur his qilmasa, o‘z mavqei haqida o‘ylamasa, demakki, bunday oilada muvozanat buziladi. Bolalarda padari buzrukvoriga nisbatan ishonch, g‘ururlanish hissi so‘nib boradi. Bu holat ayniqsa, o‘g‘il bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, ular uchun otasidan kuchli va aqlli inson yo‘q, dunyoda. O‘smir yoshiga yetgan o‘g‘il-qizlarda bu holat ayniqsa, kuchli seziladi.

4. Do‘stona munosabat o‘rnatish

O‘smir yoshdagi o‘g‘il farzand otalari bilan muloqot qilish va ular bilan turli mavzularda suhbat qurishni qalban xohlaydilar va shunga ehtiyoj sezadilar. Bu vaqtda ota o‘z dilbandi bilan do‘st-suhbatdosh sifatida munosabatga kirishsa, farzand ham padarini eng yaqin inson sifatida qabul qiladi. O‘z orzu-istaklarini otasiga ochiq bayon eta oladi, hatto, uni qiynayotgan muammolarni ham aytishga jur’at topadi. Ota bolani tinglash va uning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatni tashkil etish va har bir farzandining his-tuyg‘ularini tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

5. Har qanday bola uyidan tarbiya oladi.

Oilada ota-ona asosiy tarbiyachi hisoblanadi. Tarbiyaning esa uslublari ko‘p. O‘rgatish, tushuntirish, taqiqlash va hokazo. Lekin tarbiyaning eng samarali usuli – namuna ko‘rsatishdir. Shuning uchun xonadonda o‘g‘il-qizlarga qanday namuna ko‘rsatilsa, ana shu fazilatlar ularda aks etadi. Masalan, ota cheksa, ichsa, haqoratli so‘zlar aytsa, voyaga yetayotgan farzandlarning tarbiyasiga juda katta ta’sir etadi. Bu munosabatlarni ko‘rgan o‘g‘il-qizlar oddiy jarayondek qabul qiladi. Oqibatda farzandlar ulardan nusxa oladi. Bundan ko‘rinadi-ki, ayrim otalarning axloqi, uyida o‘zini tutishi, ichkilikbozligi va boshqa salbiy holatlari bolalariga yomon ibrat bo‘ladi, albatta. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” – deydi, dono xalqimiz. Shu sababli farzand andozani, eng avvalo, ota-onasidan oladi.

6. Namuna ko‘rsatish

Otaning onaga bo‘lgan munosabatiga qarab, qizlar odatda o‘zini kelajakda turmush o‘rtog‘iga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishini o‘rganib boradi. O‘g‘il bolalar tarbiyasida ham shunga o‘xshash tamoyil ustuvor bo‘ladi. Ya’ni, ular ham ota-onalarning o‘zaro munosabatlariga mos tarzda o‘zini kelajakda oila boshlig‘i, er roliga hamda onasining yurish-turishi va farzandlarga munosabatiga qarab, onalik roliga ruhan tayyorlab boradi. Va xuddi shunday oila qurishga harakat qiladi

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan otalarning oilaviy hayotdagi o‘rni va farzand tarbiyasidagi ishtiroki mavzusida sosiologik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqod respublikamizning 9 ta hududi Qoraqalpog’iston respublikasi, Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Farg’ona, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan 1024 nafar turmush qurgan, farzandli erkaklar va ayollar o’rtasida olib borildi.[10]

Tadqiqotda ishtirok etgan respodentlarning 511 nafarini ayollar (49,9%), 513 nafarini erkaklar (50,1%) tashkil etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining qariyb yarmi bugungi kunda otalarning asosiy vazifasi oilani boqish (49,2%) va oilani boshqarish (49,3%) deb hisoblaydi, to‘rtdan bir qismidan ko‘prog’ini (27,5%) oiladagi tartibni belgilash va oilani himoya qilish (26,5%) ekanligini ta’kidlashgan, shuningdek, qariyb beshdan bir qismi (18,3%)otalarni farzand tarbiyasidagi asosiy inson deb bilishadi. Otalarning asosiy qismi (75,6%) bo’sh vaqtini oilasi bilan o‘tkazishni afzal ko‘rishadi. Shuningdek, tadqiqotda ishtirok etgan onalar asosan farzandlari (onalar-55,6%, otalar-27,3%), otalar esa do’stlari (otalar-36,3%, onalar-4,7%) bilan bo’sh vaqtini o’tkazgan.

Oilada otalarning farzand tarbiyasida ishtirok etish darajasi 4 ballik Laykert shkalasi bo‘yicha 2,12 ballga baholanib, “o‘rtacha”darajani tashkil etdi. Xususan mazkur indikatorda otalar farzandining muammolarini hal qilishda va zarur yordam ko‘rsatishda faol ishtirok etish darajasi “yuqori” (3,03 ball), farzandlari bilan ularning sevimli mashg’ulotlari va qiziqishlari bilan shug‘ullanish darajasi “o‘rtacha” (1,86 ball), farzandlari bilan ularning his-tuyg’ulari va boshidan kechirganlari haqida gaplashib turish (1,68 ball) hamda farzandining uy vazifalarini o‘rganishdagi ishtiroki (1,87 ball) “past” darajani qayd etdi;

Otalarning farzandlari bilan birgalikda vaqt o‘tkazish “o‘rtacha” (1,93 ball) darajani tashkil etdi. Mazkur indikatorda otalarning muntazam ravishda oilaviy tadbirlarni va dam olish kunlarini birgalikda rejalashtirishda ishtiroki (2,25 ball), farzandlari bilan muloqot qilish uchun vaqt toppish (2,13), farzandining sevimli mashg’ulotlari va qiziqishlari bilan faol shug’ullanish darajasi (1,8 ball) “o’rtacha”, otalarning farzandlariga kitob yok ertak o’qishga ajratilgan vaqti “past” (1,55 ball) darajada baholangan. [10]

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan zamonaviy otalarning ijtimoiy-psixologik portretini yaratish maqsadida 156 nafar otalardan ijtimoiy-psixologik so’rovnoma o’tkazildi. Psixodiagnostik metodikalarning natijalar aprobasiyasi orqali quyidagi xulosalarga kelindi. Unga ko’ra, shahar hududida uy ro‘zg‘or tashvishlarning ko‘pligi hisobidan otalar asosiy e’tiborni moliyaviy savodxonlik darajasiga qaratishgan (moliyaviy savodxonlik-28%, mustaqillik-22%, mas’uliyatlilik-18%, xatti-harakati uchun javobgarlik-18%, o’ziga ishonch-14%). Tadqiqotda ma’suliyatlilik hamda xatti-harakati uchun javobgarlik kabi sifatlar qishloq hududida yashovchi otalarning qadriyarlar tizimida ustuvorlik kasb etishi aniqlandi(xatti-harakat uchun javobgarlik-22%, mas’uliyatlilik-20%, o’ziga ishonch-18%, moliyaviy savodxonlik-18%). G‘amxo‘rlik, moliyaviy mustaqillik hamda oilasiga e’tiborlilik faoliyat turidan qat’iy nazar otalarda ustuvor sifat tariqasida qadrlanadi. Zamonaviy otalarda bolaga o‘z fikrini aytishga imkon berish, bolani qiyinchilikdan asrash, bola

faolligini rag‘batlantirish orqali do‘st pozisiyasini tanlash yuqori ko‘rinishda ekani ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, ularda o‘ziga ishonch yuqori bo’lishi bilan birga har bir elementdan shubhalanishga moyillik ham balandroq ko‘rinish olishi ma’lum bo’ldi. Davlat tashkilotlarida ishlovchi otalarda o’ziga talabchanlik, javobgarlikni his qilish, qat’iylik, rejalar bilan to’lib-toshishlik, quvnoq odamlar davrasida vijdonan ishlashni ma’qul ko’rish ko’proq darajada namoyon bo’ldi.[10]

Xulosa. Shunday ekan, oilada sog‘lom munosabatning shakllanishida qolaversa, farzandlarni yetuk va komil inson bo‘lib voyaga yetishilarida otalarning roli va o‘rni juda ham beqiyos. Har bir insonning hayotidagi eng katta boyligi bu uning farzandlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Д.Ташмухамедова, Б. Умаров. “Ота – оила устуни” “tasvir nashriyot uyi” Тошкент – 2019
2. Isroil Amirillayev –O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakili, Paxtachi tuman bosh imom-xatibi, "Xo‘ja Ziyovuddin" jome masjidi imom-xatibi. 09.12.2019
3. Современный папа: какой он? Светлогорский районный исполнительный комитет. 18 октября 2022 г. 12:56
4. БАЗАРОВ В. Преподаватель восточно-европейского института психоанализа. 2024
5. Авдеева Н.Е. Роль матери и отца в развитии ребенка в раннем возрасте/ Дошкольное воспитание №3, 2005. С101-106. №5, 2005. С 110-117.
6. Клэр Э. Мужчина в роли отца / Мужчины: кризис маскулинности // Пер. с англ. Малахова А.О.
7. Коряков Л.И. Эволюция родительских образов в психоанализе // Психологический вестник Уральского государственного университета. 2002. вып. 3. С. 101-123.
8. Флейк-Хобсон К., Робинсон Б.Е., Скин П. Развитие ребенка и его отношений с окружающими. М.: Центр общечеловеческих ценностей, 1993.
9. Zamonaviy ota. U nimaga o'xshaydi? Qanday qilib yaxshi ota bo'lish mumkin? Buni iloji bormi? uz.drink-drink. 24.11.2022
10. O‘zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti. “Otalarning oilaviy hayotda o‘ni va farzand tarbiyasidagimishtiroki qanday?” 06:34 - 29 октябр 2024
11. D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayeva “Oila psixologiyasi” Toshkent 2005

Ergasheva Muhayyo Jo'rayevna
Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI OILAVIY BOLALAR UYI TARBIYALANUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalardagi irodaviy sifatlarni shakllanishi,hissiy yuksalish bosqichlari,to'liq oilada tarbiya topgan bolaning ruhiyati rivojlanishi bilan,noto'liq,oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining o'ziga xos tomonlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ontogenez,kichik maktab yoshi,oilaviy bolalar uyi,yeti yoshli bola, Ixtiyoriy diqqatni shakllantirish, boshlang'ich sinf, hissiy-irodaviy zo'riqish, ijtimoiy munosabatlar, jismoniy,ruhiy, psixodiagnostik metodlar, I.P.Pavlov, V.I.Makarova*

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ЧАСТНЫХ ДОМАХ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы формирования воли у детей младшего школьного возраста, этапы эмоционального развития, развития психики ребенка, воспитывающегося в полной семье, а также особенности детей, воспитывающихся в неполных семейных детских домах.*

Ключевые слова: *Онтогенез, младший школьный возраст, семейный детский дом, семилетний ребенок, Формирование произвольного внимания, начальная школа, эмоционально-волевая напряженность, социальные отношения, физическое, психическое, психодиагностические методы, И. П. Павлов, В. И. Макарова*

FORMATION OF WILL-WINNING QUALITIES IN PRIVATE HOMES FOR CHILDREN OF EARLY SCHOOL AGE

Abstract. *This article studies the formation of volitional qualities in children of primary school age, stages of emotional growth, the development of the psyche of a child brought up in a complete family, as well as the specific aspects of the children of incomplete, family orphanages.*

Keywords: *Ontogenesis, primary school age, family orphanage, seven-year-old child, Formation of voluntary attention, primary school, emotional-volitional tension, social relations, physical, mental, psychodiagnostic methods, I.P. Pavlov, V.I. Makarova*

Kichik maktab yosh davri,ontogenez psixologiyada o'zining faol fiziologik –psixologik rivojlanishi bilan ajralib turadi.Kichik maktab yosh davri 7-11 yoshni o'z ichiga olib,bu davr bevosita bilish jarayonlarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Inson bevosita jamiyat bilan munosabatga kirishar ekan,uning talablari bilan o'zining talab istaklarini uyg'unlashtiradi.Har qanday tashqi ta'sir inson ruhiyatini tarbiyalab boradi.yetti yoshli bolada bevosita tashqi ta'sirlani qabul qilishga tayyor,bilish jarayonlari rivojlanishi jadalligi,o'z-o'zini anglash jarayoni sodir bo'lganligi sababli aynan yetti yosh maktabga chiqish yoshi deb qabul qilingan.

Bolalar yetti yoshga yetib maktab bosqichiga qadam quyar ekan,dastlabki yillar davomida unda turli qiyinchilik va noqulayliklar yuzaga kelishini kuzatishimiz mumkin.Bu qiyinchiliklarni asosiy sababi sifatida bolada faoliyatning almashinuvi ya'ni o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga ko'chishi,tartib va ma'suliyat hissining yuzaga kelishi,shuningdek bolani guruhga tortilishi kabilarni nazarda tutish mumkin.maktabga qadam uyish bolaning xulq-atvorini nazorat qilishni,o'z xatti-harakatlariga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi. Bu esa bolaning mustaqilligini cheklaydi.Bola berilgan vazifalarni to'laqonli anglash va bajarish uchun o'zida ixtiyoriy diqqatni shakllantirishga majbur bo'ladi.Ixtiyoriy diqqatni shakllantirish boladan irodaviy zo'r berishni talab etadi.

Yana alohida shuni ta'kidlash lozimki 1- sinfda bolani maktabga moslashuvi bu bevosita bolaning maktabgacha tayyorlov bosqichini bosib o'tganligi bilan ham baholanadi.Maktabgacha tayyorlov bosqichida bola daftar,ruchka,ta'lim beruvchi o'qituvchi,doska kabi o'quv qurollariga hamda o'qish faoliyati va o'yin faoliyatini almashinuviga moslashadi. Keyinchalik ta'lim jarayonlarida ustozlar almashinuvi bolalarda qiyinchilik tug'dirmaydi.Bolalar o'qituvchilarga ta'lim beruvchi obraz sifatida qarashni o'rganishadi.

Maktabga qabul qilingan bolalarni kuzatar ekanmiz ulardagi tushuncha tasavvurlarning xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin.Bu xilma- xil fikrlar yaxlitlanib ular asta-sekin o'zlarining bir jamoa ekanligini anglaydilar va shu jamoaning a'zosi sifatida o'rin egallashga harakat qilishadi.O'zini guruhda his qilolmagan bolalarda esa maktabga moslashuv qiyinchilik bilan kechadi.Maktabga moslashuv jarayoni faqatgina 1- sinfda emas balki u kichik maktab yosh davri tugaguncha kechishi mumkin.O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra F.Akramova quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar.

Agar bola maktabgacha ta'lim muassasasiga bormay turib maktabga chiqsa,uning boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati yyetarlicha samarali bo'lmaydi.Ya'ni, bolada ta'limga moslashish- adaptatsiya sust kechadi,uning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi,muloqoti,aqliy faoliyati sust kechishi mumkin.Bolalarda ko'p hollarda jismoniy,ruhiy jihatdan tayyor emaslik holati kuzatiladi.birinchi sinfga o'qishga kelgan bolalarning maktabga tayyorgarligi darajasi turlicha bo'lgan xolatda – maktabga tayyorlangan va tayyor bo'lmagan bolaning ta'lim olishga nisbatan ruhiyatida bir qator xislatlar vujudga keladi.

Maktabga tayyorlangan bolada dadillik,ishonch ,faollik,o'z tengdoshlari orasida o'zini erkin tutishi kuzatilsa,maktab ta'limiga tayyorlanmagan bolada esa zo'riqish,uyalish,hadiksirash,o'ziga nisbatan ishonchsizlik kabi bir qator salbiy hislatlar namoyon bo'ladi va bu o'z navbatida uning ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ta'lim olish motivatsiyasi ilk o'quv ko'nikmalari shakllanmagan,psixik jarayonlari rivojlanmagan bola o'zlashtirishda orqada qoladi,o'qishga nisbatan qiziqishi so'nib yakkalanib qoladi.kuzatishlar shuni ko'rsatadiki bolalarda o'ziga nisbatan ishonchsizlik,o'zini atrodagilardan past ko'rish bolaning berilayotgan bilimlarni yaxshi o'zlashtira olmasligiga ham sabab bo'ladi va shu asnoda hissiy-irodaviy zo'riqish yuzaga keladi.bolalarni o'rab turgan,ular bilan hissiy bog'langan ota-onalar bolaning ta'lim tarbiyasiga e'tibor qaratish orqali undagi o'zgarishlarni tahlil qilib yordam berishlari, bolaning ta'lim olishidagi qiyinchiliklarni yengishiga yordam beradi.


Shu o'rinda ya'na quyidagi masalaga e'tibor qaratmoqchimiz.to'liq oilada tarbiya topayotgan bolalar bilan noto'liq yoki qayta tuzilgan,oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarning hissiy irodaviy shakllanishidagi xilma-xillikni ko'rishimiz mumkin.Bu rivojlanganlikni turli ko'rinishlari ularning psixikasida aks etadi.Turli tarbiyalanish yondoshuvlari ayniqsa o'smirlik davriga borib, bolalarning tarbiya natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Insonning irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobilligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda,ta'lim jarayonida yuzaga kelgan.Ijtimoiy turmush sharoitlari,toboro o'sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlar bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida borliqni o'rganish,o'zlashtirish va uni qayta ishlash,qayta qurishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni toqozo etgan.

Insonning irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobilligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda,ta'lim jarayonida yuzaga kelgan.Ijtimoiy turmush sharoitlari,toboro o'sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlar bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida borliqni o'rganish,o'zlashtirish va uni qayta ishlash,qayta qurishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni toqozo etgan.

L.F.Burlachuk fikriga ko'ra ,psixodiagnostik metodlarni uch xil yondoshuv asosida tasniflash orqali bolalarga yondoshuvni ko'rib chiqish mumkin.

Insonning irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobilligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda,ta'lim jarayonida yuzaga kelgan.Ijtimoiy turmush sharoitlari,toboro o'sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlar bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida borliqni o'rganish,o'zlashtirish va uni qayta ishlash,qayta qurishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni toqozo etgan.



Ilmiy natijalar tahlilining ko'rsatishicha,iroda faqat tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo'lib qolmasdan,balki insonning ortiqcha noto'g'ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.Shunday qilib, irodaviy harakatlar va qo'zg'alish ,ham tormozlanish jarayonlarini bilan uzviy bog'liq bo'lib,har ikkalasi bir – biriga uzluksiz ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

I.P.Pavlovning ta'biricha, biz, normal kishilar doimiy ravishda ma'lum harakat va so'zlardan o'zimizni tiyib turamiz-ku, bu esa katta yarim sharlarning muayyan punktlariga tormozlanish impulslari yuborish emasmi,degan jumlalarni uchratishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki bolalardagi hissiy -irodaviy sifatlarni shakllanishida kichik maktab yoshidagi rivoji boshqa har yoshdan ko'ra keskin rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.V.I.Makarova kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda hissiy -irodaviy psixologik xususiyatlarni o'rganishda , test o'rnida, gimnastik stoldan matga (gollandcha, inglizcha "mat"- polga yoziladigan mato) ga sakrashni tanlagan,chunonchi: oldingi 180 g aylanish bilan old tomonga,orqaga kabi sinovlarda qatnashish jarayonidagi hissiy-psixologik,irodaviy jarayonlarni rivojlanish darajasini o'sishini ko'rishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda irodaviy jarayonlarning shakllanishi bola o'z-o'zini anglash boshlangandan so'nggina, o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ulari,uy-fikrlari,xatti-harakatlari ustidan hukmronlik qilishni o'rganib boradilar. Bu hukmronlik jilovini barqarorligini inson irodasini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. Журнал Социальных Исследований, 3(6).

2. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. Человек. Наука. Социум, (2), 62-74.

3. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. Человек. Наука. Социум, (1), 33-46.

4.Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. Ученый XXI века, 62.

5. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. Человек. Наука. Социум, (2), 8-27.

6. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. Журнал Социальных Исследований, (SPECIAL ISSUE 1).

7. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. Мировая наука, (12), 56-59.

8. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. Теория и практика современной науки, (3), 9-11.

9. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Uzbek model of small business development. Учёный XXI века, (3-4 (16)), 58-63.

10. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O‘zbekistonda maktab bitiruvchi o ‘quvchilarini kasb-hunar bilan ta’minlashda ijtimoiy ish amaliyoti. Студенческий вестник, (8-3), 94-95.

11. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O’zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. Интернаука, (7-2), 91-93.

12. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O‘zbekiston maktablarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchisi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ijtimoiy ish amaliyoti istiqbollari. Студенческий вестник, (8-3), 82-83.

13. Abdurakhmonova,M., Karimova,G., & Karimova,M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. Интернаука, (11-2),50-51.

14. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor, (5), 8.

15. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021).

Farfiyev Yoqubjon Atxamdjonovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi katta o‘qituvchisi
Orcid 0009-0004-9158-5784

ICHKI ISHLAR ORGAN RAHBARLARINING MUHIM KASBIY SIFATLARINI O‘RGANISH NATIJALARI

Annotasiya. *maqolada ichki ishlar organlari rahbarlarining kasbiy mahorati, ahloqiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy hamda kasbiy va jangovar tayyorgarlik darajasi nazariy-metodologik hamda emperik jixatdan tahil qilingan.*

Ichki ishlar organlari rahbar xodimlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi tizimdagi asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda, xodimlarning jismoniy, asab-ruhiy zo‘riqish hamda xizmat faoliyatining turli xil salbiy omillarga bardosh berishda jismoniy tayyorgarlikning amaliy ahamiyati haqida ilmiy ma'lumotlar jamlangan.

Shuningdek, bu tadqiqotning amaliy jihatlari sifatida rahbar xodimlarning yuqori darajadagi ish qobiliyatlarini saqlab turishi va jismoniy jihatdan takomillashtirishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy, ruhiy sifatlarini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini egallashlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ichki ishlar organlaridagi kasbiy va jismoniy tayyorgarlik muammolar hamda ularning yechimi haqida takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *rahbar, kasbiy mahorat, ahloqiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, jangovar jang usullar, jismoniy madaniyat, matonat, iroda, to‘g‘ri qaror qabul qilish, operativ vaziyatni baholash, gipodinamiya, sog‘lom turmush tarzi, kasbiy tayyorgarlik.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ВАЖНЫХ КАЧЕСТВ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация: *в статье с теоретической, методологической и эмпирической точки зрения проанализирован уровень профессионального мастерства, морально-психологической, духовно-воспитательной и профессионально-физической подготовки руководителей органов внутренних дел.*

Уровень физической подготовки руководителей сотрудников органов внутренних дел является одним из основных звеньев системы. В данном исследовании собраны научные сведения о практическом значении физической подготовки в борьбе с различными негативными факторами физического и психического напряжения сотрудников встречающей в служебной деятельности.

Также, как практический аспект данного исследования служит основой для развития физических, психических качеств и приобретения практических навыков, необходимых руководителеям для поддержания и совершенствования своих физических способностей на высоком уровне. Также разработаны предложения по решению проблем профессиональной и физической подготовки в органах внутренних дел.

Ключевые слова: *руководитель, профессиональные качества, морально-психологическая и духовно-воспитательная подготовка, методы боевих единоборств, физическая культура, воля, правильное принятие решений, оценка оперативной обстановки, гиподинамия, здоровый образ жизни, профессиональная подготовка.*

RESULTS OF THE STUDY OF PROFESSIONALLY IMPORTANT QUALITIES OF THE LEADERS OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotation. *The article analyzes the level of professional skill, moral and psychological, spiritual and educational and professional and physical training of the heads of internal affairs agencies from a theoretical, methodological and empirical point of view.*

The level of physical fitness of the heads of employees of the internal affairs bodies is one of the main links of the system. This study collects scientific information on the practical importance of physical fitness in combating various negative factors of physical and mental stress of employees encountered in official activities.

Also, as a practical aspect of this study serves as a basis for the development of physical, mental qualities and acquisition of practical skills necessary for managers to maintain and improve their physical abilities at a high level. Also, proposals have been developed to solve the problems of professional and physical training in the internal affairs agencies.

Keywords: *manager, professional qualities, moral-psychological and spiritual-educational training, martial arts methods, physical culture, will, correct decision-making, assessment of the operational situation, physical inactivity, healthy lifestyle, professional training.*

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o‘z navbatida ichki ishlar organ rahbarlarining zimmasiga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Mazkur vazifa hamda hukumat tomonidan vazifalar, shuningdek, ijimoiy sohalardagi muammolarni bartaraf etishda har bir rahbarning sohaviy kasbiy kompetentligi bilan birga uning jismoniy holati va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqligi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan rahbarlar tarkibi, ularning kasbiy mahorati, axloqiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi hamda fuqarolarning qonuniy huquq hamda manfaatlarini samarali himoya qilish, davlat va jamiyatning xavfsizligini ta'minlash, bunda birinchi navbatda ichki ishlar organlari kadrlarini tayyorlash hamda ularning kasbiy va jangovar tayyorgarligini oshirish masalalari dolzarbliligini belgilaydi.

Ichki ishlar organlari rahbar xodimlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi tizimdagi asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlikning eng asosiy maqsadi bo‘lib xodimlarning jismoniy, asab-ruhiy zo‘riqish hamda xizmat faoliyatining turli xil salbiy omillarga bardosh berishda jismonan tayyor bo‘lishni qamrab oladi. Shuningdek, rahbar xodimlarning yuqori darajadagi ish qobiliyatlarini saqlab turish va jismoniy jihatdan takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan jismoniy, ruhiy sifatlarini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini egallashlari uning vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda ichki ishlar sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan rivojini kengaytirish orqali xodimlarning ilmiy salohiyatini xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishi zarurdir. Jamiyatda xizmat qilayotgan rahbar va xodimlar yuqori darajada ish qobiliyatlarini saqlab turish va ma'naviy salohiyatini oshirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF–60–sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–10-son va 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-son qarorlarida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning ichki ishlar tizimi sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.[1]

Jismoniy tayyorgarlik orqali rahbar xodimlarda quyidagi asosiy ko‘nikma va malakalar shakllanib boradi:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli Farmoni. https: //Lex.uz/docs/5841063.

2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli Qarori. https://lex.uz/uz/docs/6364837.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-son Qarori https://lex.uz/docs/4145890.

- operativ-xizmat vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan darajada professional muhim jismoniy fazilatlarni rivojlantirish va saqlash;

- jismoniy kuchdan, shu jumladan jangovar jang usullaridan samarali hamda qonuniy foydalanish;

- salomatlikni asrash va mustahkamlash, ish unumdorligining umumiy ko‘rsatkichlarini saqlash, organizmning salbiy omillari ta'siriga chidamliligini oshirish va x.z.

Jismoniy tayyorgarlik rahbar xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasining asosiy qismi hisoblanib, ularning hayoti va faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Jangovar-jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari rahbar xodimlarning salomatligini yaxshilashga, irodasini mustahkamlab, epchil va chaqqon harakat qilishga, o‘zini o‘zi boshqara olishga o‘rgatadi hamda ularning hushyorligi, idroki, matonatini shakllantirib, xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishga xizmat qiladi.

Ichki ishlar tizimidagi chuqur tahlillarga asoslanmagan keskin o‘zgarishlar davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Jahondagi rivojlangan ichki ishlar tizimi tajribalari tahlili asosida ilg‘or boshqaruv texnologiyalarini joriy etish O‘zbekiston ichki ishlar tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbuslari bilan ichki ishlar tizimini jahon standartlari asosida tashkil etish bo‘yicha chuqur islohotlar o‘tkazilmoqda. Bu o‘zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ushbu muammolarni hal qilishda kadrlar menejmentini o‘rganish, yaratish va ularni ichki ishlar tizimiga tadbiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshirilayotgan islohotlarni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Kadrlar tayyorlash tizimini o‘rganish borasida xorijiy va respublikamiz olimlari va amaliyotchilar tomonida juda ko‘plam izlanishlar olib borilgan. Jahonda shaxs faoliyat va uni boshqarishni tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli dolzarb muammolar o‘z yyechimini topgan va izlanishlar davom etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda kadrlar menejmenti va boshqaruv psixologiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarda o‘z aksini topgan. A.Albert, E.Vinter, P.Druker, D.Duglas, M.Meskoun, A.Fayol kabi yetuk olimlar tomonidan menejment sohasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Respublikamiz olimlaridan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, D.G.Muxamedjanova, N.S.Safoyev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, E.Sattorov, Z.T.Nishanova, B.Umarov, O.E.Haitov, S.V.Asyamov, M.Ikramov, I.Maxmudov va boshqa olimlarning ilmiy-uslubiy ishlanmalarini keltirishimiz mumkin. Shu sababdan, ichki ishlar sohasida kadrlar menejmentining zamonaviy metodologiyasiga ko‘proq e'tibor qaratilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar tizimida malakali zamonaviy kadrlarni shakllantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha jahonning ilg‘or tajribasidan foydalanish va mamlakatimizdagi ichki ishlar muassasalarida rahbar va xodim jarayonini tashkil etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Ichki ishlar sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalariga doimo muhim jabha hisoblangan. Zamonaviy rivojlanish va uning yaqin kelajakdagi istiqbolining o‘ziga xos xususiyati shundaki, insonning shaxsiy sifatlari iqtisodiy o‘sishda tobora zaruriy omilga aylanib bormoqda. A.A.Kobozevning ta'kidlashicha, kasbiy tayyorgarlik bu ta'lim muassasalarida ham, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatish joyida ham amalga oshiriladigan maxsus kasbiy-amaliy pedagogik tizim bo‘lib, xodimlarning butun xizmat muddatini qamrab oladi.[1]

Xodimlarning kasbiy sifatlarini o‘rgangan R.B.Xibirtov va A.I.Usheninlarning ta'kidlashicha, jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi insonning psixologik funksiyalarining barqarorligini sezilarli darajada oshirishi va neyropsixik bosim hamda og‘ir jismoniy zo‘riqish sharoitida uning aqliy faoliyatini oshirishni ta'minlashi mumkin.[2]

[1] Kobozev A.A. Pravovoe regulirovanie deyatelnosti sistemi professionalnoy podgotovki kadrov v organax vnutrennix del Rossiyskoy Federasii: monografiya / A.A. Kobozev. – M.: Avista konsalting, 2007.

[2] Xibirtov R.B., Ushenin A.I. Fizicheskaya podgotovka – effektivnoe sredstvo povisheniya professionalnogo masterstva sotrudnikov polisii // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta MVD Rossii. 2012. №4(56). S. 242-245.

Yu.F.Kuramshinning fikricha, jismoniy mashqlar jismoniy qobiliyatlarni (sifatlarni), organ va tizimlarni rivojlantirish, harakat qobiliyatlarini shakllantirish hamda takomillashtirish uchun qo‘llaniladigan harakat yoki harakatlardir. Bir tomondan, bu jismoniy takomillashtirish, insonning tana o‘zgarishi, uning biologik, aqliy, intellektual, hissiy va ijtimoiy mohiyati bo‘lsa boshqa tomondan, bu insonning jismoniy rivojlanishining usulidir. Jismoniy mashqlar barcha turdagi jismoniy madaniyatning asosiy vositasidir.[1]

Jismoniy va jangovar tayyorgarlik hozirgi paytda ichki ishlar organlari xodimlari mahoratining asosiy elementi sifatida ko‘rib chiqilar ekan, xodimlarning o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni yuksak darajada va sifatli bajarishlarida yetakchi omil hisoblanadi. Shu bois, barcha toifadagi rahbarlarning jismoniy tayyorgarlikning har qanday bo‘limi yoki elementining xizmat vazifalarini bajarishdagi ahamiyatini baholashga bo‘lgan intilishlari tushunarli holdir.[2]

Tadqiqotchi A.A.Kochkarov ichki ishlar organlari rahbar xodimlarining jangovar shayligini oshirish maqsadida ko‘proq e'tiborni kasbga yo‘naltirilgan amaliy jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka qaratgan bo‘lib, u jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish modul tizimini ishlab chiqgan.[3]

Yuqorida tadqiqotchilarning fikr va qarashlarining tahlili asosida jangovar-jismoniy tayyorgarlik ichki ishlar organ rahbarlari tayyorgarliklarining asosiy qismi hisoblanib, ularning hayoti va faoliyatida muhim o‘rin tutadi deb hisoblashimiz mumkin. Jangovar-jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari rahbar xodimlarning salomatligini yaxshilashga, irodasini mustahkamlab, epchil va chaqqon harakat qilishga, o‘zini o‘zi boshqara olishga o‘rgatadi, hushyorligi, idroki, matonati va jipsligini shakllantirib, ularni xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishga undaydi.[4]

Xizmat faoliyatni ta'minlash, yuklatilgan vazifalarni bajarishda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, aniq va hamda tezkor harakatlarni amalga oshirish, operativ vaziyatni baholash qobiliyati ichki ishlar organ rahbarlarining muhim fazilatlari bo‘lib hisoblanadi. Ushbu fazilatlarning rivojlanishi xodimni o‘ziga ma'qul kelgan hamda yoqimli deb topilgan sport va jismoniy tayyorgarlik bilan shug‘ullanilganida erishiladi.

Jamiyat hayotini yanada farovonlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada kengaytirish sohasida olib borilgan islohotlar natijasida ishlab chiqarishni boshqarish, xodimlar salomatligini muhofaza qilish va ularning mehnatga bo‘lgan munosabatlarini tubdan o‘zgartirishga erishildi. Biroq, hamma mehnat jamoalarida ham bu jarayon samarali yo‘lga qo‘yilgan emas.

Shuning uchun ham bugungi kunda ichki ishlar organ rahbarlari o‘z faoliyati hamda mehnat jamoalarining samarali faoliyatini ta'minlashdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanmoqda:

- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;

- gipodinamiya (kamharakatlik) tufayli yuzaga keluvchi turli kasb kasalliklaridan jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi asoslari orqali muhofaza qilish;

- sport va jismoniy tarbiya kundalik ish jarayonini bir bo‘lagini tashkil qilishi zarurligi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish va x.z.

Kasbiy tayyorgarlik tushunchasini nazariy ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kasbiy tushunchasi - uning predmeti sifatida maxsus kasbga ega bo‘lish; kasb bilan bog‘liq, kasbga xos, biror bir kasbga oid; —tayyorgarlik esa bilim va ko‘nikmalar zaxirasi, ma'lum bir ishni bajarish qobiliyati, maqsadli o‘qitish, sir asrorlarini o‘rganish ma'nolarini anglatadi. Keltirilgan etimologik ta'riflardan kelib chiqsak, kasbiy tayyorgarlik bu ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan xizmatni amalga oshirishga tayyorgarlik darajasini anglatadi.[5]

Ba'zi manbalarda esa kasbiy tayyorgarlik ma'lum bir faoliyat sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plami sifatida tavsiflanadi.

---

[1] Kuramshin Yu. F. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. M.: Fizkultura i sport, 2010. 320 s.

[2] Kuramshin Yu. F. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. M.: Fizkultura i sport, 2010. 320 s.

[3] Кочкаров А.А. Педагогическая технология профессионально-прикладной физической подготовки курсантов высших сержантских курсов. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Т., 2006.

[4] tashayxov A.A. Jangovar-jismoniy tayyorgarlik. Darslik. – T., 2016. – 10 b.

[5] Tolkoviy slovar Dmitrieva // Akademik, 2000-2022. (Manba: https://dic.academic.ru/)

Shuningdek, shaxsning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va bunday faoliyatga kasbiy yo‘naltirilganligini shakllantirishni ta'minlaydigan tashkiliy va pedagogik chora-tadbirlar tizimi sifatida ta'rif berilgan.[1]

Ba'zi yuridik lug‘atlarda, kasbiy tayyorgarlik – bu muayyan mehnat, xizmat funksiyalarini (ayrim mehnat, xizmat faoliyati, kasblar) bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim turidir, deb ta'rif berilgan.[2]

Tadqiqotchi O.A.Chursinning fikricha, kasbiy tayyorgarlik – bu ma'lum bir faoliyat sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar to‘plamidir.[3] Kasbiy tayyorgarlik ish jarayonida, malaka oshirish tizimida, mustaqil ta'lim orqali takomillashadi.

Yuqoridagilarni tizimli umumlashtirgan holda, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibini kasbiy va jismoniy tayyorgarligi – bu ichki ishlar organlariga yuklangan vazifalarni xodimlar samarali bajarishlari uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va uzluksiz takomillashtirishning tashkiliy va maqsadli jarayoni, deb ta'riflasak bo‘ladi.

Emperik natijalar. Yuqoridagilarni tizimli umumlashtirgan holda, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibini kasbiy va jismoniy tayyorgarligi – bu ichki ishlar organlariga yuklangan vazifalarni xodimlar samarali bajarishlari uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va uzluksiz takomillashtirishning tashkiliy va maqsadli jarayoni, deb ta'riflasak bo‘ladi.

Tadqiqotimiz davomida tanlab olingan 262 nafar rahbar xodimlarning kasbiy tayyorgarligining birinchi bosqichi bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik darajasi emperik jihatdan o‘rganildi.

Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari va ularni bajarishga qo‘yiladigan talablar o‘g‘il bolalar va qizlar uchun, shuningdek yosh toifalaridan kelib chiqib alohida belgilandi. Umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash metodikasi sifatida uch bosqichli tanlovlar o‘tkazildi.

O‘g‘il bolalar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari bo‘lib quyidagilar tanlandi:

–to‘sinda tortilish;

–100 metrga yugurish;

–1000 metrga yugurish.

Qizlar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari bo‘lib esa:

–kuch ishlatish mashqlar kompleksi;

–100 metrga yugurish;

–1000 metrga yugurish.

Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlarini bajarish oralig‘ida nomzodlarga dam olish va ruhiy charchoqdan forig‘ bo‘lish maqsadida kamida 10 daqiqa qisqa tanaffus berildi.

Umumjismoniy tayyorgarlik darajasi 50 ballik tizim asosida baholandi, har bir mashq natijasiga ko‘ra sinaluvchilarga “a'lo” natija uchun – 16,6 ball, “yaxshi” ko‘rsatkich uchun – 13,3 ball, “qoniqarli” baholash uchun – 10 ball, “qoniqarsiz” baho uchun – 0 ball berildi.

1-jadval. Jismoniy tayyorgarlik darajasi natijalari

№	Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari	Yoshga doir tahlil			
		25-35 yosh N=79	**36-45 yosh** N=161	**46 yoshdan yuqori** N=22	**Jami ball**
1.	To‘sinda tortilish va kuch ishlatish mashqlari kompleksi	6,5	5,1	1,8	**4,5**
2.	100 metrga yugurish;	10,5	10,2	4,8	**8,5**
3.	1000 metrga yugurish.	1,2	2,6	2,4	**2,1**
O`rtacha jami:		**18,2**	**17,9**	**9,1**	**15,1**

[1] Noviy slovar metodicheskix terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazikam) / E. G. Azimov, A. N.Shukin. – M.: Izdatelstvo IKAR, 2009

[2] Yuridicheskiy slovar // Nasionalniy sentr pravovoy informasii Respubliki Belarus. (Manba: http://multilang.pravo.by/ru)

[3] Chursin O.A. Professionalnaya podgotovka sotrudnikov organov vnutrennix del po mestu slujbi: perspektivi i tendensii // Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii. № 2. 2015. S. 193-196.

Ichki ishlar organ rahbarning yoshga doir jismoniy tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Biz emperik tadqiqotlarda ishtirok etgan rahbarlarning yosh davriga ko‘ra uch toifaga ajratdik, ular:

–25-35 yoshgacha;

–36-45 yoshgacha;

–46 yoshdan yuqori.

Jadvaldagi miqdoriy ko‘rsatkichlar va ularning tahliliga ko‘ra, ichki ishlar organ rahbarning kasbiy sifatlaridan biri sifatida jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘rganilganda o‘rtacha miqdoriy ko‘rsatkich 15,1 ballni tashkil etdi. Sinaluvchilardan 25-35 yoshgacha bo‘lgan rahbarlarda eng yuqori 18,2 ball kuzatilgan bo‘lsa, 36-45 yosh chegarasidagi rahbarlarda 17,9 ball va 46 yoshdan yuqori bo‘lgan rahbarlarda eng past natija 9,1 ball qayd etildi.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida xulosa qilish mumkinki, tadqiqotimizda qatnashgan ichki ishlar organ rahbarlari maksimal 50 ballik tizimdagi baholashdan uning 15,1 ball (umumiy balning 30,2%) to‘pladilar.

2-jadval. Jismoniy tayyorgarlik darajasi natijalari

№	Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari	Mehnat stajiga oid tahlil			
		10 yilgacha N=9	**11-20 yil** N=178	**21 yildan yuqori** N=75	**Jami ball**
1.	To‘sinda tortilish va kuch ishlatish mashqlari kompleksi	4,1	5,8	3,8	**13,7**
2.	100 metrga yugurish;	7,8	10,5	8,6	**26,9**
3.	1000 metrga yugurish.	0,0	2,0	2,7	**4,7**
	O`rtacha jami:	**11,8**	**18,3**	**15,2**	**15,1**

Ichki ishlar organ rahbarning mehnat stajiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Biz emperik tadqiqotlarda ishtirok etgan rahbarlarning mehnat stajiga ko‘ra uni ham uch toifaga ajratdik, ular:

–10 yilgacha;

–11-20 yil oralig‘ida;

–21 yildan yuqori.

Keltirilgan jadvalda ko‘rinib turibdiki eng past ko‘rsatkich, ya'ni 11,8 ball 10 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda kuzatildi. Bunday keskin tafovuti sifatida tadqiqotda qatnashgan 10 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan rahbarlar soni 9 nafar bo‘lib, ularning o‘rtacha ko‘rsatkich darajasi boshqa mehnat stajiga ega bo‘lgan rahbarlarning ko‘rsatkichlaridan past hisoblanadi. Eng yuqori ko‘rsatkich 18,3 ball 11-20 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan rahbarlar tomonidan qayd etildi.

Shuni ta'kidlash joizki umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash ichki ishlar vazirining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazish qoidalarida belgilangan talablar va me'yorlar asosida doimiy ravishda o‘tkazib kelinadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, ichki ishlar organlari safida xizmat olib borayotgan barcha bo‘g‘im rahbarlari uchun muhim kasbiy sifatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etishda rahbar xodimdan umumjismoniy va psixologik tayyorgarlik darajasi oshirish hamda uni kamol toptirish vazifalarini qo‘ymoqda.

Xulosalar: Ichki ishlar organlarida yuqorida qayd etilgan islohotlar va qarorlarni amalga oshirish uchun boshqaruv kadrlari va rahbar va xodimlar qat'iy tartib intizom asosida mas'uliyatni sezishlari, kadrlar tayyorlash tizimiga o‘z hissalarini qo‘sha oladigan kadr sifatida tayyor bo‘lishlari lozim.

➢ Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimi kadrlari shaxsni boshqarishning barcha usul va vositalaridan xabardor bo‘lishlari va buning uchun esa o‘z ustilarida tinimsiz mehnat qilishlari kerak. Har qanday ichki ishlar tizimi faoliyatida xodimlarni tanlash va ularni oqilona boshqarish eng mas'uliyatli vazifalardan hisoblanishini hisobga olgan holda shaxslarning kasbiy kompitentliligini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

➢ Boshqaruv kadrlari va xodimlarning mehnat faoliyatini baholashda olib borgan ilmiy, uslubiy, ma'naviy ishlar uyg‘unligida aks etishini hisobga olgan holda, ularning mehnatini rag‘batlantirish bilan uzviyligini ta'minlash orqali yuqori samaraga erishish mumkin bo‘ladi.

➢ Ichki ishlar organlari tizimining mehnat bozoriga, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoniga moslashuvchanligini oshirib, tizimda samaradorlikni yuksaltirishning muhim sharti qilib olinishi zarurdir. Chunki, ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlar amaliyotda o‘z o‘rnini topa olmay, butunlay boshqa sohalarda ishlamoqdalar.

➢ Amaliyotda ilg‘or xorijiy mamlakatlarning boshqaruv tajribalarini qo‘llash tizimini yanada takomillashtirish, buning uchun rahbar va xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor ichki ishlar tizimi bo‘yicha malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta'lim olishi muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar f aoliyatiningkundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., 2017.

2. Sh.M.Mirzieyoyev “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 8 yanvardagi PQ-60-sonli https: //Lex.uz/docs/5841063.

3. Sh.M.Mirzieyoyev “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-sonli Qarori. https://lex.uz/uz/docs/6364837.

4. Sh.M.Mirzieyoyev “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-son Qarori https://lex.uz/docs/4145890.

5. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности.- М., Наука, 1980.- 333 с.

6. Аташайхов А.А. Жанговар-жисмоний тайёргарлик. Дарслик. – Т., 2016. – 10 б.

7. Азимов Э. Г., Н.Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) /– М., Издательство ИКАР, 2009.

8. Кобозев А.А. Правовое регулирование деятельности системы профессиональной подготовки кадров в органах внутренних дел Российской Федерации: монография / А.А. Кобозев. – М.: Ависта консалтинг, 2007

9. Кочкаров А.А. Педагогическая технология профессионально-прикладной физической подготовки курсантов высших сержантских курсов. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Т., 2006.

10. Курамшин Ю. Ф. Теория и методика физической культуры. М.: Физкультура и спорт, 2010. 320 с.

11. Толковый словарь Дмитриева // Академик, 2000-2022. (Манба: https://dic.academic.ru/)

12. Юридический словарь // Национальный центр правовой информации Республики Беларусь. (Манба: http://multilang.pravo.by/ru)

13. Чурсин О.А. Профессиональная подготовка сотрудников органов внутренних дел по месту службы: перспективы и тенденции // Вестник Московского университета МВД России. № 2. 2015. С. 193-196.

14. Хыбыртов Р.Б., Ушенин А.И. Физическая подготовка – эффективное средство повышения профессионального мастерства сотрудников полиции // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2012. №4(56). С. 242-245.

Ilhamova Dilfuza Ilyasovna
O'zMU professori
Rafikova Nozima Muzaffarovna
O'zMU 1- kurs magistranti

TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY SO'NISH HOLATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada tibbiyot xodimlarida kasbiy yonish holatining psixologik xususiyatlari psixologiyadagi turli yondashuvlar asosida yoritilgan. Ta'kidlanishicha kasbiy stress va so'nishni yuzaga keltiruvchi mexanizmlar mohiyati hali hanuz to'liq ochib berilmagan. Bir qator olimlar mazkur hodisada asosiy o'rinni shaxslilik xususiyatlari egallashini ta'kidlasalar, boshqa bir tadqiqotchilar kasbiy muhit ta'siri ostida yuz berishini qayd etadilar.*

Kalit so'zlar: *kasbiy yonish, inson-inson, professionalizm, tibbiyot xodimlari, dezadaptatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО УСТАИВАНИЯ У МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ

Аннотация. *В статье описаны психологические особенности профессионального выгорания медицинских работников на основе различных подходов в психологии. Отмечается, что сущность механизмов, вызывающих профессиональный стресс и выгорание, до конца не раскрыта. Ряд ученых подчеркивают, что главное место в этом явлении занимают личностные качества, другие же исследователи отмечают, что оно возникает под влиянием профессиональной среды.*

Ключевые слова: *профессиональное выгорание, личность, профессионализм, медицинский персонал, дезадаптация.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROFESSIONAL EXHAUST IN MEDICAL WORKERS

Abstract. *The article describes the psychological characteristics of professional burnout of medical workers based on various approaches in psychology. It is noted that the essence of the mechanisms causing professional stress and burnout has not been fully disclosed. A number of scientists emphasize that the main place in this phenomenon is occupied by personal qualities, while other researchers note that it occurs under the influence of the professional environment.*

Keywords: *professional burnout, personality, professionalism, medical personnel, maladaptation.*

So'nggi yillarda insonning turli kasb sohalarida stressga barqarorligi va mazkur barqarorlikning shakllanish mexanizmlariga bog'liq masalalarga qiziqish keskin ortishi kuzatilmoqda. Kasbiy stress va kasbiy so'nish muammolarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar "Inson-inson" tizimida mehnat qiluvchi kasb egalari – o'qituvchi-pedagoglar, shifokorlar, psixologlar, savdo xodimlari va x.k.larda olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qayd etilishicha, barqaror kasbiy stress kasbiy so'nishga olib kelishi muqarrar. Bunday holatda mutaxassisning to'la qonli faoliyati va faol hayotiy pozitsiyasi apatiya va o'z faoliyatiga nisbatan befarqlik bilan munosatda bo'lishiga olib keladi, hayotiy qadriyatlarning yo'qolishiga, (C.Maslach, S.Jackson, 2006), uning jismoniy va ruhiy salomatligiga ish sifatiga, kasbdoshlari va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi, L.N.Yureva, L.I.Larensova fikriga ko'ra xattoki spirtli ichimlarga yoki narkotik moddalarga ruju qo'yishi, ba'zi hollarda xattoki suitsidga ham olib kelishi mumkinligini e'tirof etadilar.

Kasbiy stress va so‘nishni yuzaga keltiruvchi mexanizmlar mohiyati hali hanuz to‘liq ochib berilmagan. Bir qator olimlar mazkur hodisada asosiy o‘rinni shaxslilik xususiyatlari egallashini ta’kidlasalar, boshqa bir tadqiqotchilar kasbiy muhit ta’siri ostida yuz berishini qayd etadilar.

Yordam beruvchi kasb egalari, jumladan tibbiyot xodimlari faoliyatini olsak, mehnat sharoitlari xususiyatlari, insonlararo o‘zaro ta’sir sharoitlarining murakkabligi mazkur kasb egalarida kasbiy stress va kasbiy so‘nishning oldini olish, ya’ni profilaktikasini amalga oshirish yo‘llarining ilmiy jihatdan hal etilishi muhim amaliy ahamiyatga egaligi ta’kidlanadi.

Yordam beruvchi kasblar sohasiga kiruvchi mutaxassislarda kasbiy stress va kasbiy so‘nish yuzaga kelish mexanizmlarining o‘ziga xosligi, omillari va xususiyatlari V.D.Mendeleevich, R.M.Granovskaya, V.Yu.Ribnikov, Ye.N.Ashanina, D.Shuls, N.Ye.Vodopyanova, Ye.S.Starchenkova, A.I.Gubin, V.I.Yevdokimov, V.V.Boyko, L.I.Larensova, A.P.Zilber, K.M.Lebedinskiy va boshqalar ishlarida batafsil ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan E.G‘.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, N.M.Majidov, D.G.Muxamedova, R.Gaynutdinov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, A.R.Rasulov, I.I.Maxmudov, E.N.Sattorov va boshqalar turli kasb egalari kasbiy kompetentligining shakllanishi, ularda kasbiy muhim sifatlar namoyon bo‘lish xususiyatlari, shuningdek, kasbiy so‘nishni oldini olish choralari bo‘yicha bir qator ilmiy g‘oyalarni ilgari surganlar va amaliy tavsiyalar berganlar.

So‘nggi yillarda tibbiyot xodimi shaxsiga qo‘yiladigan talablar uning kasb malakasi, kasbiy mahorati, kasbiy tayyorgarligi, o‘z kasbining barcha jihatlarini har tomonlama to‘liq va puxta egallagan ustasiga xos sifatlari darajasini oshirib borishni taqozo etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, kasb malakasi, kasbiy mahorat, kasbiy tayyorgarlik darajasi, kasb ustasi kabi tushunchalarning har biriga psixologik ta’rif va izoh keltirilgan. Shu bilan birga mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-biriga juda yaqin va umumiy o‘zakka ega ekanligini hisobga olgan holda ularni umumlashtirib ifodalovchi tushuncha sifatida professionalizm deb nomlash maqsadga muvofiq ekanligi juda ko‘p mualliflar tomonidan e’tirof etiladi. Tibbiyot fani uchun fundamental xarakterga ega bo‘lgan shifokorning amaliy faoliyati, avvalambor, psixik aks ettirish orqali taqozo etilgan hayot birligi bo‘lib, uning haqqoniy funksiyasi shundaki, u subyektni predmetli dunyoda yo‘naltiradi. Boshqacha qilib aytganda faoliyat – bu reaksiya emas, balki qurilish, o‘z ichki o‘tishlari va aylanishlari, o‘z rivojlanishiga ega tizimdir.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra kasbiy so‘nish salbiy emotsiyalarning ichda to‘planishi natijasida yuzaga keladi. Kasbiy so‘nish ko‘pincha ish sharoitlari va kasb joylari nomuqim va beqaror bo‘lgan kasb egalarida, birinchi navbatda “inson-inson” tizimida faoliyat yurituvchi kasb egalarida uchraydi. So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda bu holat ko‘proq uchrashi qayd etilmoqda.

Kasbiy so‘nish bu uzoq davom etgan surunkali stress natijasida rivojlanadigan sindrom bo‘lib, mehnat qiladigan insonni emotsional-energetik va shaxslilik resurslarining holdan toyishiga olib keladi. G.Sele ta’rifiga ko‘ra, kasbiy yonish umumiy adaptatsion sindrom – holdan toyish bosqichining uchinchi fazasi yoki distressdir.

Bir qator tadqiqotlarda aniqlanishicha kasbiy so‘nish darajasining ortib borishi kasbiy stresslarga ham bog‘liq. L.Roui kasbiy so‘nish sindromining psixologik stress va stressga barqarorlikning past darajasi, irodaviy sifatlar va chidamlilikning pastligi bilan izohlaydi.

O‘z navbatida ish joylaridagi stresslar bevosita professional so‘nish bilan ham bog‘liq. Kasbiy so‘nish birinchi navbatda uning ikkinchi komponenti, ya’ni depersonalizatsiya, insonlar bilan ishlash, ularga xizmat ko‘rsatish va yordam berish sohasida uchraydi. Kasbiy so‘nish bunda kasbiy krizis sifatida ham baholanadi, birinchi navbatda o‘zgarishlar shaxslararo o‘zaro munosabatlar tizimida, o‘zaro ta’sirga kirishish jarayonida kuzatiladi. Shifokor odamlarni, ya’ni bemorni ko‘rgisi kelaydi, tez charchaydi, befarqlik qiladi, mehnatidagi samaradorlik tushib ketadi. T.Yu.Fokina kasbiy so‘nish nisbatan yoshroq shifokorlarda uchrashini qayd etadi, chunki yoshlar ish o‘rinlariga kelib, real vaziyat bilan to‘qnash kelganlarida kasbiy “shok”ka tushadilar. Ayniqsa bu holat shifokorlarning 7,3 %ida kuchli namoyon bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida kasbiy so‘nishning alohida belgilari 57,3% holatlarda kuzatiladi. Shu tariqa muallifning fikriga ko‘ra, kasbiy so‘nish 30 yoshgacha bo‘lgan shifokorlar o‘rtasida ko‘proq uchraydi, mazkur holat yosh shifokorlarda dezadaptatsiyaning yuqori darajasidan dalolat beradi.

Shu tariqa ilmiy tadqiqotlarda shifokorlik kasbi eng murakkab mehnat turlari qatoriga kiritiladi, mazkur kasb doimiy ravishda subyektdan o‘z ustida ishlashni, har tomonlama takomillashishni, shaxslilik va kasbiy sifatlarini rivojlantirib borishni talab etadi. Binobarin boshqa soha vakillariga qaraganda tibbiyot xodimlarida professional kasalliklarga chalinish ko‘rsatkichlari juda yuqoriligi ta’kidlanadi. O‘qituvchilarga qaraganda 30 barobar, saavdo xodimlariga nisbatan 33 barobar ko‘proq kasallikka chalinish shifokorlarda qayd etilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra shifokorlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 54 yoshni tashkil etadi.

Shifokor kasbiy faoliyati, mashg‘ulotlar turi kabi, meditsina sohasiga taalluqli bo‘lib, bir nechta sohalar (ixtisosliklarni) va faoliyatning turli-tuman predmetlari –ixtisoslashuvni o‘z ichiga oladi. Shifokor kasbiy faoliyati tahlili professionalizm kategoriyasini qo‘llashni taqozo etadi. A.K.Markova professionalizm talqinining bir nechta jabhalarini ko‘rsatib o‘tadi. Birinchisi – bu “normativ professionalizm” bo‘lib, mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan insondagi shaxslilik xususiyatlari yig‘indisi sifatida qaraladi. Boshqa ma’noda professionalizm tushuncha sifatida psixik sifatlar zaruriy normativ to‘plamiga ega bo‘lgan mehnat subyekti xarakteri stikasini aks ettiradi. Va nihoyat, professionalizm mehnat subyekti yuqori bahoga loyiq bo‘lgandagi normativ funksiyalarini bajarish sifati tushuniladi [1]. A.K.Markova shaxs professionalizmining ikki tomoni va yettita mezon guruhlari, o‘ziga xos bosqichlari va pog‘onalarini, shuningdek, ichki o‘zaro aloqadorligi kasbiy faoliyatning obyektiv jarayonlari sifatida shartlangan beshta professionalizm darajasini ajratib ko‘rsatadi. Bu darajalar quyidagilar:

- professionalizmgacha bo‘lgan daraja;
- professionalizm;
- superprofessionalizm;
- professional bo‘lmagan yoki qalbaki professionalizm;
- professionalizmdan keyingi daraja.

Shifokor faoliyati tahliliga nisbatan olib qaraganda shunga asos borki, birinchi darajada kasbiy tanlash va o‘qitish shakllanadi – mutaxassislikni va psixolog malakasini egallash jarayoni amalga oshiriladi, ikkinchi bosqichda kasbiy-shaxslilik faollik bilan motivlashtirilgan shifokor faoliyatiga professionalning moslashuvi yuz beradi, u kasbning konkret predmetiga ega bo‘ladi va kasbiy-shaxslilik jihatidan o‘zini o‘zi dolzarblashtirishga intiladi. Professionalizmning keyingi darajalarida psixolog faoliyatning individual maromiga ega bo‘ladi va ijtimoiy kasbiy jihatdan tan olinadi, shaxsning o‘zini o‘zi dolzarblashtirishga, kasbiy “akme”ga erishishga intilishiga mos keladi. O‘z kasbiy salohiyatini ochgan psixolog, xattoki nafaqa yoshiga yetganda ham professionalizmdan keyingi bosichdagi faoliyatning turli ko‘rinishlarida to‘plangan ajoyib kasbiy, shaxslilik salohiyatini amalga oshirishga imkoniyat topadi (konsultatsiya, konsiliumlarda ishtirok etish, o‘qituvchilik faoliyati va x.k.).

Bir qator tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, tibbiyot xodimlarida kasbiy yonish sindromining mavjudligi ular faoliyati samaradorligiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahliliga nazar tashlasak, tibbiyot xodimlarida kasbiy yonish sindromini o‘rganish va tahlil qilishda olimlar tibbiyot xodimlari ixtisosliklariga, o‘rta va kichik bo‘g‘in tibbiyot xodimlariga ajratgan holda, tibbiyot xodimi, ayniqsa shifokorlarni ixtisosliklariga qarab o‘rganganlar. Chunki tibbiyotda mehnat sharoitlari, bajaradigan ishning o‘ziga xosligi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Poliklinikada qabulda o‘tirgan shifokor bilan tez yordam ko‘rsatish markazida ishlovchi xirurg yoki travmatolog, oila shifokori yoki pediatr bilan operatsion blokda ishlaydigan xirurg yoki akusher-ginekologlar faoliyati xususiyatlari keskin tafovutlanadi.

V.V.Popov, Yu.A.Dyakova fikriga ko‘ra, 72,5% shifokor-terapevtlarda kasbiy yonishning yuqori ko‘rsatkichlari aniqlangan. Kasbiy yonish sindromi yuzaga kelishida o‘z salomatligini va umumiy moslashuvini past baholash, emotsional charchash va va professional perfeksionizm yetakchilik qiladi. Sotsial-demografik omillar ichida tadqiqotchilar tomonidan yosh (35 yoshgacha), farzandlarning yo‘qligi, mutaxassisligi bo‘yicha mehnat stajio‘rtacha 10 yil), kundalik qabul qilinadigan bemorlar soni (10 nafardan 41 va undan ko‘pgacha) shaxslilik omillariga senzitivlikning past darajasi, ahloqiy egiluvchanlik, emotsional-yo‘naltirilgan kopingni qo‘llash va ijtimoiy qo‘llashni izlash, tashkiliy omillarga – o‘z kasbiy faoliyati mazmunidan qoniqmaslik, ishdan hafsalasi

pir bo‘lishlik, oylik maoshdan qoniqmaslik, malakasini oshirish imkoniyatining yo‘qligi, keyinchalik kasbi bo‘yicha takomillashish imkoniyati mavjud emasligi, shuningdek, mehnatning charchatuvchi sharoitlari. Poliklinikalardagi terapevtlarning uchdan ikki qismida kasbiy yonishning yuqori darajasi o‘zini o‘zi past baholash, salomatlikning yaxshi emasligi, tashkiliy omillarning mavju dligi bilan bog‘liqligi tushuntirilgan.

R.Konechniy, M.Bouxal fikriga ko‘ra, “o‘ta charchash” tez-tez qo‘llaniladigan va ba’zi holatlarda xattoki suiste’mol qilinadigan terminlardan biridir. Bu holat ko‘proq ishlovchi ayollarga taalluqli, biroq, ish muddatlaridan ortiqcha mehnat qiladigan kasb vakillari ham ushbu holatdan shikoyat qiladilar. Biroq mualliflarning fikricha, faoliyat turi qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, kasb egasi uchun qiziqarli bo‘lsa va u o‘z kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila bilsa, kasbiy yonish yoki o‘ta charchab ketish holatlariga olib kelmaydi. O‘z kasbidan yoki faoliyatidan qoniqmaslikka va charchashga ko‘pincha boshqa bir omillar, masalan, inson o‘zi yoqtirmagan ishni qilishi, ya’ni ishga nisbatan antipatiya, ish natijalarining tan olinmasligi, mehnat jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, hamkasblari va rahbariyat bilan nizolarning mavjudligi kasbiy so‘nish yoki o‘z kasbidan qoniqmaslikka va oxir oqibat shu kasbda ishlashdan voz kechishga olib keladi [2].

Vrach-stomatologlarda kasbiy yonishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan Ye.A.Sosulnikova shifokorlarda kasbiy yonish ni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar juda ozligini ta’kidlagan holda, Yevropa va AQSh olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borganligini e’tirof etadi (S.Kelli, C.L.Cooper, R.C.Gorter). Stomatolog-shifokorlardagi kasbiy yonishni u hayot maromidagi zo‘riqishlar, o‘sib borayotgan raqobat, hayot darajasi va mehnatga talabning ortib borishi, yuqori kasbiy yuklamalarni ko‘tarish qiyinligi, bilan tushuntiradi. Uning fikricha kasbiy stress inson organizmining alohida funksional holati bo‘lib, kuchli asab-ruhiy ta’sirlarbilan bog‘liq. Olimning ta’kidlashicha, barqaror kasbiy stress o‘z navbatida emotsional yonishga olib keladi. Kasbiy stress va emotsional yonishni shakllanishiga olib keluvchi mexanizmlar hali yyetarlicha o‘rganilmagan.

Shifokor-onkologlarda kasbiy yonishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan V.Ya.Sazonov onkologik klinikalarda 28% shifokorlarda mazkur sindrom uchrashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, so‘nggi 10 yil mobaynida shifokorlar turli ixtisosliklarda mehnat qiluvchi shifokorlarning ruhiy salomatligida muammolar mavjudligini, jumladan emotsional yonish sindromi 32%dan 41%gacha ko‘tarilganini qayd etadi. Shu bilan birga shifokorlarda kasbiy yonishning yuzaga kelish sabablari va profilaktik choralar, shuningdek, psixokorreksion tadbirlar muammosi ochiqligicha qolayotgani aytib o‘tiladi. Muallifning fikricha kasbiy yonishning shakllanishiga ish sharoitlari, kasbiy omillar va shaxslilik xususiyatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Shifokorlarda kasbiy yonish sindromi va emotsional intellekt o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rgangan N.G.Vasileva fizioterapevt va psixiatrlarda kasbiy yonish sindromi ko‘rsatkichlari va emotsional intellekt umumiy darajasi o‘rtasida teskari aloqadorlik mavjudligini takidlagan holda, emotsional intellektning tipologik xususiyatlari va kasbiy yonish komponentlari o‘rtasida aloqadorlik borligini e’tirof etadi [4]. Fizioterapevtlardan farqli ravishda, psixiatrlarda jarohatlovchi vaziyatlar ko‘pligi, zo‘riqish kuchliligi mazkur tadqiqotda qiyosiy darajada aniqlangan.

O.V.Soloveva, S.B.Temrokova tibbiyot xodimlarida kasbiy yonish muammosi zamonaviy psixologiya fanida o‘ta jiddiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, tibbiyot xodimlarida kasbiy yonish shifokorlarning ma’lumot darajasi, ijtimoiy qoniqqanligi, tashkiliy maqbulligi, ijtimoiy mavqei, koping-strategiyalar va empatik qobiliyatlariga bog‘liqdir. Tibbiyot xodimlarida ma’lumot darajasi, ijtimoiy qoniqqanlik, mavqe qanchalik past bo‘lsa, kasbiy yonish shunchalik yaqqolroq namoyon bo‘lishi mualliflar tadqiqotlarida qayd etilgan [5].

Tibbiyot xodimlarida kasbiy yonishning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tirof etgan olimlar quyidagi omillarni keltirib o‘tadilar:

1. Bemorlar hayoti va salomatligi uchun javobgarlik;
2. vaziyatning harakatchanligi va operativ qarorlar qabul qilish zarurati (ayniqsa reanimatsiya sharoitida, favqulodda tez yordam ko‘rsatishda);
3. salbiy emotsiyalar maydonida uzoq muddat bo‘lishga majburlik (og‘riq, azob, afsuslanish va b.);

4. diqqatning yuqori konsentratsiyasini ushlab turish zarurati va o‘z fiziologik holati va vaziyatdan qat’iy nazar faoliyatini nazorat qila olish va boshqarish;
5. sutkalik va tungi navbatchilik bilan bog‘liq faoliyat;
6. ba’zi bemorlardan bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarning mavjudligi(narkomanlar, jinoyatchilar, agressiv odamlar);
7. yopiq fazo sharoitida uzoq muddat bo‘lishga majburlik(masalan operatsiya xonasida);
8. oyoqda turib ishlash, bitta pozani saqlashga majburlik;
9. psixoaktiv moddalar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lish zarurati (psixiatrik bo‘lim misolida, narkoz uchun moddalar);
10. bemorlardagi infeksion kasalliklarni yuqtirish xavfini yuqoriligi;
11. tibbiy apparatura, instrumentlar bilan ishlash.

Mualliflar fikriga ko‘ra, tibbiyot xodimlarida tashkiliy xarakterdagi omillarga mehnat va ish joyining yyetarlicha ratsional tashkil etilmaganligi, mehnati taqdirlanmasligi, ham moddiy, ham ma’naviy manfaatdorlikning yo‘qligi sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa bu omillar kasbiy yonishga bemorlar muammolari maksimal darajada bo‘lganida (masalan, onkologiyada), shifokor mehnati samaradorligi va muvaffaqiyati esa minimal bo‘lganida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatga moslashuvning individual shakllarini tahlil etish kengligi va psixolog noprofessionalizmi fenomeni psixologik jabhasi kasbiy dezadaptatsiya, shaxsdagi deformatsiya yoki “yonish” shuningdek, uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonidagi ma’lum nuqsonlar, kasbiy tajribaning yetishmovchiligi sifatida qarash mumkin.

Y.A.Klimov tadqiqotlarida inson taraqqiyoti yosh davrlari va uning professionalizatsiya jarayonining o‘zaro aloqadorligi asoslangan, “optant”, “adept”, “adaptanta”, “internal”, “usta”, “obro‘”, “murabbiy” tushunchalarini ham kiritadi.

Bevosita professionalizm kategoriyasi bilan psixik sifatlar yig‘indisi, mustaqil va mas’uliyat bilan harakat qilish imkoniyatini beruvchi psixik holat, inson tomonidan ma’lum mehnat funksiyalarini bajarish malakasiga ega bo‘lish” sifatida ta’riflanuvchi professional kompetentlik tushunchasi bog‘liq. Binobarin, shaxslilik tayyorgarligining bunday darajasi kasbni qabul qilish, ma’lum tadqiqotlarga tayangan holda individual-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasi ta’minlanar ekan, professional kompetentlikni mehnat subyektining mustaqil va mas’uliyat bilan harakat qilishi, subyektning faoliyatga kasbiy-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasini saqlagan holda ma’lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va malakasiga ega bo‘lish imkon beruvchi psixik sifatlari yig‘indisi, psixik holati sifatida ta’riflaymiz. Shifokor faoliyati tahlili faoliyatni tadqiq etish metodologiyasida shakllangan ma’lum talablarni hisobga olgan holda quriladi.

Shunday qilib, shifokorlik kasbi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va shu bilan birga shifokorlik kasbi ixtisosligiga qarab ish sharoitlari, kasbiy muhim sifatlariga ko‘ra tafovutlanadi. Ba’zi ixtisosliklar shifokorlarining vazifasi qabulda o‘tirib, bemorlarga xizmat ko‘rsatish bo‘lsa, boshqa bir ixtisosliklarda tinimsiz jismoniy harakat, diqqatni jamlash va shu bilan birga taqsimlash, stressga bardoshlilik va boshqa bir qator xususiyatlar talab qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Дрофа, 1996. – Б.128с.
2. Конечний Р., Боухал М. Психология в медицине. Прага, 2014.- Б. 364.
3. Сазонов В.Я. Профессиональное выгорание онкологов, особенности его формирования и психопрофилактики.//автореф.дисс.канд.псиол.н. М.2012.
4. Васильева Н.Г. Взаимосвязь особенностей эмоционального интеллекта и синдрома выгорания у врачей//Психол.фанлари номзоди автореферати. Санкт Петербург, 2016. –Б.5.
5. Соловьева О.В., Темрокова С.Б. Психологическая профилактика профессионального вқгорания у медицинских работников. //Вектор науки ТГУ. Серия Педагогика, психология, 2016. № 3 (26).- Б. 97.

Isroilova Saida Erkinovna
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

OILAVIY ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDA JABRLANUVCHI AYOLLARNING RUHIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot oilaviy zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning ruhiy barqarorlik omillarini o‘rganishga va ularni rivojlantirish usullarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlikning psixologik salomatlikka ta’siri, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining roli, hamda reabilitasiya jarayonida qo‘llaniladigan samarali psixologik usullar tahlil qilinadi. Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar uchun xavfsizlikni tiklash, stress va travma bilan ishlash, hissiy barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha mexanizmlar ishlab chiqilgan. Mazkur ishning ilmiy va amaliy natijalari oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy zo‘ravonlik, ruhiy barqarorlik, jabrlanuvchilar reabilitasiyasi, stress boshqaruvi, psixologik salomatlik, kognitiv-behavioral terapiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ayollar huquqlari, travma tiklanishi, xavfsizlikni tiklash.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ФАКТОРОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЖЕНЩИН, ПОСТРАДАВШИХ В СЛУЧАЯХ СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ

Аннотация. *Данное исследование направлено на изучение факторов психологической устойчивости женщин, пострадавших в случаях семейного насилия, и определение методов их развития. В исследовании анализируется влияние семейного насилия на психологическое здоровье, роль системы социальной поддержки, а также эффективные психологические методы, применяемые в процессе реабилитации. На основе международного и местного опыта разработаны механизмы восстановления безопасности, работы со стрессом и травмой, а также укрепления эмоциональной стабильности для пострадавших от насилия. Научные и практические результаты данной работы могут быть использованы для разработки эффективных стратегий борьбы с семейным насилием.*

Ключевые слова: *семейное насилие, психологическая устойчивость, реабилитация пострадавших, управление стрессом, психологическое здоровье, когнитивно-поведенческая терапия, социальная поддержка, права женщин, восстановление после травмы, восстановление безопасности.*

PSYCHOLOGICAL METHODS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL RESILIENCE FACTORS IN WOMEN AFFECTED BY DOMESTIC VIOLENCE

Annotation. *This study aims to explore the factors of psychological resilience in women affected by domestic violence and identify methods for its development. The study analyzes the impact of domestic violence on psychological health, the role of social support systems, and effective psychological methods applied during the rehabilitation process. Based on international and local experiences, mechanisms for restoring safety, addressing stress and trauma, and strengthening emotional stability for victims of violence have been developed. The scientific and practical results of this work can be used to develop effective strategies to combat domestic violence.*

Key words: *domestic violence, psychological resilience, victim rehabilitation, stress management, psychological health, cognitive-behavioral therapy, social support, women’s rights, trauma recovery, safety restoration.*

Kirish. Oilaviy zo‘ravonlik-inson huquqlarini buzuvchi, shaxsning psixologik salomatligiga chuqur zarar yetkazuvchi va jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga tahdid soluvchi global muammo

hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har uch ayoldan biri hayoti davomida oilaviy zo‘ravonlikka duch keladi. Bunday tajribalar nafaqat individual darajada ruhiy va jismoniy zarar yetkazadi, balki ijtimoiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini zaiflashtiradi. Shu sababli, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarning ruhiy barqarorligini tiklash va rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ruhiy barqarorlik-shaxsning murakkab hayotiy sharoitlar va stress holatlarida o‘z hissiy holatini boshqarish, optimistik fikrlash va konstruktiv xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Oilaviy zo‘ravonlik natijasida jabrlanuvchilar bu xususiyatni yo‘qotib qo‘yishi mumkin, bu esa depressiya, anksiyete, travmatik stress buzilishlari (PTSD) kabi psixologik muammolarni kuchaytiradi. Ruhiy barqarorlikni tiklash va rivojlantirish jarayonlari ko‘pincha murakkab psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qonuniy himoya tizimlariga bog‘liq bo‘ladi. Xalqaro huquqiy me’yorlar, xususan, BMTning ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Konvensiyasi (CEDAW) va Istanbul Konvensiyasi, bu borada davlatlar zimmasiga muhim mas’uliyatlar yuklaydi.

Ko‘plab davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash va jabrlanuvchilarni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik asoslari shakllantirilmoqda. “Ayollar va erkaklar teng huquqligi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi, 2019) va “Zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2021) jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslarini yaratadi. Ushbu qonunlar zo‘ravonlikni oldini olish, jabrlanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

Ruhiy barqarorlikning yo‘qolishi zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi va jamiyatga integratsiyalashuvi yo‘lida to‘siq bo‘ladi. Shu sababli, ushbu mavzuning tadqiq qilinishi, ruhiy barqarorlik omillarini o‘rganish va ularni rivojlantirish usullarini aniqlash, nafaqat ayollar hayot sifatini oshirish, balki jamiyatdagi gender tenglikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - oilaviy zo‘ravonlik sharoitida jabrlanuvchi ayollarning ruhiy barqarorligini aniqlash, uni tiklash va rivojlantirish bo‘yicha samarali usullarni ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqot ijtimoiy-psixologik yordam tizimini takomillashtirish va davlat siyosati uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Global tajribani va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, zo‘ravonlikka qarshi kurash va jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etish zarurdir.

Oiladagi zo‘ravonlik (shuningdek, oila zo‘ravonligi yoki oilaviy zo‘ravonlik deb ham ataladi) oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir etiladigan zo‘ravonlik yoki boshqa zo‘ravonlik turidir. Oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha yaqin insoni yoki sherik zo‘ravonligining sinonimi sifatida ishlatiladi, u boshqa shaxsga nisbatan yaqin munosabatlardagi odamlardan biri tomonidan qo‘llanadi va munosabatlarda yoki sobiq turmush o‘rtoqlar yoki sheriklar o‘rtasida sodir bo‘lishi kuzatiladi. Keng ma’noda oiladagi zo‘ravonlik bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan zo‘ravonlikni ham o‘z ichiga oladi. U bir nechta shakllarni o‘z ichiga olishi mumkin:jismoniy, og‘zaki, hissiy, iqtisodiy, diniy, reproduktiv yoki jinsiy zo‘ravonlik kabi. Bu eng oddiy zo‘rlash shakllaridan tortib, nikoh davrida zo‘rlash va boshqa zo‘ravonlik shakllaridan tortib jismoniy zo‘ravonlikgacha bo‘lishi mumkin, masalan, bo‘g‘ish, kaltaklash, ayollarning jinsiy a’zolarini kesish va kislota tashlash kabi zararlashi yoki o‘limga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan va insonni nazorat qilish uchun buyumdan foydalanishni o‘z ichiga oladi, misol tayoq. Maishiy qotillik toshbo‘ron qilish, kelinni yoqish, nomus uchun o‘ldirish va ba’zan birga yashamaydigan oila a’zolarining zo‘ravonligini o‘z ichiga oladi. 2015-yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi oiladagi zo‘ravonlik ta’rifini nazoratni o‘z ichiga olgan holda majburiy tarzda kengaytirgan.

Butun dunyoda oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari ko‘pchiligini afsuski ayollar tashkil qiladi va ayollar zo‘ravonlikning yanada og‘ir shakllarini boshdan kechirishadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisob-kitoblariga binoan, har 3 ayoldan 1 nafari hayotining bir bosqichida oiladagi zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan.Ular, shuningdek, erkaklarnikiga qaraganda, o‘zini himoya qilishda yaqin sherik zo‘ravonligidan foydalanishlari mumkin. Ba’zi mamlakatlarda oiladagi zo‘ravonlik

asosli yoki qonuniy deb qaralishi mumkin, ayniqsa ayol tomonidan haqiqiy yoki gumon qilingan xiyonat holatlarida. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatdagi gender tengligi darajasi va oiladagi zo‘ravonlik darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va sezilarli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, shundan ko‘rinadiki, gender tengligi kamroq bo‘lgan mamlakatlarda oiladagi zo‘ravonlik ko‘proq sodir bo‘ladi. Oiladagi zo‘ravonlik butun dunyo bo‘ylab erkaklar va ayollar uchun eng kam qayd etilgan jinoyatlardan biridir. Bundan tashqari, erkaklar qurbonligi bilan bog‘liq ijtimoiy stigma fikrlar tufayli, oiladagi zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan erkaklar tibbiyot xodimlari tomonidan e’tibordan chetda qolish ehtimoli tabiiyki oshadi.

Oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha zo‘ravon ular bunga haqli deb hisoblaganda yoki bu maqbul, asosli yoki xabar qilinishi imkonsiz deb hisoblaganda sodir etiladi. Bu bolalar va boshqa oila a’zolarida avlodlararo zo‘ravonlik zanjirini keltirib chiqarishi mumkin, ular bunday zo‘ravonlikni maqbul yoki ma’qul degan ega bo‘lib qolishlari mumkin. Ko‘p odamlar o‘zlarini zo‘ravon yoki qurbon deb bilishmaydi, chunki ular o‘zlarining tajribalarini nazoratdan chiqib ketgan oilaviy nizolar deb hisoblashlari mumkin. Oiladagi zo‘ravonlikdan xabardorlik, idrok etish, ta’riflash va hujjatlashtirish turli mamlakatlarda juda farq qiladi. Bundan tashqari, oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha majburiy yoki yosh nikohlar orasida sodir bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Albert Bandura (1986) – Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi: Bandura oilaviy zo‘ravonlik sharoitida jabrlanuvchilar ko‘pincha o‘zlari uchun mos bo‘lmagan xulq-atvorni ijtimoiy o‘rganish orqali qabul qilishlarini ta’kidlaydi. Zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarda ruhiy barqarorlikni tiklash uchun ijobiy rol modellari bilan ishlash tavsiya etiladi.

Judith Herman (1997) – Travma va tiklanish nazariyasi: Herman oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilarining travma holatlarini tahlil qilgan va tiklanish uch bosqichdan iborat ekanligini ta’kidlagan: xavfsizlikni tiklash, travmatik voqealarni qayta ishlash va yangi o‘zlikni shakllantirish.

Aaron T. Beck (1976) – Kognitiv-behavioral terapiya nazariyasi (CBT): Beck oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilarining negativ fikrlarini aniqlash va ularni ijobiy fikrlar bilan almashtirish orqali ruhiy barqarorlikni tiklashga urg‘u beradi.

Carl Rogers (1951) – Shaxsiy o‘sish va ijobiy munosabat nazariyasi: Rogers ayollarni zo‘ravonlikdan keyin o‘zini anglash va o‘ziga bo‘lgan hurmatni tiklashga qaratilgan psixologik qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ta’kidlagan.

Leon Festinger (1957) – Kognitiv dissonans nazariyasi: Festinger oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilari ko‘pincha ichki qarama-qarshiliklarni his qilishlarini tushuntiradi. Ushbu dissonansni kamaytirish uchun ruhiy barqarorlikni oshiruvchi maqsadli ishlash zarur. Al-Farobiy (872–950) – Axloqiy tarbiya va ruhiy barqarorlik nazariyasi: Al-Farobiy insonning baxt-saodati uning ichki dunyosi va axloqiy fazilatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlagan. U zo‘ravonlikdan keyingi ruhiy barqarorlikni tiklashda axloqiy tarbiya va jamoaviy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ta’kidlagan.

Abu Ali Ibn Sino (980–1037) – Ruhiy salomatlik va hissiy muvozanat: Ibn Sino psixologik muammolarni davolashda tabiat, o‘zlikni anglash va hissiy muvozanatning ahamiyatiga urg‘u bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, jabrlanuvchilarni tinch muhit va ijobiy fikrlashga yo‘naltirish muhim.

Ibn Xaldun (1332–1406) – Ijtimoiy omillar va shaxs psixologiyasi: Ibn Xaldun jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy omillar shaxsning ruhiy holatiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Zo‘ravonlik sharoitida ruhiy barqarorlikni tiklashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va madaniy resurslardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ruhollah Xomeyni (20-asr) – Jamiyat va oila qadriyatlari: Xomeyni oila qadriyatlarini mustahkamlash orqali zo‘ravonlikni oldini olish mumkinligini va jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlashda jamiyatning roli katta ekanligini ta’kidlagan.

O‘zbekiston zamonaviy olimlari – Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar: Mahalliy psixologlar, jumladan, O‘zbekistonlik olimlar oilaviy zo‘ravonlikdan keyingi reabilitasiya jarayonida qadriyatlarga asoslangan yondashuv va ijtimoiy yordam tizimining ahamiyatini tahlil qilmoqdalar. Masalan, “Zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun” (2021) tadqiqotlarida ruhiy barqarorlikni tiklash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1-jadval

Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi ayollarning ruhiy barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari

Bosqich	Faoliyat	Mexanizmlar va Usullar	Kutilayotgan Natijalar
1. Tashxis bosqichi	Jabrlanuvchi ayollarning ruhiy holatini baholash	- Standart psixologik testlar (DASS-21, PCL-5) - Yarim strukturalangan intervyular - Ijtimoiy anamnez yig‘ish	Ayollarning psixologik va hissiy muammolari, travma darajasi aniqlanadi
2. Xavfsizlikni tiklash	Zo‘ravonlikdan keyingi xavfsizlikni ta’minlash	- Qo‘llab-quvvatlovchi reabilitasiya markazlariga joylashtirish - Huquqiy himoya mexanizmlarini ishga tushirish	Jabrlanuvchining xavfsizligi ta’minlanib, ruhiy tiklanish uchun asosiy muhit yaratiladi
3. Psixologik aralashuv	Jabrlanuvchilarning ruhiy barqarorligini tiklash va rivojlantirish uchun individual yondashuv	- Kognitiv-behavioral terapiya (CBT) - Travma yo‘naltirilgan terapiya - Hissiy boshqaruv treninglari	Jabrlanuvchilarda stress va travma ta’sirini kamaytirish, hissiy boshqaruv va ijobiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi
4. Guruh terapiyasi	Jabrlanuvchilar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etish	- Guruhli psixoterapiya - Tajriba almashish fokus-guruhlari - Ijtimoiy moslashuv treninglari	Jabrlanuvchilar o‘z tajribalari bilan bo‘lishadi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish imkoniyati ortadi
5. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	Oiladan, jamoat tashkilotlaridan va davlatdan yordam olish	- Ijtimoiy xizmatlar orqali qo‘llab-quvvatlash - Kasbiy o‘quv va iqtisodiy mustaqillik uchun dasturlar	Jabrlanuvchilarning ijtimoiy muhitga integratsiyasi yaxshilanadi va iqtisodiy mustaqillik rivojlanadi
6. Monitoring va baholash	Reabilitasiya jarayonining samaradorligini kuzatish va takomillashtirish	- Davriy psixologik diagnostika - Psixoterapiya natijalarini baholash - Qayta integratsiya monitoringi	Reabilitasiya jarayonining samaradorligi tahlil qilinib, zarur bo‘lsa, yangi yondashuvlar kiritiladi

1. Tashxis bosqichi: Jabrlanuvchilarning holatini aniqlashning muhim bosqichi bo‘lib, diagnostika usullari orqali zo‘ravonlikning jabrlanuvchi ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlanadi.


2. Xavfsizlikni tiklash: Xavfsiz muhit yaratilishi jarayonni boshlash uchun zarur sharoitni ta’minlaydi. Bu bosqichda huquqiy himoya va xavfsiz joy bilan ta’minlash ustuvor ahamiyatga ega.

3. Psixologik aralashuv: Jabrlanuvchilar uchun kognitiv-behavioral terapiya va hissiy boshqaruv texnikalari yordamida stressni boshqarish va ruhiy tiklanish amalga oshiriladi.

4. Guruh terapiyasi: Ijtimoiy moslashuv va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning muhim bosqichi bo‘lib, jabrlanuvchilarni jamiyatga qaytarishga yordam beradi.

5. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: Kasbiy rivojlanish, iqtisodiy mustaqillik va oilaviy qo‘llab-quvvatlash bu jarayonni mustahkamlovchi omillar sifatida qaraladi.

6. Monitoring va baholash: Reabilitasiya jarayonining samaradorligini kuzatish va natijalarni optimallashtirishga qaratilgan bosqich.



Yuqoridagi diagramma "Oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilari uchun reabilitasiya jarayonining bosqichlari" ni aks ettiradi. Diagrammada har bir bosqichning umumiy jarayondagi ahamiyati foizlarda ko‘rsatilgan:

- Tashxis bosqichi – 15%
- Xavfsizlikni tiklash – 20%
- Psixologik aralashuv – 25%
- Guruh terapiyasi – 15%
- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – 15%
- Monitoring va baholash – 10%

Diagramma reabilitasiya jarayonining har bir bosqichi qanchalik muhim ekanligini rangli va vizual tarzda taqdim etadi.

Xulosa. Oilaviy zo‘ravonlik sharoitida jabrlanuvchi ayollarning ruhiy barqarorligi ularning hayot sifati va jamiyatga qayta integratsiyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik ayollarda stress, depressiya, travmatik stress buzilishi (PTSD) va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish kabi psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda ayollarning ruhiy barqarorligini tiklash va rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Reabilitasiya jarayonida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. Tashxis va xavfsizlikni ta’minlash: Jabrlanuvchilarning holatini chuqur tahlil qilish va ularga xavfsiz muhit yaratish jarayonning birinchi muhim bosqichidir.

2. Psixologik qo‘llab-quvvatlash: Individual va guruhli terapiyalar orqali hissiy barqarorlikni tiklash va travma oqibatlarini kamaytirish.

3. Ijtimoiy integratsiya: Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash jabrlanuvchilarning jamiyatga qayta moslashuvini osonlashtiradi.

4. Monitoring va samaradorlik tahlili: Jarayonni kuzatish orqali reabilitasiya usullarini optimallashtirish muhim.

Mazkur tadqiqot natijalari oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish strategiyalarini rivojlantirish va jabrlanuvchilarga ko‘rsatilayotgan yordamni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, xalqaro tajriba va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, yangi yondashuvlarni joriy etish orqali reabilitasiya jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 80 b.
2. O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O‘zbekictonning taraqqiyot ctrategiyaci» to‘g‘ricidagi PF-60-conli Farmoni.
3. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya / G.M.Andreyeva. – M.: Izd-vo Mosk. Un-ta, 2008. – 416 s.
4. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanlari doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T.: 2013. –312 b.
5. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi. – T.: 2006.- 142 b.
6. Karimov X.K., Umarov B.M. Oila va oilaviy munosabatlar. –T.: «Bilim» jamiyati, 1992. – 38 b.
7. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.- T.: 2005.

Kulatova Svetlana Yuldashevna
Qarshi davlar universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: kulatova.svetlanar@mail.ru

O'SMIR SHAXSIDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI QABUL QILISHNING PSIXOLOGIYA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishning psixologiya ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, o'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqilgan. O'smirlarida destruktiv axborotlardan saqlanishga doir psixologik tavsiyalar keltirilgan. O'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni mazmun-mohiyati tahliliy yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, o'smir, destruktiv axborotlar, internet, ijtimoiy tarmoq, himoya mexanizmlar, faoliyat, psixologik ta'sir, psixologik tahlil, psixologik tavsiya, nazariy-metodologik yondashuv.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПРИЯТИЯ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ У ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье объяснены психологические научно-теоретические основы получения деструктивной информации в личности подростка. Также рассмотрены положительные и отрицательные стороны получения деструктивной информации в личности подростка. Существуют психологические рекомендации по избежанию деструктивной информации у подростков. Аналитически объяснено содержание и сущность теоретико-методологических подходов к принятию деструктивной информации в личности подростка.*

Ключевые слова*: личность, подросток, деструктивная информация, Интернет, социальная сеть, защитные механизмы, активность, психологическое воздействие, психологический анализ, психологическая рекомендация, теоретико-методологический подход.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF DESTRUCTIVE INFORMATION PERCEPTION IN AN INDIVIDUAL

Abstract. *In this state, psychological scientific-theoretical basic principles of obtaining destructive information in the personality of a teenager are explained. Positive and negative aspects of obtaining destructive information and the personality of a teenager are also considered. There are psychological recommendations for avoiding destructive information in adolescents. Analytical explanations of the content and significance of theoretical and methodological approaches to the acquisition of destructive information in the personality of a teenager.*

Keywords: *personality, teenager, destructive information, Internet, social network, defense mechanisms, activity, psychological impact, psychological analysis, psychological recommendation, theoretical and methodological approach.*

Kirish. Ma'lumki, muloqot insonlar o'rtasida axborot almashuv vositasi bo'lib, u bolalik davrida kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishi bilan izohlanadi. psixik taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra, maktabgacha yosh davri o'ziga xos yosh bosqichi bo'lib, bolada kognitiv, hissiy-emotsional, kommunikativ sohalar intensiv ravishda rivojlana boshlaydi. ayniqsa, mazkur yoshda, tengdoshlar bilan qondiriladigan muloqot yetakchi ehtiyojga aylanadi. bola o'yin davomida, tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish orqali ijtimoiy tajriba hamda ijtimoiy

munosabatlar tizimini o‘zlashtiradi. bu esa o‘z-o‘zidan ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlaydi va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda so‘ngi yillarda o‘smir yoshlarni turli xil virtual olamdagi salbiy xurujlardan saqlanish masalasiga davlat tomonidan katta e’tibor berilib, zaruriy huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: “...aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqilishi zarurligi...[1], konstruktiv ma’lumotlardan erkin foydalanish imkonini yaratish bilan bir vaqtda, undagi kiberhujumlar ta’siriga berilish va qaramlikning yuzaga keltirishi ham bilan izohlanadi hamda mazkur muammoni chuqurroq o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar tahlili. Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarning shakllanish qonuniyatlarini psixologik taxlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilash, oqilona yechim topish va natijalarni to‘g‘ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, o‘smirlar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan psixokorreksion treningning muhim jihatlarini izohlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi. Har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta’sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da’vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu jihatdan qaraganda, o‘smirlarni destruktiv axborotlardan himoyalashda psixologik muhofaza juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Destruksiya lotin tilidan tarjima qilinganida – parchalanish degan ma’noni anglatib, makromolekulalardagi kimyoviy boglarning uzilishi natijasida ularning polimerlanish darajasi yoki molekulyar massasining kamayishi bilan kechadigan jarayonlarning umumiy nomi.[2] Destruktiv fenomenini ko‘pincha psixologik inqiroz haqidagi tasavvurlar bilan ham bog‘laydilar. Bunda inqiroz shaxsning o‘ta muhim hayotiy ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi to‘siqlarga duch kelish vaziyatida paydo bo‘ladigan emotsional holat sifatida tushuniladi. Inson bu to‘siqlarni o‘zining hayotiy tajribasidagi muammolarni hal qilish usullari bilan bartaraf eta olmaydi.

Psixologik inqiroz tashqi sharoitlar natijasida kelib chiqadigan xavf ta’sirida paydo bo‘luvchi (inson psixikasida) emotsional turg‘unlikning ichki buzilishi sifatida qaraladi. A.G.Ambrumovaning ta’kidlashicha, psixologik inqiroz individning zaruriy ehtiyojlaridan bo‘lgan frustratsiya keltirib chiqaradi va frustratsiyaga nisbatan o‘ziga xos shaxsiy ta’sirini ko‘rsatadi (reaksiya beradi). Uning fikricha, «suiqasdga moyillik kelajakni konstruktiv rejalashtirishning birdaniga tushib ketishi, ya’ni umidsizlik darajasi bilan belgilanadi» [3].

Taniqli olim A.Adlerning fikricha, “odam bo‘lish, avvalo, o‘zining nomukammalligini his etishdir. Hayot anglanmasligi mumkin bo‘lgan maqsadga intilishdan iborat, biroq u individning barcha harakatlarini yo‘naltiradi va yashash uslubini shakllantiradi. Nomukammallik hissi ilk bolalik davrida paydo bo‘ladi va turli etishmovchiliklar bilan yomonlashadigan jismoniy va psixologik zaiflikka asoslanadi. Inson uchun boshqa odamlar bilan mushtaraklikni ekzistensial (hayotiy) his etish muhimdir”. Ekzistensiya – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, existre – ajratib turish, paydo bo‘lish, mavjud bo‘lmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun inson butun hayoti davomida nomukammallikni yengish yoki o‘rnini to‘ldirish harakatida bo‘ladi. Ushbu harakat odam xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadigan va hayotini mazmunli qiladigan o‘zini ko‘rsatishda, hokimiyatga intilishda amalga oshadi [4].

Tahlil va natijalar. Distruktiv xulq-atvorga moyil o‘smirlar muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri bo‘lib, uni tadqiq qilish va oldini olish jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Destruktiv xulq muammosi psixoterapevtik, diniy va ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqilgan. O‘z joniga qasd qilish hodisasiga diniy ilmlarda ham alohida e’tibor berilgan. Avvalo, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, Islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy munosabat bildirilib, jumladan, «Hadis» to‘plamlarida shunday ta’kidlanadi: “Bir kishi o‘zini o‘zi jarohatlab o‘ldirdi, shunda Alloh Taolo: Bandam mendan ilgari o‘z jonini o‘zi oldi, uni men jannatdan mahrum qildim». Hatto, dunyoning eng qadimgi qo‘lyozma asarlardan biri bo‘lmish «Avesto» da «O‘z

maqsadlarining qullariga aylangan va haqiqatga inonmaydigan kimsalar rostlikdan yuz buradilar, porsolardan jirkanadilar, tanlangan zotlarni – azizlarni xor tutadilar. Ular o‘zlari bilanda jangu jadaldadirlar - deb yozilganligi, bunday xulq-atvor bizda azaldan qanday qoralanib kelinganligiga dalildir” [5].

Destruktiv xulq fikrlar bosqichida suitsidal jarayon to‘sib qo‘yilishi, qaytarilishi yoki o‘zining rivojlanishini davom ettirishi ham mumkin. Shu bois, suitsidal faollikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik omillarni o‘z vaqtida aniqlash hamda suitsidal ustanovkalarni inobatga olish lozim. D.N.Uznadzening ma’lumotlariga ko‘ra, “ustanovka - bu ma’lum bir harakatlarni sodir etishga psixofiziologik jihatdan tayyorlik bo‘lib, u inson xulq-atvorini tartibga soladi, uni maqsadga yo‘naltiradi. Suitsidal ustanovka - bu o‘z ustidan zo‘rlik harakatini amalga oshirishga potensial tayyorlik bo‘lib, unga suitsidal fikrlar, maqsadlar va salbiy emotsiyalar (depressiya, xavotir, aybdorlik hissi), shuningdek, suitsidal urinishlarni tayyorlash va amalga oshirish xarakterlidir” [6].

Aholi va o‘smirlar o‘rtasida o‘tkaziladigan pedagogik-psixologik korreksiya, avvalo, oilada shaxs rivojlanishi uchun maqbul bo‘lgan psixologik muhitning shakllanishiga erishish, unda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlik hamda hurmatga asoslangan jamoani jipslashtirish, o‘smirlarda esa o‘zini o‘zi namoyon etish imkoniyatlarini topa olishiga imkoniyat yaratish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ijtimoiy foydali faoliyat yo‘nalishlariga jalb etish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, shuningdek, istiqbolli rejalarni amalga oshirish motivatsiyasini shakllantirish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Har bir yosh davriga xos psixologik diagnostika va korreksiya quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- psixologik yordamni orqaga surib, befarq bo‘lish mumkin emasligi;
- suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi destruktiv-psixologik ustanovkalarni aniqlash va korreksiyalashga yo‘nalganligi;
- ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini ta’minlovchi, shuningdek, individ barqarorligi va shaxsiy yuksalishiga xizmat qiluvchi, turli ko‘rinishdagi shaxslararo nizolarni hal etishning yangicha usullarini izlab topish va treningni amalga oshirishdan iborat.

O‘smirlardagi destruktiv xulq xavfi paydo bo‘lishiga shaxslararo munosabatdagi o‘zaro kelishmovchiliklar va o‘smirlardagi yolg‘izlik hissini yuzaga chiqishiga bog‘liq bo‘lgan holatlar ham sabab bo‘lishi tadqiqot ishi natijalarida aniqlanib, «bolalar jamoasida yakkalanish», «shaxsga urg‘u berish», «nazoratning buzilishi, impulsivlik», «menga muloqot yetishmaydi», «men baxtsizman, xuddi xo‘rlangandek», «xech kim meni etarlicha bilmaydi», «men o‘zimni yakkalanib qolgandek his qilaman», «atrofimdagilar meni qiziqishim va fikrlarimga e’tiborsiz» kabi omillarning ta’siri ham ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan.

Xulosa. Psixologik ilmiy adabiyotlarning tahlilidan kelib chiqib, o‘smirlar dunyoqarashiga bevosita ta’sir etuvchi destruktiv axborotlarni emperik jihatdan o‘rganish muqarrarligi hamda destruktiv axborotlar va mafkuraviy immunitet tizimining tarkibiy qismlari bilan o‘smir shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bevosita aloqadorligi mavjud. Destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishi insonlarni yaxshilikka, ezgu ishlarga, bunyodkorlikka, daxldorlikka, rostgo‘ylik, to‘g’ri e’tiqod, sof vijdon, xulq-atvor kabi fazilatlarni kuchaytirish orqali ularda jaholat, g’arazlik, qabohat, buzg’unchilik, vayronkorlik kabi g’oyalarga qarshi tura olishi mumkin. O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ularning virtual olamga tobelik darajasi psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganlik darajalarini inobatga olish muhim ekanligi aniqlanadi. Axborot asrida o‘smirlarni axborot psixologik xavfsizligi bo‘yicha kognitiv bilimlarini oshirib borish, axborotni saralay olish qobiliyatini shakllantirish ularda destruktiv axborotlarga nisbatan qarshi tura olish tizimini yaratishga asosiy jihat ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim vazifalari. 2019 yil 19 mart. - https://president.uz/oz/lists/view/2437

2. O‘zbekiston milliy enseklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3. Ambrumova A.G., Tixonenko V.A. Diagnostika suitsidalnogo rovedeniya. // -M.: Minzdrav, 1990. -106 s.

4. Adler A. Praktika i teoriya individualnoy psixologii. // -Moskva.: Fond «Za ekon. gramotnost». 1995 – 291 s.

5. Popov I.V. Samoubiystvo. Etiko-psixologicheskiy ocherk. // -Sergiyev Posad, 1898.-157 s.

6. Shamshetova A.K, Suletbayeva E.S., Yerjanova M.K. Ta'lim muassasalarida suitsidning psixoprofilaktik chora-tadbirlarini tashkil etish. // K.Ubaydullayev nomidagi Respublika pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. Nukus 2015. 112 б.

Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna
Bukhara State University Associate Professor
Department of Psychology (PhD)

SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE STAFF

Abstract. *This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of social-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific social-psychological factors. , the mechanisms for determining the components are revealed.*

Key words: *competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ОХРАНЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников службы охраны и совершенствования ее отдельных социально-психологических факторов. , раскрываются механизмы определения компонентов.*

Ключевые слова: *компетентность, социально-психологическая компетентность сотрудника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессионально-психологические характеристики*

QO‘RIQLAHS XIZMATI XODIMLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentsiya omillarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini o'rganish va uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kompetentsiya, xodimning ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasi, kasbiy kompetentsiya, kompetentsiya, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar*

Introduction. Highly qualified in the world, the need to train competitive, independent thinking professionals is increasing day by day. It is intended to study the psychological aspects of the social-psychological and professional competence of security service employees in the world, to research the factors of development of their social-psychological competence, to evaluate the social-psychological competence of security service employees, to improve their social-psychological competence Research is being conducted to develop a set of specially structured psychological methods . Improving the level of psychological preparation for the professional activities of security service personnel, determining the socio-psychological factors and mechanisms for the development of their social-psychological competence, increasing the role of professional training of security service personnel and determining the impact on their performance is considered a separate research problem.

Completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the system of psychological guard service, as well as raising the general worldview, moral and intellectual potential of employees, patriotism, pride, pride, loyalty to their profession. and assign tasks to increase the sense of higher responsibility.

Moral and spiritual support of employees is carried out in psychodiagnostic, psychoprophylactic and psychocorrective work.

Literature analysis and methodology.

In the process of studying the structure of competence and competence categories, several directions can be distinguished. Many authors evaluate the functional approach as promising, and they also believe that competence is manifested in professional activity, and at the same time, it is also its basis. In this case, competence is understood as a system of working resources necessary to create effective action within the specific framework of the process. The competence structure is divided into the following components: directive and executive, substantive (knowledge) and process (skills), cognitive and operational.

General aspects of the problem of socio-psychological competence G.M.Andreyeva, Ye.A. Abulkhanova-Slavskaya, V.P.Bederkhanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Myers, Ye.S.Mikhailova, A.V.Petrovsky, S.L.Rubinstein, A.V.Khutorsky, A.J.Yujaninova researched by

A.K.Markova analyzed social competence in terms of content and distinguished its process and result aspects. The author systematized the structure of competence in terms of the process (pedagogical activity, pedagogical communication, student's personality) and the results of pedagogical activity, that is, the student's education and upbringing.

Therefore, all aspects of labor activity are called the psychological module, professional knowledge , skills and abilities, professional psychological characteristics. participates. Also , the competence structure is a working tool of activity, i.e. looking at elements such as motivation, knowledge, skills and competence, an idea appears about taking into account its process and result indicators.

In the scientific research conducted by A.V.Khutorsky, competence – manifests itself as a unique individual - psychological characteristic, and competence emphasizes that the effective and quality activity of a person in a specific environment consists of the necessary preparation and predetermined social requirements.

interprets the essence of the following two levels based on knowledge, skills, competence and thinking:

1) categories, emotional-emotional images, social standards, stereotypes, etc., and thinking systems (reflexive mental activity on solving social problems);

2) practical, executive, that is, a system of skills and abilities to interact with people. Both of the above directions serve to increase reflexive and progressive features of competence.

In our opinion, without these two levels, the essence of the concept of competence would not be considered so complete.

O.A.Bulavenko suggests that competence should be considered not as a characteristic feature of professional activity, but as a state of a person's persistently increased or decreased activity. In our opinion, competence is manifested only in active professional activity, any stagnation in activity can be an obstacle to its success.

I.A.Zimnaya considers competence as orientation, ability to set a goal, emotional -volitional control of behavior, value-meaningful relationships as characteristics of a person. According to him, the competence structure consists of the following system of components:

a) readiness to manifest these characteristics in the work mental and external behavior of a person;

b) to understand the means, methods and programs for achieving success, to be able to deal with social and professional issues, to comply with the requirements of discipline and specific norms. This increases the main content of the competence as follows ;

c) experience of applying knowledge in practice, that is, skills and competence;

d) emotional -volitional regulation, the ability to demonstrate competence, as coordination of its manifestation depending on the circumstances of social and professional interaction.

As can be seen from the above, it is necessary to distinguish specific signs reflecting the ability to self-control, personal and professional ability in cases of manifestation of social-psychological and

professional competence in the structure of competence. Effective use of knowledge, skills and abilities in the process of forensic psychological expertise requires the formation of psychological mechanisms of self-management and self-management from a forensic psychologist .

Teacher A.A.Dunyushin emphasizes that social-psychological competence of a person is the ability to apply knowledge, skills and abilities necessary for interaction with people in professional activities. Apparently, the author of the opinion was identified by the following several comments:

a) competence can be assessed as a description of a specific activity subject;

b) the content of competence depends on the purpose, structure and special requirements of professional activity;

c) competence emotional-volitional qualities, sociability of a person, intellectual potential, orientation of a person serve as a basis for competence.

Therefore, based on the above analysis, it is necessary to understand that the development of aspects related to the communicative competence of court psychologists is one of the urgent tasks, researching various aspects of the professional activity of court psychologists is a requirement of the present time.

According to A.V.Raysev, the following steps are included in the essence of the concept of competence: intellectual, practical, value-purpose and speech. Only then will the specialist's competence be manifested in a specific situation that always depends on the type of activity.

According to L.G.Semushina's interpretation of the works, the level of mastery of a profession or specialty is determined by the specialist, due to the low, medium and high level of qualification. Here, the scientist tried to bring qualification closer to the concept of competence.

Based on the theoretical analysis carried out by N.S.Aulova, it can be said that the following criteria of social competence should be based on the preparation of specialists for activities :

- the level of reflexive activity of a person - attitude to colleagues, choosing the image of an ideal specialist expressed in personally significant professional qualities, assessing suitability for one's profession, formation of reflexive (understanding of one's own understanding and actions) actions;

- mastering the level of formation of the content-process, operational component, tools, methods and ways of professional activity as the main technological preparation;

- the mastered system of professional knowledge of the level of cognitive activity, the ability to apply methods of solving professional problems;

- the degree of formation of trust in the high social definition of the profession;

- understanding the importance of the need to master the skills of effective professional activity;

- strive to find ways to implement them in their professional activities;

- level of awareness.

In this definition, the author pays special attention to the system of specific socio-psychological factors.

Today, in the world, special importance is attached to the following main aspects of social-psychological competence :

a) social - feeling of responsibility, ability to make decisions in cooperation and active participation in it, tolerance to different ethnic cultures and religions, compatibility of personal interest with society's requirements;

b) communicative - the ability to communicate in written and oral ways in different languages;

c) critical attitude to social information disseminated through mass media;

d) cognitive - the need to constantly improve the level of education, to activate and realize one's potential, that is, the ability to independently acquire knowledge and skills, self-development;

e) intercultural competences;

f) competence in the field of independent cognitive activity;

j) preparation for independent performance of special professional activities, assessment of the results of one's work .

In the above-mentioned works, the interpretation of competence criteria on the basis of general scientific, social, political-legal and general professional knowledge is of particular importance. It should be noted that there is also a tradition of interpreting professional knowledge, skills and competencies as a factor of socio-psychological competence.

who revealed the fundamental foundations of the science of psychology , is that they proved that qualification is a complex of social and professional qualification requirements imposed on the social and professional abilities of a person .

Thus, competence can be as basic and professional as competence, while professional competences can often be called ordinary competences. In the scientific literature, the following are included as the main qualifications:

- extra-functional knowledge, skills, individual characteristics of a person beyond the level of professional training;
- general professional knowledge, skills and qualifications, as well as abilities and qualities of a person necessary to perform work in the field of specific professional groups;
- necessary cross-cultural and cross-disciplinary knowledge, skills, competencies and abilities to adapt to different teams and work effectively in them.

Table 1

RESULTS
on the diagnostic of communicative social competence (n=102)

Factors		employees with up to five years of work experience		employees with more than five years of work experience		The difference (in %)
		n_1 – 41		n_2 -61		
		n	%	n	%	
"A" factor	Communicate	16	39.01	40	65.6	±26.5
	Has difficulty communicating	25	60.9	21	34.4	
	Total	41	100	61	100	
"B" factor	Logical thinker	19	46.3	33	54.1	±7.8
	Weak thinking	22	53.6	28	45.9	
	Total	41	100	61	100	
"C" factor	Stable	13	31.7	43	70.5	±38.8
	Unstable	28	68.3	18	29.5	
	Total	41	100	61	100	
"D" factor	Optimism	16	39.01	34	55.7	±16.6
	Pessimism	25	60.09	27	44.3	
	Total	41	100	61	100	
"K" factor	Creative thinking is developed	14	34.1	38	62.3	±28.2
	Realist	27	65.9	23	37.7	
	Total	41	100	61	100	
"N" factor	He can control himself	19	46.3	45	73.8	±27.5
	Has difficulty in control	22	53.7	16	26.2	
	Total	41	100	61	100	
"M" factor	Self-directed	18	43.9	28	45.9	±2
	Oriented to others	23	56.1	33	54.1	
	Total	41	100	61	100	
	Total	41	100	61	100	

The results obtained from the "Communicative Social Competence Diagnostics" method, "communicativeness" on the "A" factor is higher in employees with more than five years of work

experience compared to employees with less than five years of work experience. 65.6% (+26.5%), on the contrary, difficulty in communicating was 34.4% (-26.5%). It can be seen that the work of a forensic psychologist is a factor associated with increasing seniority and experience. According to the "B" factor, the level of "logical thinking" of employees with more than five years of experience is 54.1% (+7.8%), and the level of "weak thinking" is five 53.6% (-7.8%) of court psychologists with the duration of work activity showed. But we can see that the difference range (±7.8) between the employees with five years and more than five years of work experience on this factor is not significantly different. The ability of "logical thinking" is considered an important aspect of the work of a forensic psychologist, and it was determined that this ability was formed over the years. In this, the role of direct intellectual development process is incomparable. "Stability" and "instability" factors made 70.5% over five years, and instability made 68.3% before five years (±38.8). From this it became clear that stable social relations develop over the years. The next criterion, i.e., the factor of "optimism" and "pessimism", five-year optimism was 39.01%, and "pessimism" was 60.09% among forensic psychologists with five years of work experience. Optimism, that is, entering into a relationship with others in a high mood, is more common among forensic psychologists with more than 5 years of work experience, while pessimism, that is, changes in mood, personal pragmatic disagreements, and interruptions in the communication process, has more than five years of work experience. It was found that psychologists have a high rank (±16.6%).

According to the "K" factor, the "level of development of creative thinking" was 34.1% before five years, and realists made 65.9%. It can be seen that during communication, realistic thinking of up to five years, while those with more than five years of work experience develop such qualities as creative approach to events, ability to freely react and analyze.

As for the next factor, the factor "Ability to control oneself" was manifested in 19 persons under five years of experience, and "Difficulty in self-control" was manifested in 73.8% of 45 respondents with more than five years of experience. . When analyzed according to the last factor, "self-orientation" is 45.9% with the participation of 28 respondents with more than five years of experience, "other-orientation" with 23 respondents with more than five years of experience, 56. made 1%. According to him, in the process of communication, the predominance of self-relation is fully formed in more than five years of work, and then attention to others, that is, to the social environment, directly prevails. These analyzes are more clearly reflected in Table 1.

So, based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analysis will be conducted to eliminate existing problems in increasing the social-psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

Conclusion. So, based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analysis will be conducted to eliminate existing problems in increasing the social-psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

References.

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

Maxkamova Laylo Majidova
O'zMU o'qituvchisi

INSULT BILAN XASTALANGAN BEMORLARDA REABILITATSIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada insult xastaligiga chalingan bemorlarda kasallikdan keyingi davrda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish bo'yicha turli olimlarning yondashuvlari, kasallikdan keyingi tiklanish jarayoniga biopsixososotsial jihatdan yondashuv zarur ekanligi yoritib berilgan va turli tadqiqotlar atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *reabilitatsiya, biopsixososotsial yondashuv, insult, afaziya, alaliya.*

REVIEW OF STUDIES ON THE ORGANIZATION OF THE REHABILITATION PROCESS IN STROKE PATIENTS

Abstract. *In the article, the approaches of various scientists to the organization of the rehabilitation process in the post-disease period of stroke patients, the need for a biopsychosocial approach to the post-disease recovery process, and various studies are analyzed in detail.*

Key words: *rehabilitation, biopsychosocial approach, stroke, aphasia, alalia.*

ОБЗОР ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ОРГАНИЗАЦИИ РЕАБИЛИТАЦИОННОГО ПРОЦЕССА У БОЛЬНЫХ, ПЕРЕНЕСШИХ ИНСУЛЬТ

Аннотация. *В статье подробно анализируются подходы различных ученых к организации реабилитационного процесса в постинфарктном периоде больных, перенесших инсульт, необходимость биопсихосоциального подхода к процессу постинфарктного восстановления, а также различные исследования.*

Ключевые слова: реабилитация, биопсихосоциальный подход, инсульт, афазия, алалия.

Insult hastaligi natijasida nutq buzilishlari vujudga kelgan bemorlarda kasallikdan keyingi davrda nafaqat sotsial balki mikrosotsial muhitga moslashuv jarayonida birmuncha qiyinchiliklar vujudga keladi. Amerikalik olimlar tomonidan o'tkazilgan bir necha yillik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki insult bilan hastalangan bemorlarning 1/10 qismida hastalikdan keyingi davrda emotsional labillik holati yaqqol namoyon bo'lar ekan. Xususan kasallikdan keyingi davrda bemorlarda yig'loqilik, kelajakka nisbatan umidning yo'qolishi, yaqin oila a'zolari bilan kelishmovchilik holati shular jumlasidandir.

Insult hastaligidan keyingi davrda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish umumbiologik va psixosotsial muammo bo'lib biopsixososotsial jixatdan yondashuvni talab etadi.

Ushbu yondashuv Dj.Endjel tomonidan taklif etilgan bo'lib, bemorlarni kasallik yuzaga kelgan davrda ham biologik jihatdan va albatta psixologik va sotsial jihatlardan reabilitatsiya qilishni ko'zda tutadi.

Tadqiqodchi Y.G.Frolova (2008) taqdim etgan modelga ko'ra, biopsixososotsial tuzilma faoliyatda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1) Inson salomatligini saqlashga hamda kasalligiga sabab bo'luvchi biologik, psixologik va sotsial sabablarni tizimga solgan holda o'rganish;

2) Tibbiyotda sotsial hamda psixologik qonuniyatlarni keng miqiyosida tarqalishini ta'minlovchi vosita sifatida qarashni;

3) Tibbiyot muassasalaridagi xodimlar va bemor, bemorning yaqinlari va albatta bemor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muolajaning samarali amalga oshishiga sabab bo'luvchi asosiy tirgak sifatida qarash.

Reabilitatsiya jarayonini biopsixososotsial yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilishda D.V.Lifintsev, A.N.Antsutalarning ilmiy izlanishlarini keltirib o'tishimiz lozim (2013). Kasallikdan

keyingi qayta tiklash va adaptatsiya jarayoni nafaqat mutaxasislar balki bemor yaqinlari, ish jarayonidagi sheriklari va atrofidagi boshqa insonlarni xaqiqiy resurs sifatida keltirib o‘tishimiz lozim. Albatta tadqiqotchilar o’z tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keltirdilar: Salomatlikni jismoniy va ruhiy,ma’naviy jixatdan taklash mobaynida bemorning jamiyatdagi boshqa insonlar bilan munosabatga kirishishi, ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni his qilishi va jamiyatning bir bo’lagiga aylana olishi muhim ahamiyatga egadir .

Nutq buzilishlari natijasida kasallikdan keyingi davrda bemorlarda kommunikativ qobiliyatning cheklanishi ularning kasallikdan avvalgi hayot tarziga qaytishga to‘sqinlik qiladi. Shu asnoda bemorda o‘z nutqidan xijolat bo‘lish va buning natijasida sotsial jihatdan deprevatsiya holati vujudga keladi. Nutq buzilishlari mavjud bemorlarda buzilishlarga sabab bo‘layotgan neyropsixologik sabablarni yo’qotish bilangina to’xtab qolmasdan unga ta'sir etuvchi ijtimoiy sabablarni o‘rganish qayta tiklanish jarayonini samaradorligini oshirib beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan bemorlarda reabilitatsiya jarayonining natijalarini baholash barobarida bemorlarda kasallikdan keyingi davrdagi hayot sifatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi bemorlarda kasallik natijasida vujudga kelgan buzilishlarning uning avvalgi hayot tarziga qaytishiga ta'siri katta ekanligidadur. Hayot sifati tushunchasi o‘zida bemor kundalik faoliyatining ob'ektiv va subektiv tomonlarini aks ettiradi.

Kanzas universitetining psixologiya fanlari bo‘yicha professori Michayel S. Vitevitch insult va bosh miyaning turli xildagi jarohatlaridan keyin kelib chiquvchi afaziyalarda nutqni qayta tiklash va avvaligadek qilishga matematik hamda informatsion texnologiyalar nuqtai nazaridan qarashni ilgari surgan. U kognitiv psixolog sifatida bir necha yillar davomida insonlardagi individual lug‘at zahirasi , so‘zlarni yod olish jarayoni va xotiradan chiqarish jarayonini o‘rgangan bo‘lib, agarda inson xotirasida so‘zlar alifbo tarzida saqlansa so‘zlar tuzilishi butunlay boshqacha tarzda takomillashgan bo‘lishi va xotiradan chiqarish jarayoni ma'lum bir tovushlar ma'nolar va tovushlar kombinatsiyasi va so‘zlar ahamiyatining asotsiatsiyasi natijasida sodir bo‘lishi mumkin degan xulosaga keladi.

Nutq korrektsiya jarayoni samaradorligiga tashqi faktorlarning ta'siri haqida AQSh va Yaponiyalik olimlar tomonidan bir necha yillar davomida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib uning natijasida insonning emotsional holati na nutq jarayoni bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan.

E.N.Kris insultdan keyingi asorat sifatida yuzaga keluvchi afaziyalar borasida bir necha yillik tadqiqotlari natijasida bemorlarda nutq tiklanish jarayoni samaradorligida emotsional holat yetakchi ro‘l o‘ynashini e'tirof etgan.

Bu borada yaponiyalik olimlar o‘tkazgan tadqiqotlar natijasida afaziyalarda nutqni karrektsiya qilish jarayonida serotonin garmoni muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlaganlar. Ular tadqiqot olib borgan bemorlarda serotonin garmonini oshiruvchi dori vositalarini qo‘llash natijasida ularda nutq tiklanish jarayoni samaradorligi oshgani va bundan bemorlar qolgan bemorlarga nisbatan tiklanish kursini ertaroq tamomlagan ekanliklari aniqlangan.

Helsinkiy universiteti psixologiya kafedrasi professori Teppo Sarkamo bir necha yillar davomida insultdan keyingi vujudga kelgan afaziyalarda nutqni qayta tiklash jarayonida musiqaning ahamiyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Insult kasalligiga chalinib nutq buzilishlaridan aziyat chekayotgan bemorlar to‘planib uch guruhga bo‘lingan . Birinchi guruh bemorlar kunning ma'lum bir qismida klasik, jaz janridagi musiqalarni tinglaganlar. Ikkinchi guruh bemorlar audiokitoblar tinglaganlar. Uchinchi guruh nazorat guruhi bo‘lib bu guruh hech qanday musiqa tinglamaganlar. Shu bilan birga bemorlarga nutqni karrektsiya qilish kurslari olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida uch guruh bemorlar turlicha natijalarni qayd etishgan.Ular orasida musiqa tinglagan bemorlarda nutq tiklanish jarayoni nisbatan samaraliroq natija qayd etgan.

Umuman olganda turli afaziyalarda nutq buzilishlarini qayta tiklash bo‘yicha olimlar tomonidan nafaqat an'anaviy metodlar bo‘yicha balki noan'anaviy yo‘nalishlar doirasida ham tadqiqotlar olib borilgan. Hususan, P.Muller va uning hamkasblari tomonidan bosh miya falajligida qo‘llaniluvchi majbur qilish metodi xronik afaziyaga chalingan bemorlarda qo‘llanilgan. Bemorlarga asosiy vazifa sifatida suhbat davomida mimika va qo‘l harakatlaridan foydalanish cheklab qo‘yilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar ana'naviy metodlarga nisbatan birmuncha samarali natija ko‘rsatgan.

Luiza Murrey va uning hamkasblari tomonidan nutq korreksiyasi dasturiga relaksatsiya jarayonini kiritish g‘oyasini ilgari surganlar.

Ularning fikricha bu nutq tiklanish jarayonini ortiqcha psixik travmalarsiz amalga oshishida asosiy ro‘l o‘ynaydi. Bunga qarama qarshi ravishda Therese Mariye Abesamis tomonida stress terapiya ilgari surilgan bo‘lib, olim ushbu terapiyani quyidagicha izohlab o‘tgan: “Biz insultga chalingan bemorlarga keragidan ortiq g‘amhorlik qilamiz. Ularni himoya qilishga ortiqcha urintirmaslikka undaymiz. Natijada aynan biz o‘zimiz bemor bilan jamiyat o‘rtasiga devor tortamiz”. Nutq insonni jamiyat bilan bog‘lovchi asosiy vosita faqatgina afaziyaga chalingan bemorlarni jamiyatga olib chiqish nutqni qayta uyg‘onishining eng samarali vositasi bo‘la oladi”. Olim fikricha nutqdagi kamchiliklarga ega bemor insonlar orasiga chiqqanda, ish faoliyatiga qaytganda unda stress kuzatilishi tabiiy hol. Aynan shu jarayonda bemordagi bir necha marotabalik urinishlar miya to‘qimalarida uyg‘onishga,nutq ravonligi oshishiga tashlangan birinchi qadam bo‘la oladi. Bemorni qayta tiklanishida yaqin odamlarining unga nisbatan munosabati va parvarish qilishi eng muhim axamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. М.,МГУ, 2019. -505 с.
2. Михеев В.В. Избранные лекции по неврологии. — М., Медицина, 2010.- 114 с.
3. Нейропсихология (тексты) / под ред. Б. Д. Хомской. — М.: МГУ, 2014. – 334 с.
4. Оппель Е.В. Восстановление речи после инсульта. СПб.: Медицина, 2002.-236 с.
5. Шкловский В.М., Визель Т.Г. Восстановление речи у больных с афазией. М., 2007. 108 с.

Primov Rustam Anvar o'g`li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti psixologiya yo'nalishi magistranti,
Mırzayeva Sayyora Rustamovna
Psıxologıya kafedrasi dotsenti

SAMOTIK KASALLIKLARNI KELIB CHIQISHI XAVOTIR VA BEMORNING SHAXSIY FAZILATLARIGA BOG`LIQLIGINI PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsıya. *Ushbu maqolada somatik kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishida xavotir va bemorning shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liq psixologik jihatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xavotir insonning tanasi va ruhiyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirib, jismoniy simptomlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Perfektsionizm, aleksitimiya va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlar xavotirni boshqarish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.Maqolada biopsixosotsial model, stressning epigenetik ta’siri va xavotirning neyropsixologik asoslari kabi zamonaviy ilmiy yondashuvlar muhokama qilingan. Shuningdek, kognitiv-behavioral terapiya, relaksatsiya texnikalari, neyrofeedback terapiya va psixofarmakologik davolash usullari samaradorligi ko‘rib chiqilgan. somatik kasalliklarni tushunish va davolashda integratsion psixologik yondashuvlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Ushbu yondashuvlar xavotirni kamaytirish va bemorning umumiy sog‘ligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy tibbiyot va psixologiya sohasida muhim ahamiyatga*

Kalit so’zlar: *somatik kasalliklar, ruhiyat, siptomlar, xavotir, stress, psixologik tasir, emotsiya, meditatsiya, psixoterapiya, shaxsiyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СВЯЗИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОМАТИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ С ТРЕВОЖНОСТЬЮ И ЛИЧНОСТНЫМИ КАЧЕСТВАМИ ПАЦИЕНТА

Аннотация. В данной статье анализируются психологические аспекты, связанные с тревожностью и личностными качествами пациента, в возникновении и развитии соматических заболеваний. Исследования показывают, что тревога усиливает взаимосвязь между телом и психикой человека, приводя к появлению физических симптомов. Такие личностные качества, как перфекционизм, алекситимия и эмоциональная стабильность, оказывают существенное влияние на способность управлять тревогой. В статье обсуждаются современные научные подходы, такие как биопсихосоциальная модель, эпигенетическое воздействие стресса и нейропсихологические основы тревожности. Также рассмотрена эффективность когнитивно-поведенческой терапии, техник релаксации, нейрофидбэк терапии и психофармакологических методов лечения. Подчеркивается важность интеграционных психологических подходов в понимании и лечении соматических заболеваний. Эти подходы направлены на снижение тревожности и улучшение общего состояния здоровья пациента, что имеет существенное значение в сфере современной медицины и психологии.

Ключевые слова: СОМАТИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ, ПСИХИКА, СИМПТОМЫ, ТРЕВОГА, СТРЕСС, ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ, ЭМОЦИИ, МЕДИТАЦИЯ, ПСИХОТЕРАПИЯ, ЛИЧНОСТЬ. ПСИХОТЕРАПИЯ, ЛИЧНОСТЬ.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE EMERGENCE OF SOMATIC DISEASES, ANXIETY, AND THE PERSONAL TRAITS OF THE PATIENT

Annotation. *This article analyzes the psychological aspects related to anxiety and patients' personal characteristics in the origin and development of somatic diseases. Studies show that anxiety*

intensifies the relationship between a person's body and psyche, leading to the manifestation of physical symptoms. Personal traits such as perfectionism, alexithymia, and emotional stability significantly impact the ability to manage anxiety. The paper discusses contemporary scientific approaches including the biopsychosocial model, the epigenetic effects of stress, and the neuropsychological foundations of anxiety. Additionally, the effectiveness of cognitive-behavioral therapy, relaxation techniques, neurofeedback therapy, and psychopharmacological treatment methods has been examined. The importance of integrative psychological approaches in understanding and treating somatic diseases is emphasized. These approaches are aimed at reducing anxiety and improving the patient's overall health, and they hold significant importance in the fields of modern medicine and psychology.

Keywords*: Somatic disorders, Psychology, Symptoms, Anxiety, Stress, Psychological impact, Emotion, Meditation, Psychotherapy, Personality. Psychotherapy, Personality.*

Zamonaviy tibbiyotda somatik kasalliklar inson tanasi va ruhiyati o‘rtasidagi murakkab aloqani o‘rganish muammosini oldinga surmoqda. Somatik kasalliklar asosan jismoniy simptomlar orqali namoyon bo‘lsa-da, ularning kelib chiqish sabablari ko‘pincha ruhiy holatlar, xususan, xavotir va shaxsiy fazilatlar bilan bog‘liq. Shuning uchun ushbu masalani chuqur o‘rganish nafaqat diagnostika va davolashni yaxshilashga, balki bemorlarning umumiy hayot sifatini oshirishga ham yordam beradi.

Psixologiya ham boshqa fanlar kabi, hali to’liq o’rganilmagan va yyechimiga to’la - to’kis ega bo’lmagan bir qator muammolardan iborat yangi fandir. Boshqacha qilib aytganda psixologiya fani hozirgi kunda juda jadal -suratlarda kengayib yangi tarmoqlarga ega bo’lib bormoqda. O’z o’rnida aytib o’tishimiz lozimki jadal sur’atlarda o’sayotgan bu fanning o’ziga yarasha ulkan muammolari ham bor bo’lib, bu muammolardan eng kattasi hozirda juda ommalashgan va hatto global muammoga aylangan Somatik kasalliklarni kelib chiqishi xavotir va bemorning shaxsiy fazilatlariga bog‘liqligini psixologik jihatlari muammosidir.

Samotik Kasalliklar Tushunchasi va Ularning Sabablari Samotik kasalliklar, odatda, tibbiy jihatdan tushuntirib bo‘lmaydigan jismoniy alomatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu simptomlar ko‘pincha tananing turli qismlarida og‘riq, diskomfort yoki disfunksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga misol bo‘lishi mumkin:

Qon bosimining tez-tez o‘zgarishi, yurak urishining tezlashishi;

Oshqozon-ichak muammolari (masalan, gastrit yoki ich qotishi);

Mushak va bo‘g‘imlarda og‘riq;

Surunkali charchoq sindromi.

Ushbu kasalliklarning kelib chiqishida stress va xavotir asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Psixologik va fiziologik jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, xavotirli holatlar tanada jismoniy simptomlarni keltirib chiqaradi.

Ta’siri Xavotirning Organizmga

Xavotir – bu inson psixikasining tashqi yoki ichki tahlikaga bo‘lgan tabiiy javobidir. Ammo uzoq muddat davom etgan xavotir organizmga zarar keltirishi mumkin.

Stress va gormonal javob: Xavotir va stress holatida kortizol va adrenalinning haddan tashqari ishlab chiqarilishi yurak-qon tomir tizimiga yuklama tushiradi, oshqozon-ichak muammolarini keltirib chiqaradi va immunitetni zaiflashtiradi.

Tana simptomlari: Xronik xavotir holatida bosh og‘rig‘i, mushaklarning zo‘riqishi va tana a’zolaridagi boshqa simptomlar rivojlanadi.

Psixologik va emotsional muvozanatsizlik: Xavotirni yengishga qodir bo‘lmagan shaxslar ko‘pincha somatik simptomlar orqali o‘z ichki his-tuyg‘ularini ifodalaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xavotirli insonlarning 30-40 foizida somatik simptomlar mavjud bo‘ladi.

Shaxsiy Fazilatlarning Rolini Boshqa Tomonlama Yoritish

Insonning shaxsiy xususiyatlari uning xavotirga va stressga javob reaksiyasini belgilab beradi. Quyida ushbu fazilatlarning somatik kasalliklarga qanday ta’sir qilishi bayon etiladi:

1. Perfektsionizm va tanqidiy fikrlash: Perfektsionist shaxslar ko‘pincha o‘zlariga nisbatan ortiqcha talabchan bo‘lib, doimiy ichki zo‘riqishni boshdan kechiradilar. Bu esa tanadagi stress belgilarining kuchayishiga olib keladi.

2. Tashqi omillarga qaramlik: O‘zini boshqalarning bahosi bilan o‘lchaydigan insonlar tez-tez tashvishga tushadi, bu esa turli somatik muammolarni keltirib chiqaradi.

3. Emotsional barqarorlikning yetishmasligi: Stressni yengib o‘tolmaydigan shaxslar o‘zlarini ko‘pincha zaif va charchagan his qiladi, bu holat somatik simptomlar shaklida ifodalanadi.

4. Ichki tajovuz: O‘z his-tuyg‘ularini yashirishga intiluvchi insonlar ko‘pincha o‘z muammolarini jismoniy simptomlar orqali namoyon etadilar.

Psixologik Yondashuvlar va Davolash Metodlari.Somatik kasalliklarni davolashda xavotirni kamaytirishga va bemorning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullar samarali bo‘lishi mumkin. Quyida asosiy metodlar keltirilgan:

1. Kognitiv-behevioral terapiya (KBT):Ushbu terapiya xavotirni boshqarish va bemorning stressga munosabatini o‘zgartirishda qo‘llaniladi. KBT orqali bemorlarga o‘z fikrlash va xulq-atvorlarini tahlil qilish o‘rgatiladi.

2. Relaksatsiya texnikalari:

Meditatsiya, yoga va nafas olish mashqlari orqali tanadagi stress belgilarini kamaytirish mumkin. Relaksatsiya bemorning umumiy psixologik va jismoniy holatini yaxshilaydi.

3. Shaxsiy rivojlanish va stressni boshqarish bo‘yicha treninglar:Ushbu yondashuvlar orqali bemorlarga o‘z hissiyotlarini boshqarish va stressli holatlarni oldindan aniqlash ko‘nikmalari o‘rgatiladi.

4. Psixoterapiya:Bemorning ichki muammolarini aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan yondashuv somatik simptomlarni kamaytirishga yordam beradi.

Yangi Psixologik Yondashuvlar va Kashfiyotlar

1. Biopsixosotsial modelning kengayishi

So‘nggi yillarda biopsixosotsial model yangicha tahlil qilinmoqda. Bu model insonning tanasidagi (biologik), ruhiyatidagi (psixologik) va jamiyatdagi (ijtimoiy) omillarni hisobga olib, somatik kasalliklarning rivojlanish mexanizmlarini izohlashni taklif qiladi.

Biologik jihat: Xavotir stress gormonlarining ko‘p ishlab chiqarilishiga olib kelib, ichki a’zolar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik jihat: Stressni boshqarish ko‘nikmasining pastligi va xavotirning yuqori darajasi somatik simptomlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy jihat: Ijtimoiy izolyatsiya, oila yoki jamiyatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘qligi somatik simptomlarni kuchaytiradi.

2. Stressning epigenetik ta’siri

So‘nggi ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli stress va xavotir inson DNKsiga epigenetik o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Bu o‘zgarishlar:

Immunitet tizimining zaiflashuviga;

Organlar faoliyatining buzilishiga;

Surunkali yallig‘lanish jarayonlariga olib keladi.

Epigenetik mexanizmlar insonning nafaqat o‘z sog‘lig‘iga, balki kelgusi avlodlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Somatik kasalliklarning kelib chiqishida xavotir va shaxsiy fazilatlar o‘zaro uzviy bog‘liq. Shuning uchun somatik simptomlarni davolashda nafaqat dori vositalaridan, balki psixologik yondashuvlardan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Stress va xavotirni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, bemorlarning umumiy ruhiy holatini yaxshilash orqali kasallikning oldini olish yoki simptomlarini kamaytirish mumkin.

3. Xavotirning neuropsixologik asoslari

Yaqinda olib borilgan neyropsixologik tadqiqotlar xavotirni boshqarishda miyaning ba’zi hududlari (masalan, amigdala va prefrontal korteks) qanday rol o‘ynashini aniqladi.

Amigdala: Xavotirni kuchaytiruvchi va tananing “kurash yoki qochish” reaktsiyasini faollashtiruvchi asosiy markaz.

Prefrontal korteks: Xavotirni boshqarish va emotsiyalarni tartibga solishda mas'ul bo‘lgan miyaning qismi. Ushbu hududning funksional buzilishlari xavotirni kuchaytirishi va somatik simptomlarni qo‘zg‘atishi mumkin.

Shaxsiy Fazilatlar bo‘yicha Yangi Kategoriyalar

1. Emotsional intellekt va somatik simptomlar

Emotsional intellekti yuqori insonlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda va stressga qarshi kurashishda yaxshiroq muvaffaqiyatga erishadi. Bu esa somatik simptomlarning oldini olishga yordam beradi. Aksincha, past emotsional intellektga ega shaxslar xavotirga ko‘proq moyil bo‘lib, bu ularning jismoniy sog‘lig‘iga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

2. Aleksitimiya va somatik kasalliklar

Aleksitimiya – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglay olmaslik yoki ifoda etishdagi qiyinchilikdir. Aleksitimiya holatida shaxslar ko‘pincha o‘z hissiy muammolarini jismoniy simptomlar orqali namoyon qiladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aleksitimiya somatik kasalliklarga moyillikni oshiradi.

3. Optimizm va psixosomatik sog‘lik

Optimistik shaxslar salbiy voqealarga ijobiy yondashishga moyil bo‘lib, stressni boshqarish ko‘nikmalariga ega. Optimizm darajasining oshishi xavotirni kamaytirib, somatik kasalliklarning rivojlanish ehtimolini pasaytiradi.

Yangi Davolash Yondashuvlari.

1. Neyrofeedback terapiya

Xavotirni kamaytirish va miyaning faoliyatini normallashtirish uchun neyrofeedback terapiya keng qo‘llanilmoqda. Ushbu terapiya orqali bemor o‘z miyasining faoliyatini nazorat qilish va xavotirni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rganadi.

2. Psixofarmakologik yondashuv

Psixologik kasalliklarni davolashda antidepressantlar va anksiolitiklar (xavotirni kamaytiruvchi dorilar) somatik simptomlarni pasaytirishda samarali hisoblanadi.

3. Transdiagnostik yondashuv

Ushbu yondashuv turli psixologik va somatik kasalliklar uchun umumiy davolash strategiyasini taklif etadi. Masalan:

Stressni boshqarish bo‘yicha treninglar;

Kognitiv va emotsional ko‘nikmalarni oshirish;

Relaksatsiya texnikalari.

Somatik kasalliklarni chuqur o‘rganish va ularga yondashishning individual metodlarini ishlab chiqish kelgusida tibbiyot va psixologiya sohasidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aleksandrova, M. D. (2015). Psixosomatik tibbiyot: asosiy tushunchalar va tadqiqotlar yo‘nalishlari. Moskva: Meditsina nashriyoti.

2. Taylor, G. J. (2008). Somatization and Psychosomatic Symptoms in Modern Medicine. Journal of Psychosomatic Research, 65(2), 115-122.

3. Bekhterev, V. M. (1991). Psixik faoliyat va somatik jarayonlar o‘rtasidagi munosabat. Leningrad: Nauka.

4. Freud, S. (2001). Selected Papers on Hysteria and Psychosomatics. International Psychoanalytic Library.

5. Selye, H. (1978). Stress: hayot va salomatlikka ta'siri. Moskva: Progress.

6. Kaplan, H. I., & Sadock, B. J. (2015). Synopsis of Psychiatry: Behavioral Sciences/Clinical Psychiatry. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins.

7. Nemeroff, C. B. (2004). The Neurobiology of Depression and Anxiety Disorders. Focus on Psychosomatic Disorders, 30(3), 9-21.

8. Uzbek Milliy Ensiklopediyasi (2020). Psixosomatik kasalliklar bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent: Fan nashriyoti.

Nasimdjanova Maxsuma Majidovna
PhD associate professor IIAUz,
Jaloldinova Feruza Abdumannob qizi
4th year student IIAUz

STUDY OF THE PROBLEM OF AGGRESSIVENESS IN FOREIGN PSYCHOLOGY

Abstract. *The study of the phenomena of aggression and aggressiveness continues to this day, since the problem of their manifestation in society is destructive. Different psychological schools have their own theories on this problem, which explain the causes of aggression and what consequences it leads to. These theories also have their shortcomings, since they consider these phenomena only from the point of view of their school and exclude other determinants that affect aggression and aggressiveness.*

Key words: *aggressiveness, instinct, approaches, frustration, emotion.*

XORIJIY PSIXOLOGIYADA AGRESSIVLIK MUAMMOSINI O‘RGANISHI

Annotatsiya. *Agressiya va agressivlik fenomenini o’rganish hozirgi kungacha davom etayotgan bo’lib, sotsiumda ushbu muammoning namoyon bo’lishi destruktiv xarakterga egadir. Turli psixologik maktablarda ushbu muammo bo’yicha o’z nazariyalari bo’lib ularda agressivlikni yuzaga kelish sabablari va uning oqibatlari tushuntiriladi. Bundan tashqari, bu nazariyalarning kamchiliklari bor, chunki ular bu hodisalarni faqat o'z maktablari nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar va agressiya hamda agressivlikka ta'sir qiluvchi boshqa omillarni istisno qiladilar.*

Kalit so’zlar: *agressivlik, instinkt, yondashuvlar, frustratsiya, emotsiya.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ АГРЕССИВНОСТИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *Изучение феноменов агрессии и агрессивности продолжается по сей день, так как проблема их проявления в социуме носит деструктивный характер. У разных психологических школ есть свои теории по данной проблеме, которые объясняют причины возникновения агрессивности и к каким последствиям она приводит. Также у этих теорий есть свои недостатки, так как они рассматривают данные феномены только с точки зрения своей школы и исключают другие детерминанты, влияющие на агрессию и агрессивность.*

Ключевые слова: *агрессивность, инстинкт, подходы, фрустрация, эмоция.*

Currently, the study of human aggression, its forms and determinants, as well as various aspects of aggressiveness are becoming increasingly relevant. The problem of aggressiveness is one of the most significant problems of modern psychology due to the growth of conflicts, violence and terror in the world, which makes its study a relevant and important theoretical and practical task. It is especially important in psychological science to study the manifestations of aggressiveness in adolescence and to develop technologies for managing aggressive states that would help young people develop constructively, directing their emotions to self-creation, rather than self-destruction.

Throughout the study of the phenomena of aggression and aggressiveness, many theories of the origin, dynamics and determinism of these concepts have been developed. Some theoretical concepts are recognized as untenable, others are incomplete, and others have received approval from the scientific community. There are theories that complement each other, and there are also those that are mutually exclusive and have different ideas about the phenomenon of aggressiveness.

The study of aggression began quite a long time ago. However, despite the existence of a large number of foreign and domestic approaches that describe aggression from different positions, there is no consensus on either the definition or the origin of this phenomenon. The concepts of "aggression" and "aggressiveness" are characterized by different phenomenology and differ in the methods of implementation. According to R. Baron and D. Richardson, aggression is any form of behavior

aimed at insulting or harming another living being who does not want such treatment [7]. Aggressiveness should be considered as a readiness, predisposition to aggressive behavior, which is characterized by destructive tendencies, as a rule, in the area of subject-subject relations, and is also subject to change under the influence of society. Aggressiveness is a component of a more complex structure of human mental properties [11].

The main approaches of foreign authors to the study of aggression are associated with determining the contribution that biological and social factors make to its origin. Among the representatives of instinctivists, K. Lorenz studied the problems of the phenomenon of aggression. He gives the following definition: "Aggressiveness is an innate property and a manifestation of the survival instinct" [7, p. 56]. According to K. Lorenz, it is aggressiveness that promotes natural selection, i.e., in conditions of high aggressiveness, only the strongest individuals with good genetic material survive. Lorenz believes that aggressive energy (which has its source in the fighting instinct) is generated in the body spontaneously, continuously, at a constant pace, regularly accumulating over time. Thus, the development of clearly aggressive actions is a joint function of the amount of accumulated aggressive energy and the presence and strength of special stimuli in the immediate environment that facilitate the discharge of aggression [16, p. 181].

Aggression comes from the natural instinct to fight for survival, which people have just as much as animals. In other words, the more aggressive energy there is at a given moment, the less stimulus is needed for aggression to spill out [6, p. 109]. K. Lorenz believes that aggression can be discharged in another way. If you participate in an activity that is not related to violence, then the energy of aggression will not accumulate to dangerous limits. As an example, he cites the incompatibility of laughter and an act of aggression: "Dogs that bark sometimes bite; but people who laugh never shoot!" [7, p. 268]. The main criticism of the instinctivist school was that the results obtained on animals were transferred to people. The personality has higher mental functions, but instinctivists did not take this into account. Instinctivists took into account human behavior, and the psychoanalytic school shifts the focus of attention to unconscious structures.

In his work “Drives and Their Fate”, Z. Freud considered two directions: “both that destructiveness is an integral part of the sexual instinct, and that it is a force independent of sexuality” [13, p. 283]. In the first direction, aggressiveness is a component of the sexual instinct, and in the second direction, the instincts of the “I” are the source of aggressiveness. In the book “Beyond the Pleasure Principle” [12], Z. Freud comes to a new understanding of the theory of instincts. In this work, Freud presents a new position on the dichotomy of the life instinct and the death instinct, the property of which he reveals in more detail in the book “The Ego and the Id” and in subsequent works. Eros, the desire for life, for self-preservation, the desire for pleasure, and thanatos, the desire for death, for the destruction of oneself or others, are always in constant opposition. In order to keep one's own "I" safe from the destructive influence of thanatos, there are protective mechanisms that exert influence, namely, redirect destructive energy outward, from the individual to other people (destrudo). In other words, according to Freud, the root cause of a person's aggressiveness towards other people is the manifestation of the destructive principle in a person.

If we combine K. Lorenz's theory of aggressiveness and Freud's theory, it follows that the superego controls our manifestation of feelings, behavior. When we do not show aggression, it remains in our psyche. When the boundaries of the superego cannot hold back the preserved aggression, aggression manifests itself outward (scandal, fight, etc.). If the accumulated charge of aggressive energy does not manifest itself outward for a long time, the boundaries of the superego weaken. With weak boundaries of the superego, a person becomes irritable, aggressive most of the time. A person begins to constantly express aggressive energy. If this charge of aggressive energy is expressed and the boundaries of the super-ego are strengthened, then the person becomes calm and balanced. There is only a certain stimulus that causes aggression, triggering the accumulated charge. For example, the stimulus can be a dog that is incapable of harming a person. If the dog is potentially dangerous, then the instinct of self-preservation is triggered, which thereby depotentializes the aggressive energy.

The frustration theory of aggression arises in response to the drive theory. This theory, formulated by a group of scientists from Yale University (J. Dollard, L. Doob, N. Miller, R. Sears), has

gained great popularity. J. Dollard and his colleagues argue that "aggression is always a consequence of frustration" [19]. This theory has two statements. First: aggression is a consequence of frustration; second: "frustration always entails aggression" [14, p. 5]. The "aggression - frustration" scheme is based on four concepts: aggression, frustration, inhibition, substitution. Aggression is the intention, the urge to harm another person by your action. Frustration is a response to the appearance of an obstacle in achieving a goal. The amount of frustration is affected by the strength of motivation to achieve the goal; how difficult it is to overcome an obstacle and the number of purposeful attempts after which frustration occurs. Inhibition is a limitation (complete or partial) of actions due to a predicted negative outcome. Inhibition of any manifestation of aggression exactly corresponds to the strength of the expected act of aggression. Also, self-inhibition of aggressive actions is an additional frustrating factor. Substitution is the desire to harm another person, and not the real source that causes frustration [15]. Frustration theory has been criticized by other scientists. The "aggression - frustration" scheme was criticized. People who are in a state of frustration do not always behave aggressively, and vice versa [17].

A. Bandura puts forward the theory of social learning [18] and considers aggression as a model of social behavior acquired in the process of learning. He argued that frustration is not enough for aggression to arise; an aggressive role model is also needed. He identifies 3 main components in the analysis of aggressive behavior:

• The method of acquiring aggressive actions.
• Factors that provoke aggressive behavior.
• Conditions under which this behavior is reinforced [2].

In the methods of acquisition, Bandura identifies biological factors and learning. He considers the influence of biological factors (hormones, nervous system), but places great emphasis on the importance of the influence of social learning (direct experience, observation) [10]. Many features of an individual's behavior are formed by imitating certain models [4].

Bandura attributes the following to the factors that cause aggression:

• the impact of patterns (arousal, attention);
• unacceptable treatment (attacks);
• incentives (money);
• instructions (orders);
• eccentric beliefs (paranoid ideas) [2].

He considers the following to be regulators of aggression:

• external rewards and punishments (monetary bonus or fine);
• vicarious reinforcement (observation of who is being rewarded or punished);
• self-regulation mechanisms (pride, guilt) [2].

Social learning theory offers many more options for preventing or controlling aggressive behavior. According to this concept, aggression is an acquired model of social behavior. It follows that an aggressive model of behavior can be changed to another model of behavior, weakened, etc. Social learning also suggests that individuals display aggressive behavior only in certain social conditions that promote this behavior, and they (the conditions) can be changed.

According to supporters of cognitive theories (L. Berkowitz, D. Zillmann, K. Lazarus, M. Festinger), when describing aggressiveness, it is necessary to take into account the contribution of emotional and cognitive processes. From the standpoint of the theory of forced action (Feshbach), aggressiveness is a non-instinctive motivational force that appears as a result of depriving the body of things and conditions that are important to it and increases with the intensification of such deprivation. Representatives of the ethical-humanistic approach (K. Rogers, G. Allport) consider aggression and violence as a type of psychological defense, forced responses of an individual to a threatening experience.

A. A. Rean identifies two approaches to studying the phenomenon of aggression: ethical-humanistic and evolutionary-genetic [8]. In the ethical-humanistic approach, aggression and harm to other people are perceived as something bad. Aggressive behavior does not imply the original positive essence of man. This approach is presented in humanistic psychology, Christian concept, existential

philosophy, in some pedagogical theories, and also in humanistic philosophy. A. A. Rean paid special attention to the Christian concept, since various concepts that this approach incorporates go back to the ethical traditions of Christian teaching. In Christianity, aggression as an action that causes harm is assessed as evil (do not kill, do not steal). Aggressiveness as a personality trait is also unacceptable: love your neighbor as yourself, love and forgive your enemies, etc. In the evolutionary-genetic approach, aggression and aggressiveness are considered as a factor that ensures the survival and adaptation of an individual. Intraspecific aggression is an expedient instinct. Aggression is an instinct of struggle that is directed against its own kind in both animals and humans. Aggressiveness is not an instinct of "death", it is an instinct of self-preservation and preservation of the species. Based on this, aggressiveness is the same instinct as all the others [9].

P.K. Anokhin in his biological theory of emotions [1] considers emotion as a biological product of evolution. The emergence of needs leads to the emergence of negative emotions that perform a mobilizing function, contribute to the rapid satisfaction of needs in an optimal way. When the subject satisfies his need, a positive emotion arises. It is the final reinforcing stimulus. Once imprinted in memory, the emotion subsequently figures in the motivational process, influencing the decision-making process on alternative ways of satisfying the need. If the obtained goal does not correspond to the program, emotional anxiety is created, which leads to the search for other, more program-compliant ways of achieving the goal. A. I. Erzin [5] identifies several stages in the formation of aggressive behavior, using the basic provisions of P. K. Anokhin's theory:

1. The human central nervous system analyzes various information received through afferent channels.

2. Decision making. This process includes the following components: formation of an acceptor of the action result (i.e. creation of an ideal image of the goal) and efferent synthesis (the stage of the action program, when the action itself has already been formed, but does not manifest itself externally).

3. The action itself. Aggression manifests itself precisely at this stage.

4. Evaluation of the result of the action, comparison with the ideal image.

The following theory clarifies the theory of P.K. Simonov. In the need-information theory of emotions by P.V. Simonov [11], it is stated that emotion is a reflection of the human brain, some real need and the ability to satisfy this need. The brain evaluates this need on the basis of genetic experience acquired in phylogenesis and previously acquired individual experience. According to this theory, the emergence of emotion is determined by a lack of pragmatic information (when In is greater than Is), this causes emotions of a negative nature, including aggression. A. N. Leontiev considers emotions from the point of view of the activity approach.

According to his formulation, "emotion is a function reflecting how the motive underlying any activity is embodied in it" [3, p. 39]. Based on Leontiev's definition, it follows that emotion is an assessment of how much the motive corresponds to the result of the activity. Aggression occurs when the motive and the result of the activity do not coincide. From the point of view of the activity approach, emotions do not control the activity, they are its result.

Within the framework of the system-functional approach, a number of studies of aggression in various age groups and in relation to a number of personality traits were conducted. A. B. Kryuchkova, as a result of a study of aggression in relation to temperament on a sample of 10th-11th grade students, identified and described gender differences in the manifestation of the emotional, productive and regulatory components of aggression. Differences in the severity of physical aggression in girls and boys consist in the fact that girls have a more pronounced autoaggression as a consequence of affective-aggressive behavior, and boys are characterized by the use of physical aggression and greater confidence in the legitimacy of acts of aggressive behavior. The gender specificity of the relationships between the studied properties is that boys were found to have closer correlations between temperament properties and aggressiveness variables [20].

G. L. Knyshev described the specifics of the relationship between aggressiveness, sociability and sociometric status of students, as well as the dynamics of their change. It turned out that mani-

festations of aggressiveness change their direction, forms and conditions of manifestation more dynamically, especially with regard to socially disapproved manifestations - the behavioral component. It was found that such variables of aggressiveness as physical aggression, verbal aggression, personal difficulties and affectivity are negatively associated with the magnitude of sociometric status. In the sociometric structure of the studied groups, students with pronounced manifestations of emotional-reactive aggressiveness turned out to be the most rejected [21].

Thus, the multidimensional-functional approach enables a multifaceted consideration of the structure of personality traits and the internal mechanisms of interaction of the components that comprise it, and also allows us to develop effective programs for the correction and self-regulation of various personality traits, including aggressiveness. We believe that further study of aggressiveness within the framework of this approach in adolescence, as well as in relation to other personality parameters that both contribute to and hinder the manifestation of aggressive behavior, is relevant and promising.

References.

1. Анохин П. К. Философские аспекты теории функциональной системы. М.: Наука, 1978.
2. Бэрон Р., Ричардсон Д. Агрессия. 2-е изд. СПб.: Питер, 2014. 416 с.
3. Визель Т. Г. Основы нейропсихологии: учебник для студентов вузов. М.: Секачев, 2016. 276 с.
4. Годфруа Ж. Что такое психология: в 2 т.; пер. с фр. М.: Мир, 1992.
5. Ерзин А. И. Агрессия как форма проактивного поведения // Вестник ОГУ. 2013. № 2 (151). С. 77–80.
6. Крэйхи Б. Социальная психология агрессии. СПб.: Питер, 2003. 412 с.
7. Лоренц К. Агрессия (так называемое «зло»). М.: Издательская группа «Прогресс», «Универс», 1994. 272 с.
8. Реан А. А. Агрессия и агрессивность личности // Психологический журнал, 1996. Т. 17. № 5. С. 3–19.
9. Реан А. А. Психология личности. СПб.: Питер, 2013. 288 с.
10. Румянцева Т. Г. Агрессия – проблемы и поиски в западной философии и науке. М.: Владос, 1991.
11. Симонов П. В. Мотивированный мозг. М.: Наука, 1987.
12. Фрейд З. По ту сторону принципа удовольствия. Харьков: Фолио, 2013.
13. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. М.: АСТ, 2014. 624 с.
14. Фурманов И. А. Детская агрессивность: психодиагностика и коррекция. Минск: НИО, 1997. 198 с.
15. Фурманов И. А. Социально-психологические проблемы поведения: Курс лекций для студентов отделения психологии. Минск: БГУ, 2001. 91 с.
16. Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности. 3-е изд. СПб.: Питер, 2014. 607 с.
17. Чалдини Р., Кенрик Д., Нейберг С. Социальная психология. Пойми других, чтобы понять себя. СПб.: Прайм-Еврознак, 2002. 256 с.
18. Bandura A., Walters R. H. Adolescent aggression. New York: Ronald Press, 1959.
19. Dollard J., Doob L., Miller N., Mowrer O. & Sears R. Frustration and aggression. New Haven, CT: Yale University Press, 1939.
20. Кнышев Г. Л. Системно-функциональный подход к исследованию соотношения общительности, агрессивности и социометрического статуса студентов // Комплексные исследования свойств личности: научная школа И. А. Крупнова: Сборник научных статей, посвященный 70-летию А. И. Крупнова. – М.: РУДН, 2009. – С. 269-277.
21. Крючкова А. Б. Специфика соотношения агрессивности со свойствами темперамента у юношей и девушек: дисс. … канд. психол. наук. – М.: РУДН, 2010. – 205 с.

Oblokulov Anvar Erkinovich
Navoiy davlat unversiteti Umumumiy pedagogika psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

SPORTCHILARNING FAOLIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlarning, xususan diqqatni jamlash qobiliyati va emotsional intellekt (EQ) darajasining ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari sport klublari va murabbiylarga sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan maxsus treninglar va dasturlarni ishlab chiqishda yo‘naltiruvchi tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *sportchilarning psixologik xususiyatlari, faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, emotsional intellekt (EQ), stressni boshqarish, motivatsiya, diqqatni jamlash.*

ВЛИЯНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК НА ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. *Настоящее исследование направлено на изучение влияния индивидуальных психологических характеристик спортсменов, в частности способности концентрировать внимание и уровня эмоционального интеллекта (EQ), на формирование их профессиональных навыков. Результаты исследования предоставляют рекомендации для спортивных клубов и тренеров по разработке специальных тренировочных программ, направленных на повышение психологической подготовки спортсменов.*

Ключевые слова: *психологические характеристики спортсменов, формирование навыков, эмоциональный интеллект (EQ), управление стрессом, мотивация, концентрация внимания.*

THE INFLUENCE OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL TRAITS ON THE DEVELOPMENT OF ATHLETES' SKILLS

Abstract. *This study focuses on the impact of individual psychological traits of athletes, specifically the ability to concentrate and the level of emotional intelligence (EQ), on the development of their professional skills. The research findings provide recommendations for sports clubs and coaches in designing specialized training programs aimed at enhancing the psychological preparedness of athletes.*

Key words: *psychological characteristics of athletes, skill development, emotional intelligence (EQ), stress management, motivation, concentration.*

Kirish. Sport – inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan faoliyat turi hisoblanadi. Bugungi kunda sportning ahamiyati faqatgina jismoniy jihatdan emas, balki psixologik va pedagogik aspektlarda ham oshib bormoqda. Sportchilarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bu xususiyatlar ularning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Individual psixologik xususiyatlar – bu sportchining shaxsiyati, motivatsiyasi, stressga bardoshligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va boshqa psixologik omillaridir. Ushbu xususiyatlar sportchining o‘quv va trening jarayonidagi samaradorligini, raqobatdagi muvaffaqiyatini va umumiy sport faoliyatidagi barqarorligini belgilaydi. Zamonaviy sport fanlari sportchilarning psixologik tayyorgarligini yaxshilashga katta e’tibor qaratmoqda, chunki bu ularning sportdagi natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda sportchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning individual psixologik

xususiyatlarini hisobga olgan trening va tayyorgarlik dasturlari ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Masalan, stressni boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan sportchilar raqobat jarayonida o‘zlarini yanada samaraliroq boshqarishlari mumkin, bu esa ularning natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonch va yuqori motivatsiya darajasi sportchilarning doimiy ravishda o‘z ustida ishlashlariga va yuqori natijalarga erishishlariga zamin yaratadi.

Bugungi kunda sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun zamonaviy metodologiyalar va texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Psixologik treninglar, motivatsion seminarlar, stressni boshqarish usullari va boshqa psixologik yondashuvlar sportchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlar sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olishni ta’minlaydi, bu esa trening jarayonining samaradorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotda sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlarning ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi – sportchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlari ularning sportdagi faoliyat ko‘nikmalarini qanday shakllantirishini va rivojlantirishini tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va tasniflash.
2. Ushbu xususiyatlarning sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishdagi rolini tahlil qilish.
3. Zamonaviy sportshunoslik va psixologiya nazariyalariga asoslanib, sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish usullarini ishlab chiqish.

Natijada, ushbu tadqiqot sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini yanada samaraliroq qilishga qaratilgan yangi pedagogik-psixologik yondashuvlarni taklif etishi kutilmoqda. Bu esa nafaqat sportchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki umuman sport sohasidagi muvaffaqiyatlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy sport fanlari sportchilarning psixologik holatini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilgan. Pandemiya sharoitida sportchilarning psixologik sog‘lig‘i va ularning trening jarayonidagi moslashuv qobiliyatlari yanada dolzarb masalalarga aylangan. Bu esa sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan trening metodologiyalarining ahamiyatini oshirdi. Shuningdek, sportchilarning raqobatdagi stress bilan kurashish qobiliyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy ko‘nikmalari ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun interaktiv treninglar, virtual reallik texnologiyalari, biofeedback usullari va boshqa innovatsion metodlar qo‘llanilmoqda. Bu usullar sportchilarga o‘z psixologik holatini nazorat qilish va uni yaxshilashda yordam beradi, bu esa ularning sportdagi natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda murabbiylarning roliga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Murabbiylarning psixologik qo‘llab-quvvatlashi, motivatsion yondashuvlari va kommunikatsiya uslublari sportchilarning psixologik holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy murabbiylar nafaqat texnik va taktikal treninglarni olib borish, balki sportchilarning psixologik rivojlanishiga ham e’tibor qaratishlari zarur.

Adabiyotlar tahlili. Sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlarning ta’siri mavzusi zamonaviy sport fanlari va psixologiyasida keng o‘rganilayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu bo‘limda mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi, asosiy nazariyalar va tadqiqot natijalari ko‘rib chiqiladi hamda mavjud tadqiqotlarda aniqlangan bo‘shliqlar belgilab chiqiladi.

Individual psixologik xususiyatlar sportchilarning umumiy muvaffaqiyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Kabat-Zinn (1990) tomonidan ishlab chiqilgan mindfulness nazariyasi sportchilarn-

ing diqqatni jamlash va stressni boshqarish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Shuningdek, Bandura (1997)ning o‘ziga bo‘lgan ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi sportchilarning murakkab vazifalarni bajarishda qanday motivatsiya va qat’iyat ko‘rsatishini tushuntirishda qo‘llaniladi.

Motivatsiya sportchilarning harakatlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Deci va Ryan (2000)ning o‘zini amalga oshirish nazariyasi (Self-Determination Theory) motivatsiyaning ichki va tashqi turlarini ajratib, sportchilarning ichki motivatsiyasining ularning samaradorligi va sportdagi barqarorligi uchun muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu nazariya bo‘yicha, ichki motivatsiyaga ega sportchilar ko‘proq muvaffaqiyatlarga erishadilar va stressga bardoshliroq bo‘ladilar.

Sportchilarning raqobat jarayonidagi stressni boshqarish qobiliyati ularning natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Lazarus va Folkman (1984)ning stress va copin’ teoriyasi sportchilarning stressga qanday munosabatda bo‘lishini va uni qanday boshqarishlarini tushuntirishda qo‘llaniladi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressni samarali boshqarish qobiliyatiga ega sportchilar o‘zlarini yanada yaxshi his qilishlari va yuqori natijalarga erishishlari mumkin (Smith, 2003; Gould & Udry, 1994).

O‘ziga bo‘lgan ishonch sportchilarning o‘z maqsadlariga erishishda asosiy rol o‘ynaydi. Bandura (1997)ning tadqiqotlari ko‘rsatadiki, yuqori o‘ziga ishonch sportchilarga murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi. Maghami va Hammes (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yuqori o‘ziga ishonchli sportchilar ko‘proq ijobiy o‘zgarishlarga erishganligi va ularning sportdagi natijalari yaxshilanganligi aniqlangan.

Emotsional intellekt sportchilarning o‘z emotsiyalarini boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mayer va Salovey (1997) tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt modeli sportchilarning o‘z emotsiyalarini tan olish, tushunish va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning jamoaviy ishlash va raqobatdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan sportchilarning o‘zaro munosabatlari va sportdagi muvaffaqiyatlari ko‘proq ekanligini isbotlaydi (Martínez-Moya et al., 2017).

Sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganishda turli metodologiyalar qo‘llaniladi. Anketalar, intervyular, eksperimental tadqiqotlar va psixometrik testlar bu sohada keng qo‘llaniladigan usullardir (Eysenck, 1991). Masalan, Sportdagi Psixologik Qobiliyat Testlari (Sport Psychological Ability Tests) sportchilarning motivatsiyasi, stressni boshqarish qobiliyati va o‘ziga ishonch darajasini o‘lchashda samarali hisoblanadi (Weinberg & Gould, 2014).

Garchi individual psixologik xususiyatlarning sportchilarning faoliyatiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ba’zi jihatlarda bo‘shliqlar mavjud. Birinchidan, ko‘pgina tadqiqotlar aniq bir psixologik xususiyatga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri va umumiy sportchilarning faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini yyetarli darajada o‘rganmagan. Ikkinchidan, ko‘plab tadqiqotlar asosan individual sport turlarida olib borilgan bo‘lib, jamoaviy sport turlarida individual psixologik xususiyatlarning roli kamroq o‘rganilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar yordamida yanada chuqurroq va kompleks tadqiqotlarni olib borish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, bu sohada hali ham kengroq tadqiqotlar talab etiladi.

Muhokama. Emotsional intellekt (EQ) sportchilarning muvaffaqiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatadi. EQ yuqori bo‘lgan sportchilar o‘z emotsiyalarini samarali boshqarishlari, stressni kamaytirishlari va jamoaviy ishlashda yaxshiroq natijalarga erishishlari mumkin. Ushbu bo‘limda sportchilarning emotsional intellekt darajasini aniqlash uchun qo‘llanilgan metodika, olingan ma’lumotlarning statistik tahlili va diagrammalar orqali natijalarni tasvirlash ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot obyekti: O‘rta darajadagi futbolchilar – Navoiy viloyatidagi o‘rta darajadagi futbol klublarida faoliyat yuritayotgan 20-25 yoshdagi futbolchilar. Ushbu guruh tanlanishining sababi, futbol sportida jamoaviy va individual ko‘nikmalarning birgalikda rivojlanishi va psixologik omillarining o‘zaro aloqasi.

Tadqiqot metodologiyasi: Kichik tadqiqot olib borish uchun ko‘p omilli metodikalardan foydalanish samarali bo‘ladi. Quyida bu metodikalar batafsil tavsiflanadi:

Natijalar.

1. Deskriptiv statistika

EQ Komponenti	O‘rtacha	Median	Standart Og‘ish
Emotsiyalarni Tanlash	85	88	5.2
Emotsiyalarni Foydalanish	78	80	6.1
Emotsiyalarni Tushunish	82	83	4.8
Emotsiyalarni Boshqarish	75	77	7.3
Umumiy EQ	80	81	5.6

2. Korelyatsion tahlil

O‘zgaruvchi 1 (EQ)	O‘zgaruvchi 2 (Sportdagi Natija)	Korelyatsiya Ko‘rsatkichi (r)
Umumiy EQ	G'olibliklar soni	0.65
Emotsiyalarni Tanlash	O‘yin davomida konsentratsiya	0.58
Emotsiyalarni Foydalanish	Tejamkorlik va reaksiya tezligi	0.50
Emotsiyalarni Tushunish	Strategik fikrlash	0.62
Emotsiyalarni Boshqarish	Stressni boshqarish	0.55

Izoh: Barcha korelyatsiya ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.05$).

3. Regressiya Tahlili

Sportdagi Natija = $\beta 0 + \beta 1 * \text{Umumiy EQ} + \varepsilon$

Parameter	B	SE	t	p
Intercept (β0)	20.5	3.2	6.40	0.000
Umumiy EQ (β1)	0.6	0.10	6.00	0.000

- **$R^2 = 0.42$:** Umumiy EQ sportdagi natijaga 42% ta’sir ko‘rsatadi.
- **F-test:** $F(1,48) = 36.00$, $p < 0.001$, bu modelning ahamiyatliligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning emotsional intellekt darajasi ularning sportdagi faoliyat ko‘nikmalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy EQ va sportdagi natija o‘rtasidagi korelyatsiya ko‘rsatkichi ($r = 0.65$) yuqori ijobiy aloqani ko‘rsatadi, bu esa EQ ning sportchilarning muvaffaqiyatiga muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Emotsiyalarni tanlash va tushunish komponentlarining yuqori baholari sportchilarning o‘yin davomida konsentratsiya va strategik fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashiga yordam beradi. Emotsiyalarni Boshqarish esa stressni samarali boshqarish orqali sportchilarning barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot sportchilarning individual psixologik xususiyatlari, xususan mindfulness va emotsional intellekt darajasi, ularning sportdagi faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Mindfulness va EQ ning yuqori darajasi sportchilarning diqqatni jamlash, stressni boshqarish va jamoaviy ishlash qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, sport klublari va murabbiylar sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy etishlari zarur. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar sportchilarning psixologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish va ularning sportdagi muvaffaqiyatlariga ta’sirini yanada aniqroq belgilash imkonini yaratadi. Sportchilarning faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlarning ta’siri zamonaviy sport fanlari uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar sportchilarning psixologik

tayyorgarligini oshirish va ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini maksimal darajaga yetkazish uchun muhim asos yaratadi. Kelajakda bu sohada yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borilishi va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilishi sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning faoliyat ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi.

Tavsiyalar. Sportchilarga emotsional intellektni rivojlantirish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish. Bu treninglarda emotsiyalarni tanlash, tushunish va boshqarish usullari o‘rgatiladi.

Sportchilarga stressni boshqarish usullarini o‘rgatish, masalan, progressiv mushaklar bo‘shashi, vizualizatsiya va pozitiv tasavvurlarni qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Smith, R. E. (2003). *Stress and Coping in Elite Athletes*. In T. S. S. Williams (Ed.), *Applied Sport Psychology: Personal Growth to Peak Performance* (pp. 151-178). New York: McGraw-Hill.

2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2021). Self-Determination Theory in Sports. International Review of Sport and Exercise Psychology, 14(2), 189-207.

3. E.N.Sattarov. Oila salomatligi. “XXI Asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari”ni o‘rganishga bag‘ishlangan, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2012. 313-bet.

4. Абдурасулов Р.А. Ўқувчи шахсини шакллантиришда спорт машғулотларининг ўрни. Моногра.

5. Баротов Ш.Р Ўқувчи шахси ва синф жамоасини психологик таҳлил қилиш усуллари. – Бухоро, 1993. – 29 б.

Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o'g'li
Oriental Universiteti

FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF PROFESSIONAL INTERESTS IN STUDENTS

Abstract. *The formation of professional interests in students is a multifaceted process influenced by a variety of internal and external factors. This study explores the key elements contributing to the development of professional inclinations, including personal characteristics, family background, educational environment, social influences, and exposure to career opportunities. The research utilizes both qualitative and quantitative methods to examine how these factors interact to shape students' professional preferences. Findings highlight the significant role of parental support, teacher guidance, practical exposure, and peer influence in fostering career-related interests. Understanding these factors is essential for designing effective educational policies and career counseling programs that align with students' abilities and aspirations.*

Keywords: *professional interests, career development, student motivation, educational environment, parental influence, career counseling.*

TALABALARNING KASBIY QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Talabalarda kasbiy qiziqishlarning shakllanishi turli xil ichki va tashqi omillar ta'sirida bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Ushbu tadqiqot kasbiy moyilliklarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy elementlarni o'rganadi, jumladan shaxsiy xususiyatlar, oilaning kelib chiqishi, ta'lim muhiti, ijtimoiy ta'sirlar va martaba imkoniyatlariga ta'sir qilish. Tadqiqot talabalarning kasbiy xohish-istaklarini shakllantirish uchun ushbu omillarning o'zaro ta'sirini tekshirish uchun ham sifat, ham miqdoriy usullardan foydalanadi. Natijalar ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, amaliy ta'sir ko'rsatish va martaba bilan bog'liq qiziqishlarni rivojlantirishda tengdoshlar ta'sirining muhim rolini ta'kidlaydi. Ushbu omillarni tushunish samarali ta'lim siyosati va o'quvchilarning qobiliyatlari va intilishlariga mos keladigan martaba bo'yicha maslahat dasturlarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.*

Kalit so'zlar: *kasbiy qiziqishlar, martaba rivojlanishi, o'quvchilar motivatsiyasi, ta'lim muhiti, ota-onalarning ta'siri, martaba maslahati*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Формирование профессиональных интересов у студентов - многогранный процесс, на который оказывают влияние различные внутренние и внешние факторы. Это исследование исследует ключевые элементы, способствующие развитию профессиональных склонностей, включая личные характеристики, семейное происхождение, образовательную среду, социальные влияния и воздействие на карьерные возможности. Исследование использует как качественные, так и количественные методы для изучения того, как эти факторы взаимодействуют, чтобы формировать профессиональные предпочтения студентов. Выводы подчеркивают важную роль родительской поддержки, педагогического руководства, практической работы и влияния сверстников в развитии интересов, связанных с карьерой. Понимание этих факторов имеет важное значение для разработки эффективной образовательной политики и программ профессиональной ориентации, которые соответствуют способностям и стремлениям студентов.*

Ключевые слова: *профессиональные интересы, карьерное развитие, мотивация студентов, образовательная среда, родительское влияние, карьерная консультация*

Introduction. The development of professional interests in students is a critical component of their overall academic and personal growth. Professional interests guide students in selecting career paths, making educational choices, and planning for their future. These interests are not innate but are shaped through a complex interaction of psychological, social, cultural, and educational factors. Identifying these factors can provide valuable insights for educators, parents, and policymakers to support students in their career development.

The modern labor market demands individuals who are not only academically skilled but also passionate about their chosen professions. Therefore, understanding what drives students' professional interests has become a pressing concern. The purpose of this study is to explore the various factors influencing the formation of professional interests and provide actionable recommendations for stakeholders.

Methodology. This research employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative data collection techniques. Surveys and structured interviews were conducted with high school and university students, teachers, and parents. A sample size of 500 students was selected using stratified random sampling to ensure representation across different demographic groups.

Additionally, focus group discussions were organized with educators and career counselors to gain deeper insights into the factors influencing professional interests. Data analysis was carried out using statistical software, and thematic analysis was employed for qualitative data.

Results. The findings revealed five primary factors affecting students' professional interests:

Personal Characteristics: Personality traits, intrinsic motivation, and self-efficacy significantly impact professional inclinations.

Family Influence: Parental encouragement, family traditions, and socioeconomic status play a crucial role in shaping career choices.

Educational Environment: School curriculum, teacher support, and exposure to career-related information influence interest formation.

Social Influence: Peer groups, mentors, and societal expectations exert considerable pressure on students' career decisions.

Career Exposure: Internships, workshops, and industry visits provide practical insights that strengthen professional interests.

Analyze. The analysis of the data indicates that students from supportive family environments are more likely to develop strong professional interests aligned with their talents and aspirations. Furthermore, schools with well-structured career guidance programs see higher levels of student engagement in professional exploration. Social factors, including peer groups and mentors, were also found to either encourage or deter students from pursuing certain careers.

It was observed that students with early exposure to professional settings through internships or workshops demonstrated higher clarity in their career goals compared to those without such experiences.

Discussion. The study underscores the importance of a holistic approach in supporting students' professional interest formation. Family encouragement and financial stability provide the foundation, while schools and teachers act as facilitators in exposing students to diverse career possibilities.

Moreover, peer groups and mentors play a dual role, serving as both motivators and potential sources of pressure. Career counseling services emerged as a key intervention tool in addressing uncertainties and aligning students' interests with market needs.

Effective career education programs must include real-world experiences, mentorship opportunities, and continuous assessment to adapt to students' evolving interests.

Conclusion. The formation of professional interests in students is shaped by a combination of personal, familial, educational, and social factors. Schools, parents, and policymakers must collaborate to create an environment conducive to professional exploration. Future research should focus on longitudinal studies to understand how these factors evolve over time and influence long-term career outcomes.

References.

1. Super, D. E. (1990). A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development.
2. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments.
3. Lent, R. W., Brown, S. D., & Hackett, G. (2000). Contextual Supports and Barriers to Career Choice.
4. Blustein, D. L. (2011). The Psychology of Working: A New Perspective for Career Development.
5. Eccles, J. S. (2009). Who Am I and What Am I Going to Do with My Life? Personal and Collective Identities as Motivators of Action.

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsent psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: azimbek_qurbonboyev@mail.ru

SHAXSNING O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISHIGA TA’SIR KO’RSATISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalar shaxsida namoyon bo’ladigan o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatining mohiyati hamda psixik taraqqiyot jarayonida mazkur fenomenning zaruriy jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talaba shaxsida o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatini rivojlantirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi trening mashg’ulotining psixologik samaradorligini baholash doirasida olib borilgan tadqiqot ishlarining miqdor va sifat tahlillari keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi, shaxs faolligi, rivojlanish jarayoni, qadriyatlar, bilish ehtiyoji, ijodkorlik, mustaqillik, o‘z-o‘zini tushunish, intiluvchanlik qobiliyati.*

ВОЗМОЖНОСТИ ВЛИЯНИЯ НА САМОАКТИВИЮ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье широко освещаются природа самоактивации, проявляющейся в личности учащихся, и необходимые стороны этого явления в процессе психического развития. Также представлен количественный и качественный анализ исследований, проведенных в рамках оценки психологической эффективности коррекционно-развивающих тренингов, направленных на развитие самоактивации личности студента.*

Ключевые слова: *самоактивация личности, личностная активность, процесс развития, ценности, потребность в знаниях, творчество, самостоятельность, самопонимание, амбициозные способности.*

OPPORTUNITIES TO INFLUENCE INDIVIDUAL SELF-ACTIVATION

Abstract. *In the article, the nature of self-activation manifested in the personality of students and the necessary aspects of this phenomenon in the process of mental development are widely covered. Quantitative and qualitative analyzes of the research conducted within the framework of the evaluation of the psychological effectiveness of corrective and developmental training sessions aimed at developing self-activation in the personality of the student are also presented..*

Keywords: *self-activation of a person, personal activity, development process, values, need for knowledge, creativity, independence, self-understanding, aspirational ability.*

Kirish. Bugungi kunning muhim muammolaridan biri – bu shaxsning o‘zini o‘zi anglash salohiyatini faollashtiradigan guruh va o‘quv ishining turli shakllarida muloqot jarayonini tashkil etishning samarali usullarini izlashdir. Trening muammolariga bag‘ishlangan asarlarning nazariy tahlili bizga ko‘plab o‘quv mashqlari, usullarida metaforik aloqa qatlamini aniqlashimiz mumkin, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Asosiy qism. Ma’lumki, talaba shaxsida o‘zini o‘zi faollashtirishni raivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan olganda, o‘quv faoliyatida talabalar o‘zini o‘zi faollashtirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash barobarida uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ham aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Buning uchun dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, o‘zini o‘zi faollashtirish darajasi past bo‘lganlar guruhi ajratib olindi. Shundan so‘ng ular bilan 2 oy davomida maxsus tuzilgan dastur asosida korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Talabalar o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi faollashtirishni rivojlantirish maqsadida tuzilgan trening dasturining samaradorligini tekshirish maqsadida N.F.Kalinaning

«Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi o‘tkazildi. O‘tkazilgan metodika natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilinib, quyidagi 1-jadvalda aks ettirildi:

1-jadval

Shakllantiruvchi eksperiment ta’sirida o‘quv faoliyatida talabalarning o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari (Styudent t-mezoni bo‘yicha)

Sinaluvchilar guruhlari	O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Treningdan oldingi ko‘rsatkichlar		Treningdan keyingi ko‘rsatkichlar		Tafovut-ning statistik ahamiyati (t-mezoni bo‘yicha)
		M_1	S^2_1	M_2	S^2_2	
Tajriba guruhi	Vaqtni mo‘ljalga olish	7,3	3,2	10,4	4,9	p≤0,05
	Qadriyatlar	8,2	3,9	12,5	6,6	p≤0,05
	Inson tabiatiga nazar	7,7	2,1	11,6	6,3	p≤0,05
	Bilish ehtiyojlari	6,9	2,7	12,1	5,2	p≤0,01
	Ijodkorlikka intilish	7,7	3,4	10,2	4,9	p≤0,01
	Avtonomlik	6,9	1,9	9,8	2,5	p≤0,05
	Spontanlik	5,8	2,1	10,7	5,8	p≤0,05
	O‘zini o‘zi tushunish	8,1	3,4	11,6	5,1	p≤0,01
	Autosimpatiya	6,9	1,2	10,1	4,9	p≤0,05
	Aloqa o‘rnatish	5,4	1,5	9,9	2,3	p≤0,01
	Muloqotdagi egiluvchanlik	6,8	2,9	10,8	4,1	p≤0,01
Nazorat guruhi	Vaqtni mo‘ljalga olish	10,7	4,8	10,8	3,9	p>0,05
	Qadriyatlar	11,4	5,5	10,9	4,3	p>0,05
	Inson tabiatiga nazar	12,1	4,7	11,8	3,8	p>0,05
	Bilish ehtiyojlari	11,9	4,9	12,1	3,9	p>0,05
	Ijodkorlikka intilish	11,1	3,8	10,8	3,7	p>0,05
	Avtonomlik	10,9	3,2	11,1	4,3	p>0,05
	Spontanlik	10,2	5,3	11,1	5,4	p>0,05
	O‘zini o‘zi tushunish	12,5	4,7	11,8	5,1	p>0,05
	Autosimpatiya	11,5	4,1	12,1	4,9	p>0,05
	Aloqa o‘rnatish	10,8	3,8	11,2	4,2	p>0,05
	Muloqotdagi egiluvchanlik	11,3	4,3	10,7	3,8	p>0,05

Metodika natijalariga ko‘ra (1-jadvalga qarang), vaqtni mo‘ljalga olish bo‘yicha nazorat guruhida dastlab M_1=10,7, keyin esa M_2=10,8 ko‘rsatkichi aniqlangan bo‘lsa, tajriba guruhida esa trening mashg‘ulotidan oldin M_1=7,3, treningdan keyin M_1=10,4 ko‘rsatkichi qayd etildi. Ushbu natijalar tajriba guruhidagi sinaluvchilarning vaqtni mo‘ljalga olish bo‘yicha qarashlari ma’lum darajada o‘zgarganligini bildiradi. Bu esa o‘z navbatida vaqtni oliy qadriyat sifatida e’tirof etishlari, hayotning har bir daqiqasidan o‘rinli xulosa chiqarishlari va kelajakka ulkan rejalarni tuzishlari bilan xarakterlanadi. Shuningdek, talabalik davrida fanlarni o‘zlashtirishga nisbatan kuchli darajadagi ishtiyoq, intilishning ortganligi, bo‘lajak kasbiga doir amaliy ko‘nikmalarni egallashlari uchun ular o‘zlariga berilgan vaqtdan unumli va samarali foydalanishlar kerak. Bu esa talabada vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va undan rejali foydalanish malakasini oshiradi. Ayniqsa, talabaning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyat va omadlarining negizida ulardagi vaqt bilan bog‘liq taqsimotni sohalar kesimida yo‘naltira olganligidir.

Qadriyatlarga yo‘nalganlik shkalasi nazorat guruhida M_1=11,4, M_2=10,9, tajriba guruhida esa M_1=8,2 va M_2=12,5 ko‘rsatkichi qayd etildi. O‘tkazilgan trening mashg‘ulotlari natijasida tajriba guruhida ijobiy o‘zgarishlarga, ya’ni sinaluvchilarning o‘z qadriyatlarini to‘la anglay olishiga hamda bu o‘zlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etishini tushunishiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan bir qatorda, ularning odamlar bilan uyg‘un bo‘lishiga va sog‘lom munosabatlarga bo‘lgan intilishining ortishiga sabab bo‘ldi. Qayd etish joizki, ushbu komponent bo‘yicha yuqori ball olgan

sinaluvchilar o‘zini o‘zi anglashini qadriyatlar tizimi bilan bog‘laydi. Bunday qadriyatlar sirasiga haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, halollik, ikkiyuzlamachilikning yo‘qligi, hayotiylik, betakrorlik, kamolot, adolat, tartib, o‘zini o‘zi ta’minlash kabilarni keltirib o‘tish joiz. Mazkur qadriyatlarning ustunligi shaxslararo munosabatlarda o‘zga insonlarni manipulyasiya qilish istagidan yiroq bo‘lishni, odamlar bilan hamkorlik qilish va ijobiy munosabatlarga bo‘lgan moyillikni anglatadi.

Inson tabiatiga nazar xususiyati bo‘yicha nazorat guruhida M_1=12,1, M_2=11,8, tajriba guruhida esa M_1=7,7 va M_2=11,6 ko‘rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda ushbu shkala bo‘yicha treningdan oldingi ko‘rsatkichga qaraganda yuqori natijalar namoyon bo‘ldi. Bu esa ularga korreksion mashg‘ulotlar o‘z qobiliyati imkoniyatlarining kuchiga ishonishiga, shaxslararo munosabatlarda samimiy, faol va kirishuvchan bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatganligini anglatadi. Darhaqiqat, mazkur shkala insonlarda o‘zining ichki layoqatlarini anglash darajasini bildiradi. Yuqori ko‘rsatkich barqaror asos sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan ijobiy va adekvat shaxslararo munosabatlar, boshqalarga nisbatan xayrixohlik, ishonch, halollik, betaraflik, yaxshilik kabi xususiyatlar ustuvorligini bildiradi.

Metodikaning bilish ehtiyojlari nazorat guruhida M_1=11,9 va M_2=12,1, tajriba guruhida M_1=6,9 va M_2=12,1 ko‘rsatkichlarini tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qayta diagnostikadan so‘ng tajriba guruhidagi ishtirokchilarda yangilikka intilish hamda o‘z talab va qiziqishlarining mohiyatini yyetarli darajada anglay olish kabi xususiyatlarining rivojlanganligi namoyon bo‘ldi. Xususan, bilish ehtiyojlarining yuqori darajada bo‘lishi o‘zini o‘zi anglaydigan, har doim yangi taassurotlarga tayyor bo‘lgan shaxslarda kuzatiladi. Mazkur komponent o‘zgacha bilimlarni egallash qobiliyati, har qanday yangi narsalarga qiziqish, yangilikka intilishni bildiradi. Shu bilan bir qatorda, ushbu mezon bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etadigan shaxslar o‘zi o‘rgangan yangi ma’lumotlarini doimo qadrlaydi.

Ijodkorlikka intilishda M_1=11,1 va M_2=10,8 ko‘rsatkichi nazorat guruhida aniqlangan bo‘lsa, tajriba guruhida esa M_1=7,7 va M_2=10,2 ko‘rsatkichi qayd qilindi. Mazkur shkala bo‘yicha tajriba guruhida treningdan keyin aniqlangan yuqoriroq natijalar sinaluvchilarda hayotda o‘z ustida ishlash, yangilikka intilish, doimiy ravishda o‘zgacha narsalarni yaratishga moyil bo‘lish kabi xususiyatlarning rivojlanishiga sabab bo‘lganligini anglatadi. Ma’lumki, ijodkorlik shaxsning standart g‘oyalar, qoidalar va tamoyilardan chetga chiqish qobiliyati bo‘lib, aynan ushbu tushuncha shaxsda progressiv yondashuv, tasavvur va o‘ziga xoslikning mavjudligini nazarda tutadi. Uni turli faoliyat turlarida, uning natijalarida, shuningdek, shaxs sifatining ayrim jihatlarida kuzatish mumkin. Bu kabi ijobiy xususiyatlar tajriba guruhida olib borilgan psixokorreksion ishlar natijasida talabalarda sezilarli darajada rivojlanganligi kuzatildi.

Avtonomlik xususiyati bo‘yicha nazorat guruhi a’zolari M_1=10,9 va M_2=11,1 natijalarini, tajriba guruhida esa bu ko‘rsatkich M_1=6,9 va M_2=9,8 ni tashkil etdi. Ushbu komponent bo‘yicha tajriba guruhidagi sinaluvchilarda muayyan o‘zgarishlar kuzatildi, ya’ni ularda mustaqilikka intilish hamda mustaqil fikr yuritish kabi xususiyatlarning ma’lum miqdorda ortganligi aniqlandi. Bundan tashqari, ularning o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlash xususiyatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar namoyon bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, avtonomlik o‘z kuchiga tayanib, muammolarni mustaqil hal qilish xususiyati hisoblanadi. Mazkur shkalada yuqori natijani qayd etgan shaxslarda o‘z e’tiqodi asosida harakat qilish qobiliyati, boshqalarning fikridan qati nazar mustaqil ravishda harakat qilish xususiyati, maqsadlarga erishish uchun faollikning namoyon bo‘lishi, xatti-harakatlarga shaxsiy javobgarlik hislari ustun ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, shaxsdagi avtonomlik xususiyati o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasi, o‘z taqdirini mustaqil belgilash, o‘z xatti-harakatlari va his-tuyg‘ulari uchun mas’uliyatni qabul qilish kabi omillar bilan belgilanishini inobatga olib, ushbu xususiyatni trening davomida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Spontanlik shkalasi bo‘yicha M_1=10,2 va M_2=11,1 ko‘rsatkichi nazorat guruhida, M_1=5,8 va M_2=10,7 ko‘rsatkichi esa tajriba guruhida qayd etildi. Ushbu shkalada treningdan keyin yuqori natijalarni qayd etgan tajriba guruhidagi sinaluvchilarning hayotda o‘ziga nisbatan ishonchi ortib, o‘z maqsadlariga yetishda faqatgina xayolga tayanib qolmasdan, real holatda intilish lozimligini anglab yetish holatlari kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, ularda erkinlik, tabiiylik va o‘yin o‘ynash kabi qadriyatlarning rivojlanganligi namoyon bo‘ldi. Ushbu komponentning shaxsda ustuvorligi o‘z-

o‘zidan paydo bo‘luvchi faollik, tashqi ta’sirlar emas, balki ichki omillardan kelib chiqadigan psixik jarayonlar, ichki impulslar ta’sirida faoliyat yuritishga moyillik darajalarining yuqoriligini bildiradi.

O‘zini o‘zi tushunish xususiyati bo‘yicha M_1=12,5 va M_2=11,8 ko‘rsatkichi nazorat guruhida, tajriba guruhida esa M_1=8,1 va M_2=11,6 ko‘rsatkichi aniqlandi. Olib borilgan korreksion ishlar tajriba guruhidagi sinaluvchilarda o‘z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini va istaklarini yaxshiroq tushunishiga yordam berdi. Bundan tashqari, ularda hissiyotlilik, o‘z istak va ehtiyojlariga nisbatan sezgirlik kabi xususiyatlar namoyon bo‘ldi. Qayd qilish lozimki, o‘zini o‘zi tushunish sub’yektning ichki dunyosini o‘zi anglashi bo‘lib, bu shaxsning ob’yektiv va sub’yektiv olam (psixika) bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek, uning hayotiy ehtiyojlari, fikrlari, his-tuyg‘ulari, motivlari, instinktlari, kechinmalari, xatti-harakatlarini real anglay olish xususiyati hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, sinaluvchilar guruhida o‘tkazilgan trening mashg‘uloti o‘zining samarasini berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Metodikaning autosimpatiya natijalari bo‘yicha nazorat guruhida M_1=11,5 va M_2=12,1, tajriba guruhida esa M_1=6,9 va M_2=10,1 ko‘rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ijobiy munosabat mashg‘ulotlardan so‘ng biroz ortib, ular o‘zlariga adekvat baho berishlari kuzatildi. Shuningdek, o‘z imkoniyatlaridan xavotirlanish hissi nisbatan kamaydi va o‘ziga bo‘lgan hurmat hissi ma’lum miqdorda rivojlandi. Ushbu komponent insonning o‘ziga nisbatan ijobiy munosabati bo‘lib, u shaxsning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlar modeli, o‘zining xarakter xususiyatlari va boshqa psixik tomonlari bilan qoniqishida namoyon bo‘ladi. Autosimpatiya xususiyatining o‘ziga xosligi shundaki, inson o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishni yaxshi ko‘radi, o‘zini umumiylikdan ajratib tasavvur qiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, autosimpatiya inson yaxlitligining tabiiy omili bo‘lib, o‘zini o‘zi hurmat qilishning asosi bo‘lgan ijobiy tushunchadir.

Aloqa o‘rnatish komponenti nazorat guruhida M_1=10,8 va M_2=11,2, tajriba guruhida esa mazkur shkala bo‘yicha M_1=5,4 va M_2=9,9 ko‘rsatkichi aniqlandi. Ushbu xususiyat bo‘yicha tajriba guruhidagi sinaluvchilarda korreksion ishlardan keyin hayotda o‘zgalar bilan muloqot qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalari muayyan darajada rivojlandi. Shu bilan bir qatorda, ulardagi boshqalar bilan uyg‘un, kuchli va ijobiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari ortganligi kuzatiladi.

Metodikaning so‘nggi muloqotdagi egiluvchanlik komponenti natijalari bo‘yicha nazorat guruhida M_1=11,3 va M_2=10,7, tajriba guruhida M_1=6,8 va M_2=10,8 ko‘rsatkichi aniqlandi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilarning o‘zgalar bilan munosabatga kirishishidagi egiluvchanlik xususiyatlari psixologik treningdan keyin ortib, yangi sharoitlarga moslashib keta olish ko‘nikmalari rivojlandi. Shu bilan bir qatorda, ularda o‘zgalar bilan muloqot jarayonida o‘z fikrlarini yyetarli darajada ifoda qilish qobiliyatining namoyon bo‘lishi kuzatildi. Qayd qilish lozimki, mazkur shkaladagi yuqori ko‘rsatkichlar shaxsda boshqalar bilan samimiy muloqot qilish, o‘zini o‘zi anglash qobiliyati, insonlarni o‘z manfaatlari yo‘lida boshqarishdan qochish kabi omillar ustuvorligini ko‘rsatadi. Past ko‘rsatkichlar rigidlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligi, muloqotdagi passivlikni anglatadi.

Xulosa. Xulosa o’rnida ta’kidlash mumkinki, o‘tkazilgan trening dasturining samaradorligini belgilab beruvchi omillardan biri – bu ularda refleksiv jarayonlarning faol ravishda rivojlanganligi hamda uning o‘quv faoliyatiga tizimli ta’sir ko‘rsatishidir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, talabalarga o‘quv faoliyatida o‘quv topshiriqlarining tizimli berilishi hamda uning nazoratini maqsadga muvofiq amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Коттлер, Дж. Психотерапевтическое консультирование: монография / Дж. Коттлер, Р. Браун; Перевод с анг. А. Ракитина, М. Потапова. — СПБ.: Питер, 200k - 464 с.
2. Кирейчева Е.В., Кирейчев А. В. Психологический тренинг развития Я-концепции. – Ялта, 2006. – С. 80.
3. Лебедев С. А. Стратегии профессионального самоутверждения в педагогической деятельности: Автореф. дисс. … канд. психол. наук / С. А. Лебедев. – СПб., 2002. – 50 с.
4. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983. - 96 с.
5. Маслоу А. Мотивация и личность/ Маслоу А.СПб.:Евроазия, 2001-475с

Qurdoshev Behzod Fazliddinovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Sport psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘SMIR FUTBOLCHILARDA MAS’ULIYAT HISSI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘smir futbolchilarda mas’uliyat hissi shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada ma’suliyat fenomeni va uning psixologik tabiati, yosh futbolchilar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar, yosh futbolchilarni irodaviy tayyorlash, o‘smir futbolchilar faoliyatini takomillashtirishda psixologik, psixodiagnostik usullarning ahamiyati, o‘smirlik yoshida mas’uliyat hissi, madad hissi, murakkab vaziyatlarni yengib o‘tish, jur’atsizlik, muvaffaqqiyatdan qochish kabi xususiyatlar shakllanishining o‘ziga xosliklari ham batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘smir, futbol, sport, faoliyat, iroda, tayyorgarlik, psixologiya, xorij, jahon sporti, global dunyo, o‘zini o‘zi nazorat qilish, motivatsiya, motiv, javobgarlik, ma’suliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена теме психологических факторов, влияющих на формирование чувства ответственности у футболистов-подростков. В статье также рассматривается феномен ответственности и его психологическая природа, факторы, влияющие на результативность юных футболистов, воспитание волевых качеств юных футболистов, значение психологических и психодиагностических методов в повышении результативности футболистов-подростков, чувство ответственности. в подростковом возрасте – чувство опоры, преодоление трудных ситуаций, уныние, избегание успеха и т. д. Подробно освещаются также особенности формирования характеристик.*

Ключевые слова: *Подросток, футбол, спорт, активность, воля, подготовка, психология, за рубежом, мировой спорт, глобальный мир, самоконтроль, мотивация, мотив, ответственность, подотчётность.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF A SENSE OF RESPONSIBILITY IN TEEN FOOTBALL PLAYERS

Annotation. *This article is devoted to the topic of psychological factors influencing the formation of a sense of responsibility in teenage football players. The article also considers the phenomenon of responsibility and its psychological nature, factors influencing the performance of young football players, the development of volitional qualities of young football players, the importance of psychological and psychodiagnostic methods in improving the performance of teenage football players, a sense of responsibility. in adolescence - a sense of support, overcoming difficult situations, despondency, avoidance of success, etc. The features of the formation of characteristics are also covered in detail.*

Keywords: *Teenager, football, sport, activity, will, preparation, psychology, abroad, world sport, global world, self-control, motivation, motive, responsibility, accountability*

Kirish. Yosh futbolchilarning mashg‘ulotlarda hamda musobaqalar sharoitida funksional zaxirasini va o‘z imkoniyatlarini oxirigacha safarbar eta olishini ta’minlovchi mas’uliyat hissini shakllantirish va uni sport faoliyatiga tadbiq etish juda muhimdir. International Federation of Association Football tashkilotining 2023 yil 13 dekabrdagi yil yakunlariga bag’ishlangan o’z hisobotida, dunyodagi eng mashhur yosh sportchilar reytingini e’lon qildi. Jahon reytingida eng

yuqori o'rinni Angliya (89%), Germaniya (76%) va Ispaniya (73%) kabi davlatlarning jamoalari egallashgan[1]. Eng iqtidorli yosh futbolchilardan 9 kishi reyting tepasidan joy olishdi. Bundan tshqari, 2021 yilda Xalqaro sport tashkilotining internet saytida keltirilishicha, dunyo bo'yicha o'smir yoshdagi bolalarning 68 % sportning futbol, 48 % kurash, 43% boks, 33 % kurash, 30 % sportning boshqa turlari bilan shug'ullanishlari aniqlangan[2]. Shu bois ham, o'smir yoshdagi sportchilarning futbol o'yiniga bo'lgan kompetensiyalarini yanada oshirish, ularning axloqiy, irodaviy sifatlarini yanada takomillashtirish hamda mashg'ulotlarga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini shakllantirish zarurati tobora oshmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur masalada xorij psixolog olimlaridan C.S.Helfrich, C.Y.Mattingly, D.J.Sharper, D.M.Beer, E.K.Anderson, E.D.Slessareva, F.Y.Saymond va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Rus psixolog olimlaridan A.V.Shaboltas, A.V.Voronin, A.V.Radionov, B.N.Smirnov, V.K.Kalin, V.A.Ivannikov, V.I. Selivanov kabi mualliflar izlanishlar olib borishgan. Mamlakatimiz psixolog olimlaridan A.I.Rasulov, A.E.To'raxonov, D.N.Arzikulov, E.G'.G'oziev, E.S.Nazarov, F.T.Egamberdiev, J.S.Iskenderov, M.M.Mamatov va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, futbol o'yini hozirgi kunda, o'smirlar orasida keng tarqalgan jamoaviy o'yinlaridan biri bo'lib, u yosh sportchilardan o'ziga xos jismoniy faollik, jamoaviylik, kuchlilik, taktik moslashuvchanlik, o'z harakatlarini tez muvofiqlashtira olish, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik, ritmik hamda axloqiy-mas'uliyatlilik hamda hissiy baqarorlikni talab etuvchi jamoaviy sport turidir. Shu bois, yosh sportchilarning taktik, psixologik va funksional tayyorgarlik holatiga kengroq e'tibor qaratiladi. Ye.N.Gogunovning so'zlariga ko'ra, javobgarlik hissi sportda inson harakatlarini psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'luvchi shaxs xususiyatlaridan biridir [1]. Sportda mas'uliyatlilik namoyon bo'lishi nafaqat, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik balki, insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, o'smir sportchilarni mas'uliyat hissi jihatdan tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni va takomillashtirishni talab etmoqda. Tadqiqotchi M.Ya.Basov ta'kidlaganidek, sportda mas'uliyatni his etishga qaratilgan mashqlantirishning psixologik usullari yetarlicha rivojlantirilgan. Bundan tashqari, maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, psixologik va pedagogik xarakterdagi ilmiy -uslubiy asarlarda, sportchilarning axloqiy, mas'ukiyatlilik jihatdan tayyorlash muammolariga qiziqish sezilarli darajada kamaygan[2].

O'smir sportchilarda o'z-o'zini ixtiyoriy tartibga solish shuningdek, ularda birlamchi javobgarlik sifatlarni rivojlantirish masalalari, sport mashg'ulotlarining dastlabki bosqichida juda muhimdir. Chunki, bu o'tish davri hisoblanib, unda insonning qiziqishlari, sohaga bo'lgan qobiliyati, motivatsiya darajasi kabilar hisobga olinishi lozim. O'smirlik yoshida mas'uliyarlilikni ta'minlovchi irodaviy sifatlardan "qat'iyatlilik" endigina shakllanayotgan sifatlardan biri sifatida tan olinadi. Qolversa, bunday xulosalar ko'plab yetuk psixologlar tomonidan e'tirof etilgan. Shu bois ham, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarda qat'iyatlilikni shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. L.V.Marishukning aniqlashicha, agarda, o'smir sportchilarning o'zi qat'iyat bilan maqsadga erishishga intilmasa, unda murabbiy ham hech qanday yordam bera olmaydi [3]. Quyida o'smir yosh sportchilar uchun zarur sanalgan irodaviy sifatlarning turiga va ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ayrim psixologik omillar haqida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. T.V.Ogorodovaning aytishicha, qat'iylik – turli qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, maqsadga erishishga qaratilgan uzoq muddatli tayyorgarlik hamda o'smirning ongli ravishdagi intilishlar tizimidir [4]. Bundan tashqari, maqsadga intilish o'z ishiga bo'lgan ishtiyoq bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Muallifning ta'kidicha, qat'iylikni nafaqat, insondagi javobgarlik hissini balki, uning qiziqishlari, bajarilayotgan faoliyatning hissiy mazmundorligi kabilarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har doim uzoq maqsadga erishishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ya'ni charchoq, to'yinganlik, muvaffaqqiyatizlikka uchraganda vazifallardan ko'ngil qolishi va hokazo. Bizningcha,

[1]https://www.championat.com/football/news/

[2]https://www.sportanddev.org/en/organisation/international-sport-organization (ISO), Proceedings of the international seminar on the development of sports and youth sports. April 2021.

keltirib o‘tilgan sifatlar faqatgina irodaviy sifatlar orqali bartaraf etiladigan qiyinchiliklar sanaladi. V.A.Slastenshning ta’kidicha, qat’iylikning fiziologik mexanizmi-bu motivatsion soha bilan tushuntirilib, motivatsiya inson qiziqishlari va intilishlarini boshqara oladigan hamda harakatsizlikni oldini olishga bo‘lgan sifat hisoblanadi [5]. Sport mashg‘ulotlarida sportchilarning faolligini pasaytiradigan va musobaqadgia irodasini namoyon etadigan vaziyatli manfaatlar, istaklar, ehtiyojlar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. Har bir o‘smir sportchi o‘zida, javobgalikka asoslangan ko‘nikmalarni shakllantirishi o‘ta ahamiyatli jarayon sanaladi. Shuning uchun, har bir mashg‘ulot sportchilarda umumiy ma’noda mashq qilishni emas, balki ma’lum bir materiallarni o‘zlashtirish shaklida o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlardan chiqib ketayotgan sportchilar tez -tez biror narsaga erishganliklarini anglab, ya’nada oldingi qarab intilish mumkinligini his etadilar. M.V.Chumakovaning yozishicha, har qanday muvaffaqqiyatli o‘smir sportchi mustaqil qaror qabul qila olishi, vazifalarda mas’uliyatli bo‘lishi, ichki faollika, maqsadga muvofiqlik, maqsadga erishishga to‘sqinlik qilayotgan ichki va tashqi to‘siqlarni bartaraf eta olishga imkon beruvchi qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim [6]. Muallifning ushbu qarashlariga ko’ra, sportda aynan shu sifatlarni rivojlantirish mas’uliyatlilikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

O‘smirlarda mas’ulilyatlilik iqiyinchiliklarni yengish jarayonida rivojlanadi va shu vaziyatlarga egiluvchanligi yanada oshadi. A.L.Popovga ko‘ra, sport faoliyatida qiyinchiliklar sub’ektiv va ob’ektiv turlarga bo‘linadi[7]. Sub’ektiv tur shaxsning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, uning mazmuni xarakter, temperament va boshqalar xususiyatlar bilan tushuntiriladi. Sportdagi sub’ektiv qiyinchiliklar ko‘pincha, salbiy his-tuyg‘ularda namoyon bo‘ladi. Ya’ni dushmandan qo‘rqish, shikastlanishdan qo‘rqish, yutqizib quyishdan qo‘rqish va hokazo. Ob’ektiv qiyinchiliklarga esa, sport faoliyatining umumiy va o‘ziga xos shart-sharoitlari bilan tushuntiriladi. Ya’ni belgilangan rejimga rioya qilish, ko‘plab musobaqalarda qatnashish, noqulay ob-havo va boshqalar. Hozirgi vaqtda, javobgarlik va mas’uliyatlilikni iroda psixologiyasida asosiy xususiyatlar sifatida ko‘rib chiqish, odat tusiga kirgan. Asosiy sifatlarga tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mustaqillik, chidamlilik va o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik, diqqatlilik, fidoiylik va boshqalar kiradi deb ta’kidlaydi K.P.Jarkov [8]. Demak, turli sport sohalarida faoliyat yuritayotgan o‘smir o‘quvchilar uchun, mazkur sifatlar o‘ta muhim hisoblanadi. Ushbu tasnifga muvofiq, ixtiyoriy faoliyat uslublari, asab tizimining xususiyatlari va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlarga vositachilik qilib, sport faoliyati sharoitlariga eng oson moslashishga yordam beradi. Ye.V.Yereginaga ko‘ra, sportchilarning ixtiyoriy faolligi, yaxlit individuallik nazariyasi nuqtai-nazaridan tizimli shakllanadigan ko‘p darajali va ko‘p komponentli qismlarga ajratiladi [9]. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlardan shu narsa aniqki, har xil sport guruhlarida, sportchilarning ixtiyoriy harakatlari bir -biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ya’ni futbol, fudbol o’yini bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarda muvaffaqiyatga erishish va kurashishga bo‘lgan ehtiyojlar va tezlik yuqori bo‘lsa, boks va kurash bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarda bu xususiyatlar ancha past darajadaligi ta’kidlanadi.

Muhokama va natijalar. Biz o‘z tadqiqotimizni amaliy jihatdan o‘rganishda ob’ekt sifatida “Samarqand viloyati bolalar va o‘smirlar sport maktabi”, “Chirchiq olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi”, “Buxoro viloyati futbol maktabi” da tahsil oluvchi, 310 o‘smir sportchilar jalb etdik. Va mas’uliyat hissi shakllanishining quyidagi jihatlaru ko’rib chiqildi.

Mas’uliyat hissi kishilarning fe’l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Mas’uliyat normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe’l-atvoriga qo‘yiladigan talabdir.

Quyida tadqiqot natijalarining birlamchi amaliy tahliliga asosiy e’tiborimizni qaratamiz. Birinchi diagrammada sinaluvchilarning axloqiy-etik mas’uliyat darajasi bo’yicha olingan natijalar keltirilgan.

1-jadval

O'smir sportchilarda axloqiy-etik mas'uliyat xususiyatlarini baholash darajasi

Shkalalar	Guruhlar		
	Buxoro viloyati futbol maktabi	Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi	Samarqand viloyati bolalar va o'smirlar sport maktabi
Axloqiy-etik mas'uliyat	44%	30%	26%
Ekzistensial mas'uliyat	38%	33%	29%
Altruistik mas'uliyat	26%	43%	31%
Axloqiy-etik qadriyat	37%	35%	28%
Samimiylik	28%	34%	38%

Sport maktablarida tahsil oluvchi o'smir sportchilarning axloqiy-etik mas'uliyat rivojlanishi tadqiq etilgan ishlarni tahlil etish orqali shuni ko'rish mumkinki, axloqiy qadriyat juda ham zarur, ammo kam o'rganilgan komponent hisoblanadi.

"Axloqiy-etik mas'uliyat darajasini aniqlash" metodikasi fikriy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan operatsiyalar, qarashlar, dastlabki ma'lumotlar, gipotezalar, yondashuvlarning variativligini aniqlashga yordam beradi. Metodika ham individual, ham guruhiy tarzda o'tkazilishi mumkin. Axloqiy-etik mas'uliyat darajasi jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi. O'smir sportchilarning professional faoliyati juda xilma-xildir. Sport maktablarida tahsil oluvchi o'smir sportchilarning sport faoliyatida o'quv faoliyatning bir nechta asosiy yo'nalishlarini ajratish mumkin: jamoa faoliyatini boshqarish; jamoa xodimlarini o'qitish va ularning kasbiy motivatsiyasini va bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish. Olingan natijalardan shuni kuzatish mumkinki, Samarqand viloyati bolalar va o'smirlar sport maktabi sportchilari, Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi spportchilari va Buxoro viloyati futbol maktabi o'smir sportchilarning axloqiy-etik mas'uliyat darajalari o'rta darajada ko'rsatkichlarni namoyon qilgan. Mas'uliyat hissi – inson o'z hayotida sodir bo'ladigan barcha narsalar uchun o'zini javobgar deb biladi. Va bu shaxsda ichki nazorat, su'ektiv mexanizm joyi deb ataladi. Ya'ni, har bir inson o'z kasbi, oilasi, hayot yo'li uchun o'zi mas'ul hisoblanadi. Shu bilan birga, insonlar o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun o'zi javobgardir. Bu tipdagi insonlar internal lokus nazorat mexanizmi (sabablarni o'zidan qidiruvchi)ga ega shaxslar hisoblanadi.

2-jadval

O'smir sportchilarda o'z-o'ziga munosabat darajasi xususiyatlarini baholash darajasi

Shkalalar	Guruhlar		
	Buxoro viloyati futbol maktabi	Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi	Samarqand viloyati bolalar va o'smirlar sport maktabi
O'z-o'ziga ishonch	37%	32%	31%
O'z-o'zini idora qilish	35%	39%	26%
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	33%	37%	30%
O'z-o'zini qadrlash	28%	30%	42%
O'z-o'zini qabul qilish	31%	43%	26%
O'zini cheklash	29%	32%	39%
Ichki ziddiyat	27%	26%	47%
O'z-o'zini ayblash	30%	34%	36%

Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash xususiyatlarini aniqlash metodikasi o'zini idora qilishning maxsus va operatsional komponentlari bajarish sur'atini aniqlashga imkon beradi. Mazkur metodika ham individual, ham guruhiy tarzda o'tkazilishi mumkin. O'z-o'ziga munosabatni baholash orqali shaxs intellektual topshiriqlarni tanlov usuli yordamida, ya'ni to'g'ri javobni topishda noto'g'ri variantni olib tashlash orqali amalga oshiradi.

Psixologik jihatdan qaralganda, o'z-o'ziga munosabat sinaluvchining shaxsiy «Men»i ma'nosi haqidagi tasavvurini aks ettiradi. O'z-o'ziga munosabat ma'lum darajada o'z boshidan kechirgan shaxsiy qadriyatlar bilan aniqlanadi. U hissiyotlarning juda keng qamrovi orqali namoyon bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash motivatsiyasini, o'ziga tanqidiy munosabatini, o'z-o'zini chuqur anglab etganligini, pok dil va «ko'ngli ochiq» inson ekanligini anglatadi.Shaxsning o'z-o'zini baholash so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar, Samarqand viloyati bolalar va o'smirlar sport maktabi sportchilari, Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilari va Buxoro viloyati futbol maktabi o'smir sportchilarida o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etgan.

3-jadval

O'smir sportchilarda yengib o'tuvchi xulq-atvor darajasi xususiyatlarini baholash darajasi

Shkalalar	Guruhlar		
	Buxoro viloyati futbol maktabi	Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi	Samarqand viloyati bolalar va o'smirlar sport maktabi
Madad istagi	27%	31%	42%
Matonat	37%	39%	24%
Voqelikni yengib o'tish	40%	33%	27%
Emotsiyalar nazorati	38%	30%	32%
Jur'atsizlik	24%	36%	40%
Jamiyatdan qochish	28%	34%	38%

Shaxsning nostandart vaziyatlardan chiqa olishida yengib o'tuvchi xulq-atvor munosabatlarida muomala jarayonidagi to'siqlarning mavjud bo'lishi ko'pincha dialog qatnashchilari orasida turli ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Faoliyatlari bevosita shaxslararo muomala asosida quriladigan kasb egalarining mazkur to'siqlar va ularni engib o'tish yo'llari haqidagi bilim va ko'nikmalarni egallashlari, doimiy ziddiyatlar oqibatida stress holatlarining yuzaga kelishi va bu bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Xulosa. O'smir futbolchilarda mas'uliyat hissi shakllanishi xususiyatlariga axloqiy-etik mas'uliyat xususiyatlari, shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash, yengib o'tuvchi xulq-atvor darajasi, konstruktiv mas'uliyat hissi darajasini baholash kabi psixologik faktorlar o'zining yuqori ta'sirini ko'rsatishi aniqlandi. O'smir sportchilarda refleksiya, axloqiy-etik mas'uliyat, altruistik mas'uliyat, axloqiy-etik qadriyatlar, internal lokus nazorat, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, matonatlilik, qat'iylik va g'ayratlilik kabi psixologik xususiyatlarni rivojlantirish orqali ularda sport faoliyatiga nisbatan mas'uliyat samaradorligi ta'minlanishi ochib berildi. Ishlab chiqilgan amaliy natijalar asosida o'smir sportchilarda mas'uliyat hissining shaxs tomonidan kognitiv-axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy tajribasi qay darajada o'zlashtirilayotgani bilangina emas, balki jamiyat a'zolarining uzoq yillardan beri saqlanib kelayotgan sport o'yinlari tajribasidan foydalanishda ongli faollik va mustaqil faoliyatga tayyorligi bilan belgilanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Гогунов Е.Н. Психология физического воспитания и спорта / Е.Н. Гогунов, Б.И. Мартьянов. - М.: Академия, 2003. – С.78.

2. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной Психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. - М., 2008. – С.89.

3. Марищук Л.В. Психология спорта: учеб. пособие. - Минск: БГУФК, 2006. – С.66.
4. Огородова Т.В. Психология спорта: учеб. - Ярославль: ЯрГУ, 2013. – С.111.
5. Сластенш В.А. Психология и педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ В.А. Сластенш, В.П. Каширин. - 3-е изд., стер.. - М.: Издательский центр «Академия», 2004. – С.125.
6. Чумаков М.В. Развитие эмоционально-волевой сферы личности: Учебное пособие. Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2012. – С.89.
7. Попов А.Л. Спортивная психология: Учебное пособие для физкультурных вузов и факультетов физического воспитания. – М.: Флинта: Наука, 2001.– С.95.
8. Жаров К.П. Волевая подготовка спортсменов. М.: Физкультура и спорт, Вт. Изд. Владось, 2009 .– С.21.
9. Ерегина Е. В. Особенности воспитательной работы и психологической подготовки юных спортсменов / Е. В. Ерегина // Детский тренер. - 2008. – № 1.-С.14-20

Sirojiddinova Firuza Xosilbekovna
ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrasi dotsenti

PSIXOLOGIK YORDAM VA MOTIVATSIYANING XOTIN-QIZLAR RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy rivojlanishida psixologik yordam va motivatsiya ro’li, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, maqsadlariga erishish va turli to‘siqlarni yengish uchun zarur bo‘lgan kuch, psixologik yordam xotin-qizlarga ichki stressni bartaraf etish, o‘z-o’zini anglash va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tiklashda yordam berishi mumkinligi, motivatsiya esa ularga aniq maqsadlarga erishish yo‘lida rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilishi borasida fikr va muloxazalar bildirilgan*

Kalit so’zlar: *ijtimoiy, iqtisodiy, shaxsiy rivojlanish, psixologik yordam, motivatsiya, maqsadlarga erishish, o’zini anglash, rag‘batlantiruvchi kuch*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ И МОТИВАЦИИ В РАЗВИТИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль психологической помощи и мотивации в социальном, экономическом и личностном развитии женщин. Обсуждается значение психологической поддержки для повышения уверенности в себе, достижения целей и преодоления различных препятствий. Отмечается, что психологическая помощь может способствовать преодолению внутреннего стресса, восстановлению самосознания и укреплению уверенности в себе у женщин. Подчеркивается, что мотивация служит стимулирующей силой на пути к достижению конкретных целей.*

Ключевые слова*: социальное, экономическое, личностное развитие, психологическая поддержка, мотивация, достижение целей, самосознание, стимулирующая сила*

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT AND MOTIVATION IN WOMEN'S DEVELOPMENT

Abstract. *This article examines the role of psychological assistance and motivation in the social, economic, and personal development of women. The importance of psychological support in increasing self-confidence, achieving goals, and overcoming various obstacles is discussed. It is noted that psychological assistance can help overcome internal stress, restore self-awareness and strengthen self-confidence in women. It is emphasized that motivation serves as a driving force in achieving specific goals.*

Keywords*: social, economic, personal development, psychological support, motivation, goal achievement, self-awareness, motivating force*

Xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy rivojlanishida psixologik yordam va motivatsiya juda katta ahamiyatga ega. Bu ikki omil ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, maqsadlariga erishish va turli to‘siqlarni yengish uchun zarur bo‘lgan kuchni taqdim etadi. Psixologik yordam xotin-qizlarga ichki stressni bartaraf etish, o‘z-o’zini anglash va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tiklashda yordam berishi mumkin, motivatsiya esa ularga aniq maqsadlarga erishish yo‘lida rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologik yordam — bu insonning ruhiy va emotsional salomatligini yaxshilash, ichki muammolarini hal etishga yordam berish uchun psixolog tomonidan ko'rsatiladigan professional yordamdir. Xotin-qizlar uchun psixologik yordamning ahamiyati alohida, chunki ular turli jamiyatda va madaniy muhitda maxsus ijtimoiy va psixologik stresslarga duch keladilar. Psixologik yordam xotin-qizlarning hayotini yaxshilash va ijtimoiy rivojlanishida muhim vositadir. Psixologik yordamning asosiy

maqsadi xotin-qizlarni ruhiy va hissiy jihatdan mustahkamlash, ularga o‘zlarining muammolarini hal qilishda yordam berish va hayotdagi to‘siqlarni yengishda yordam ko‘rsatishdir.

Psixologik yordamning asosiy turlari:

• **Individual psixologik yordam**: Bu turdagi yordamda xotin-qizlar shaxsiy masalalari, hissiy holatlari, o‘zini o‘zi anglash yoki jamiyatdagi o‘z o‘rinlarini topish borasida yordam olishadi. Psixologlar bilan suhbatlar yordamida ular o‘zlarini tushunishga, stressni kamaytirishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini tiklashga va hayotga nisbatan salbiy fikrlardan xalos bo‘lishga yordam olishlari mumkin.

• **Guruhli psixologik yordam**: Xotin-qizlar o‘rtasida guruh terapiyalari va treninglar orqali tajriba almashish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va o‘rganish imkoniyatlari mavjud. Bu usul, ayniqsa, o‘zini boshqa xotin-qizlar bilan taqqoslash orqali motivatsiya olish va turli muammolarni birgalikda hal etish uchun samarali.

• **Oilaviy psixologik yordam**: Xotin-qizlar o‘z oilalaridagi munosabatlar, ota-onalik masalalari yoki oila ichidagi rollar bilan bog‘liq psixologik yordam olishlari mumkin. Bu turdagi yordam, ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan yoki oilaviy muammolarni hal qilishda qiynalayotgan xotin-qizlar uchun juda muhim.

Xotin-qizlar ko'pincha turli xil stress omillari va ijtimoiy bosimlarga duch keladilar. Ular o'zlarini va oila a'zolarini tarbiyalashda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmalariga olishadi. Bu holatlar depressiya, bezovtalik, asabiylashish va boshqa ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologik yordam ular uchun ichki muammolarni aniqlash, ularni hal etish va salbiy fikrlarni to'g'ri yo'naltirishda yordam beradi.

Xotin-qizlar ko'pincha o'zlarining o'ziga bo'lgan ishonchlari pastligi, o'zlarini ijtimoiy va jismoniy jihatdan kamaytirishadi. Psixologik yordam o'zini tanish va o'ziga bo'lgan ishonchni tiklashda katta yordam beradi. Psixologik mashqlar va terapiyalar yordamida xotin-qizlar o'zlarining qadriyatlari va imkoniyatlarini anglab, o'zini hurmat qilishni o'rganadilar. Ko‘p xotin-qizlar jamiyatdagi bosimlar, oilaviy masalalar yoki professional muammolar tufayli stressga duchor bo‘lishadi. Psixologik yordam orqali ular bu stressni boshqarishni o‘rganadilar.

Xotin-qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Psixologik yordam ularni o‘z qobiliyatlariga ishonishga undaydi. Psixologik yordam xotin-qizlarga muammolarni boshqarish va hayotdagi qiyinchiliklarga ijobiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.

Oila muammolari va turmush o'rtog'i bilan bo'lgan munosabatlar ko'pincha xotin-qizlarning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Psixologik yordam xotin-qizlarga o'zaro munosabatlardagi muammolarni hal etish, turmush o'rtog'i yoki oila a'zolari bilan samarali muloqot o'rnatish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha yordam beradi.

Xotin-qizlar ko'pincha ko'p vazifalarni bir vaqtda bajarishga harakat qilishadi, bu esa emotsional charchoqqa va stressga olib kelishi mumkin. Psixologik yordam ularni stressni boshqarish va salbiy his-tuyg'ularni sog'lom usullar bilan yengib o'tishga o'rgatadi. Yoga, nafas olish mashqlari va meditasiya kabi psixologik vositalar yordamida xotin-qizlar o'zlarining emotsional holatini yaxshilashlari mumkin.

Xotin-qizlar ko'pincha jamiyatda o'z huquqlarini himoya qilishda, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashishda, yoki ayollarga xos boshqa muammolarni hal qilishda qiynalishadi. Psixologik yordam xotin-qizlarga o'zlarining huquqlarini anglash, o'z fikrlarini ifoda etish va o'z o'rnini jamiyatda mustahkamlashda yordam beradi. Bu o'z navbatida ayollarning o'zlariga nisbatan yuqori baholash va o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yordam beradi.

Ayollar ko'pincha reproduktiv salomatlik va jinsiy aloqada psixologik muammolarga duch keladilar. Masalan, homiladorlik, tug'ish, bolalarni tarbiyalash kabi jarayonlar ko'plab hissiy va ruhiy qiyinchiliklarga olib keladi. Psixologik yordam ayollarga bu davrni yanada oson va salomatlikka zarar yetkazmaydigan tarzda boshqarish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, jinsiy salomatlikka oid psixologik yordam ayollarning jinsiy huquqlari va o'z xohish-istaklarini anglashda ham yordam beradi.

Ba'zi xotin-qizlar ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlikdan aziyat chekishadi. Psixologik yordam ularga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini rivojlantirish, muammolarni ochiq va erkin tarzda baham ko'rish va kerakli yordamni olish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, qiyinchiliklarga duch kelayotgan xotin-qizlar uchun juda muhimdir.

Ko'plab xotin-qizlar turmush o'rtog'idan, oilasidan yoki jamiyatdan zo'ravonlikka duch kelishadi. Psixologik yordam bu kabi vaziyatlarda ayollarga o'z huquqlarini himoya qilish, qo'rquvni yengib chiqish va zo'ravonlikdan keyingi jarohatlarni davolashda yordam beradi. Psixologlar o'zlarini himoya qilishni, zarur holatlarda huquqiy yordam olishni va o'zlarini qayta tiklashni o'rgatishadi.

Motivatsiya xotin-qizlarning muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, o‘z maqsadlariga erishish, yangi imkoniyatlar yaratish va yangi yutuqlarga intilish uchun zarur bo‘lgan ichki kuchdir. Motivatsiya xotin-qizlarni o‘z orzulari va maqsadlariga yo‘naltiradi, ularni faol bo‘lishga va o‘z potensialini to‘liq ishlatishga rag‘batlantiradi.

Ichki motivatsiya: Bu motivatsiya turida xotin-qizlar o‘zlarini o‘zgartirish yoki rivojlantirish istagi bilan harakat qilishadi. Ichki motivatsiya ko‘pincha shaxsiy maqsadlar, o‘z-o‘zini anglash, o‘zligini namoyish qilish va o‘z qobiliyatlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, bilim olish, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish yoki o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish istagi.

Tashqi motivatsiya: Xotin-qizlar tashqi rag‘batlantirishlar orqali ham o‘z maqsadlariga erishishga harakat qilishadi. Bu tashqi rag‘batlantirishlar, masalan, mukofotlar, tan olinishi yoki boshqalarning e'tiborini qozonish bo‘lishi mumkin. Tashqi motivatsiya ularni ko‘proq harakatga keltiradi, ayniqsa ish yoki ta'limdagi yutuqlarga erishish uchun.

Motivatsiyaning xotin-qizlarning rivojlanishiga ta'siri:

- **Muvaffaqiyatga erishish**: Motivatsiya xotin-qizlarni o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan ishni qilishga undaydi. Ular o‘zlarini yangi imkoniyatlar izlashga va yangi yutuqlarni qo‘lga kiritishga rag‘batlantiradi.
- **O‘zini rivojlantirish**: Motivatsiya yordamida xotin-qizlar o‘zlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradilar. Ta'lim olish, yangi kasblarni o‘rganish, o‘z ishtirokini ijtimoiy faoliyatlarda ko‘rsatish motivatsiya orqali amalga oshiriladi.
- **Oila va jamiyatdagi o‘rni**: Xotin-qizlar o‘zlarini ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish orqali yanada mustahkamlaydilar. Motivatsiya ularni oiladagi o‘rni va jamiyatdagi roli haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishga yordam beradi.

Psixologik yordam va motivatsiya birgalikda xotin-qizlarning rivojlanishida o‘zaro mustahkamlovchi omillar bo‘lib, ular xotin-qizlarning o‘zini his qilishini, maqsadlariga erishishini va hayotdagi to‘siqlardan o‘tishini ta'minlaydi. Psixologik yordam ularni ruhiy jihatdan tayyorlashda va o‘z-o‘zini anglashda yordam beradi, motivatsiya esa ularni faol harakat qilishga undaydi va natijalarga erishishda ko‘maklashadi.

Xulosa. Psixologik yordam xotin-qizlar uchun hayot sifatini yaxshilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Uning yordamida ayollar o'z salomatliklarini, munosabatlarini, o'ziga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlashlari, stress va emotsional yuklarni boshqarishlari, va jamiyatda o'z o'rnini topishlari mumkin. Psixologik yordam nafaqat jismoniy salomatlik, balki ruhiy va emotsional farovonlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xotin-qizlarning rivojlanishida psixologik yordam va motivatsiyaning o‘rni ulardan har ikkisining ahamiyatini anglashni talab qiladi. Psixologik yordam yordamida xotin-qizlar o‘zlarini yanada kuchliroq his qilishi va muammolarni yengish uchun zaruriy vositalarga ega bo‘lishadi. Motivatsiya esa ularni o‘z maqsadlariga erishishda kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ikkalasi birgalikda xotin-qizlarning o‘z orzulariga erishish yo‘lida ularga yordam beradigan kuchli vositalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Sh. Mirziyoevning 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqi . “Xalq so’zi” 2019 yil, 22 iyun

2. M. Usmonova "Xotin-qizlar psixologiyasi" – Toshkent -2015 47-56 betlar.

3. G. O‘tkirjonova "Psixologik yordamning ayollarga ta'siri –Toshkent- 2018. 19- 24 betlar
4. D. Iskandarova "Motivatsiya va xotin-qizlar rivojlanishi" *2020* – Toshkent. 78- 82 betlar
5. I. Gashinskaya "Psikhologiya motivatsii i samosoznaniya" 2012. 39-47 betlar
6. Сирожиддинова, Ф. Х. (2024). Хотин-қизлар меҳнат самарадорлигини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик асослари. *Scholar*, *2*(5), 188-192.
7. Xosilbekovna, S. F. (2024). Social and psychological determinants of increasing women's labor efficiency are related to the topic. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, *4*(2), 440-443.

Sultanov Alijon Quziyevich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

UYUSHMAGAN YOSHLARNING AXLOQIY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada uyushmagan yoshlarning axloqiy mas'uliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, motivatsiyani rivojlantirish va tajribaga asoslangan treninglar orqali axloqiy mas'uliyatni oshirish jarayonlari tahlil qilingan. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, texnologiyalardan foydalanish, mentorlik dasturlarini joriy etish va global tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *uyushmagan yoshlar, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy-psixologik asoslar, motivatsiya, qiziqish diagnostikasi, tajribaviy treninglar, texnologiyalardan foydalanish, mentorlik dasturlari, global va milliy tajribalar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МОРАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье изучены социально-психологические основы развития моральной ответственности неорганизованной молодежи. В исследовании проанализированы процессы выявления интересов и потребностей молодежи, формирования моральных ценностей, развития мотивации и повышения моральной ответственности через опытные тренинги. Рассмотрены современные подходы, включая использование технологий, внедрение программ наставничества и адаптацию глобального опыта к местным условиям.*

Ключевые слова: *неорганизованная молодежь, моральная ответственность, социально-психологические основы, мотивация, диагностика интересов, опытные тренинги, использование технологий, программы наставничества, глобальный и национальный опыт.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING MORAL RESPONSIBILITY AMONG DISENGAGED YOUTH

Abstract. *This article explores the socio-psychological foundations of developing moral responsibility among disengaged youth. The study analyzes the processes of identifying youth's interests and needs, forming moral values, enhancing motivation, and increasing moral responsibility through experiential training programs. Modern approaches such as the use of technologies, the implementation of mentorship programs, and the adaptation of global experiences to local conditions are discussed and practical recommendations are proposed.*

Keywords: *disengaged youth, moral responsibility, socio-psychological foundations, motivation, interest diagnostics, experiential training, use of technologies, mentorship programs, global and national experiences.*

Kirish. Hozirgi kunda jamiyatda yoshlar axloqiy mas'uliyatini rivojlantirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, uyushmagan yoshlar orasida ijtimoiy normalarga moslashish, o'ziga va boshqalarga mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish ehtiyoji mavjud. Bu muammo nafaqat shaxsiy darajada, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy moslashuv darajasi past bo'lib, ko'pincha ular ijtimoiy faoliyat va mehnat bozoridan chetda qolishadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va BMT tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yoshlarning axloqiy rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy adolat, tartib va barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini

ta'minlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat yoshlarning axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun zamonaviy sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi.

Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas'uliyatini rivojlantirish uchun ularning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanligini hisobga olish zarur. Bandura (1977)ning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxsning axloqiy rivojlanishi ijtimoiy ko'nikmalar va kuzatish orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, uyushmagan yoshlarni jamiyatga moslashtirishda psixologik treninglar, ijtimoiy tadbirlar va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega.

Mazkur izlanishning asosiy maqsadi – uyushmagan yoshlarning axloqiy mas'uliyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan usullarni ishlab chiqishdir. Bu nafaqat yoshlarning individual rivojlanishiga, balki ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu tadqiqot uyushmagan yoshlarning axloqiy mas'uliyatini oshirish va jamiyatda ularning ijobiy o'rnini belgilash uchun ilmiy asos yaratishga qaratilgan.

Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega. Jamiyatda yoshlar intellektual va ijtimoiy tajribani potensial tashuvchilari hisoblanadi. Yoshlarni jamiyatni muhim qatlami sifatida tadqiq etish masalasi yer yuzida insoniyat paydo bo'lganidan buyon olimu-ulamoalarni diqqat markazida bo'lgandir. Xattoki, eramizdan avvalgi V asrdayoq yunon faylasufi Suqrotning qarashlarida ham "yoshlar orasida hashamatga muxabbat, ota-onaga va kattalarga hurmatsizlik kuchayib"[4] ketayotganligi yoki tarixchi Gerodot Misr ehromlarida quyidagi qaydlar uni ajablantirgani "yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!" [5] haqida aytib o'tilgan. Mazkur holatning o'ziyoq yoshlar va ularni tarbiyalash masalasi uzoq o'tmishdan beri dolzarb muammo ekanini ko'rsatadi. Zero, rivoyat qilishlaricha Luqmoni Hakimdan "nasihatlaringizning ko'pi yoshlarga oid, ammo yoshi kattaroqlarga kamroq bo'ladi, buning sababi nima?" – deb so'radilar. Luqmoni Hakim shunday javob beradilar: "Bog'bon yerni yumshatib ko'chat o'tqazib, uning atrofini xas – xashakdan, zararli yovvoyi o'tlardan tozalab, kerak bo'lgan vaqtda suv bilan o'g'it berib tursa, tez vaqtda daraxt yetiladi, unumli, serhosil bo'ladi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilinsa, go'zal axloqli, odobli etib o'stirilsa, u bola nafaqat o'ziga, ota – onasiga baxt – saodat keltiradi, jamiyat uchun foydali, kerakli inson bo'lib yetishadi" [13]. Shunday ekan, jamiyatning tayanchi va taraqqiyotning asosi bo'lgan yoshlar bilan ishlash, ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga e'tibor qaratish, jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etar ekan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xitoy donishmandi Syun-Szi "Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati" [6], deb yozgan edi. Konfusiy esa komil inson ikki xususiyatga ega bo'lishi kerak deb hisoblagan. Bu xususiyatlar quyidagilar mas'uliyat va insoniylikdir. Yoshlarni tarbiyalashda mana shu ikki jihatni shakllantirish kerak. Yoshlarni axloqiy kamolotida quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratiladi:

- odamlarga muhabbat, mehribonlik, insonparvarlik. Bunda insonning o'zini-o'zi anglash muhim o'ringa ega;
- haqiqat, adolat. Bunda yoshlarni yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishga o'rgatish nazarda tutiladi;
- udm, odat, an'anaga sodiqlik. Yoshlarni xalqning urf-odatlariga sadoqatli qilib tarbiyalash nazarda tutiladi;
- sog'lom fikr, donolik, oqillik, o'z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'ziga chetdan qarab baho bera olishdir. Unga ko'ra inson o'z fazilatlarini me'yorlashtiradi, qaysarligini jilovlaydi, ahmoqlikka qarshi tura oladi;
- samimiyat, pok niyat, hurfikr, saxiylik va vijdonlilik. Yoshlarda mazkur sifatlarni oilaviy munosabatlar oraqali tarbiyalashga e'tibor beriladi [9].

Shu boisdan, yoshlar va ularning ijtimoiy-falsafiy, pedagogik-psixologik muammolari allomalarning asarlarida aynan axloqiy tarbiya negizida yoritib berilgan. Jumladan, yoshlar va ularninng axloqi masalasi diniy va Sharq uyg'onish davri allomalari asarlarida muhim o'rin egallaydi. Xususan, «Avesto» da «bolani ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal qilishga o'rgatish»[3]

masalalari bayon etilgan. Mazkup manbada ezgu fikp albatta kognitiv soha, ya'ni ilohiy ta'limotning asosiy g'oyasi va axloqiy ideallap «ezgulik» va «yovuzlik»opasidagi fapqni anglashdan, tafakkup qilishdan ibopat, ezgu so'z esa shaxslapapo munosabatlapdagi samimiylik, hamdapdlik va bip-bipini qo'llab-quvvatlashni nazapda tutadi, ezgu amal deganda jamiyat bilan bog'lanishni, jamiyat manfaati uchun foydali ishlapni amalga oshipishni tushunish mumkin. Chunki, hap qanday ezgu so'z ezgu fikp va ezgu amalni yuzaga keltipadi hamda kishilapni ezgulik qilishga undaydi. Yoshlarni o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'ulashtira oladigan qilib tarbiyalashda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish "Avesto"da targ'ib qilingan: "... tafakkur quvvati, so'z qudrati, ish kuchi, ehtiyotkorlik, aql va donolik" [4]. Mazkur olti xususiyat bolada yoshligidan shakllantirilsa u turli destruktiv yoki passiv xulq egasiga aylanmaydi. Bundan tashqari, "Avesto"da yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish uchu mehnat tarbiyasiga ham katta e'tibor berish muhimligi ta'kidlangan: "Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim. Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh eshib turajaksan, haqiqatdan ham sening yoningda turli xil zirootlarni olib o'tadilar." [4]. Mazkur fikrlar orqali kasbi-kori bo'lmagan yoshlarning ahvoli, jamiyatdagi o'rni tahlil qilib berilgan. Biz tadqiq etayotgan muammo, ya'ni uyushmagan yoshlar guruhida ham aynan kasbiy jihatdan o'z o'rniga ega bo'lmagan qatlam ham mavjud. Shu boisdan, yoshlarda yuqorida keltirilgan oldi sifatni mehnat tarbiyasiga uyg'un holda olib borish orqali hozirgi kunda "uyushmagan" sifatida tavsiflanayotgan yoshlar qatlamini shakllanishini oldi olinar edi.

Islom dinining muqaddas manbalarida ham yoshlar tarbiyasi, ularni salbiy illatlardan asrash masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada Qur'oni Karimdagi Tahrim surasining 6-oyatida shunday zikr qilinadi "Ey, imon keltirganlar! O'zlaringizni va oila a'zolaringizni yoqilg'isi odamlar-u toshlar bo'lmish do'zaxdan saqlang". [15]. Bu oyatdan shuni xulosa qilish mumkinki, insoniyat farzand tarbiyasiga ham jiddiyroq qarashi lozim. Chunki mazkur oyatda keltirilgandek "do'zax azobidan" saqlash uchun oila a'zolarimizga, ya'ni farzandlarimizga komil tarbiya berishimiz kerak. Zero, payg'ambarimiz (s.a.v) aytganlaridek, "Ota bolaga gўzal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi". Darhaqiqat, ota o'z farzandiga tarbiya berishda uni komil inson qilib voyaga yetkazsagina, bola xulqidagi zararli illatlarni oldini oladi. Xususan, bolaning «Yomon fe'l-atvorlarni tark etmoq va go'zal axloqli bo'lmoq»ligi oiladagi muhitga bevosita bog'liqdir. Usoma ibn Shurayq (sahobalardan)ning rivoyat qilishlaricha, "A'robiylarni ko'rdim. Rasulullohdan: «Bandasiga ato etilgan eng yaxshi xususiyat nima?» deb so'rashayotgan ekan. Rasul (s.a.v.): — go'zal axloq! — deb javob berdilar". [16]. Bu yerda go'zal axloq deganda albatta yaxshi itoatkor xulq nazarda tutilmoqda. Demak, insonning odobi va axloqi uning eng katta merosidir. G'azzoliy aytganidek, "yomon fe'llarni tark etib, yaxshi axloqli bo'lish farzi" yosharni tarbiyasiga alohida e'tibor berishni talab etadi. G'azzoliy "ohilning jaholatini, axloqsizning axloqsizligini qusur va ayb sifatida ko'rdim, jaholat va axloqsizliqdan qochdim", deb yoshlarni axloqini yaxshilash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligi keltirilgan [1].:

- O'zini-o'zi tanish – bu yerda insonning o'zini anglashi nazarda tutiladi. Inson tabiatan go'zal yaratilgan, buni anglash va tushunish orqali axloqiga ko'chirish nazarda tutiladi;
- Takabburlik va manmanlikdan kechish – bu yerda shaxsdagi egoistik ustanovkalarni bartaraf etishga katta urg'u beriladi. Bizga ma'lumki, destruktiv axloq yoki passiv xulq aynan egoistik ustanovkalarning ustuvor namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Agar boladagi egoistik ustanovkalarni bartaraf eta olsak, ulardagi ijtimoiy faollik ortib, axloq go'zallashadi, bola jamiyatga adaptasiyalashadi;
- Insoniylik sifatlarini namoyon bo'lishi – shaxsdagi gumanistik fazilatlarni tarkib toptirishdir. Shu orqali o'zlikni namoyon qilish, o'z ustida ishlash, jamiyatda ijtimoiy foydali ishlarga jalb bo'lish holati ortishi nazarda tutilgan;
- Atrofdagilar bilan go'zal muomalada bo'lish – bunda yoshlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini shakllangangini muhimligi nazarda tutilmoqda;

- Kechirimli va bag'rikeng bo'lishga o'rgatish – aynan insonning "hazrati inson" ekanligini tavsiflovchi sifatdir. Chunki yoshlarda shaxslararo munosabatlarda tolerantlikni, empatiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy manbalarda keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, yoshlarda destruktiv axloqni oldini olishda ularning e'tiqodini mustahkamlash, xusni xulqning mohiyatini tushunish va insonni o'zini anglashi muhim ahamiyatga ega ekan. Qolaversa, yoshlarning axloqiy shakllanishida eng ezgu insoniy xislatlap iffat, saxovat, mupuvvat, shukponalik, yaxshilik kabi axloqiy xususiyatlap ulug'lanib, inson fapovonligi, jamiyat pavnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti-hapakatlap, ezgulik, futuvvatlilik kabi sifatlarning ahamiyati keng targ'ib qilingan.

Yoshlar va ularning axloqi muammosi Sharq allomalari asarlarida ham tahlil qilib beriladi. Xususan, Abu Nars Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida axloqiy fazilatlarni bilimlilik, donolik, farosatlilik, xalq manfaatlarini shaxsiy istaklardan ustun qo'yish bilan belgilaydi. Forobiyning fikricha, axloq insonning aqliy tafakkuri bilan bog'liq. Shu maqsadlarda yoshlar aqliy tarbiyasiga katta e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [2]. Qolaversa, Forobiy shaxs hyech bir holatda yolg'iz o'zi kamolotga erisha olmaydi deb hisoblagan: "...Inson yuksak kamolotga erishuvi yo'lida harakat qilganidek, aqliy ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi o'ylayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi" [2]. Bunda Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi. Bu orqali alloma shaxs kamolotida guruhlarning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Chunki, inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalap bilan aloqada bo'lish, ulapning ko'maklashuvi yoki shaxslararo munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Shunday ekan, aynan biz tadqiq etayotgan "uyushmagan yoshlar"ni aniq maqsad va o'ziga ishonch, jamiyat manfaati bilan o'z manfaatlarini uyg'unlashtirishga, o'z ustida ishlashga o'rgata olsakkina alloma nazarda tutgan "himmatli shahar"ga erisha olamiz. Zero, «himmatli shahar – tipik jonzot hayotini saqlab qolish maqsadidagi barcha a'zolari bir-biriga yordam beruvchi sog'lom tana singari»dir [2]. Alloma o'z qarashlarida "himmatli, fozil shahar"ni joriy etish uchun yoshlar bilan ishlashda e'tibor qaratish kerakligiga ham to'xtalib o'tadi. Xususan, "Agar yoshlar maishatga o'rganib, qonunga zid ravishda dilxushlik qilib va rohatlanib yursalar, sohibi qonunlar ularni tuzatishlari qiyin, ammo rohatlanishlarini qonunga bo'ysundirishlari zarur, balog'atga yetgan yosh yigitlar esa bu shart-sharoitlarga ko'nikishlari va undan foydalanishlari kerak", deb ta'kidlaydi [2]. Mazkur fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlarni tarbiyalashda ularning huquqiy ongini o'stirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'p hollarda yoshlar huquqiy, psixologik ongni yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli o'z imkoniyatlarini konstruktiv shaklda amalga tadbiq etishga qiynaladilar.

Abu Ali Ibn Sino dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi, deydi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyatan e'tibori bilan yaxshilikdir [11]. Bu fazilatlar yoshlarda gumanistik tuyg'ularning shakllanishiga yordam beradi. Ibn Sino tomonidan keltirib o'tilgan shaxs sifatlarini shakllanishi, qolaversa alloma ta'biri bilan aytganda "bolalarni tarbiyasi buzilmasligi uchun ularning do'stlarini o'rganish" orqali bugungi kundagi yoshlar xulqidagi bo'shliqni to'ldirish hamda ularni "uyushmaganlar" toifasiga kirib qolishning oldini olish imkonini beradi.

Axloqiy sifatlar talqini va ularning yoshlar xulq-atvorida namoyon bo'lishida oilaning, ijtimoiy munosabatlarning o'rni, jamiyat kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi to'g'risidagi fikrlar Jaloliddin Rumiy qarashlarida ham aks etgan. Jaloliddin Rumiy ham «Ma'naviy masnaviy»sida inson xulq-atvori va unga ta'sir etuvchi omillar xususida o'z fikrlarini bildirgan. Jaloliddin Rumiy o'zining falsafiy qarashlarida inson ma'naviy kamolotining asosini o'z-o'zini anglash tashkil etadi, deb uqtiradi. Rumiy «ishi va so'z birligida» futuvvat bo'lgan inson ma'nan yetuk insondir, deydi. Kishilarning ezgu ishlari o'zgalarning g'amini yeyishida, dardiga sherik bo'lishida, o'zaro ko'maklashuvida zohir bo'ladi [12]. Yoshlar kamolotida "asliga qaytish", "qalbda o'tli bo'lish", "o'zligini anglash" masalalari muhimligini tahlil qilib beradi. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda jamiyatda "uyushmagan yoshlar" guruhining shakllanishi bevosita o'zligini anglash, hayotga nisbatan optimistik ishtiyoqning yetishmasligi bilan bog'liq. Rumiy o'z

qarashlarida yoshlar ahloqidagi mazkur holatlarni falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilib bergan. Xususan, allomaning fikricha,

“Kimki mensiz ersa, menlar unga do’st,
O’ziga nodo’st erur mardumga do’st.
Oyina suratisiz ersa, ne yetar,
Har ne suvrat ersa, unda aks etar” [12].

Bu yerda o’zini anglamagan, o’z shaxsiy fikriga ega bo’lmagan yoshlarga hamma yo’lboshchilik qilishi, o’z fikrini singdirmoqchi bo’lishi haqida gap ketmoqda. Yoshlardagi o’zini anglamaslik, o’zini asliyatini tushunmaslik holati “suratsiz oyna”ga qiyoslangan. Biz bilamizki oyna faqat o’zgalarni qiyofasini aks ettiradi, bunday yoshlar esa o’z fikrlari bilan emas, o’zgalarning qarashlari asosida o’z hayotlarini quradilar. Bunday yoshlarni turli destruktiv guruhlar ta’siriga tushib qolishi ham ko’p uchraydi. Shu boisdan, alloma yoshlarni o’z-o’zini anglashi masalasiga katta urg’u beradi va o’z-o’zini anglashning quyidagi shakllarini tahlil qilib beradi:

Birinchi shakli – o’z-o’zini his qilish, ya’ni o’zini, o’z jismini qurshab turgan dunyodagi predmetlar, hodisalardan farqini bilish;

Ikkinchi shakli – jamiyatdagi o’z o’rni, shu jamiyat a’zosi, aniq faoliyat egasi, ma’lum ijtimoiy guruhga mansubligini bilish;

Uchinchi shakli – o’zini fuqaro sifatida anglash, o’z ishlari uchun mas’ullikni his qilish, o’z faoliyatini nazorat qilish, o’z-o’ziga baho bera oladigan, o’z-o’ziga hisob bera oladigan shaxs darajasiga yetish [8].

Rumiy shaxs o’zini anglashi uchun: “Ko’zni yumgil ko’zga aylansin ko’ngil, Ko’z bo’lurmu haqni ko’rmas bo’lsa ul...”, - deydi [12]. Allomaning fikricha, o’zlikka erishish uchun ko’z va ko’ngil birligi, “til va dil birligi”ga erishish lozim [10].O’zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to’g’ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish, qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas’uliyat tuyg’usi hamdir. Shunday ekan, yoshlarning o’zini anglashi ularning axloqiy kamoloti, jamiyatga integrasiyasini ta’minlab beruvchi muhim mezondir. Uyushmagan yoshlarning o’zligini anglashga, tushunishga yordam berish va ularning psixologik qo’llab-quvvatlash orqali jamiyatga moslashuvini ta’minlash hamda “jamiyatga va shaxsning o’ziga foydali” bo’lish bilan bog’liq optimistik qarashlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas’uliyat darajasi ularning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy munosabatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga bevosita ta’sir qiladi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy mas’uliyat darajasi past bo‘lgan yoshlar ko‘pincha ijtimoiy normalarga zid xatti-harakatlarni amalga oshiradi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rnini zaiflashtiradi. Masalan, Jahon Banki va ILO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab uyushmagan yoshlarning 20 foizdan ortig‘i ijtimoiy xavfli guruh sifatida qaraladi.

Tahlillar. O‘zbekiston tajribasida ham bu masala muhim o‘rin tutadi. Yoshlar o‘rtasida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va ularga mas’uliyat hissini singdirish uchun milliy dasturlar, jumladan, "Yoshlar forumi" va "Yoshlar daftari" loyihalari doirasida axloqiy va psixologik treninglar tashkil etilmoqda. Bu kabi yondashuvlar orqali uyushmagan yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ularda axloqiy mas’uliyatni shakllantirishga intilmoqda.

Axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda psixologik mexanizmlar

Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas’uliyatini rivojlantirishda psixologik mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi. Quyida asosiy mexanizmlar keltirilgan:

- **Qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash:** Yoshlarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash uchun psixologik diagnostika metodlaridan foydalanish lozim. Hollandning kasbiy yo‘nalish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash orqali ularda axloqiy mas’uliyatni shakllantirish samaradorligini oshirish mumkin.
- **Axloqiy qadriyatlarni singdirish:** Axloqiy mas’uliyat yoshlarning oilaviy, ijtimoiy va madaniy muhitida shakllanadi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, axloqiy qadriyatlar ijtimoiy tajriba va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir orqali shakllanadi. Shu sababli, yoshlarni axloqiy qadriyatlar bilan boyitish uchun ularga mos keluvchi ijtimoiy muhit yaratish zarur.

• **Motivatsiyani rivojlantirish:** Ryan va Decining o‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga asoslanib, yoshlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish axloqiy mas’uliyatni oshirish uchun samarali usul hisoblanadi. Ularni axloqiy normalarga rioya qilishga undovchi motivatsion treninglar va rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish lozim.

• **Amaliy treninglar va guruh mashg‘ulotlari:** Tajribaga asoslangan o‘rganish (Kolb nazariyasi) orqali axloqiy mas’uliyatni amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantirish mumkin. Masalan, ijtimoiy xizmatlarda ishtirok etish, jamoat tadbirlarini tashkil qilish va mas’uliyatli vazifalarni bajarish orqali yoshlar axloqiy rivojlanish yo‘lida muhim tajribaga ega bo‘ladi.

Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar

Axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Texnologiyalardan foydalanish:** Axloqiy mas’uliyatni shakllantirishda interaktiv trening platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarni ishlatish yoshlar orasida samarali natija beradi. Bu vositalar orqali yoshlarni qiziqtirish va ularga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish mumkin.

2. **Mentorlik dasturlari:** Tajribali shaxslar tomonidan yoshlar bilan ishlash, ularga maslahatlar berish va axloqiy masalalarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish axloqiy rivojlanishni tezlashtiradi.

3. **Global va milliy tajribalarni qo‘llash:** Germaniyaning dual ta’lim tizimi yoki Janubiy Koreyaning "Yoshlar va texnologiyalar markazi" kabi ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

1-jadval

Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas’uliyatini rivojlantirish

Psixologik mexanizm	Mazmuni	Kutilayotgan natijalar
Qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash	Psixologik diagnostika, so‘rovnomalar va testlar orqali yoshlarning qiziqishlarini aniqlash.	Yoshlarning ehtiyojlari aniqlanadi va mos yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi.
Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish	Oilaviy va ijtimoiy muhit orqali axloqiy qadriyatlarni singdirish va targ‘ib qilish.	Axloqiy qadriyatlar shakllanib, ijtimoiy moslashuv kuchayadi.
Motivatsiyani rivojlantirish	Ichki motivatsiyani kuchaytirish uchun treninglar va rag‘batlantirish tizimlarini tashkil etish.	Yoshlar o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish uchun motivatsiyaga ega bo‘ladi.
Amaliy treninglar va guruh mashg‘ulotlari	Tajribaga asoslangan mashg‘ulotlar orqali axloqiy mas’uliyatni shakllantirish.	Amaliy tajriba orqali axloqiy mas’uliyat va jamoaviy ko‘nikmalar rivojlanadi.
Texnologiyalardan foydalanish	Axloqiy mas’uliyatni o‘rgatuvchi interaktiv platformalar va mobil ilovalar yaratish.	Texnologiyalar orqali o‘qitish jarayonlari tezlashadi va qiziqarli bo‘ladi.
Mentorlik dasturlari	Yoshlar bilan ishlaydigan mentorlar orqali axloqiy rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash.	Mentorlik orqali yoshlarning axloqiy rivojlanishi uchun shaxsiy yo‘l-yo‘riqlar taqdim etiladi.
Global tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish	Ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish orqali samaradorlikni oshirish.	Global tajribalar mahalliy sharoitda qo‘llanib, umumiy samaradorlik oshadi.

4. Axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik

Axloqiy mas’uliyatni rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik nazariyalar, jumladan, Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, shaxsning rivojlanishi uning atrof-muhiti bilan o‘zaro ta’siriga

bog‘liq. Shu sababli, uyushmagan yoshlarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilishda axloqiy mas’uliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy mas’uliyat shakllangan yoshlar ijtimoiy normalarga rioya qilishda, jamoat hayotida faol ishtirok etishda va boshqalar uchun o‘rnak bo‘lishda yetakchi bo‘la oladi.

Xulosa: Uyushmagan yoshlarning axloqiy mas’uliyatini rivojlantirish – bu nafaqat individual shaxs sifatida ularning o‘ziga xos rivojlanishini ta’minlash, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va kelajagini mustahkamlashning muhim omilidir. Psixologik mexanizmlar, jumladan, qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash, motivatsiyani rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish orqali bu jarayonni samarali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanish, mentorlik dasturlari va global tajribalarni qo‘llash axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda yuqori natijalarni ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy mas’uliyatni rivojlantirish yoshlarning ijtimoiy normalarga moslashuvini kuchaytiradi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi va ularning shaxsiy salohiyatini to‘liq ochib berishga imkon yaratadi.

Tavsiyalar: Qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash tizimini kuchaytirish:
Yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash uchun maxsus diagnostik testlar, so‘rovnomalar va psixologik suhbatlardan foydalanish zarur. Bu axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishga mos keladigan yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi. Axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish: Milliy va madaniy qadriyatlarga asoslangan treninglar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali yoshlarning axloqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). *Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being.* American Psychologist, 55(1), 68–78.
2. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.* Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2021). *Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligini ta’minlash to‘g‘risida.*
4. BMT (2019). *International Convention on Youth Rights.* New York: United Nations.
5. Геродот. История в 9 кн. / Пер., предисл. и указатель Ф. Г. Мищенко. В 2 т. М., 1885-1886.

Usmonov Sherzod Axmadjonovich
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
Abdulvoyitov Dilyorbek Muzaffar o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti magistri

O‘SMIRLIK DAVRIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVATSIYASINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘nggi yillarda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi e’tibor, motivatsiya, ichki (qiziqish) va tashqi (rag‘batlar) omillar orqali, o‘smirlarning muvaffaqiyatlari ularning motivatsiyasiga bog‘liqligi, ularga ota-onalar, tengdoshlar va pedagoglarning ta’siri, motivatsiyani rivojlantirish ta’lim tizimi uchun muhimligi haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so’zlar*: Ta’lim tizimi, motivatsiya, o‘smirlik davri, mustaqil hayot, kattalar hayoti, o‘rta maktab, ichki va tashqi omillar, faoliyat natijalari, kelajakdagi hayot yo‘li, kognitiv va shaxsiy resurslar, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, ijtimoiy ta’sir, pedagogik tizim, motivatsiya rivojlanishi, ilmiy tadqiqotlar, eksperimental tadqiqotlar, qiziqish, bilim olish istagi, mukofotlar va ballar, muvaffaqiyat, o‘sish qarashlari, xatolar va muvaffaqiyatsizlik, o‘quv muassasalari, shaxsiy qobiliyatlar, ijtimoiy rivojlanish.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВАЦИИ К УСПЕХУ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В этой статье говорится о том, что в последние годы мотивация подростков к обучению зависит от внимания, мотивации, внутренних (интереса) и внешних (стимулов) факторов, успехи подростков зависят от их мотивации, влияние на них родителей, сверстников и педагогов, важность развития мотивации для системы образования.*

Ключевые слова*: Система образования, мотивация, подростковый возраст, самостоятельная жизнь, жизнь взрослых, средняя школа, внутренние и внешние факторы, результаты деятельности, будущий жизненный путь, когнитивные и личностные ресурсы, самостимуляция, социальное воздействие, педагогическая система, развитие мотивации, научные исследования, экспериментальные исследования, интерес, желание получить знания, награды и баллы, успех, взгляды на рост, ошибки и неудачи*

THEORETICAL ANALYSIS OF SUCCESS MOTIVATION IN ADOLESCENCE

Annotation*. In this article, it is said that in recent years, adolescents' motivation for learning depends on attention, motivation, internal (interest) and external (stimulus) factors, adolescents' success depends on their motivation, their parents, peers, and educators influence them, and the importance of motivation development for the education system.*

Keywords: *Education system, motivation, adolescence, independent life, adult life, middle school, internal and external factors, activity results, future life path, cognitive and personal resources, self-motivation, social impact, pedagogical system, motivation development, scientific research, experimental research, interest, desire to acquire knowledge, rewards and points, success, views on growth, mistakes and failures, achievements, achievements, achievements, achievements, achievements, achievements, achievements, achievements, achievements*

So‘nggi vaqtlarda hayotning ta’lim va mehnat sohasidagi faoliyatni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu masalaning dolzarbligi, ta’lim tizimini takomillashtirish, bilimlarni mustaqil egallashga qodir bo‘lgan insonlarni hayotga tayyorlash va ijodiy faoliyatda faol pozitsiya olish bilan

bog‘liq. Ayniqsa, kechki o‘smirlik davrida yosh shaxsning kattalar hayotiga qadam qo‘yishi va mustaqil hayotga tayyorlanishi, ta’lim faoliyatining uning kelajagi uchun ahamiyatini oshiradi. O‘smirni o‘rta maktabni tamomlashga undaydigan motivatsiya bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u muvaffaqiyatga erishishga yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘smirning ta’lim faoliyatiga bo‘lgan umumiy munosabatini shakllantiradi.

Motivatsiyaning rivojlanishida turli omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘smirlik davrida o‘smirning faoliyat natijalari kattalar va tengdoshlar tomonidan qanday qabul qilinishi, uning tashabbuslarini qanday baholashlari, shuningdek, o‘z faoliyati natijalarini va muvaffaqiyatini qanday qabul qilishi alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, o‘smir kelajakdagi hayot yo‘lini tanlashda, ta’lim muassasasini yoki kasbni tanlashda duch keladigan qiyinchiliklar bilan ham yuzlashadi. Bu jarayon imtihon natijalari va belgilangan talablar bilan murakkablashadi, shuning uchun o‘smirning kognitiv va shaxsiy resurslarini safarbar qilish talab etiladi.

O‘smirning ta’limga bo‘lgan munosabati va uning kelajagi uchun muvaffaqiyatga erishishdagi motivatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek olimlari, masalan, Sh.M.Shodiev, M.B. Mahmudov [4: 30-40] va A.M. Xusanov [9: 45-50], o‘z tadqiqotlarida yoshlarning ta’lim faoliyatidagi motivatsiyani tahlil qilib, o‘smirlar orasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ichki va tashqi omillarni o‘rganishgan. Ularning fikriga ko‘ra, motivatsiyaning rivojlanishi faqat o‘smirning o‘ziga bog‘liq bo‘lmasdan, balki oilaning, jamiyatning va ta’lim tizimining umumiy ta’siri orqali shakllanadi. Sh.M.Shodiev motivatsiyani o‘smirning shaxsiy qobiliyatlari va tashabbuskorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan eng muhim omil sifatida baholagan. [6; 10-20]

O‘smirlik davrida motivatsiyaning shakllanishini chet el olimlarining tadqiqotlarida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory[1] (SDT) nazariyasiga ko‘ra, o‘smirning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi uning ichki va tashqi rag‘batlarining uyg‘unligi orqali rivojlanadi. Vallerand va Guayning tadqiqotlari esa motivatsiyaning turli ko‘rinishlarini (ichki va tashqi) ajratib, o‘smirning ta’limdagi muvaffaqiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [7: 60-70]. U, asosan, o‘smirlar orasida o‘z-o‘zini rag‘batlantirish va ichki motivatsiyaning rivojlanishiga katta e’tibor qaratganlar. Shuningdek, Bandura tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy Kognitiv Nazariya (Social Cognitive Theory[2]) o‘smirlarning muvaffaqiyatga erishishida ijtimoiy ta’sirlarning rolini ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘smirlarning ta’limdagi muvaffaqiyatiga ota-onalar va tengdoshlar ta’siri bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vygotskiyning sotsial rivojlanish nazariyasi esa, o‘smirlarning rivojlanishi va ta’limdagi yutuqlari uchun o‘zaro aloqalar va madaniy kontekstning muhimligini ko‘rsatgan [8: 85-90].

O‘smirning kelajagini shakllantiruvchi va ta’limdagi motivatsiyasiga ta’sir etuvchi faktorlar nafaqat ichki, balki tashqi omillarga ham bog‘liq. Ota-onalar va pedagoglarning muvofiqligi, tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqalar, o‘quv muassasalaridagi pedagogik tizimlar o‘smirning motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirning o‘z imkoniyatlarini anglash, maqsadlarini aniq belgilash va o‘z muvaffaqiyatlarini kuzatish orqali motivatsiyasining yuqori bo‘lishi ko‘p hollarda unga kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatni amalga oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, o‘smirning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi va uning kelajagi uchun muvaffaqiyatga erishishdagi roli nafaqat uning shaxsiy xususiyatlariga, balki ota-onalar, tengdoshlar, ta’lim tizimi va jamiyatning umumiy ta’siriga bog‘liqdir. Bu masalalar bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar motivatsiya rivojlanishining murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

[1] **Self-Determination Theory (SDT)** — bu motivatsiya nazariyasi bo‘lib, u insonlarning o‘z-o‘zini boshqarish (avtonomiya), o‘z qobiliyatlarini amalga oshirish (kompetensiya) va ijtimoiy aloqalar (bog‘lanish) kabi uch asosiy ehtiyojlarini qondirishga asoslanadi. Bu nazariya, ayniqsa, o‘smirlar va yoshlarning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini tushuntirishda qo‘llaniladi. SDT, 1985-yilda psixologlar **Edward L. Deci** va **Richard M. Ryan** tomonidan ishlab chiqilgan.

[2] **Social Cognitive Theory (SCT)** — bu ijtimoiy kognitiv nazariya, 1960-yillarda **Albert Bandura** tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya insonlarning o‘rganish jarayonida ijtimoiy ta’sirlar, tajriba va kognitiv jarayonlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. SCT odamlarning o‘rganish va faoliyatni qanday rivojlantirishini tushuntirishga yordam beradi, ayniqsa ijtimoiy o‘rganish va ijtimoiy ta’sirlarni ko‘rib chiqadi.

Eksperimental tadqiqotlar ham o‘smirlik davridagi motivatsiyaning shakllanishi va ta’limdagi muvaffaqiyatga erishish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, S.L.Rubinsteinning o‘smirlarning ta’lim faoliyati va ularning motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish bo‘yicha o‘tkazgan eksperimentlari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida ichki motivatsiya (o‘qishdagi qiziqish, bilim olish istagi) va tashqi motivatsiya (ballar, mukofotlar)ning uyg‘unligi muvaffaqiyatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [5; 100-110].

M.V. Zaytsev va S.B. Rapoport o‘tkazgan eksperimentlarda esa o‘smirlarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasining ularning o‘qishdagi yutuqlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilishgan [10; 115-120]. Tadqiqotlar natijasida, o‘smirlarning ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lganlar, o‘zlari uchun aniq maqsadlar belgilab, ularga erishish yo‘lida davom etganlar, tashqi motivatsiya esa muvaffaqiyatni qisqa muddatda rag‘batlantirishga xizmat qilgan, ammo uzoq muddatda ichki motivatsiyaning rivojlanishi ko‘proq muvaffaqiyatga olib kelganligi aniqlangan.

Chet eldagi eksperimental tadqiqotlar ham bu borada katta ahamiyatga ega. Masalan, Caroll Dweck tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar o‘smirlar orasida muvaffaqiyatga erishishdagi fixed va growth (o‘zgaruvchan) qarashlarning ta’sirini o‘rganadi [3: 125-130]. Dweckning o‘rgatish metodologiyasi, o‘smirlarning xatolarni muvaffaqiyatsizlik sifatida qabul qilish o‘rniga, ular ustida ishlash va rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rishga o‘rgatish, motivatsiyani oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan.

Shunday qilib, eksperimental tadqiqotlar o‘smirlarning ta’limdagi muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi turli omillarni aniqlashga yordam beradi va motivatsiyaning rivojlanishida ichki va tashqi omillarning muvofiqligi, o‘qish jarayonidagi qiziqish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarining o‘smirlar uchun qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu tadqiqotda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasining shakllanishi va uning kelajakdagi muvaffaqiyatga erishishdagi roli tahlil qilindi. O‘smirning motivatsiyasining rivojlanishi faqat uning shaxsiy xususiyatlariga asoslanib qolmay, balki oilaning, jamiyatning va ta’lim tizimining ta’siri bilan ham shakllanadi. Motivatsiyaning ichki va tashqi omillarining uyg‘unligi, shuningdek, o‘smirning maqsadlariga erishish uchun mustaqil ishlash va o‘qishdagi qiziqishni rivojlantirish muvaffaqiyatga erishishda katta ahamiyatga ega. Chet el va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o‘smirlarning motivatsiyasining shakllanishi va uning ta’limdagi muvaffaqiyatga qanday ta’sir qilishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘smirning ta’limdagi muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar nafaqat ichki, balki tashqi omillarga ham bog‘liqdir. Bu esa, o‘smirning motivatsiyasini shakllantirishda oilaviy va jamiyatning umumiy ta’sirini hisobga olishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni beramiz;

- o‘smirlarning motivatsiyasini rivojlantirishda ota-onalarning ta’siri muhim ahamiyatga ega. Oila a’zolari o‘z farzandlarini ta’limga rag‘batlantirish, aniq maqsadlar qo‘yish va ularga doimiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash orqali ularning motivatsiyasini mustahkamlashlari mumkin.
- motivatsiyaning ichki va tashqi jihatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash zarur. O‘smirning ta’limdagi muvaffaqiyati, asosan, uning ichki motivatsiyasining rivojlanishiga, ya’ni bilim olishga bo‘lgan ichki qiziqish va rag‘batlantirishga bog‘liqdir. Shu bilan birga, tashqi rag‘batlar, masalan, mukofotlar va imtihon natijalari, qisqa muddatli muvaffaqiyatni rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.
- pedagogik tizimlarni yanada takomillashtirish va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, o‘smirlarni ta’limga qiziqtirish va ularning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.
- ijtimoiy ta’sir va tengdoshlarning roli ham muhim hisoblanadi. O‘smirlarning o‘zaro aloqalari va ijtimoiy muloqotlari ularning ta’limga nisbatan motivatsion munosabatini shakllantirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura, A. "Social Cognitive Theory: Ijtimoiy ta'sir va motivatsiya". Prentice-Hall. 1986-y. 220 b.
2. Deci, E.L. & Ryan, R.M. "Self-Determination Theory: Motivatsiyaning ichki va tashqi komponentlari". Guilford Press. 2000-y. 325 b.
3. Dweck, C. "Mindset: The New Psychology of Success". Random House. 2006-y. 320 b.
4. Mahmudov, M.B. "Yoshlarning ta'lim faoliyatidagi motivatsiya va rivojlanishi". O'z.MU. 2018-y. 150 b.
5. Rubinstein, S.L. "O'smirlarning ta'lim faoliyati va motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar". Yuridik adabiyotlar nashriyoti. 1992-y. 250 b.
6. Shodiev, Sh.M. "O'smirlar motivatsiyasi va ta'limdagi faoliyat". O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2015-y. 120 b.
7. Vallerand, R.J. & Guay, F. "Motivatsiyaning tahlili: Ichki va tashqi ko'rinishlar". Academic Press. 2008-y. 400 b
8. Vygotskiy, L.S. "Sotsial rivojlanish nazariyasi". Mektep. 1978-y. 180 b.
9. Xusanov, A.M. "O'smirlar va ta'lim: Motivatsiya va yutuqlar". Fan va Texnologiya. 2017-y. 130 b.
10. Zaytsev, M.V. & Rapoport, S.B. "O'smirlarning motivatsiyasi va o'qishdagi muvaffaqiyatlar". Pedagogika nashriyoti. 1995-y. 280 b.

Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA SPORTCHI KARYERASINI REJALASHTIRISH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotasiya. *Maqolada yakkakurash sport turlaridagi sportchining umumiy (ko‘pchilik sportchilarga xos sport karyerasining umumiy qonuniyatlari), maxsus (boks, erkin kurash, yunon-rum kurashi, dzyudo, milliy kurash kabi jangovor sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari) va yagona (taniqlik sportchining martaba xususiyatlari) darajadagi tizimli psixologik tavsifi uning sotsiumdagi maqomini, jinsiy va madaniyatlararo farqlariga ko‘ra sport karyerasini rejalashtirishning mexanizmi sifatida asoslangan.*

Kalit so‘zlar*: sport, karyera, taktika, maskulin, paralimpiya, integratsiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЛАНИРОВАНИЯ КАРЬЕРЫ СПОРТСМЕНА В ЕДИНОБОРСТВАХ

Аннотация. *В статье обоснована системная психологическая характеристика спортсмена в единоборствах на общем (общие закономерности спортивной карьеры, характерные для большинства спортсменов), специальном (специфические особенности боевых видов спорта, таких как бокс, вольная борьба, греко-римская борьба, дзюдо, национальная борьба) и индивидуальном (карьерные особенности известного спортсмена) уровнях как механизм планирования спортивной карьеры с учетом его статуса в социуме, гендерных и межкультурных различий.*

Ключевые слова*: спорт, карьера, тактика, маскулин, паралимпиада, интеграция.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATHLETE CAREER PLANNING IN INDIVIDUAL COMBAT SPORTS

Abstract. *This article presents a systematic psychological characterization of athletes in martial arts at three levels: general (common patterns of sports careers typical for most athletes), specific (distinctive features of combat sports such as boxing, freestyle wrestling, Greco-Roman wrestling, judo, and national wrestling), and individual (career characteristics of renowned athletes). This characterization serves as a mechanism for planning sports careers, taking into account the athlete's social status, gender, and intercultural differences.*

Keywords: *sports, career, tactics, masculine, paralympic, integration*

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda yakkakurash sport turlarining psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida sportchi karyerasini rejalashtirish omillarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada sport arenalarida bugungi kunda urf tusiga aylanayotgan milliy kurashning boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, aholining barcha qatlamlarida sport turlari bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sportni yanada jadallik bilan rivojlantirish, professional sportchilarni karyerasini uzoq va davomli ravishda amalga oshirish uchun davlat tomonidan katta e’tibor berilib, zaruriy huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish» (67-maqsadning, 2-3-bandlari) [1] va «O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish» vazifalarining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063

belgilanganligi sportchilar karyerasini rivojlantirish masalalarini ilmiy o‘rganishga zarur va yyetarli asos bo‘la oladi.

2023 yil 1 maydagi O‘RQ–837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni, 2020 yil 4 noyabrdagi PQ–4881-son «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 18 fevraldagi PQ–136-son «Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» Qarorlar, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 avgustdagi 465-son «O‘zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolaning qiymatini muayyan darajada oshishiga xizmat qiladi.

Mutaxassisning shakllanishi sodir bo‘lgan kasbiy martaba ijtimoiy psixologiyaning asosiy muammosidir. Shuning uchun biz ushbu ilmiy fanning tadqiqotiga murojaat qilishni mumkin deb hisoblaymiz.

Karyera so‘zi lotin tilidan (carriera - yugurish, hayot yo‘li; carrus - arava, vagon) olingan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy, ilmiy va boshqa faoliyat sohasida muvaffaqiyatli rag‘batlantirish; martaba zinapoyasiga ko‘tarilish tushunchalarini ifodalaydi.. Karyera – bu muvaffaqiyatga erishish, martaba, lavozimga ko‘tarilishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu shaxsning kasbiy o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat faoliyatidagi muayyan xatti-harakati va pozitsiyasining natijasidir. Har bir inson o‘zicha martaba quradi va bu uning xohish-istaklari, maqsadlari va munosabatlariga bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda ayol karerasi va omillari, xususan, professional faoliyatda yuqori lavozim va mavqega erishgan ayollar – izchillik bilan ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar ob’ektiga aylanib bormoqda (A.E. Chirikova, O.N. Krichevskaya, 1996; B.Dalbum-Xall, 1996; Ye.K. Zavyalova, 1998; M.V. Safanova, 1999; N.D. Strekalova, 1999; G.V. Tureskaya, V.A. Хащenko, 1999; S.E. Jalbert, 1999; J. de Trude, V.Stanfield, 2000 va boshqalar).

Shunga qaramasdan shaxsning maskulin tashkilotchiligi jamiyatda ijtimoiy ma’qullangan xulq-atvor sifatida qolmoqda. Gender psixologiyasi sohasiga doir integrativ yondashuv hamda maskulinlik va feminenlik konsepsiyasi ishlanmalari S.Bem, 1974; I.S. Kon, 1988; E.Igli va B.Jonson, 1990; G.Hofstede, 1991; I.S. Klesin, 1998; T.V. Bendas, 2000; A.Anastazi, 2001; Sh.Bern, 2001; Ye.P. Ilin, 2002 va boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Maskulin yetakchining «implitsit modeli»ni ko‘plab holatlarda maskulin va feminen stereotiplarda qat’iy turishi shaxsning sotsializatsiya va tarbiya jarayonini shakllanishida saqlanib qolgan.

Bizning jadallik bilan odimlayotgan davrimizda muvaffaqiyatga erishishning asosiy tamoyili (sharti) bu obro‘talablik va yaxshi ma’noda o‘z ambitsiyalariga ega bo‘lishdir. Aynan shu sifatlarni ta’lim muammolari bilan shug‘ullanish orqali namoyon qilish mumkinmi? Ko‘pchilik pedagogika va karerani bir biriga zid tushunchalar deb biladi. Bu juda katta yanglishmovchilikdir. Zamonaviy ta’lim muammolari shu qadar murakkab va qiziqarliki, u e’tirof etish,

yuqori martaba va xatto moddiy faravonlikka erishish, hamda, e’tibor bering, shu bilan birga juda qiziqarli ish bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratadi.

Muhim farqlarga qaramay, barcha nazariyalar uchun umumiy bo‘lgan narsa shundaki, kasbiy mahoratga erishish – bu shaxsning kasbiy rivojlanishning bir qator bosqichlaridan o‘tishini o‘z ichiga olgan jarayon. Yuqorida qayd etilgan mualliflarning tushunchalarini tahlil qilish, shuningdek, ularni umumlashtirish shaxsning kasbiy rivojlanishining quyidagi bosqichlarini taqdim etish imkonini berdi 7.[10]

Xodimlar bo‘yicha menejer yangi xizmatchi bilan uchrashar ekan, albatta uni ayni paytda o‘taydigan karyeraning bosqichlari bilan tanishtirishi lozim. Bu o‘z navbatida kasbiy faoliyat maqsadi, o‘sish darajasi va asosiysi, ixtisoslikning individual motivatsiyasini aniqlashtirishga yordam beradi.

J.Golland konsepsiyasi bo‘yicha hamisha yagona tip ustunlik qilsa-da, aslida, inson bir vaq-tning o‘zida ikki va undan ortiq tiplar strategiyasidan foydalanishi yoki ularga bo‘ysinishi mumkin. Ustuvor (peshqadam) yo‘nalish (faoliyat doirasidagi sektorlar) va ikkinchi (uchinchi) darajali

yo‘nalish qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lsa, shaxs tipi ham shunchalik yaqin bo‘ladi. Agar ustuvor va boshqa turdagi yo‘nalganlik bir-biridan qanchalik uzoq bo‘lsa, karyerani tanlash shunchalik qiyin kechadi10.[37]


Sport faoliyatining xususiyatlarini psixologik tahlil qilish asosida psixologiya sportchilarni tayyorlashning allaqachon belgilangan jihatlariga - jismoniy, texnik va taktikaga «kiritilgan». Ushbu bosqichda eng katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan texnik va taktik tayyorgarlikning psixologik asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa vosita ko‘nikmalarini shakllantirish muammolari, ideomotor tayyorgarlikdan foydalanish, taktik fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, hissiy holatlarning ta'siri, sportchi harakatlarining samaradorligi keltirib o‘tilgan (A.Ts.Puni, P.A.Rudik, R.S.Abelskaya, D.Ya.Bogdanova, A.G.Rafalovich, E.N.Surkov, O.A.Chernikova, L.F.Egupov va boshqalar). Sport faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uni tabiatda «ixtiyoriy» deb belgilashga imkon berdi, ya'ni. sportchining qiyin, ko‘pincha ekstremal holatlarda o‘z harakatlarini ruhiy o‘zini o‘zi boshqarishi bilan bog'liq.

Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi (bundan keyin matnda – ChOPSTTM) yakkakurash sport turlarida tahsil olayotgan – 60 nafar;

Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi (bundan keyin matnda – NOPSTTM) yakkakurash sport turlarida tahsil olayotgan – 66 nafar;

Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi (bundan keyin matnda – ROPSTTM) yakkakurash sport turlarida tahsil olayotgan – 54 nafar o‘quvchilar ishtirok etishdi.

Jumladan, statistik natijalarning foizli tahlili ko‘ra, sinaluvchilarning 85,17 foizi erkak va 15,83 foizi ayol kishi sanaladi. Yosh tahliliga ko‘ra, 11 13 yoshgacha bo‘lganlar –33,9 foizni; 13–15 yoshlilar – 29,4 foizni; 16 18 yoshlilar – 32,2 foizni; 19–80 yoshlilar – 4,40 foizni tashkil qildi.



1-diagramma. Respondentlarning ijtimoiy-demografik tavsifnomasi.

Izoh: ChOPSTTM-Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, NOPSTTM-Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi,

NOPSTTM-Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi
Tadqiqotda, qatnashgan 180 nafar respondentlar Toshkent, Namangan,

Chirchiq shaharlaridagi Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanayotgan terma jamoalarining amaldagi, zaxira va nomzod vakillari jinsi, yoshi, demografik va ijtimoiy xususiyatlari bo‘yicha o‘tkazildi so‘rovnomaning statistik natijalari foizli tahlil qilingan. Unga ko’ra, respondentlarning 85,17 foizi erkak va 15,83 foizi ayol kishi sanaladi. Yosh tahliliga ko‘ra, 11-13 yoshgacha bo‘lganlar –33,9 foizni; 13–15 yoshlilar – 29,4 foizni; 16–18 yoshlilar – 32,2 foizni; 19–80 yoshlilar – 4,40 foizni tashkil qildi. Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 33,3 foiz; Namangan Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 36,7 foiz; Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidan – 30 foizdan iborat bo‘lgan respondentlar ishtirok etishgan.

Navbatdagi paragrafda, sport karyerasining psixologik xususiyatlarini yaxshiroq tushunish uchun uni psixologik hodisalarni o‘rganishda analitik yondashuv deb ataladigan bir qator bosqichlar shaklida taqdim etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra har bir sportchi o‘zining shaxsiy hayot yo‘lini belgilaydigan sport karyerasining o‘ziga xos bosqichlarini ochib berishi mumkin.

1-jadval.

Sport karyerasini davriylashtirishning mantiqiy modeli

Davr/turli xildagi karyeraga muvofiq (B.G.Ananev bo‘yicha)	**Ko‘p yillik sport mashg‘ulotlari davri (V.P. Filin va boshqalar)**	**Sport darajasi**	**Sportdagi yosh toifasi**	**Sport razryadi va sport unvoni natijalari**
Tayyorgarlik	Dastlabki sport mashg‘ulotlari	Sport-sog‘lom-lashtirish va ommaviy sport	Bolalar (kichik maktab yoshi)	Butun davrda toifasiz
	Sport ixtisoslashuvining boshlanishi			
Boshlang‘ich	Tanlangan sport turida chuqur mashq qilish	Yuqori yutuqlar sporti	Bolalar va o‘smirlar	BT ning 1-yilida toifasiz
				BT ning 1 yildan ko‘p davrida III o‘smirlar sport razryadi
Kulminatsiya	Sportni takomillashtirish: birinchi katta muvaffaqiyatlar zonasi; optimal imkoniyatlar zonasi	Sportning eng yuqori yutuqlari havaskordir. Professional sport	Bolalar va o‘smirlar. Yoshlar	O‘M ning 1-yilida II o‘smirlar sport razryadi
				O‘M ning 2-yilida II o‘smirlar sport razryadi
				O‘M ning 3-yilida I o‘smirlar sport razryadi
				O‘M ning 3 yildan ko‘p davrida II va III sport razryadlari
				SKE ning 1-yilida I va II sport razryadlar
				SKE ning 2-yilida I sport razryadidan sport ustaligiga nomzod (SUN) sport unvoni
				SKE ning 2 yildan ko‘p davrida SUN

Yakunlash	Sportni takomil-lashtirish: yuqori sport ko‘rsatkichla-rini saqlash zonasi	Sportning eng yuqori yutuqlari havas-kordir. Professional sport	Yoshlar	Butun davrda sport ustasi (SU), xalqaro toifadagi sport ustasi (XTSU) sport unvoni

Bugungi kunda har qanday sportchi o‘tishi kerak bo‘lgan sport karyerasining umumiy bosqichlari haqida ozmi-ko‘pmi barqaror tushunchalar mavjud. 1-jadvalda sport karyerasining to‘rtta eng mashhur davriylashuvi taqdim etilgan bo‘lib, ularni bitta umumiy analitik modelga birlashtirishga harakat qilganmiz.

So‘nggi paragrafda esa sport karyerasining mantiqiy modeliga asoslanib shuni ta’kidlashimiz mumkinki (1-jadvalga qarang), sport karyerasining o‘ziga xos xususiyatlari, ammo professional karyera bilan taqqoslaganda:

«tayyorgarlik» bosqichining erta boshlanishi (BTGda birinchi o‘qitish yilida dars boshlanishining o‘rtacha yoshi 10-11 yosh oralig‘ida);

sport karyerasining nisbatan erta boshlanishi (BTG dagi bir yildan ko‘p o‘qitish yilida mashg‘ulotlarda ishtirok etishning o‘rtacha yoshi 12-13 yosh);

sport karyerasining nisbatan erta avj nuqtasi (yakkakurash sport turlarida, o‘rtacha 15-20 yoshda);

sport karyerasi vaqt jarayoniga nisbatan professional karyeraga qaraganda ancha katta.

Agar biz sport karyerasini sintetik yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, unda sport karyerasini professionaldan ajratib turadigan bir qator xususiyatlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda sport karyerasining sintetik modeli to‘rtta ob’ektiv va yaxlit karyerani tavsiflash uchun ikkita subyektiv xususiyatni (qoniqish va muvaffaqiyat) o‘z ichiga oladi. Sintetik tavsifdagi integratsiyalashgan xususiyat "qoniqish" bo‘lib, u turli sportchilar uchun turli xil mezonlar bilan belgilanadi, bu "qoniqarli" sportchilarning olti turini va to‘qqiz turdagi "qoniqarsiz" sportchilarni ajratishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Gapparov Z.G. Sportchini psixologik tayyorlash. (erkin kurash misolida). Tashkent, OOO "Mexridaryo"- 2010 й.
3. Gapparov.Z.G. tayyorlash.T.:2010 y. Yakkakurashchilarni psixologik
4. Абрамова Г.С. Возрастная психология. - М.: Изд-во «Академия», 1997.- 704 с.
5. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. - М.: Наука, 1977. -380 с.

Xoliqov Ixtiyor Roziqovich
Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti dotsenti
orcid. 0000-0002-5772-9367

CHAQIRIQQA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FAN O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fan o'qituvchilarida innovatsion pedagogik – psixologik kompetensiyalarni takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kirib kelishi, zamonaviy o'qituvchidan o'z ustidan tinimsiz izlanish olib borishni talab etadi. Zero, yyetarli bilim ko'nikma va malakalarga ega pedagog oliy maqsad bo'lmish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish vazifasini o'z zimmasiga olganligi uni zamon bilan hamnafas rivojlanib borishga undaydi. Maqolada keltirilgan yondashuvlar, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, pedagogika, kompetentlik, kompetensiya, zamonaviy ta'lim, ta'lim texnologiyalari, maqsad, bilim ko'nikma malaka, zamonaviy kadrlar.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ ДОПРИЗЫВНОЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *В данной статье рассказывается о современных подходах к совершенствованию инновационных педагогико-психологических компетенций будущих педагогов. На сегодняшний день внедрение новых образовательных технологий в современный образовательный процесс требует от современного учителя постоянного поиска и совершенствование своих знаний. Ведь тот факт, что педагог, обладающий достаточными знаниями, навыками и квалификацией, может достичь целью воспитания и обучения молодого поколения, побуждает его развиваться в ногу со временем. Представленные в статье подходы служат развитию педагогических процессов.*

Ключевые слова: *Инновации, педагогика, компетенция, компетентность, современное образование, образовательные технологии, цель, знания, квалификация навыков, современные кадры.*

MODERN APPROACHES TO IMPROVING INNOVATIVE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCIES OF PRE-CONTRACTION PRIMARY TEACHERS

Annotation. *This article describes modern approaches to improving the innovative pedagogical and psychological competencies of future teachers. Today, the introduction of new educational technologies into the modern educational process requires the modern teacher to constantly search and improve their knowledge After all, the fact that a teacher with sufficient knowledge, skills and qualifications can achieve the goal of educating and training the younger generation encourages him to develop with the times. The approaches presented in the article serve the development of pedagogical processes.*

Keywords: *Innovation, pedagogy, competency, competency, modern education, educational technology, goal, knowledge, skills qualification, modern personnel.*

Kirish: So'ngi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Oliy ta'lim tizimida, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv

jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlarni tayyorlab yetishtirib berish, kadrlar kompetentligiga, zamonaviy bilimlarni egallaganlik darajalariga va uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'limni modernizatsiyalash davrida yuzaga kelgan pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha ko'pgina sonli nashr ishlarining mavjudligiga qaramay, «innovatsion kompetentlik» tushunchasi tuzilish va mazmuni jihatidan, strategik va tizimli tavsiflarda yyetarli darajada ishlab chiqilmagan.

«Innovatsion kompetentlik» toifasining o'zi esa batafsil tahlilni talab etadi. Bugungi kunda «innovatsion kompetentlik» tushunchasi nafaqat tadqiqotchilarning turli talqinlariga ega bo'lmoqda, balki qator holatlarda mazmuni bo'yicha o'xshash yoki yaqin tushunchalar bilan almashtirilmoqda ham. Pedagogik lug'atlar va ensiklopediyalar ham «innovatsion kompetentlik» atamasiga ega emasliklarini inobatga olish lozim.

«Innovatsion kompetentlik» tushunchasi biz tomonimizdan "pedagogning kasbiy kompetentligi" umumiy ko'rinishdagi tushunchasi va «innovatsion faoliyat» tushunchasi orqali qaraladi.

V.A.Slastenin tahriri ostidagi pedagogikaning birinchi darsligida quyidagi ta'rif berilgan: "Pedagogning kasbiy kompetentligi tushunchasi, uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning mahoratini tavsiflaydi".

Tadqiqotchilar B.C.Lazarev va B.P.Martirosyanlarning fikrlariga ko'ra «innovatsion faoliyat» tushunchasi istalgan va mavjudning o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun xizmat qiladi, bu esa muayyan yangiliklarni kiritishni talab etadi (innovatsion o'zgarishlarni).

Ta'lim muassasalarining pedagogik va boshqaruv tizimlarida maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar amalga oshiriladigan, uning samaradorligini oshirishga olib keladigan faoliyat innovatsion deb ataladi.

Tadqiqotchilar, innovatsion faoliyat, agar u ta'limiy faoliyatga nisbatan muayyan funksiyalarni bajarsa, o'zining vazifasiga javob berishini ta'kidlaydilar:

- pedagogik tizimdagi o'zgarishlarga bo'lgan (muammolarni aniqlash) dolzarb ehtiyojlarni aniqlash (ta'limiy dasturlar, texnologiyalar, kadrlar, moddiy-texnik baza va boshqalar);
- ta'limiy faoliyatning qandaydir sohalaridagi sifatni oshirishi mumkin bo'lgan mavjud ishlanmalarni aniqlash (pedagogik tizimni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash);
- yangiliklarni mustaqil ishlab chiqish;
- istalgan kelajakni loyihalash va u sari borish; xususiy yangiliklarni loyihalash;
- yangiliklarni amaliy joriy etish.

Pedagogik kasbiy tayyorgarligi mazmunida bo'lajak pedagogni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ta'limni modernizatsiyalash sharoitlarida nazariy va amaliy tayyorgarlik hamda ta'lim, tarbiya sohasidagi yangiliklarni inobatga olib kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatining umumiyligi sifatida tushunish lozim. Pedagogning innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonining natijasi, uning innovatsion kompetentligi hisoblanadi.

«Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalar talqiniga turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan biz quyidagiga asoslanamiz: kompetensiya – bu mutaxassisning shaxs sifatlaridan qat'iy nazar uning professionalligining umumiy tavsifi. U rasmiy, uning bevosita tashuvchisidan alohida mavjud bo'ladi va egallanishiga muhtoj bo'ladi. Aksincha, kompetentlik – bu shaxsiy egallangan kompetensiya, "insonning kasbdagi" ifodalanishi. Mazkur holatda professionallik, mahorat bilan bevosita aloqa kuzatiladi. Innovatsion kompetentlik ostida biz

pedagogning shaxsiy va kasbiy mahoratining uning innovatsion faoliyatida namoyon bo‘lishining muayyan darajasini tushunamiz.

Boshqacha aytganda, innovatsion kompetentlik, pedagogning samarali yangiliklardan foydalanib kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining natijasidir.

Pedagog innovatsion kompetentligining mazmunini uning kasbiy kompetensiyalari kontekstida yangilik bilan ishlash uchun kompetensiyalar ko‘rinishidagi (tanishish, egallash, amalga oshirish) kasbiy pedagogik faoliyatning ta’limiy, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqotchilik, tashkiliy- metodik turlari kontekstida tasavvur qilish (ifodalash) mumkin. Innovatsion kompetentlik pedagog kasbiy tayyorgarligining quyidagi asosiy tashkil etuvchilariga taalluqli:

- kasbiy tayyorgarlikning qadriyatli- mazmunli yo‘nalishlari;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonining tuzilishi;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonining mazmuni;
- kasbiy tayyorgarlikning pedagogik vositalari;
- kasbiy tayyorgarlikning pedagogik sharoitlari.

«Ijtimoiy-kasbiy kompetentlik», «mehnat kompetentligi», «pedagogik kompetentlik», «ta’limiy kompetentlik», «madaniy kompetentlik» va «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» kabi tushunchalarga murojaat etish hamda «innovatsion kompetentlik» tushunchasining ahamiyatli tavsiflari bilan taqqoslash innovatsion kompetentlik mazmuni va tuzilishini ko‘rib chiqishga to‘rtta yondashuvni aniqlashga imkon berdi.

Birinchi yondashuv (funksional) ta’limiy jarayonni qurish va tashkil etish amaliyoti bilan bog‘liq. S.N.Novikov, L.S.Podimova, V.A.Slastenin, V.A.Xutorskiy ishlarida pedagogning innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligining tizimi loyihalash-me’yoriy munosabatda, ya’ni uni qurishga va OTMda ta’lim jarayonini tashkil etishga me’yoriy talablar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Funksional yondashuv tarafdorlari innovatsion kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikni tashkil etuvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlar orqali amalga oshiriladigan qadriyatli-mazmunli yo‘nalishlarni va samarali kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish mexanizmi sifatida talqin etadilar. Ta’lim olish, talabaning asosiy mehnati hisoblanishi, «innovatsion kompetentlikni shakllantirish» esa ta’limni davom ettirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish ko‘rinishidagi yagona ta’limiy jarayonning tashkiliy qismi sifatida qaralishi sababli bo‘lajak pedagog innovatsion kompetentligini shakllantirishni ta’lim, tarbiya, rivojlanish, kasbiy takomillashish; mustaqil ta’lim; akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish va ilmiy maktablar, ta’limdagi innovatsiyalar bilan tanishish; grantlarda ishtirok etish; maxsus o‘quv dasturini bajarish (maxsus magistirlik dasturlari); tanishuv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o‘tash; shaxsiy ta’limiy faoliyatini boshqarish; ta’limning shaxsiy ta’limiy yo‘nalishidan borish; tajriba almashish; bo‘lajak pedagogning o‘z-o‘zini aktuallashtirishdagi faolligi va yaxshi ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘lish va boshqalar kabi faoliyat turlari bilan bog‘laydilar.

S.N.Novikovning fikriga ko‘ra, aynan noyob (innovatsion xarakterdagi) ta’lim oliy ijtimoiy maqom yo‘lidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Insonga o‘zining qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbni maqsadga muvofiq egallash va mos ravishda yaxshi ta’lim olib, ijtimoiy pog‘onada yuqori ko‘tarilishga imkon beradi. Bunda innovatsion kompetentlik unga erishishning sifatliligini ifodalaydi. Shunga ko‘ra ta’limda innovatsion kompetentlik ahamiyatli darajada talaba shaxsining ijtimoiy mobilligiga bog‘liq bo‘ladi va uni o‘z-o‘zini amalga oshirishiga yordam beradi.

Innovatsion kompetentlik, ta’lim jarayonining tashkiliy qismi hisoblanib, qator vazifalarni amalga oshiradi: talabalarning yangi ijtimoiy va ta’limiy muhitga moslashishlariga, kasbiy hamda umummadaniy qobiliyatlarini ifodalashga, mahoratni va zamonaviy global olamda o‘z-o‘zini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni egallashga ko‘maklashadi.

Samaradorlik, ma’lumki, insonning ijtimoiy ahamiyatli mahsulotlarni tayyorlash (buyumlar, xizmatlar) qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur holatda innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagogning innovatsion faoliyatning asosiy vositalarini, shuningdek faollik, samaradorlik va mahsuldorlik jihatidan egallaganligiga ko‘ra baholanadi. Bunda tahlilning asosiy birliklari pedagog innovatsion faoliyatining vositalari (texnologiyalar, usullar); pedagogning innovatsion faolligi;

pedagog innovatsion faoliyatining samaradorligi hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuv (shaxsiy) vakillari YE.I.Artamonova, L.K.Grebenkina, L.P.Illarionova, L.S.Podimova hisoblanib, ular innovatsion kompetentlikni shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi vositasi sifatida ta’riflaydilar. Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash shaxsiy-strategik jihatdan tahlil etiladi va bunda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga mavjud, dolzarb hamda potensial imkoniyatlari va qobiliyatlariga e’tibor qaratiladi.

Shu tariqa, innovatsion kompetentlik tadqiqotchilar tomonidan talabaning ta’lim yo‘nalishini erkin tanlashi, ta’limning ochiqligiga teng imkoniyatlarda bilimlarni rivojlantirish, malakalar va qobiliyatlarni shakllantirishga urg‘u berib har kimning talab etilgan va sifatli ta’lim olishga huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratuvchi sifatida ifodalanadi.

Pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangilangan tizimini yaratishni pedagogik ta’limni modernizatsiyalash dasturi ta’minlaydi.

Ko‘rib turganimizdek, pedagogik OTM bitiruvchilarining ularning innovatsion faoliyatga tayyorlik talablariga mosliklari ko‘p sonli muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga hududiy va xalqaro darajadagi tez o‘zgaruvchi jamiyat pedagogik OTMlarga pedagogni yanada sifatli tayyorlash zaruratini, jumladan pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirish zaruratini talab etadi.33

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifa sifatida harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 169

2. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров.– М.: НИИ ИОО АПН, 1990. Стр. 92

3. Л.В. Коломийченко. Раздел II. Методологические основы организации инновационной деятельности Организация инновационной деятельности в учреждениях образования. 2010 г. Стр 19-23

4. Готовность педагогов к обеспечению безопасности личности в инновационной образовательной среде. Л. С. Подымова, Н. А. Подымов, Е. А. Алисов. ФГБОУ ВО «Московский педагогический государственный университет», г. Москва, Россия. 2018 г. Стр. 663-680.

5. Слободчиков В.И. Проблемы становления и развития инновационного образования //Инновации в образовании. 2003. №2. С.4-28

6. Холиқов, И. Р. (2023). Бўлажак офицерларда педагогик компетенцияларнинг шаклланиши. Наука и технологии, 1(2).

7. Холиков, И. (2023). Harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 43(43).

8. Xoliqov, I. (2023). Harbiy ta’lim yo ‘nalishi talabalarida harbiy kompetensiya turlari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(8), 5-8.

9. XOLIQOV, I. (2022). The Concept of Military Pedagogical Competence and its Formation in Military Faculty Students. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).

10. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 248-250).

Barotov Xumoyin Sharipovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Psixologiya kafedrasi dotsenti

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA AFFILIATSIYA MOTIVINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida affiliyatsiya motivini rivojlantirish ularning o‘quv faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada affiliyatsiya motivining mohiyati, uni rivojlantirish usullari va psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida affiliyatsiya motivining o‘qituvchilarning kommunikativ malakalari, jamoaviy ishlash qobiliyati va pedagogik faoliyatga integratsiyasi o‘rganilgan. Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda affiliyatsiya motivining ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *affiliyatsiya motivi, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, psixologik asoslar, pedagogik faoliyat, kommunikativ ko‘nikmalar, jamoaviy ishlash.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МОТИВА АФФИЛИАЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *Развитие мотива аффилиации у будущих учителей физической культуры способствует укреплению их учебной деятельности и профессиональных компетенций. В данной статье рассматриваются сущность мотива аффилиации, методы его развития и психологические особенности. В ходе исследования изучено влияние мотива аффилиации на коммуникативные навыки, способность к командной работе и интеграцию в педагогическую деятельность. Статья подчеркивает значение мотива аффилиации в формировании профессиональных качеств будущих учителей.*

Ключевые слова: *мотив аффилиации, учитель физической культуры, психологические основы, педагогическая деятельность, коммуникативные навыки, командная работа.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE AFFILIATION MOTIVE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. *Developing the affiliation motive in future physical education teachers enhances their academic performance and professional competencies. This article examines the essence of the affiliation motive, methods for its development, and its psychological characteristics. The study explores how the affiliation motive influences teachers' communication skills, teamwork abilities, and integration into pedagogical activities. The article highlights the importance of the affiliation motive in shaping the professional qualities of future teachers.*

Keywords: *affiliation motive, physical education teacher, psychological foundations, pedagogical activity, communication skills, teamwork.*

Mamlakatimizda shakllanayotgan kuchli huquqiy davlat va fuqorolik jamiyati o‘z ijtimoiy-iqtisodiy asosiga ega bo‘lishi uchun demokratik jamiyatni barpo etishga yo‘naltirilgan har tomonlama barkamol malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirib berishi lozim. Buning uchun bo‘lajak mutaxassislarda muloqotga intilish, bilishga intilish, o‘zini ta’kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iborat bo‘lgan affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan affiliatsiya motivatsiyasi talabani o‘quv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga o‘tishga undaydi, talabalar guruhida shaxslararo munosabatlarni yaxshilab, guruhiy jipslikni ta’minlaydi.

XX asrning 20 yillaridan, hozirga qadar G‘arbda faqat inson xulqiga va uning motivlariga xos qator motivatsiya nazariyalari paydo bo‘la boshladi (K.Levin [K.Levin,1926]; G.Olport [G. Allport, 1937]). Ushbu nazariyalarda organik ehtiyojlar bilan birgalikda ta’lim va tarbiya asosida paydo

bo‘luvchi ikkilamchi (psixogen) ehtiyojlar va ularning motivlari masalasiga ham e’tibor qaratila boshlandi (G.Myurrey [H. Murrey, 1938]). Ular qatorida ijtimoiy motivlar sifatida muvaffaqiyatga erishish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish ehtiyoji, affiliatsiya, hokimiyatga intilish, agressiya, mustaqillikka intilish kabi motivatsiyalar tizimini sanab o‘tish mumkin.

Psixologiyada motivatsiya muammosiga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ham paydo bo‘la boshladiki, ularda rus hamda xorij psixologlarining o‘rni beqiyos (V.G. Aseyev; V.K. Vilyunas; Ye.P. Ilin;V.I. Kovalev; S.L.Rubinshteyn; A.N. Leontev;M.Sh. Magomed-Eminov;V.S. Merlin; P.V. Simonov;D.N. Uznadze; A.A. Fayzullaev; P.M. Yakobson), shuningdek chet el psixologiyasida (G. Myurrey; A. Adler;Dj. Atkinson; K. Levin; K. Madsen; A. Maslou;Dj. Rotter;X. Xekxauzen; G. Xoll va bosh.).

Motivasion nazariyalarni kelib chiqish va rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘pgina nazariyalarda qadimgi yunon faylasuflaridan Aristotel, Geraklit, Demokrit, Lukresiy, Platon, Sokrat asarlaridagi g‘oyalar o‘rtaga tashlanganligini ko‘rish mumkin. Ular motivatsiyani “muxtojlik” termini bilan atab, “muxtojlik” ni hayot o‘qituvchisi sifatida

Inson motivatsiyasining mohiyati va kelib chiqishi doimo ikkita falsafiy oqim: rasionalizm va irrasionalizm doirasida rivojlangan.

Birinchi rasional va irrasional g‘oyalarni o‘ziga qamrab olgan motivasion, psixologik nazariyalar qatoriga XVII-XVIII aslarda paydo bo‘lgan qarorlarni qabul qilish nazariyasini va hayvonlar xulq-atvorini irrasional ekanligini isbotlashga bag‘ishlangan avtomatizm nazariyasinita’kidlash joiz. Birinchi nazariya iqtisodiyotda, inson xulq-atvorini matematik bilimlar asosida tushuntirishda ishlatilgan bo‘lsa, ikkinchi nazariyaning rivojlanishi,tashqi ta’sirlarga tirik organizmning mexanik, avtomatik, tug‘majavob reflekslari sabab bo‘ladi, degan g‘oyaga asoslangandir. Ushbu - biri inson, biri hayvonot olamiga aloqador motivasion nazariyalar XIX asrning oxiriga qadar rivojlanib keldi va falsafada ikki qarama-qarshimaterializm va idealizm nazariyalarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

XIX asrning 2-chi yarmiga kelib, biologiyada Ch. Darvin evolyusion nazariyasining paydo bo‘lishi sabab, psixologiyada inson instinktlari (Z. Freyd, U. Mak-Dugall, I.P. Pavlov) o‘rganila boshlandi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridaZ. Freyd va U. Mak-Dugalllar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida insonning barcha xulq-atvorini tug‘ma instinktlarga bog‘lab tushuntirish an’anasi boshlandi. Z.Freyd nazariyasiga ko‘ra, instinktlar uch xil: hayot instinkti, o‘lim insinkti va agressivlik instinktlaridan iboratdir.V. Mak-Dugall Ch. Darvinning biologik determinizm ta’limotini soddalashtirib, motivatsiyaning tug‘ma xususiyatini asoslashga, tug‘ma instinkt bilan uni qiyoslashga intildi. Buning uchun muallif dastlab 14 ta, keyinchalik esa 18 ta insonlarga xos instinktlarni ajratib o‘rgandi. Uning qarashlari keyinchalik biroz o‘zgargan bo‘lsada, lekin deterministik g‘oya saqlanib qoldi, instinktning energiyasi, tug‘maligi, impulsivligi g‘oyalari bixevioristik konsepsiya asosida qolaverdi.

Affiliatsiya motivi terminiga keladigan bo‘lsak, affiliatsiya inglizcha “to affiliate” so‘zidan olingan bo‘lib, birlashtirmoq, birlashmoq ma’nosini anglatadi, ya’ni insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilishi tushuniladi.

Ushbu motiv yaqqol namoyon bo‘luvchi ijtimoiy xarakterga egadir, chunki ushbu motiv boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabat doirasidagina amalga oshadi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj umuminsoniy ehtiyoj hisoblanib, u insonni jamoatchilik va hamkorlikka intilish kabi fundamental baza asosidagina quriladi.


X.Xekxauzen affiliatsiyani muloqotga ehtiyoj doirasida o‘rganganbo‘lib, uning ta’kidlashicha, affiliatsiya har kunlik, lekin shuning bilan birgalikda fundamental xarakterga egadir. U o‘zidan psixik hodisa, motiv, mayl, hoxish, boshqa odamlarga intilishni namoyon etadi. Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi insonni emotsional va ishonchli aloqalarga bo‘lgan ichki ehtiyoji yotadi. Odatda u yaqin munosabatlar o‘rnatishga intilish, har ikkala tomonga qoniqish olib kelish maqsadidagi muloqot jarayoni, birgalikdagi harakatlar majmui ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu ehtiyojning maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin va hatto bir-birini rad etuvchi (yaqin munosabatlarga erishish yoki suhbatdoshdan o‘z maqsadi yo‘lidafoydalanish) ko‘rinishda ham kelishi mumkin (X.Xekxauzen).

Birinchisida munosabatlarni ishonchliligi, emotsional aloqalarga ehtiyoj (Yan Mazurkevich, K.Obuxovskiy) alohida ta’kidlab o‘tiladi. Ikkinchisida, insonni ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyoji

(Brem P.Bruunk), aniq bir guruhga aloqadorligi (D.Makklelannd, Ye.V.Trifonov) shuning bilan birgalikda referent guruhga qanday hissiyotlar sezishidan qat'iy nazar boshqa insonlar jamoasini qidirishga intilish (Brem P.Bruunk) nazarda tutiladi.

Bizning ta'rifimizga ko'ra, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o'rnatish(tanish, notanish va kam tanish insonlar) natijasida har ikkala tomonda birday qoniqish hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning ma'lum bir sinfi tushuniladi.

Affiliatsiyaning funksiyalari G.M. Andreyeva, A.A. Bodalyov, B.F. Lomov, A.A. Leontev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilib chiqilgan. Rus olimlari qatorida V.N. Panfyorov affiliatsiya motivatsiyasining quyidagi funksiyalarini taklif etadi:



1.1-rasm. V.N. Panfyorov bo'yicha affiliatsiya motivatsiyasining funksiyalari

a) kommunikativ (individual, guruhiy va jamoaviy o'zaro ta'sirlar darajasida odamlarning o'zaro aloqasi);

b) axborot (sezgi, idrok, xotira va boshqa vositalar asosida amaliy tajriba mazmunini jamlash va namoyon etish);


v) kognitiv funksiyalar (tafakkur, tasavvur, fantaziya vositasi orqali idrok etilgan narsalarni ma'nosini anglash);

g) emotiv funksiyalar (inson tomonidan odamlar bilan bo'lgan o'z munosabatlarini kechirilishi, his etilishi);

d) konativ funksiyalari (insonni u yoki bu qadriyatlar tizimiga intilishi);

ye) kreativ funksiyalari (muloqot jarayonidagi odamning yaxshi tomonga o'zgarishi).

Kirish. Boshlang'ich sinflarda huquqiy tarbiya berish bolalarning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning asosiy shartlaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonda yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va odob-axloq normalarini singdirish, Konstitutsiya va qonunchilikning muhim jihatlarini bolalikdan o'rgatish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Boshlang'ich sinflarda huquqiy tarbiya berishning ilmiy-nazariy asoslari yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish, ularda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va qonunlarni hurmat qilishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu jarayon bolalarning huquq va burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantirish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatning umumiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limning huquqiy tarbiya bilan uyg'unligi orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va qonuniylikni qadrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Huquqiy tarbiya bolalarga hayotning turli sohalarida yuzaga keladigan huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularga mos yyechim topish qobiliyatini ham singdiradi. Bu, o'z navbatida, bolalarni huquqbuzarliklardan himoya qilish, ijtimoiy-huquqiy xabardorlikni oshirish va kelajakda mas'uliyatli

fuqaro sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiyani takomillashtirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy tarbiya berish masalasi jamiyat hayotidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy savodxonligiga asoslangan holda chuqur ma’naviy qadriyatlar bilan qurollantirish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlarini ta’minlash muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf davri – farzandlarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqichdir. Shu bois bu davrda huquqiy bilimlar berishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini puxta ilmiy-nazariy asosda tashkil etish zarur.

Avvalo, yosh avlodga huquqiy tarbiya berish jarayonida ular “faol fuqarolik pozitsiyasi” nima ekanligi borasida aniq tushunchaga ega bo‘lishlari talab etiladi. D.V.Olshanskiy va G.N.Filonovalarning tadqiqotlariga tayanadigan bo‘lsak, “fuqarolik” tushunchasi yoshlarning davlatdagi umumiy ishlarga aloqadorligi, jamiyatning muammolarini yechishdagi qat’iy ishonchi orqali ifodalanadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi – bu shaxsning o‘z atrofidagi ijtimoiy-madaniy voqealarga daxldorligi, hayotiy mas’uliyatni his qilishi va bu jarayonda faol ishtirok etishidir.

Bunday pozitsiya birgina bilimlarga asoslanib qolmasdan, balki insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatlarda o‘z kuch va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, huquqiy me’yorlarni bilishi hamda ularga rioya qilishi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda, ijtimoiy faollik jamiyatning moddiy va ma’naviy o‘zgarishlari hamda islohotlariga yo‘naltirilgan onglilikni, yangilanishlarga daxldorlikni ham o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining faol fuqarolik pozitsiyasi unga berilgan tavsif sifatida, butun umr davomida rivojlanib, takomillashib boradi. Yangi sharoitlar, muhit va talablar ta’sirida u izchil o‘zgarishga uchrashi, o‘sib borishi tabiiydir.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda oxirgi ikki-uch yilda ta’lim jarayonida va bo‘lajak kasb egalari malakasini oshirish bo‘yicha yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borilayotgani alohida e’tiborga loyiq. Xususan, ma’naviy-huquqiy mustaqillikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan yangicha huquqiy tadqiqotlar, ilg‘or pedagogik metodlar davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham huquqiy savodxonlikka asoslangan ma’naviy barkamollikni shakllantirishga poydevor bo‘lmoqda.

Huquqiy tarbiya, eng avvalo, o‘quvchilarning huquqiy ongi va tafakkurini kengaytirishdir. Bu jarayonda faqatgina huquqiy me’yorlar haqida ma’lumot berish yyetarli emas. Mazkur ta’lim jarayoni o‘quvchilarning fe’l-atvori, amaliy hayotiy ko‘nikmalari, ijtimoiy mas’uliyati, me’yorlarga rioya qilishi singari xulq-atvor elementlarini ham shakllantirishi lozim. Ma’naviy-huquqiy tarbiya, ta’bir joiz bo‘lsa, “hayot tajribasini o‘rganish”ni nazarda tutadi. Zero, o‘rganilgan bilim amalda qo‘llanilmas ekan, uning hech qanday foydasi bo‘lmaydi. Bu borada Sa’diy aytgan “bilim o‘rganib, undan amalda foydalaniladigan, ammo o‘sha yerga urug‘ sochmaydigan odamga o‘xshaydi” degan iborasi dolzarbdir. Ma’rifatli bo‘lish bilan birga, bilimlardan ijodiy foydalanish ham hayotiy zaruratdir.

Muhokama. Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda hukumat qarorlari natijasida ta’lim mazmunini takomillashtirish, uni hayot bilan uzviy bog‘lash, o‘qitish samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda har tomonlama yetuk, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan avlodni voyaga yetkazish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bunda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchidan yangicha yondashuv, ijodkorlik va kreativlikni talab etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy ongni shakllantirish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki huquqiy ong jamiyatda ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan – falsafa, siyosat, din va axloqdan farq qilib, ijtimoiy munosabatlarni maxsus huquqiy me’yorlar orqali tartibga solishda xizmat qiladi. Mazkur ong keng qamrovli bo‘lib, jamiyatdagi huquqiy normalarni qabul qilish, amaliy hayotda qo‘llash, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya borasidagi murakkab ijtimoiy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy ongni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini to‘g‘ri tanlash, ularni ijtimoiy buyurtma, bozor iqtisodiyoti talablari va davrning demokratik prinsiplariga moslashtirish muhim sanaladi. Bunda ilmiylik tamoyiliga

rioya qilish, nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligiga erishish, insonparvarlik hamda demokratik xususiyatlarni ta'lim jarayonida aks ettirish zarur.

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi bilan bog'liq. Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatini anglash, ularda faol ishtirok etish uchun insonlar, avvalo, o'z huquq va burchlarini, mas'uliyatini chuqur his qilishi lozim. Fuqarolarning dunyoqarashi va tafakkuri jamiyatdagi yangilanishlarga mos ravishda rivojlanib borishi huquqiy madaniyat tushunchasining amaliy ro'yobini ifodalaydi. Shu sababdan o'qituvchining vazifasi – o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ijodiy qo'llash hamda interaktiv metodlar yordamida bolalarning faolligini oshirishdir.

Boshlang'ich sinf dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, eng avvalo, "oddiydan murakkabga" tamoyiliga rioya qilish bilan boshlanadi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashlari, kelajakda yuzaga kelishi muhtemal bo'lgan kasbiy hamda hayotiy muammolarni yechishga tayyor bo'lishlari uchun samarali usullar qo'llash lozim. Bu jarayonda guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, "aqliy hujum" kabi turli usullar nafaqat huquqiy bilimlarni berishga, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligini, fikrlash qobiliyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim maqsadlarining aniq qo'yilishi va ularga erishish yo'lidagi pedagogik vazifalarning oydin ifodalanishi ham muhimdir.

Huquqiy tarbiya va huquqiy ongni shakllantirish, aslida, uni o'quvchining shuurida e'tiqod darajasiga keltirish orqali ro'yobga chiqadi. Demakki, ta'lim va tarbiya o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi omillar bunda alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot, fan va boshqa tarbiyaviy manbalar orqali o'quvchilarda shaxsiy e'tiqod shakllanadi, ular turli metodlar asosida uyushgan holda (yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda) ishlash orqali bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallab boradi. Natijada bolalarda nafaqat qonunchilikka rioya qilish, balki o'z huquq va burchlariga ongli munosabat, ijtimoiy hayotga daxldorlik hissi, faol fuqarolik pozitsiyasi ham shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda huquqiy tarbiya berishning ilmiy-nazariy asoslari ta'lim jarayonini zamonaviy, ilmiy va demokratik prinsiplarga tayangan holda tashkil etishni, o'qituvchi tomonidan innovatsion texnologiyalarni ijodiy qo'llashni hamda huquqiy ongni o'quvchilar shuurida mustahkamlashni taqozo etadi. Bolalar huquqiy savodxonlikka ega bo'lib, qonunlarga rioya qilish, o'z huquq va burchlarini to'g'ri anglash, jamiyatda sodir bo'layotgan islohotlarga faol hissa qo'shish orqali yetuk shaxs sifatida voyaga yetadi. Ana shunday har tomonlama rivojlangan, kuchli huquqiy ongi va madaniyatiga ega avlod jamiyatning ertangi taraqqiyoti, davlatning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618 09.01.2019-lex.uz.
2. Farber I.E. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shakli sifatida. - M., 1963 yil.
3. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности
4. Nilufar Boynazarova. (2023). Issues of environmental protection and formation of ecological culture of primary class students. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12.

Aslanova Nargiza Xakimovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

O'QUVCHILARDA KREATIV YONDASHUV VOSITASIDA ESTETIK DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning zarurati shaxs, ta'lim va jamiyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularni o'ziga ishonadigan, ijodkor, hissiyoti boy, tanqidiy fikrlaydigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash uchun muhimdir. Maqolada o'quvchilar estetik dunyoqarashini shakllantirish masalalari keltirilgan.*
Kalit so'zlar: *kreativlik, estetik dunyoqarash, ijodkor, mas'uliyat, innovatsiya, o'quvchi*

DEVELOPMENT OF AESTHETIC WORLDVIEW IN STUDENTS THROUGH A CREATIVE APPROACH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. *The need to develop an aesthetic worldview through a creative approach is of significant importance for the development of the individual, education, and society. It is essential not only for imparting knowledge to students but also for nurturing them as self-confident, creative, emotionally rich, critical thinkers capable of making independent decisions, and socially responsible individuals. The article addresses issues related to the formation of students' aesthetic worldview.*
Keywords: *creativity, aesthetic worldview, creator, responsibility, innovation, student*

РАЗВИТИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *Необходимость развития эстетического мировоззрения посредством творческого подхода имеет важное значение для развития личности, образования и общества. Это важно не только для передачи знаний учащимся, но и для воспитания их как уверенных в себе, творческих, эмоционально богатых, критически мыслящих, способных принимать самостоятельные решения и социально ответственных личностей. В статье рассматриваются вопросы формирования эстетического мировоззрения учащихся.*
Ключевые слова: *креативность, эстетическое мировоззрение, творец, ответственность, инновация, учащийся.*

Kirish. Dunyoda yangi kasblar va xizmatlarning kundan kunga diversifikatsiyalashuvi kreativ yondashuvni talab etmoqda. Zamonaviy dunyodagi global muammolar, iqlim o'zgarishlari, ijtimoiy tengsizlik va axborot oqimining kuchayishi kabi jarayonlar ham o'zining maqbul yyechimlariga muhtoj.

Kreativ yondashuv bu muammolarga yyechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirish masalasining dolzarbligi va ahamiyati bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxsning har tomonlama kamol topishi va jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda kreativlik va estetik dunyoqarashni rivojlantirish ularga noodatiy g'oyalar, yangicha yondashuvlar va muqobil yyechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sharq mutafakkirlari estetik dunyoqarash hamda kreativlikni shakllantirish masalalariga ko'p e'tibor qaratganlar. Farobiyning fikricha, ijodkorlik orqali inson o'z qobiliyatlarini namoyon etadi va jamiyatga foyda keltiradi. Beruniy ilm va san'at o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ilm insonning aqlini rivojlantirsa, san'at uning his-tuyg'ularini boyitadi va estetik didini

shakllantiradi. Ibn Sino ta'lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlagan. U har bir bolaga o'z qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim berish va uning ijodiy imkoniyatlarini ochish zarur deb hisoblagan. Sharq mutafakkirlarining ushbu qarashlari o'quvchilarda kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashimizga yordam beradi va bizning ta'lim-tarbiya faoliyatimiz uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur pedagog-psixolog olim Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bolalarning rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniyatning muhimligini ta'kidlaydi. U bolalarning ijodiy faoliyatini ularning rivojlanishida muhim omil hisoblagan. U o'yin, rasm chizish, hikoya tuzish kabi ijodiy faoliyat turlarini bolalarning tasavvurlarini rivojlantirish, hissiyotlarini ifoda etish va o'z-o'zini anglashga yordam beruvchi vosita deb bilgan.

Vygotskiy o'qituvchini bolalarning rivojlanishiga yordam beruvchi "fasilitator" sifatida ko'rgan. Uning fikricha, o'qituvchi bolalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirishi, ularga o'zlarini ifoda etish uchun imkoniyatlar yaratishi va estetik tajribalarini boyitishi kerak.

Xorijiy olim John Dyuining ta'lim falsafasi amaliy ta'limga, ya'ni o'quvchilarning faol ishtiroki va amaliy tajriba orqali o'rganishiga asoslangan. U o'quvchilarning o'z qiziqishlariga asoslangan va ular uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarish orqali o'rganishini afzal ko'rgan. Uning fikricha, estetik tajriba nafaqat san'at asarlari bilan tanishish, balki har qanday faoliyat davomida hissiy zavq olish va go'zallikni idrok qilishni o'z ichiga oladi. U o'quvchilarni o'z tajribalariga asoslangan holda estetik xulosalar chiqarishga undagan.

Natijalar. Kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning zarurati o’qituvchi shaxsiga ham muhim mas’uliyatli vazifalarni qo’ymoqda. Bu nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularni o'ziga ishonadigan, ijodkor, hissiyoti boy, tanqidiy fikrlaydigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash uchun muhimdir. Axborotlar oqimi tobora ortib bormoqda. Bu o'quvchilardan axborotlarni tanlay olish, tahlil qilish va ulardan oqilona foydalana bilish qobiliyatini talab etadi.

Shu sababli ta'lim tizimida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish va uni rivojlantirishga doimiy harakat qilish lozim. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga, uning individual qobiliyatlarini ochishga va o'zini namoyon etishiga qaratilgan. Kreativ fikrlaydigan, yangi g'oyalarni yarata oladigan, muammolarni hal eta oladigan insonlar innovatsion jamiyatning asosini tashkil etadi.

Buning asosiy yyechimlari bolalikdan boshlab olib boriladigan ta’lim jarayoniga turli usul va yo’llar vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning zaruratini keltirib chiqaradi va zamonaviy dunyoda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bu zarurat nafaqat shaxsning kamol topishi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va madaniy jihatdan boyishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalambor, ijodiy qobiliyatlarning yuzaga chiqarilishi hamda kreativ yondashuvni shakllantirish o'quvchilarga o'zlarining ijodkorlik imkoniyatlarini kashf etish va qobiliyatlarini o’stirishga olib keladi. Buning asosida, o'z navbatida, ta’limdagi innovatsiyalar asosida o’quvchilarning o'ziga ishonchini oshirish va o'zini namoyon etish vazifalari o’z aksini topadi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro)ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabii qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o’quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijalarni kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalarni o’zida mujassam etadi.

Muhokama. Kreativlik ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etishdir. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'quvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb tariflash mumkin. Shuningdek, uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g 'oyalarni izlab topish layoqati hisoblanadi.

Estetik dunyoqarash bolalarda nafaqat san'at asarlariga, balki atrof-muhitga va tabiatga go'zallik nuqtai nazaridan qarash qobiliyatini shakllantiradi. Bu ularning his-tuyg'ularini boyitadi va hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Kreativ yondashuv o'quvchilarni nafaqat g'oyalarni yaratishga, balki ularni tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga undaydi. Bu tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Dars jarayonlariga kreativ yondashuv o'quv materiallarini qiziqarli va interfaol tarzda taqdim etishga imkon beradi. Bu bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularning o'rganish jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, kreativlik o'qituvchilarga har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'qitish dasturlarini moslashtirish imkoniyatini beradi.

Kreativ ta'lim metodlari o'quvchilarni faol ishtirok etishga, g'oyalar almashishga, o'z fikrlarini ifoda etishga va loyihalarda ishtirok etishga yo'naltiradi.

Kreativ fikrlaydigan insonlar jamiyat uchun yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal etish va texnologik yutuqlarga erishish imkoniyatini oshiradi.

Estetik dunyoqarash atrof-muhitga bo'lgan dahldorlikni oshiradi. Kreativ yondashuv esa ko'pgina, jumladan, iqtisodiy, madaniy, turizm, ta'lim, tibbiyot, san'at, raqamlashtirish, ekologik va boshqa sohalardagi muammolarga innovatsion yyechimlar topishga yordam beradi.

Xulosa. Kreativ yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu o'quvchilar diqqatini jalb qilishda ayniqsa namoyon bo'ladi. Kreativ yondashuvlar va estetik elementlar o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi. O'quv materiallari kreativ va qiziqarli tarzda taqdim etilsa, o'quvchilar uni osonroq o'zlashtiradi. Chunki, kreativ faoliyat o'quvchilarni o'rganishga motivatsiya uyg'otadi, ularning o'zini namoyon etishga va muvaffaqiyatga erishishga intilishini kuchaytiradi.

O'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi, ya'ni ijodiy qobiliyatlar, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kreativ yondashuvga ega bo'lgan insonlar jamiyat uchun yangi g'oyalarni yarata oladi, muammolarni hal eta oladi va innovatsion yyechimlar topa oladi.

Kreativ va estetik qobiliyatlar insonlarning hayotini yanada mazmunliroq, baxtliroq va to'laroq qiladi, bu esa jamiyatning farovonligiga hissa qo'shadi. Shuning uchun ta'lim tizimida kreativlik va estetik dunyoqarashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Dis. ...ped. fan. dokt. – T., 1998. – 26 b.
2. Quchqorova N.M. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativlik. Darslik. T.: Bookmany print., 2022. – 61 b.
3. Кальянов В.Т. Эстетическая подготовка учителя в школе. Дис…канд. М, 2007. 180 с.
4. Прохорова Т.Н. Особенности нового мышления в современном понимании педагогики искусства в школе //Образование как ресурс развития. Астрахань, 2002. С. 18-24.

Fozilov Botirjon Zakirovich
Andijon davlat universiteti doktoranti

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI 5-7-SINF O‘QUVCHILARINING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS IMKONIYATLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada kar va zaif eshituvchi 5-7-sinf o‘quvchilarining fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda loyiha texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kar va zaif eshituvchi bolalar, fuqarolik kompetensiya, metod, texnologiyalar, didaktik vositalar, loyiha, motivasiya, ixtisoslashtirilgan maktab, tizim*

UNIQUE POSSIBILITIES OF PROJECT TECHNOLOGY IN FORMING CIVIC COMPETENCE OF DEAF AND HARD-OF-HEARING 5TH-7TH GRADE STUDENTS

Abstract. *This article provides information about the didactic possibilities of using project technology in the formation of civic competence of deaf and hard-of-hearing 5th-7th grade students.*

Keywords: *Deaf and hard of hearing children, civil competence, method, technologies, didactic tools, project, motivation, specialized school, system*

УНИКАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ГЛУХИХ И СЛАБОСЛЫШАЩИХ УЧАЩИХСЯ 5-7 КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о дидактических возможностях использования проектной технологии в формировании гражданской компетентности глухих и слабослышащих учащихся 5-7 классов.*

Ключевые слова: *Глухие и слабослышащие дети, гражданская компетентность, метод, технологии, дидактические средства, проект, мотивация, специализированная школа, система*

Kirish. Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda loyiha texnologiyasidan foydalanish bir necha metodik yondashuvlarni o‘zida mujassamlashi bilan ahamiyatlidir. Chunki bu jarayonda o‘quvchilarga yozish, so‘zlash, birgalikda harakat qilish, natijalarni namoyish qilish topshiriqlari tizimli beriladi.

Loyihaviy yondashuv amaliyotda texnologiya va ham metod sifatida qo‘llaniladi. Metod sifatida qo‘llanilganda, u darsning bir bosqichi davomida muayyan ketma-ketlikda o‘quvchilarning faoliyatini tashkil etishga va umumiy maqsadga erishish uchun belgilangan vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Loyihalarni amalga oshiruvchi texnologiyalar:

Texnologiya sifatida qo‘llanganda uning tur (muddatli, ishtirokchilarga bog‘liq, faoliyatga bog‘liq, muammoga yo‘nalgan)iga ko‘ra bir necha bosqichda ish olib boriladi va har bir bosqichda muayyan natijalarga erishiladi. Texnologiya 1 ta mashg‘ulotning boshidan oxirigacha qo‘llanilishi mumkin va bir necha mashg‘ulotlarni ham qamrab olishi mumkin. Shuning uchun uning quyidagi turlarini ajratish mumkin.[1]

1. Tadqiqotchilik loyihalari. Bu loyihalarni 7-sinf mashg‘ulotlarida qo‘llash tavsiya etildi. Chunki unda yechimi kutilayotgan muammoning tavsifiga bog‘liq qator harakatlar olib borildi. Dastlab maqsad qo‘yildi. So‘ngra bu maqsad tarbiyachi va o‘quvchilar o‘rtasida muhokama qilindi. Biz tajribada **«Begona kishilar bilan muloqot: foyda va zarar»** mavzusidagi ijtimoiy loyihani qo‘lladik. Bunda bu savolga yechim topish uchun o‘quvchilarga bozor, jamoat joylarida begonalar bilan kutilishi mumkin bo‘lgan muloqot modellarini rolli ijroda tayyorlash topshirig‘i berildi. Loyiha

parallel sinf o‘quvchilari faoliyatini integrasiyalagan holda olib borildi. Ya'ni bir sinf loyihani bajarganda, boshqa guruh o‘quvchilari rolli vaziyatni sharxlab berdilar. [2]

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar hamkorlikda turli hayotiy muhitda begona kishilar bilan suxbatlashish va shubhali dialogli vaziyatda o‘zini qanday tutish va salbiy oqibatlarsiz qutulish (ketish, qochish)yo‘llarini o‘rgandilar. Bir-biriga maslahatlar berdi. Eng muhimi faqulodda hodisalarda o‘zini qanday tutish va yaqinlarini xavfdan qutqarish va noqulay vaziyatlarga guvoh bo‘lganda nima qilish kerakligini amaliy tarzda egalladilar.

2.Ijodiy loyihalar. Bu loyiha erkin, ijodiy fikrlarga asoslangan noodatiy natijalarni ko‘zda tutadi. Biz tajribada rasm chizish, xaftalik gazeta, g‘oyalar qutisi, sport musobaqalari, rivojlantiruvchi-quvnoq o‘yinlar, amaliy qo‘l ishlari kabi ish turlaridan foydalandik. [2].

Ma'lumki, biz tadqiqot doirasida kar va zaif eshituvchi 5-7-sinf o‘quvchilarining faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida 3 ta mezonga ustuvorlik berdik:

1.Voqea-hodisalarga dahldorlik xissini namoyon qilishi.

2.Huquq va burchlarini bilishi hamda rioya etishi.

3.Turli munosabatlarda muomala madaniyatini namoyon etishi.

Yuqorida keltirilgan komponentlar bo‘yicha biz taklif etayotgan korreksion-metodik tizimda aynan samarali deb topilgan ish turlari (rasm chizish, xaftalik gazeta, g‘oyalar qutisi, sport musobaqalari, rivojlantiruvchi-quvnoq o‘yinlar, amaliy qo‘l ishlari) 5-7-sinflarga mos mavzularda taqsimlandi. [3]

Voqea-hodisalarga dahldorlik hissini namoyon qilishga kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni o‘rgatishga qaratilgan quyidagi topshiriqlar sinflar kesimida mazmunan takomillashtirgan holda hamda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarning oddiydan murakkabga qarab berilishiga e'tibor qaratdik.

Mavzu: “Voqealarni tahlil qilamiz” mavzusida kollaj tayyorlash. Bu mashg‘ulot oilalar bilan hamkorlikda o‘tkazilishi rejalashtirildi va quyidagi bosqichlarda olib borildi.

Motivatsion. Ota-onalarga xaftaning shanba kuni topshiriq berildi. Bunda o‘quvchilar va ota-onalar jamoasi birgalikda ishtirok etdi. Tarbiyachi-pedagog topshiriqni tushuntirdi.

Topshiriq: ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan va e'lon qilinayotgan voqealarni farzandingiz bilan muhokama qiling va birgalikda ijobiy va salbiy oqibatlar haqida rasm chizing. Bunda ota-onalarga o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzular ro‘yxati taxminan berildi.[4]

Yoshlarning ijobiy xatti-harkatlariga oid mavzular (mahallada odamlarga bergan yordamlari, yo‘l harakati qoidalariga rioya etishlari, bozorda kattalarga, ayniqsa, nogironlarga hayrihoxligi, oilasida yaqinlari bilan birga bajargan ishlari, ta'limda va sportda erishgan yutuqlari; sanab o‘tilgan haraktlarga zid ishlar, ya'ni insonlarga, davlat hamda shaxsiy mulklarga tajovuzlar, o‘zi va atrofdagilar salomatligiga zararlar, yo‘l harakati qoidalarini buzishlar, ekologiyaga, qonunga zid vaziyatlar va x.).

Instruktiv. Ota-onalarning harakat yo‘nalishlari uchun ko‘rsatmalar berildi.Bunda asosan, gazetalar to‘plami atqdim etildi. Gazetalardan maqolalarni o‘qib, mavzuni farzandingiz bilan muhokama qiling. Hayotda bunday voqelar nima uchun sodir bo‘lishini so‘zlab bering. So‘ngra voqelarning oqibatiga oid rasmlar chizing. Bunda rasm chizish imkoniyatingiz yetarli bo‘lmasa kollaj tayyorlang. Ya'ni voqea oqibatida nima bo‘lishini tushuntiruvchi sinonim tushunchalarni izohlovchi rasmlar ham ishlatishingiz mumkin. Masalan, stolbalarning tagida o‘ynaganda qanday xavf bor?. Albatta tok urishi mumkin. Tok urganda bolaga nima bo‘ladi? Albatta, kasalxonaga tushish mumkin. Kasalxonaga qanday rasmni chizish mumkin? Yoki qanday rasm kasal bo‘lishni ifodalaydi: krovat va dorilar. Demak krovat va dorilarni katta qog‘ozga yopishtirib, kollaj yaratish mumkin. Mana shu kabi harakatlarni bajarish bo‘yicha tizimli ko‘rsatmalar berildi. [5]

Konstruktiv. Ota-onalar va kar, zaif eshituvchi o‘quvchilarning birgalikdagi harakatlari amalga oshiriladi. Bunda loyiha 2 haftaga mo‘ljallandi. Loyiha davomida tarbiyachilarning ota-onalar bilan telegram orqali muloqoti tashkil etilib borildi. Muloqot davomida ota-onalarga maslahatlar berildi. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga videochaqiruv orqali imo-ishoralarda ko‘rsatmalar berib borildi. [4]

Kar va zaif eshituvchi 5-7-sinf o‘quvchilarining loyiha bo‘yicha harakatlari aynan topshiriqni to‘liq tushunganiga bog‘liq bo‘ldi. Bunda har bir o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyatlari inobatga olindi. Ayniqsa, o‘quvchilarning lug‘at boyligi masalasi alohida e'tibor tortdi. Agar o‘quvchilarning lug‘atida biz taklif etgan huquqiy va fuqaroviy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan keyslarning mazmuniga doir tushunchalar mavjud bo‘lmasa, aynan shu tushunchalar ustida ishlash talab etildi. [5]

Refleksiv. Loyiha taqdimoti. Loyiha taqdimoti uchun alohida mashg‘ulot ajratilmadi. Aksincha, maktab binosida burchakka kollajlar ilib qo‘yildi va alohida suhbatlar dushanba kuni 1-darsga qadar va 2-nonushtaga chiqish oldidan tashkil etildi. Albatta bu jarayonda sinf o‘quvchilari va ota-onalarni bir paytga yig‘ish imkoniyati bo‘lmadi. Chunki viloyatning uzoq tumanidan keladiganlar mavjud bo‘lib, ular uchun suxbat-taqdimot 2-nonushtaga chiqish oldidan tashkil etildi. Loyihaning 5-7-sinflar kesimida olib borilganligi sababli, suxbatga 20 dan 30 nafargacha ishtirokchilar yig‘ilishi ta'minlandi. Bunda sinflar kesimida tarbiyachi-pedagoglarning binar faoliyati tashkil etildi. Natijada tarbiyachilar ham o‘z faoliyatida refleksiya orqali innovatsiyalarga e'tibor qaratish kerakligini bevosita tushunib etdilar. Maktabda sog‘lom raqobat yuzaga keldi. [3]

Taqdimot yakunida ota-onalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

1.Loyiha sizga nima berdi?

2.Farzandingiz bilan muloqotda qanday qiyinchiliklar bo‘ldi?

3.Fuqarolikning o‘zini qanchalik tushundingiz?

4.Nima uchun jamiyatda faol va dahldor bo‘lishimiz kerak?

5.Siz tanlagan voqeaga oid farzandingiz nimalarni bilib oldi va yana nimalarni o‘rgatishimiz kerak?

6.Mahallada shu kabi voqealar boshqa bolalar o‘rtasida sodir bo‘lsa, sizning eng dastlabki 3 ta qadamingiz qanday bo‘ladi?

7.Faol fuqaro sifatida farzandingizni tarbiyalash Sizga nima uchun kerak?

8.Siz o‘zingizni faol fuqaro deb bilasizmi?

9.Kelajakda o‘zingizda nimani o‘zgartirmoqchisiz?

10.Muassasada ta'lim-tarbiya jarayonini o‘zgartirishga takliflaringizni ayting.

Xuddi shu tarzda “Ijtimoiy hayotga tayyorlash soati” mashg‘ulotida o‘quvchilarga intervyu olish topshirig‘i berildi.O‘quvchilar o‘rtoqlaridan intervyu oldilar. Intervyu uchun quyidagi savollar taklif etildi va o‘quvchilarga yana 3 ta savol qo‘shib berish taklifi berildi:

1.Loyihada qanday mavzu ustida ish olib borildi?

2.Ota-onangiz yoki yaqinlaringiz sizga qanday yordam berdi va siz ularga qanday yordam berdingiz?

3.Fikrlaringiz bir-biriga o‘xshadimi? Farqlar ham kuzatildimi? Agar kuzatilgan bo‘lsa, qaysi fikrda to‘xtadinglar?

4.Siz birgalikda o‘rgangan va tahlil qilgan voqeaning hayotingizda qanday o‘rni bor? Agar shu voqeaga duch kelsangiz nima qilasiz?

5.Salbiy harakatlarni qilishga odatlangan o‘rtoqlaringizga qanday maslahatlar berasiz?

Intervyu jarayoni tarbiyachining bevosita nazoratida o‘tkazildi. Chunki savol-javoblar paytida o‘quvchilarning bir-birini tushunmay qolgan vaziyatlarida tushunchalarga izoh berishda yordm kerak bo‘ldi. [6]

Loyiha texnologiyasining shu tarzda qo‘llanilishi kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni faol fuqaro bo‘lishga undadi va har bir harakatda mas'uliyatli bo‘lish muhimligini anglashga imkon berdi.

O‘quvchilarning faoliyatini baholashda har bir qilingan harkatning natijalari inobatga olinadi. Aynan tarbiyaviy mashg‘ulotlar erkin faoliyatga va qulay moslashuvchan didaktik muhitga asoslanishi bilan loyiha texnologiyasidan foydalanish uchun mos sharoitdir. Demak kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda o‘ziga xos metodik tizim samarali natijalarni kafolatlaydi.

Kar va zaif eshituvchi 5-7-sinf o‘quvchilarining faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda loyiha texnologiyasidan foydalanishda quyidagi didaktik tamoyillarga tayanildi: insonparvarlik, ilmiylik,onglilik va tushunarlilik, oddiydan murakkabga munosabati, ketma-ketlik va

izchillik, ko‘rgazmalilik, hayot bilan bog‘liqlik, nazariya va amaliyot uyg‘unligi. Tajriba-sinov jarayonida darslik, gezetalar, audiovizual vositalar hamda multimedia va boshqa axborot-resurslaridan foydalanildi. [2]

Tadqiqot davomida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda loyiha metodi va texnologiyasidan foydalanishda qo‘llanilgan shakl, vosita va ish turlari bilan korreksion-pedagogik samaradorlik darajasi o‘rtasida uzviy aloqadorlik ta'minlandi. [6]

Xulosa. Biz taklif etgan korreksion-metodik tizimda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim yondashuvlariga ham ustuvorlik berildi. Masalan, tadqiqotchilik loyihasida kashfiyotchilik faoliyati bilan birgalikda huquqiy bilim, madaniyatga oid harakatlarning amalga oshirilishi o‘quvchilar o‘rtasida hissiy-obrazli muhokamani yuzaga keltirdi, shaxsiy qarorni qabul qilishda shaxslararo qiziqishlar uyg‘unligidagi harakatlar vujudga keldi. Shu jarayonda loyiha texnologiya bilan ishlashda tarbiyachidan psixologik-pedagogik tayyorgarlik, kasbiy mahorat hamda fidoyilik talab etildi. Chunki har bir subekt bilan ishlashda o‘ziga xos muloqot jarayoni taqozo etildi. Berilgan topshiriqning tizimli va kutilgan natija doirasida bajarilishiga erishish uchun esa, muntazam ravishda vaqt-makondan tashqari paytlarda bog‘lanishga ehtiyoj tug‘ildi. Shuning uchun loyiha texnologiyasida har bir shaxs va uning ehtiyojlari hamda imkoniyatlariga qarab, topshiriqlar berishda pedagoglardan sabr, mas'uliyat talab etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. С.Ш.Носиров “Гражданское воспитание учашихся старших классов на уроках “Права человека”. Душанбе, 2006, 21-б, 4-Б.

2. С.В.Москаленко. “Педагогикческая организация воспитания гражданственности в обшеобразовательной школе”. Москва, 2007, 24-б, 5-Б.

3. М.Г.Лаварсланова “Правовое воспитание как основа формирования нормативного поведения учашихся в социуме”, Махачкала, 2010, 21-б, 4-Б.

4. Alimova S.Sh., Turg‘unboev S.F. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabinternatlarida maxsus korreksion darslarda ta'lim metodlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari. // “Zamonaviy ta'lim”, 2016, 6-son. -53–59-b.

5. Kalbaeva. H. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bog‘langan nutqini o‘stirish yo‘llari. – T.: «Reliable print», 2010.

6. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish: Ped. fan. nomz. dis. avtoref…– Toshkent: TDPU, 2006. – 20 b.

7. Sadirdinovna, vokhobova munirakhan. "ways and methods of speech formation of children with alaliya speech defects." *Confrencea* 3.03 (2023): 231-235.

8. Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 316-320.

Irgasheva Nurxon Abdullayevna
NavDU Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dosenti

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK MAHORATNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida pedagogik mahoratning shakllanishi jarayoni tahlil qilingan. Pedagogik mahoratning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning samaradorlikka ta'siri va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada pedagogik mahoratni shakllantirishning muhim omillari, jumladan, kasbiy bilimlar, metodik yondashuvlar, ijodkorlik va psixologik barqarorlik kabi jihatlar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so`zlar: *ta'lim, samaradorlik, tarbiya, pedagogik mahorat, individ, shaxs, kreativlik, tafakkur.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УМЕНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье проанализирован процесс формирования педагогического мастерства в современной образовательной среде. Освещается роль педагогического мастерства в образовательном процессе, его влияние на эффективность и значение в повышении качества образования. В статье рассматриваются важные факторы формирования педагогического мастерства, в том числе такие аспекты, как профессиональные знания, методические подходы, креативность и психологическая устойчивость.*

Ключевые слова: *воспитание, эффективность, воспитание, педагогическое мастерство, индивидуальность, личность, креативность, мышление.*

FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS IN A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation. *The article analyzes the process of the formation of pedagogical skills in the modern educational environment. The role of pedagogical skills in the educational process, its impact on efficiency and its importance in improving the quality of education are highlighted. The article examines important factors for the formation of pedagogical skills, including such aspects as professional knowledge, methodological approaches, creativity and psychological stability.*

Keywords: *education, efficiency, upbringing, pedagogical skills, individ, personality, creativity, thinking.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globalizatsiya, texnologik rivojlanish va jamiyat ehtiyojlariga moslashish jarayonida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonda pedagogik mahoratning ahamiyati ortib bormoqda, chunki bu tushuncha ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim beruvchi nafaqat o'z fanining yetuk mutaxassisi bo'lishi, balki o'quvchilar bilan muloqotni samarali tashkil etish, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ularning individual ehtiyojlarini inobatga olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llash talab qilinmoqda. Bu esa pedagogning nafaqat an'anaviy bilimlarga, balki zamonaviy vositalarni qo'llash malakasiga ega bo'lishini ham taqozo etadi. Pedagogik mahorat o'qituvchining nafaqat kasbiy bilimlari va ko'nikmalari, balki ijodkorlik, psixologik barqarorlik, muammolarni hal qilish qobiliyati va moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar nafaqat o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi, balki pedagoglarning ham faoliyatini takomillashtirishni talab qiladi. O'quv jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning ta'lim muhitidagi innovatsiyalarni qanday qabul qilishi va ulardan foydalanish

darajasiga bog‘liq. Ta’lim beruvchi o‘z mahoratini doimiy ravishda rivojlantirishi, zamonaviy talablarga mos yangi yondashuvlarni o‘zlashtirishi muhim.

Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, balki o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarni egallashiga, ularning intellektual va ma’naviy o‘sishiga zamin yaratadi. Shu bois, bugungi ta’lim muhitida pedagogik mahoratni shakllantirish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va ularni takomillashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik mahoratni shakllantirish masalasi bir qator olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy yondashuvlarni belgilab beradi. Ushbu tadqiqotlar pedagogik mahoratning mazmuni, tarkibiy qismlari va shakllantirish usullarini keng qamrab olgan.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashda bir qator olimlar turli yondashuvlarni ilgari surishgan. Masalan, B. D. Elkonin pedagogik mahoratni o‘qituvchining kasbiy bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarining uyg‘unligi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mahorat o‘quv jarayonini boshqarish va o‘quvchilarni bilim olishga yo‘naltirish qobiliyatini qamrab oladi [1]. A. A. Leontyev esa pedagogik mahoratni kommunikativ kompetensiya bilan bog‘laydi va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata olishni uning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘radi [2].

L. S. Vigotskiy ijodkorlikni pedagogik mahoratning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, ijodiy yondashuv o‘qituvchiga o‘quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish va o‘quvchilarning qiziqishini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, V. A. Slastenin pedagogik mahoratni faqat kasbiy malakalar bilan cheklamay, uni psixologik tayyorgarlik, muammolarni hal qilish qobiliyati va pedagogik vaziyatlarni boshqarish mahorati bilan bog‘laydi [3].

B. F. Lomov esa ushbu jarayonda psixologik barqarorlik va pedagogning o‘z faoliyatiga ijodiy yondashuvini alohida ta’kidlaydi.

N. E. Shchurkova ta’lim muhitida ijtimoiy va psixologik omillarning ahamiyatiga urg‘u berib, pedagogik mahoratning shakllanishida qo‘llab-quvvatlovchi muhitning zarurligini qayd etadi. U pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash, o‘quv jarayonida ishtirokchilarni jalb qilish va ularning faolligini oshirishni tavsiya qiladi [5].

Y. K. Babanskiy zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim omili ekanini ta’kidlaydi. U o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish va interfaol usullar orqali o‘quvchilarni o‘qishga jalb etishni tavsiya qiladi. V. P. Bespalko esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali pedagogik mahoratni boyitish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [4].

Pedagogik mahoratni shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy bilimlari, shaxsiy fazilatlari va innovatsion yondashuvlarga moslashuvchanligi bilan bog‘liq. Ushbu jarayonda kommunikativ qobiliyatlar, psixologik barqarorlik va ijodkorlik muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun doimiy kasbiy o‘sish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘quv jarayoniga ijodiy yondashuvni tavsiya qilishmoqda. Bu esa o‘qituvchilarning ta’lim samaradorligini oshirish va zamonaviy ta’lim muhitiga moslashuvini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Muhokama. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik mahoratning shakllanishi bir necha asosiy yo‘nalish va komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Pedagogik mahoratning ilk shakllanishida tarbiya va psixologiya asosiy ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalish talabalarning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini chuqur tushunishni talab qiladi. Bu jarayon o‘qituvchilarga talabalarning ta’lim va tarbiya olish jarayonlarini nazorat qilish, o‘qitishning samarali usullarini qo‘llash va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga va ularda o‘qishga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Dasturlash zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon ta’lim dasturlarini tuzish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va

boshqarish, o‘qitish usullarini nazorat qilish hamda talabalarga muhim ko‘nikmalarni o‘rgatish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Dasturlash jarayonida o‘quv dasturlarini talabalar ehtiyojlariga moslashtirish, o‘quv maqsadlariga erishish va ta’lim samaradorligini oshirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Pedagogik mahoratning yana bir muhim tarkibiy qismi – o‘qitish usullarini qo‘llash va rivojlantirishdir. O‘qituvchilar talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlash orqali ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqishlari kerak. Bu jarayon talabalarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va ularga mos bilim berish vositalarini taklif qilishni talab qiladi. O‘qituvchilarning mahorati o‘quv dasturlarini nazorat qilish, talabalarning qiziqishini oshirish va o‘rganish jarayonlarini samarali boshqarishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’limda individual yondashuvning ahamiyati juda katta. Har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Pedagogik mahoratning muhim yo‘nalishlaridan biri har bir o‘quvchiga mos keluvchi individual o‘qitish usullarini ishlab chiqishdir. Bu jarayon talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashadi, ularning o‘z-o‘zini anglashini rag‘batlantiradi va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Pedagogik mahoratning shakllanishi bir necha asosiy komponentlarga asoslanadi:

1. Talabalar rivojlanishini tushunish – talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishlarini chuqur o‘rganish va ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqish.
2. O‘qitish usullarini qo‘llash va nazorat qilish – o‘qituvchilarni talabalar bilan samarali ishlashga yo‘naltirish va ularda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. O‘quv dasturlarini tuzish va o‘zgartirish – talabalarning o‘quv ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish va ularni samarali qo‘llash.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik mahoratning shakllanishi o‘qituvchilarning kasbiy bilimlari, innovatsion yondashuvlari va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Ushbu jarayon talabalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash va zamonaviy ta’lim muhitida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Эльконин Б. D. “Психологическое развитие детей и педагогический процесс” М.: Просвещение, 1989. – 224 с.
2. Леонтьев А. А. “Коммуникативная компетенция в педагогическом процессе” М.: Знание, 1984. – 176 С.
3. Выготский Л. S. “Мышление и речь” М.: Педагогика, 1982. – 287 С.
4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students’ Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. - 2022. - С. 7128-7131.
5. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.
6. Tojiboyev M. U., Uzoqjonova M. D. Q. Farg‘ona vodiysida tarqalgan ruderal shifobaxsh o‘simliklar, ularning tarqalishi va ahamiyati //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 8. - С. 101-107.

Atoyeva Mexriniso Farhodovna
Buxoro davlat universiteti, dotsent
Jo'raqulov Sanjar Zafarjon o`g`li
Osiyo xalqaro universiteti, tayanch doktorant

INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ET-ISHDA VIRTUAL LABORATORIYALAR VA MASOFAVIY TA'LIMNING AHMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va masofaviy o'qish platformalarining o'rni muhimdir. PhET simulyatsiyalari orqali talabalar fizika fanidan tajriba o'tkazish, nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash va o'z-o'zini baholash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masofaviy ta'lim esa o'quvchilarga o'qish jarayonini istalgan joyda va vaqtda tashkil qilish, ta'lim materiallarini chuqur o'zlashtirish va individual o'quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Maqolada mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar, o'quv qo'llanmalar va virtual laboratoriyalar bilan ta'minlash muhimligi ko'rsatiladi. Buning bilan birga, o'qituvchilarga talabaning bilim darajasi va qiziqishlarini inobatga olib, mavzularni ehtiyotkorlik bilan tanlash tavsiya etiladi. Maqola innovatsion yondashuvlarning mustaqil ta'lim jarayonidagi ahamiyatini va uning samaradorligini ta'kidlaydi.*

Kalit so`zlar: *Mustaqil ta'lim, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, onlayn platformalar, fizika fanidan tajriba va ta'limning sifatini oshirish.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЕЗ ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ И ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются инновационные подходы к организации самостоятельного обучения студентов в рамках кредитно-модульной системы. В процессе самостоятельного обучения важную роль играют виртуальные лаборатории, симуляции и платформы для дистанционного обучения. С помощью симуляций PhET студенты могут проводить эксперименты по физике, укреплять теоретические знания на практике и оценивать свои успехи. Дистанционное обучение предоставляет учащимся возможность организовывать процесс обучения в любое время и в любом месте, глубже усваивать учебный материал и разрабатывать индивидуальные учебные планы. В статье подчеркивается важность обеспечения необходимых ресурсов, учебных материалов и виртуальных лабораторий для эффективной организации самостоятельного обучения. Кроме того, рекомендуется тщательно выбирать темы с учетом уровня знаний студентов и их интересов. Статья акцентирует внимание на значении инновационных подходов в процессе самостоятельного обучения и их эффективности.*

Ключевые слова: *Самостоятельное обучение, виртуальные лаборатории, симуляции, онлайн-платформы, эксперименты по физике, повышение качества образования.*

THE IMPORTANCE OF VIRTUAL LABORATORIES AND DISTANCE EDUCATION IN ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING THROUGH INNOVATIVE APPROACHES

Abstract. *This article analyzes innovative approaches to organizing independent learning for students within the credit-module system. Virtual laboratories, simulations, and distance learning platforms play a crucial role in the process of independent learning. Through PhET simulations, students have the opportunity to conduct experiments in physics, strengthen their theoretical knowledge through practical application, and engage in self-assessment. Distance learning enables students to organize the learning process anywhere and at any time, deeply master educational materials, and*

develop individual learning plans. The article emphasizes the importance of providing necessary resources, study guides, and virtual laboratories for effectively organizing independent learning. Additionally, it recommends that teachers carefully select topics based on the student's knowledge level and interests. The article highlights the significance of innovative approaches in the independent learning process and their effectiveness.

Keywords: *Independent learning, virtual laboratories, simulations, online platforms, physics experiments, and improving the quality of education.*

Kirish. Talabalarning kredit – modul tizimida o`quv jarayoniga bo`lgan qiziqishlarini va rivojlanishlarining usullaridan biri sifatida - mustaqil ta`limning tashkil qilish hisoblanadi. Nafaqat fizika fanidan balki boshqa fanlardan ham mustaqil faoliyatini tashkil qilishda, talabalarning avvalo fanga oid qiziqishlarini o`rganish va talabalarga mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Unda o`qituvchilar qo`yidagi innovatsion yondashuvlardan foydalanishlari mumkin.

1. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar
2. Masofaviy o'qish va onlayn platformalar


Ushbu innovatsion yondashuvlar asosida mustaqil ishlar didaktik, ilmiy va boshqa belgilari bilan mustaqil ishlarini tashkil qilishga jalb qilinadi va tajriba orttiradi. Hozirgi kunda virtual laboratoriyalardan masofadan ham ishlab bo`ladi. Shu bois mustaqil ta'limni tashkil qilishni innovatsion yondashuv ushbu yondashuvlar orqali o`rganiladi. Shu vaqtgacha internet saytlarida 100dan ortiq virtual laboratoriya ishlari tashkil qilingan bo‘lib, ular ta'lim jarayonini yanada samarali va interfaol tashkil etishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga va talabalariga ilmiy tajriba va eksperimentlarni real sharoitda bajarish imkonini berib, fanlarni o‘rganishda yangi yondashuvlar yaratishga yordam bermoqda. Virtual laboratoriyalar orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash, nazariy materialni amaliyotda qo‘llash va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday tizimlar, ayniqsa, masofaviy o‘qitish va onlayn ta'limda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni taqdim etadi, shu bilan birga, o‘quv jarayonini interfaol qilish, talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalarni yaratishda zamonaviy texnologiyalarning, jumladan, interaktiv dasturiy ta'minot va simulyatsiya vositalarining qo‘llanilishi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashdagi samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shmoqda Shuningdek, birmuncha ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga ko‘ra, mustaqil ish ikki yo‘nalishda tabaqalashtirilgan: O‘quv jarayonidagi hamda unga tayyorlanishdagi o‘quvchining faoliyati va o‘quvchining qiziqishini hamda qobiliyatiga asoslangan individual reja asosidagi qo‘shimcha faoliyatdir.[1]

Methods: Talabalar mustaqil ta'limni samarali va mukammal tarzda amalga oshirishlari uchun yuqorida keltirilgan metodlar ularga nafaqat bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi, balki ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan metodologik asoslarni taqdim etadi. Ushbu metodlar talabalar uchun aniq yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodlar talabalarga o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va o‘z bilimlarini mustahkamlashda samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Natijada, talabalar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirib, ilmiy va amaliy jihatdan yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan metodlar talabalarga nafaqat o‘qish jarayonida qo‘llanma, balki ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar

Virtual laboratoriya talabalarning mustaqil o‘qish va tajriba o‘tkazish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon yaratadi, chunki ularning o‘quv faoliyatida interaktiv va tajribaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday dasturlardan biri PhET Simulations dasturi AQSHda, Kolorado shtatidagi Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan. Dastur 2002-yilda professor Natalie R. Strassler tomonidan asos solingan va ilmiy va ta'lim maqsadlarida interaktiv ilmiy simulyatsiyalar yaratishni maqsad qilgan. PhET dasturi hozirda turli fanlar, jumladan, fizika, kimyo, biologiya va

matematikani o‘rgatishda keng qo‘llaniladi. Ushbu dastur talabalariga fizika fanidan tajriba ishlarini mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash va o‘z bilimlarini mustaqil ravishda sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi fizika fanining elektr va magnitizm bo`limlarining laboratoriya ishlarining bajarishda talabalarga juda qulay va xavfsiz sharoit yaratilgan. Ushbu dasturning afzallik tomonlaridan biri natijalarni olishda aniqlik ko`rsatgichi katta bo`ladi. Fizika sohasida muhim ta’limiy afzalliklarga ega bo‘lgan virtual laboratoriya simulyatsiyalaridan foydalanish ko‘paymoqda.[2] PhET similition virtual laboratoriyasi talabalarga mustaqil ishlash imkonini yaratib beradi. Ular fizika fanli bo‘yicha o‘z bilimlarini mustahkamlashlari va tajribalar o‘tkazishlari mumkin. Shuningdek, bu vosita talabalarga o‘z-o‘zini baholashda ham yordam beradi, chunki simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar o‘z natijalarini real vaqt rejimida ko‘rishlari mumkin hamda tajribani ko`p marotabo o`tkazishlari mumkin.



1.1 Phet similition dasturida fizika fanidan tebranma harakat qonunlarini o`rganish mavzusi

Fizika va shu kabi boshqa fanlarda tajriba natijalarining takrorlanishi soni oshgan sari, nisbiy xatolikning qiymati kamayadi. Bu esa, o‘tkazilgan tajribalar sonining ortishi bilan o‘lchovlar orasidagi farqlar kamayib, natijalar yanada ishonchli va aniq bo‘lishini anglatadi. PhET simulyatsiyalari va shu kabi boshqa virtual laboratoriya dasturlari hozirgi kunda oliy ta`limda talabalarining fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli ilmiy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni tezlashmoqda va samarali bo‘lmoqda. Ushbu dasturning yana bir samarali jihatlaridan biri talabalar o`z tajriba ishlarini bajarishda xato qilishdan qo`rqishmaydi, chunki laboratoriya ishini tajriba xonalarida bajarilganda talabaning nazariy bilimga ega emasligi sababli laboratoriya qurilmasiga shikast yetkazilishi mumkin yoki umuman ushdan chiqishi mumkin.

Masofaviy o'qish va onlayn platformalar. 2019-yilda "COVID-19" virusining global tarqalishi ta'lim tizimlarining barcha bosqichlarini virtual formatga o‘zgartirishni talab etdi. Shu tariqa, dunyo bo‘ylab o‘qitish jarayonlari onlayn ko‘rinishda tashkil qilindi, bu esa ta'limning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan majburiy choraga aylandi. Ba'zi mamlakatlar ushbu o‘zgarishlarga tezda moslashib, ta'lim tizimini onlayn formatga o‘tkazishda muvaffaqiyatga erishdilar, biroq boshqa mamlakatlarda bu jarayon bir qator qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch keldi. Bunga sabab, ayrim davlatlarda internet tarmog‘iga keng kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan bo‘lsa, boshqalarda esa onlayn platformalar va raqamli infratuzilmaning yyetarli darajada rivojlanmaganligi ta'sir ko‘rsatdi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.[4] Masofaviy ta'lim texnologiyalarining afzalliklari. Masofaviy ta'lim texnologiyalari quyidagi afzalliklarga ega:[3]

1. O‘quvchilar va o‘qituvchilar ta'lim jarayonida har qanday joyda va har qanday vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ta'limni shaxsiy ehtiyojlar va talablarga muvofiq tarzda moslashtirishga imkon yaratadi.

2. Masofaviy ta'limda turli elektron resurslar, videodarslar, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarga ta'lim materiallarini yanada chuqur va samarali o‘zlashtirishda yordam beradi.

3. Masofaviy ta'lim, ko‘plab hollarda, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan arzonroq hisoblanadi, chunki transport xarajatlari va o‘quv muassasalariga borish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar kamayadi, bu esa ta'lim olish jarayonini moliyaviy jihatdan yanada samarali qiladi.

4. Masofaviy ta'lim o‘quvchilarga individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonini o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etishga yordam beradi.

Masofaviy ta'limning afzalliklari mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, o‘quvchilar va o‘qituvchilarga har qanday joyda va vaqtda ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi, Ikkinchidan, masofaviy ta'limda turli elektron virtual laboratoriyalar (Phet similition) va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilar ta'lim materiallarini yanada chuqur va samarali o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Pedogogik texnologiya mustaqil ta’lim jarayoniga sistemali yondashuv bo’lib, unda ta’lim jarayonining tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o’zaro munosabati ta’limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo’ladi. Nihoyat, masofaviy ta'lim o‘quvchilarga individual o‘quv rejalarini mustaqil shaklda yaratish imkonini berib, ta'limni o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, masofaviy ta'lim mustaqil o‘qishning samaradorligini va sifatini oshiradi.

Natija va muhokama: Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talabalar o‘z bilimlari va ko‘nikmalariga asoslanib ta'lim olishadi va o‘z bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga imkon yaratadi. Mustaqil ravishda o‘rganish talabalar uchun o‘z-o‘zini baholash, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish imkoniyatlarini taqdim etadi, natijada ta'lim jarayoni yanada samarali va natijador bo‘ladi. Talabalar maruza mshg`ulotlarida olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotda tadbiq qilishlari uchun fizika sohasida xafvsiz muhit va jarayon kerak bo`ladi. Bu jarayonda virtual laboratoriyalar talabalar uchun ilmiy tajribalarni o‘tkazishda zarur vosita bo‘lib, ular o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, PhET simulyatsiyalari orqali talaba fizika tajribalarini uyda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydi. PhET dasturi turli fanlarda, jumladan, fizika, kimyo, biologiya va matematika kabi sohalarda o‘quvchilarni ilmiy izlanishlar va tajribalar orqali o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni natijaga erishishini osonlashtiradi. Bu kabi virtual laboratoriyalar va online platformalar talabalarni mustaqil va masofadan ilm olishga katta imkon yaratadi, har qanday bilimni mustahkamlash uchun avvalo o‘sha bilimga ega bo‘lish zarurdir. Buning uchun talabalarga o`qituvchilarning yordami kerak bo`ladi. Oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta`limini shakllantirish uchun avvalo mustaqil ta`lim uchun maruza mashg`ulotlarini egallash uchun kerakli resurslar, amaliy mashg`ulotlar uchun o`quv qo`llanmalar va tajriba ishlari uchun virtual laboratoriyalar bilan taminlash kerak. Hamda talabalarga mustaqil ta'limda murakkab mavzularni tanlashda ehtiyotkorlik zarurO‘qituvchilar mavzu tanlashda talabalarining hozirgi bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish motivatsiyasini hisobga olib, mavzuni ehtiyotkorlik bilan belgilashlari juda muhimdir. Agar mavzu talabaning bilim darajasiga mos kelmasa yoki u qiziqishini uyg‘otmasa, bu nafaqat tushunmovchilikka, balki ta'lim jarayonidagi motivatsiyaning pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, juda murakkab yoki talabalar uchun haddan tashqari qiyin bo‘lgan mavzular ularda stress, ishtiyoqning yo‘qolishi va o‘rganishdagi muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo‘lishi ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, talabaning bilim darajasiga mos ravishda tanlangan mavzu o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Yaxshi tanlangan mavzu talabaning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, uning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan ishtiyoqini rag‘batlantiradi va o‘qishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bunday mavzu talabalar uchun o‘rganish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki amaliy va ilmiy jihatdan samarali qiladi. Bunda o‘qituvchining roli, ayniqsa, talabaning qiziqishlariga mos ravishda ma'lumotlarni taqdim etish va mavzuni tushunarli tarzda yoritishda katta

ahamiyatga ega bo‘ladi. Natijada, talabalar o‘z bilimlarini kengaytirib, o‘qishdan zavq olishadi va o‘z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishadilar.

Xulosa. Mustaqil ta'lim, talabalar uchun o'z bilimlarini chuqurroq o'zlashtirish va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual laboratoriyalar va masofaviy o'qish tizimlari, xususan, PhET simulyatsiyalari, talabalarga fizika fanida ilmiy tajribalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari, talabalar va o'qituvchilarga ta'limni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Biroq, mustaqil ta'lim jarayonida murakkab mavzularni tanlashda ehtiyotkorlik zarur. O'qituvchilar, talabalar uchun bilim darajasiga mos va qiziqarli mavzularni tanlashda ularning bilim darajasini va qiziqishlarini hisobga olishlari lozim. To'g'ri tanlangan mavzu o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, bu esa talabalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishiga yordam beradi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'limning sifatini oshirish, talabalarga zarur resurslar, qo'llanmalar va virtual laboratoriyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Zafar Khusanov, Ўқувчиларнинг мустақил ишлари тизимини такомиллаштириш омиллари, Жамият ва инновациялар, ISSN 2181-1415 , 516-522
2. Ismoilov Nodirjon Kodirjonovich Ravshanov Yo‘ldoshali Ruzimurodovich, The physics aviary platformasining ta’lim jarayonidagi roli, yangi o‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, ISSN: 3030-3494, 308- 312
3. Holiqova Dilnoza Sirojiddinovna, Masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali o’qish va o’qitish tizimi imkoniyatlari, World of Science, Volume-7, Issue-10, 186-190
4. Bozorova Aziza, Sayfullayeva Gulhayo, Kredit–modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish, yangi o‘zbekiston talabalari axborotnomasi, 24-28

Kirmizi Mambetqasimova
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

YENGIL ATLETIKADA RUHIY CHIDAMLILIK VA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yengil atletikada ruhiy chidamlilikning sport natijalariga ta’siri va muvaffaqiyatga erishish omillari tahlil qilingan.. Maqolada ruhiy chidamlilikni shakllantirish texnikalari, stressni boshqarish usullari va musobaqalar davomidagi motivatsiyaning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, yengil atletika sportchilari uchun psixologik maslahatlarning samaradorligi va bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarning natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *chidamlilik, stress, jismoniy faoliyat, motivatsiya, ijtimoiy omil, samaradorlik, tafakkur, iroda.*

ПСИХИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ФАКТОРЫ ДОСТИЖЕНИЯ УСПЕХА В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

Аннотация. *В этой статье анализируется влияние умственной выносливости на спортивные результаты в легкой атлетике и факторы успеха.. В статье рассматриваются методы формирования умственной выносливости, методы управления стрессом и важность мотивации во время соревнований. Кроме того, проанализирована эффективность психологического консультирования легкоатлетов и результаты исследований в этом направлении.*

Ключевые слова: *выносливость, стресс, физическая активность, мотивация, социальный фактор, работоспособность, мышление, сила воли.*

MENTAL TOUGHNESS AND FACTORS OF SUCCESS IN TRACK AND FIELD

Annotation. *This article analyzes the impact of mental endurance on sports performance and the factors of success in athletics.. The article examines the techniques of mental endurance formation, stress management techniques, and the importance of motivation in the continuation of competitions. In addition, the effectiveness of psychological counseling for athletics athletes and the results of research carried out in this direction were analyzed.*

Keywords: *endurance, stress, physical activity, motivation, social factor, efficiency, thinking, willpower.*

Kirish. Yengil atletika faqat jismoniy kuch va texnik ko‘nikmalarga asoslanadigan sport turi bo‘lib qolmay, unda sportchilarning ruhiy holati ham katta ahamiyatga ega. Musobaqalar davomida yuqori natijalarga erishish nafaqat tananing tayyorgarligi, balki ong va ruhiy holatning mustahkamligi bilan ham bog‘liq. Ruhiy chidamlilik – bu sportchining qiyin sharoitlarda ham o‘z diqqatini jamlash, qat’iyatni saqlash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat murakkab psixologik jarayonlarga asoslangan bo‘lib, muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yengil atletikada sportchilar musobaqalar oldidan va davomida katta ruhiy bosimga duch keladilar. Bu bosimni yengish va o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyish etish uchun sportchilarning psixologik tayyorgarligi juda muhim. Ruhiy chidamlilik nafaqat musobaqa davomida natijalarga ta’sir ko‘rsatadi, balki murabbiy bilan ishlash, mashg‘ulotlardagi muvaffaqiyatsizliklarni yengib o‘tish va uzoq muddatli maqsadlarga erishishda ham katta rol o‘ynaydi.

Yengil atletikada muvaffaqiyatga erishishda stressni boshqarish, diqqatni jamlash, o‘z-o‘zini motivatsiya qilish kabi omillar muhim hisoblanadi. Ushbu jihatlar sportchilar uchun nafaqat texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishda, balki psixologik barqarorlikni saqlashda ham muhim vosita bo‘ladi. Shu sababli, sportchilarning ruhiy chidamliligini shakllantirish va uni rivojlantirish strategiyalari ustida ishlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati. Yengil atletika sohasida ruhiy chidamlilik va psixologik tayyorgarlik mavzusiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sport psixologiyasi yo‘nalishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu bo‘limda ilmiy adabiyotlarda yoritilgan asosiy konsepsiyalar, metodologiyalar va natijalar tahlil qilinadi.

Ruhiy chidamlilik tushunchasi Klouf va Earle (2002) tomonidan “4C” modeli asosida tasvirlangan bo‘lib, unda qiyinchiliklarni qabul qilish (challenge), boshqaruv (control), majburiyat (commitment) va o‘ziga ishonch (confidence) asosiy komponentlar sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu model sportchilarning ruhiy barqarorligini baholash va rivojlantirishda keng qo‘llaniladi. Mazkur model yengil atletika sportchilari uchun moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi [1].

Lazarus va Folkman tomonidan taklif etilgan stressni boshqarish nazariyasi sportchilarning musobaqa davomida stressga qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musobaqa oldidan stressni samarali boshqarish yuqori natijalarga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, Dechi va Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini motivatsiya qilish nazariyasi yengil atletika sportchilari orasida motivatsion omillarning individual va jamoaviy natijalarga qanday ta’sir qilishini tushunishda yordam beradi [3].

Veinberg va Guld tomonidan nashr etilgan “Sport psixologiyasi asoslari” kitobida diqqatni jamlash, ijobiy tasavvur qilish va autogen mashqlar orqali sportchilarning psixologik holatini yaxshilash strategiyalari batafsil ko‘rib chiqiladi. Yengil atletika sportchilari uchun vizualizatsiya texnikalari, ya’ni muvaffaqiyatli chiqishlarni ongda tasavvur qilish mashqlari, stressni kamaytirish va ishonchni oshirishda samarali vosita sifatida qayd etiladi [4].

Ruhiy chidamlilikni baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan testlar va o‘lchov vositalari, jumladan, Sports Mental Toughness Questionnaire *(SMTQ)*, yengil atletika sportchilari o‘rtasida keng qo‘llanilmoqda. Gujjiardi va Jones (2012) tadqiqotlarida SMTQ vositasida to‘plangan ma’lumotlar ruhiy chidamlilikning musobaqadagi samaradorlik bilan mustahkam bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Yengil atletikachilar o‘rtasida o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik tayyorgarlik dasturlari muvaffaqiyat darajasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, H. Neil (2008) stressni boshqarish texnikalarini qo‘llagan sportchilar musobaqalarda yuqoriroq natijalarga erishganini qayd etgan. Shuningdek, motivatsion suhbatlar va guruh dinamikasini yaxshilash yondashuvlari sportchilarning individual ishonchini va jamoaviy ruhiyatni mustahkamlaydi [6].

Muhokama. Yengil atletikada muvaffaqiyatga erishish nafaqat sportchining jismoniy ko‘rsatkichlari, balki uning psixologik tayyorgarligi va ruhiy chidamliligiga ham bog‘liq. Sportchilar kuchli texnik va taktik bilimlarga ega bo‘lishiga qaramay, musobaqa oldidan va davomida duch keladigan stress, bosim va boshqa psixologik omillar ularning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ruhiy chidamlilikni shakllantirish va saqlash yengil atletikada yuqori darajadagi natijalarga erishishda muhim o‘rin tutadi.

Ruhiy chidamlilik sportchining qiyin sharoitlarda, masalan, kuchli raqobatchilarga qarshi kurashda yoki kutilmagan muvaffaqiyatsizliklardan keyin o‘zini tuta olish qobiliyatidir. Bu qobiliyat o‘ziga ishonchni saqlash, emotsiyalarni boshqarish va stress holatida samarali qarorlar qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ruhiy chidamlilik murabbiylar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus mashg‘ulotlar va psixologik texnikalarni qo‘llash orqali rivojlantirilishi mumkin. Masalan, diqqatni jamlash, tasavvur qilish (vizualizatsiya) mashqlari va stressni kamaytiruvchi nafas olish texnikalari sportchilarning o‘z mahoratini maksimal darajada namoyish etishiga yordam beradi.

Musobaqalar davomida stressni boshqarish juda muhim. Stress yuqori darajada bo‘lsa, sportchi texnik xatolarga yo‘l qo‘yishi yoki musobaqa natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan qarorlar qabul qilishi mumkin. Stressni kamaytirishning samarali usullaridan biri bu musobaqa oldidan o‘zini ijobiy ruhiy holatga sozlashdir. Ijobiy tasavvurlarni shakllantirish, masalan, o‘zini muvaffaqiyatga erishayotgan holda tasavvur qilish, stress darajasini pasaytirib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Motivatsiya ham sport natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Yengil atletikachilar uchun ichki motivatsiya (o‘zini rivojlantirish va natijalarni yaxshilash istagi) va tashqi motivatsiya (musobaqalarda g‘alaba qozonish yoki mukofotlarga ega bo‘lish) birgalikda ishlashi lozim. Motivatsiya darajasini

oshirish uchun sportchilar o‘z oldiga aniq va erishilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yishlari kerak. Katta maqsadlarni kichik bosqichlarga ajratish ularga har bir bosqichda muvaffaqiyatga erishish hissini beradi va bu ishonchni oshiradi.

Yana bir muhim omil bu musobaqa jarayonida o‘z emotsiyalarini boshqarish qobiliyatidir. Qoniqarsiz natijalar yoki raqobatchilarning kuchli harakatlari sportchini ruhiy jihatdan ezib qo‘yishi mumkin. Bunday vaziyatlarda sportchilar diqqatni qayta jamlash va o‘z strategiyasiga sodiq qolish uchun maxsus psixologik texnikalardan foydalanishlari zarur.

Jamoaviy qo‘llab-quvvatlash ham ruhiy chidamlilikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Murabbiylar, jamoa a’zolari va psixologlarning sportchiga nisbatan ijobiy yondashuvi sportchining o‘zini ishonchli va barqaror his qilishiga yordam beradi. Jamoaning ruhiy holati sportchiga individual harakatlarida ham, jamoaviy musobaqalarda ham katta yordam beradi.

Yengil atletikada ruhiy chidamlilikni shakllantirish va rivojlantirish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Psixologik tayyorgarlikning jismoniy mashg‘ulotlar bilan birgalikda olib borilishi, stressni boshqarish texnikalarini o‘zlashtirish va motivatsion strategiyalardan foydalanish sportchilarga musobaqalarda yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Shu bilan birga, bu jarayon davomida sportchining shaxsiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlari inobatga olinishi muhimdir. Bu yondashuv sportchilar uchun nafaqat musobaqalarda, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyat sari yo‘l ochadi.

Xulosa. Yengil atletikada ruhiy chidamlilik va psixologik tayyorgarlik sportchilarning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ruhiy chidamlilik sportchilarga stressni boshqarish, diqqatni jamlash va qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi. Motivatsion strategiyalar, vizualizatsiya mashqlari va stressni kamaytiruvchi usullar bu qobiliyatni rivojlantirishning samarali vositalaridir.

Psixologik tayyorgarlik dasturlari nafaqat individual sportchilar uchun, balki murabbiylar va jamoalar uchun ham muhim bo‘lib, ularni musobaqalarda yuqori natijalar ko‘rsatishga yo‘naltiradi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash orqali sportchilarning ruhiy barqarorligini oshirishning muhimligini tasdiqlaydi. Shu sababli, ruhiy chidamlilikni shakllantirish yengil atletikada samaradorlikni oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Clough, P., & Earle, K. (2002). Developing Mental Toughness: Improving Performance, Wellbeing and Positive Behaviour in Others. Cogan Page Publishers.

2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. Springer Publishing Company. 240 p.

3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Springer Science & Business Media.

4. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2019). Foundations of Sport and Exercise Psychology (7-nashr). Human Kinetics.438-465 pp.

5. Gucciardi, D. F., & Jones, M. I. (2012). Mental Toughness and Athletes' Performance in High-Pressure Situations: A Systematic Review and Meta-Analysis. Psychology of Sport and Exercise, 13(3), 215–224.

6. Hanton, S., Neil, R., & Mellalieu, S. D. (2008). Recent Developments in Competitive Anxiety Direction and Competition Stress Research. International Review of Sport and Exercise Psychology, 1(1), 45–57.

Komilov Nodirbek Bokijonovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

TIBBIYOT TARIXI FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TIBBIY TA’LIMDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Tibbiyot tarixi bir necha rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi va har bir bosqich o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘sha davrning ilmiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettiradi. Qadimiy davrlardagi davolash amaliyotlaridan boshlab zamonaviy tibbiy ta’limga qadar tibbiyot fanining rivojlanishi jamiyatning evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Tibbiyot tarixi, kelajakdagi shifokorlarning kasbiy va axloqiy yo‘nalishlarini shakllantiruvchi muhim fan sifatida, sog‘liqni saqlash mutaxassislarini tayyorlashda alohida ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *tendensiya, metodika, tibbiy deontologiya, tibbiy amaliyot, ijtimoiy prinsip, gumanitar fanlar, empirik tadqiqot, didaktik imkoniyat.*

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF THE HISTORY OF MEDICINE, THEIR PECULIARITIES AND THEIR ROLE IN MEDICAL EDUCATION

Abstract. *The history of medicine has gone through several stages of development, each characterized by unique features reflecting the scientific, cultural, and social transformations of its time. From ancient healing practices to modern medical education, the evolution of medical science has been closely intertwined with societal progress. Special emphasis is placed on the significance of medical history as a critical discipline in the training of healthcare professionals, shaping the professional and ethical foundations of future physicians.*

Keywords: *trend, methodology, medical deontology, medical practice, social principle, humanities, empirical research, didactic opportunity.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИСТОРИИ МЕДИЦИНЫ, ИХ ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *История медицины проходит через несколько этапов развития, каждый из которых характеризуется уникальными особенностями, отражающими научные, культурные и социальные изменения своего времени. От древних целительных практик до современного медицинского образования, развитие медицинской науки тесно связано с эволюцией общества. Особое внимание уделяется значению истории медицины как важной дисциплины в подготовке специалистов здравоохранения, формирующей профессиональные и этические ориентиры будущих медиков.*

Ключевые слова: *история медицины, этапы развития, медицинское образование, профессиональная этика, эволюция медицины.*

Kirish. Ilmiy texnik taraqqiyot va zamonaviy texnologiyalarning paydo bo‘lishi, shuningdek, yangi diagnostika usullarining kashf qilinishi va kasalliklarni davolash tibbiyotni shunchalik boyitdiki, natijada unda yuz yillar oldin mavjud bo‘lgan “shifo sanati”ga o‘rniga zamonaviy tibbiyot vujudga keldi. Biroq tibbiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimgi davrlarda shifokorlar kasalliklarni erta boskichlarda aniqlashga, uning sababini topishga va eng muhimi – profilaktik chora tadbirlarni o’tkazish (donozologiya) va hayot tarzini o‘zgartirish orqali kasallikni oldini olishga harakat qilishgan.

Qadimgi va antik davrdagi shifokorlar psixosomatik bog‘liqlikka, tana sog‘ligini saqlash uchun kayfiyat va qalbiy salomatlikka katta ahamiyat berishgan. Tibbiyotni shakllanish va rivojlanish tarixini o‘rganish, nafaqat o‘zlashtirish darajasini kengaytirishga, balki zamonaviy bilimlar tizimini

qadimgi tarixiy tizim bilan bog‘lashga hamda qaysidir manoda, dialektika qonunlaridan foydalangan holda, kelajakka nazar tashlashga yordam beradi.

Tibbiyot tarixini o‘rganish zamonaviy shifokorlarni ma’daniy, estetik, etik va mahorat jihatdan rivojlanishida asosiy o‘rinni egallaydi.Tibbiy san’at nafaqat avloddan – avlodga malumot yetkazish, balki insoniyatni mukammalashtirish maqsadi bo‘lgan diniy, falsafiy va milliy bilimlar tizimiga birikib bormoqda.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya Tibbiyot tarixini fan sifatida rivojlanishini shartli ravishda uchta davrga ajratish mumkin:

Birinchi davr - tibbiyot olamida ma’lumotlarni yig‘ish va to‘plash bilan bog‘lik. Bu Gippokrat davridan boshlanib hozirgi vaqtgacha yakunlanmagan eng davomli davr bo‘lib, shifokorlik bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va barcha yunalishlarda keng manoda tibbiy yordamni ko‘rsatish bilan bog‘liq.

Tibbiyot tarixi to‘g‘risidagi ko‘p asarlar o‘rta asrlarda Sharqda paydo bo‘ldi. Abu Xasan al-Bayxakiy, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usaybia, Abu Bakr Ibn al-Xalikon kabi olimlar mehnatida Abu Bakr Ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Sharafuddin Ilokiy, Najibuddin Samarkandiy, Ismoil Jurjoniy va O‘rta Osiyodagi boshka taniqli tabiblar hayoti va faoliyatidan qiziq ma’lumot va dalillar keltirilgan. Biroq bu kabi asarlar kam va qismlari tarkalib ketgan, shuning uchun ularni tibbiyot tarixi sohasida ilmlar tizimi deb hisoblab bo’lmaydi [1].

Ikkinchi davrda (XVIII dan XIX asrgacha) yig‘ilgan ma’lumotlarni o‘rganish va muhokama qilish tizimlashtirildi. Bu davrda Germaniyada K. Shpringl, V. Undirlix, G.Pushman, Y.Pagel, A.Girsh, Fransiyadan E.Littre, Sh. Daramberlar ushbu sohada ijod qilishdi.

Rossiyada F.G. Politkovskiy, Y.M. Govorov kabi tadqiqotchilar tomonidan tibbiyot tarixiga oid asarlar yaratildi [2].

Uchinchi davr – oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiyot tarixi”ning birinchi kafedralarini shakllantirish va tibbiyot tarixini alohida fan sifatida shakllanishi bilan bog‘liq. 1894 yil Moskva universitetining tibbiyot fakultetida tibbiyot tarixining birinchi kaferasi ochildi.

Tibbiyot tarixi fani insoniyatning tibbiy bilimlarini rivojlantirish jarayonini o‘rganadi. Uning rivoji butun tarix davomida turli bosqichlarni o‘tdi, har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari va axamiyati bor. Keling, tibbiyot tarixining asosiy rivojlanish bosqichlarini va ularning xususiyatlarini ko‘rib chiqaylik:

1. Antik davr (Yegipt, Mesopotamiya, Hindiston, Gretsiya).

Xususiyatlari - tibbiyot tarixi fani antik sivilizatsiyalarda o‘zining ilk shakllarini oldi. Masalan, qadimiy Misr, Hindiston va Mesopotamiyada tabiblar turli shifo usullari, fitoterapiya, xirurgiya va ilk tibbiy amaliyotlar bilan tanishgan.

Mifologik va diniy tushunchalar: Qadimiy tibbiyotda ko‘pincha tibbiy bilimlar diniy tushunchalar va tabiiy aflotlar bilan bog‘lanar edi. Misrda tabiblar qa’rida "Gippokrat" kasalliklarning diniy va tabiiy sabablarini tushunar edilar [3].

Gretsiyada tibbiy bilimlar rivoji: Gretsiyada, ayniqsa, Gippokrat va Galen kabi olimlar tibbiyotning mustaqil fani sifatida rivojlanishini boshladilar. Gippokrat tibbiy axloq va kasbiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

2. O‘rta asrlar (5-15 asrlar). O‘rta asrlarda tibbiyotning rivoji katta darajada diniy muassasalarga bog‘landi. Monastirlarda va diniy ta’lim muassasalarida tibbiy bilimlar saqlanib qolgan, u yerda tabiblar kasalliklarni davolashda ko‘pincha diniy usullarga va badiiy omillarga asoslanishgan [4].

3. Yangiliklar davri (Renessans va yangi davr, 15-18 asrlar). Tibbiy bilimlarning ilmiy asoslanishi: Renessans davrida tibbiyotda nazariy va amaliyot bo‘yicha katta inqiloblar yuz berdi. Leonardo da Vinchi va Andreas Vezalius kabi olimlar inson tana anatomiyasini chuqurroq tadqiq qilishga va murakkab qurilishlar va funksiyalarni tushunishga harakat qilishdi.

4. Zamonaviy davr (19-20 asrlar). 19-asrda tibbiyot fani tubdan rivojlandi. Lui Paster va Robert Koxning mikroblar nazariyasi, Igor Sechenov va Ilya Mechnikovning immunologiya va fiziologiyadagi yutuqlari tibbiyotning zamonaviy tushunchalariga asos soldi.

Antibiotiklar va vaksinalarning kashfi bilan tibbiyotda kasalliklarning davolashi va profilaktikasi yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xirurgiya va tibbiy usullarning inqilobi: Xirurgiyada yangi texnika va usullar, masalan, anesteziyaning ishlab chiqilishi, to‘liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratdi.

5. Hozirgi zamon (20-21 asrlar). Tibbiyotda genetika va biotexnologiyalar, shu jumladan, DNK tahlillari, genomika va tibbiyot singari sohalar rivojlanmoqda.

Mikrobiologiya va yoshlarning tibbiy ta’limi: Yangi ilmiy yutuqlar, tibbiy apparaturalar va yoshlarning tibbiy ta’limi orqali tibbiyotdagi rivojlanishlar yuqori darajada olib borilmoqda.

Hayotga oid tahdidlar va ekologik omillar: Zamonaviy tibbiyotda ekologik va hayotga bo‘lgan tahdidlar (masalan, klimat o‘zgarishlari, pandemiyalar) muammolarini hal qilishga yordam berish maqsadida yangi tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tibbiyot tarixi fani o‘zining rivojlanish bosqichlarida har bir davrda yangi g‘oyalar, usullar va innovatsiyalar bilan boyidi. Har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari tibbiyot fanini aniqlash, rivojlantirish va aholini davolashda yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot tarixi fani, o‘tmishdan o‘rganib, zamonaviy tibbiy muammolarga e’tibor qaratishga yordam beradi.

Natijalar O‘rta Osiyo respublikalarida tibbiyot tarixi bo’yicha birinchi ma’ruzalarni tibbiyotning turli sohalaridagi mutaxassislar o‘qigan. Masalan, 1930 yilda Samarqand tibbiyot institutida «Gistologiya va embrilogiya» kafedrasi mudiri G.M.Semenov tibbiyot tarixi fanidan dars bergan. 1940 yilda bu ma’ruzalarni «Biologiya» kafedrasi mudiri P.M.Faktorovich o‘qigan.

O‘rta Osiyoda birinchi «Tibbiyot tarixi kafedrasi» 1948 yil 1 martda Toshkent Tibbiyot institutida ochilgan. Keyinchalik shunga o‘xshagan kafedralar O‘rta Osiyoning boshka oliy o’quv yurtlarida ham ochilgan [5].

1957 yilda O‘zbekistonda tibbiyot tarixchilari jamoasi tashkil etildi. 1950-1980-yillarda tibbiyot tarixini o‘rganish keng qamrovni egalladi. Bir gurux yirik olimlar paydo buldi, jumladan, A.A.Abdullayev, M.X.Qodirov, M.M.Maxmudov, I.K.Abdullayev kabi olimlar mehnati O‘zbekistonda tibbiyotda sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga zamin yaratdi [6].

Diniy-mistik nazariya tarafdorlari odamning paydo bulishi, uni avvaldan sog‘lom va salomat bo‘lgani, biroq amalsizligi tufayli azob, kasallik va o‘limga duchor bo‘lgani haqidagi g‘oyalarni ilgari surishadi. Birinchi shifoxona va tibbiy maktablarning paydo bo‘lishi cherkov va masjidlarning rivojlanishi bilan bog‘lik. Shuning uchun materialistik nazariya tarafdorlari tibbiyotni atrof muxit ta’siriga javoban paydo bo‘lgan deb qarashadi. Gippokrat yozishi buyicha: «Xayotning o‘zi odamlarni tibbiyot san’atini qidirish va ochishga majbur qildi». Tibbiyotning mukammallashishi, asosan, insoniyat ilmining ortishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘likdir [7].

Muhokama Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning rivoji va shakllanish jarayonini o‘rganadi, tibbiy bilimlarning ta’lim va amaliy qo‘llanishiga asos soladi. Uning asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Tibbiy bilimlar rivojining tarixi. Tibbiyot tarixi fani tibbiy bilimlar va kasbning rivoji, tibbiy usullar, diagnostika, davolash va profilaktika usullarining qachon va qanday shakllanishini tahlil qiladi. Bu, o‘z navbatida, tibbiy fanning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tibbiyotning antik va o‘rta asrlar davridan zamonaviy davrgacha rivoji: Tibbiy bilimlar va amaliyotlarning tarixi qadimgi Misr, Hindiston, Mesopotamiya, Gretsiya kabi sivilizatsiyalardan boshlanib, zamonaviy tibbiy fanga qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Har bir tarixi davrning o‘ziga xos rivoji va yonidashuvi mavjud.

2. Tibbiyot ta’limotlarining tarixiy jihatlari.Tibbiyot ta’limotlari har bir tarixi davrda shakllanib, mustahkamlanib, zamonaviy tibbiyot ta’limiga asos solgan. Tibbiyot tarixi fani ta’limning rivojini, talabalarga tibbiy bilimlarning shakllanishini, ta’lim metodologiyasini o‘rganadi.

Qadimgi davrlardagi tibbiy ta’lim: Antik Gretsiyadagi tibbiy ta’limdan boshlab, Misr va Bobildagi tibbiy maktablar davrigacha, tibbiyot ta’limi asosan amaliy va diniy prinsiplarga asoslangan. Bu jarayonlarda uqtirish usullari, pedagogika va ta’limning taraqqiy etishi muhim rol o‘ynagan.

3. Tibbiy axloq va kasbiy mas’uliyat. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning axloqiy va etik jihatlarini o‘rganadi. Bu tibbiy kasbdagi insoniy munosabatlar, tabiblar va bemorlar o‘rtasidagi munosabatlar, shifokorlar uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan etik normalar va xulq-odobni targ‘ib qiladi.

Gippokrat antitalafi: Gippokratning tibbiy axloq va etikaga oid qoidalari tibbiyot tarixi fanining asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, tibbiyotni odamparvarlik va axloqiy prinsiplarga asoslangan kasb sifatida shakllantirdi.

4. Tibbiyotdagi ilmiy yutuqlar va inqiloblar. Tibbiyot tarixi fanini o‘rganish ilmiy yutuqlar, yangiliklar va inqiloblarni o‘rganishni talab qiladi. Bu, tibbiyotdagi eng katta inqiloblarning tarixi, masalan, mikrobiologiya, anesteziya, antibiotiklar, vaksinatsiya, genetika va biotexnologiyalar kabi sohalardagi ilmiy yutuqlarini qamrab oladi.

Mikrobiologiya va infeksiya nazariyasi: Lui Paster va Robert Koxning mikrobiologiyadagi yutuqlari, shifokorlar uchun to‘g‘ri diagnostika va davolash usullarini rivojlantirdi.

5. Tibbiy texnologiyalar va amaliyot usullari. Tibbiyot tarixi fani tibbiy texnika va texnologiyalarning rivoji, xirurgiya, diagnostika, tibbiy asboblar va laboratoriya usullarining tarixini o‘rganadi. Bu, tibbiyotning o‘zgarishlari va yangi ilmiy yutuqlarni qanday jamiyatga tatbiq etganini tahlil qiladi.

Xirurgiya va tibbiy texnikalar: Xirurgiyada anesteziya va yuqori texnologik operatsiyalardan foydalanish, tibbiyotni yangi bosqichga olib chiqdi.

6. Global tibbiyot va xalqaro hamkorlik. Tibbiyot tarixi fani xalqaro tibbiy hamkorlik va tibbiyotning global rivojini o‘rganadi. Bu soha tibbiy ta’limning xalqaro standartlari, tibbiy tadqiqotlar va tibbiy yo‘nalishlar o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Global sog‘liq saqlash muammolari: Sog‘liqni saqlashning global muammolari, shu jumladan, pandemiyalar, yoshlar orasidagi kasalliklarning tarqalishi va ularga qarshi kurashish usullari tarixiy jihatdan ahamiyatlidir.

7. Tibbiyotning madaniy va ijtimoiy ta’siri.Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning jamiyatga bo‘lgan ta’siri, tibbiyotning ijtimoiy ahamiyati va inson hayotiga bo‘lgan yo‘nalishlarni tahlil qiladi. Tibbiyot kasbi nafaqat kasbiy mas’uliyatga, balki ijtimoiy va madaniy rolga ham ega [8].

Tibbiyotning ijtimoiy ta’siri: Tabiblar va tibbiy institutlar jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal qilishda, jumladan, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi [9].

Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning rivoji, amaliyot va ta’lim asoslarini shakllantirishda, kasbiy axloq, ilm-fan va texnologiyalarning o‘zgarishlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Uning asosiy jihatlari tibbiyotning umumiy rivoji, amaliyotning standartlashtirilishi, tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik va tibbiyotning jamiyatga bo‘lgan ta’siri bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Joy RJT. Morris LE, Schroeder ME, Warner ME. The history of the development of the history of medicine and its teaching in the United States.- Illinois: Wood Library-Museum of Anesthesiology, 2004. – P.7.

2. Kushner HI, Leighton LS. Humanities in the Twenty-First Century. - London: Palgrave Macmillan, 2013. –P. 111.

3. Barsu C. History of Medicine between tradition and modernism // Clujul Medical. 2017, № 90(2).doi: 10.15386/cjmed-794. – P. 243.

4. Lederer SE, More ES, Howell JD. Medical history in the undergraduate medical curriculum. // Academic medicine, 1995 Sep; 70(9):770-6.PMID: 7669153. –P.18-53.

5. Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jacalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Case for History in Medical Education // Journal of the History of Medicine and Allied Sciences. № 4 (November 13): doi:10.1093/jhmas/jru026. – P.623–652.

6. Komilov N. Role of historical factors of history of medicines pedagogy / International scientific conference innovative trends in science, practice and education. №3, 2024. -P.95-98

7. Komilov N. Analysis of the main aspects of increasing the exclusive competence of students through teaching the history of medicine / Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. №2, 2024. -P.18-20

8. Komilov N. Teaching history of medicine to foreign students is vital factor of pedagogy // World of Scientific news in Science. № 3/2. 2024. -P.51-55.

9. Komilov N. Didactic opportunities of teaching history of medicine to foreign students studying in higher medical educational institutions // Академические исследования в современной науке. Том 2, № 19.-С.119-122.

Mirzoyeva Sayyora Sidiq qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Texnologik mashina va jihozlar kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Email:sayyoramirzayeva96@mail.ru

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARNI VIRTUAL TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni o'qitishning metodik tizimini ishlab chiqish, mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhitida o'qitishning muhim yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan.Texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni o'qitishning asosiy xususiyati, talabalar amaliyotda duch kelmagan turli xil haqiqiy texnik qurilmalar va tizimlarning tarkibi va ishlash rejimi bo'yicha murakkab nazariy asoslar yoritib berilgan. Zamonaviy dasturiy vositalarning ta'lim sifatiga ta'siri, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida oliy ta'limda dasturiy vositalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxasssislik fanlarini o'qitishning bugungi holati, dasturiy pedagogik vositalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Bundan tashqari texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhitida o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari borasida o'zbek va xorijiy adabiyotlar tahlil qilingan*

Kalit so'zlar. *Axborot ta'lim muhiti, mutaxassislik fanlar, texnik qurilmalar, metodik tizim, ta'lim maqsadlari. oliy ta'lim, dasturiy vositalar, ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayoni.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ВИРТУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

2. Vaqt cheklovlari: Ba'zi kompleks vaziyatlar uchun ko'p vaqt talab qilinishi mumkin, bu esa resurslarni samarali taqsimlashni talab qiladi.

3. Realizmga erishish: Ba'zida, rol o'ynashdagi vaziyatlar real hayotga to'liq mos kelmasligi mumkin, bu esa o'qitish samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bar yangi texnologiyani o'qitish, o'rganish va shaxsiy rivojlanish uchun juda foydali usuldir, ammo uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yaxshi tashkil etilgan reja va aniq maqsadlar kerak bo'ladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga,har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo‘lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, ta'lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi.Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarga ona tilini o'rganishda yanada samarali va qiziqarli imkoniyatlar yaratiladi, bu esa ularning til bilish ko'nikmalarini tez va sifatli rivojlantirishga yordam beradi. Bu dars jarayoniga o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘z hissasini qo‘shishi mumkin bo‘lgan qiziqarli o‘qitish strategiyasidir. Bu usul o‘quvchilarni vizual va interaktiv o‘rganishga jalb qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Isyanov R.G. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini malakasini oshirish texnologiyalari. –T.: Fan, 2011. - 189 b.

2. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. –T.: 2000. -161 b.

3. Qodirov B.G‘., Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. Elektron darslik. 2002. -213 b.

7. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent 2022.

8. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent 2016

9. O.Roziqov, B.Adizov, G.Najmiddinova Umumiy Didaktika. Toshkent 2012.

Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: ruziyevdavron38@gmail.com

CHOLG'U ANSAMBLI TA'LIMI JARAYONIDA MUSIQIY ASAR IJROSIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Maqolada cholg'u ansambli ta'limi jarayonida musiqa asari ustida ishlash uslublari, musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayonlarga psixologik yondashish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa asari, kompozitor, cholg'u ansambli, sozanda, ritm, temp, dinamika, zarb, ijro uslubi, badiiy ifoda, ijodiy tasavvur.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИСПОЛНЕНИЮ МУЗЫКАЛЬНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО АНСАМБЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы психологического подхода к сложным процессам, состоящим из множества факторов, таких как методы работы над музыкальным произведением в процессе обучения музыкального ансамбля, работа над техническим исполнением, фразировкой, артикуляцией, изучение стиля и периода. композитора, составляющие исполнительское мастерство музыканта.*

Ключевые слова: *Музыкальное произведение, композитор, инструментальный ансамбль, музыкант, ритм, темп, динамика, стиль исполнения, художественная выразительность, творческое воображение.*

PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE PERFORMANCE OF A WORK OF MUSIC

Annotation. *The article discusses issues of a psychological approach to complex processes consisting of many factors, such as methods of working on a piece of music in the process of training a musical ensemble, working on technical performance, phrasing, articulation, studying style and period. composer, making up the performing skills of a musician.*

Keywords: *Musical work, composer, instrumental ensemble, musician, rhythm, tempo, dynamics, hatch, performance style, artistic expression, creative imagination.*

Kirish. Musiqa asari ustida ishlash musiqachining barcha faoliyatining asosidir. Lekin cholg'uni o'zlashtirish va asarlarni o'rganishdagi muvaffaqiyat bevosita musiqiy faoliyatga emas, balki sozanda shaxsini maqsadli rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, musiqiy, badiiy-estetik tajriba orttirishga ham bog'liqdir.

Asar ustida ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun uning maqsadi - badiiy obrazni ochishni tushunish kerak. Musiqiy asarni o'rganishning barcha bosqichlari ijrochini ushbu maqsadga erishish uchun barcha vositalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Sahnada chiqish ham musiqiy obrazni ochib berishni maqsad qiladi. Barcha bosqichlarda asar ustida malakali ishlash ommaviy chiqish paytida musiqiy tasvirni muvaffaqiyatli ochib berishning zarur shartidir.

Musiqa asari ustida ishlash musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, asarni o'rganish jarayonida musiqachining ijrochilik va umuman, professional saviyasi oshib borishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musiqiy psixologiya muammolari qadimgi davrlardan boshlab musiqa san'ati rivojlanishining barcha bosqichlarida ko'rib chiqilgan.

Musiqa psixalogiyasi bo'yicha ilk izlanishlar antik davr faylasuflari, o'rta asrlarda ijod etgan sharqning buyuk mutaffakkirlari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan: er.avv..VI asrda yashab o'tgan Pifagor evritmiya ta'limotida musiqa psixologiyasi haqida fikr yuritgan. U Evritmiya deganda insonning hayotiy voqeyliklardan o'ziga xos ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan.

Kuy va ritm inson qalbiga ta'sir ko'rsatishini ham Pifagor aniqlagan. Zamonlar osha musiqa va inson pisixologiyasi bir biriga chambachas bog'liq ekanligi taraqqiy eta boshlagan. Yunon faylasufi Platon (er.avv.V asr) ham musiqaning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritgan, Uning qayd etishicha davlatning kuch va qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va ritmda yangrayotganligiga bog'liq ekan.

Er.avv. IV asrda yashab o'tgan Aristotel ham musiqani inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. U insonning ichki olami va unga musiqa yordamida ta'siï o'tkazish usullarini ochib bergan mimesis ta'limotini ishlab chiqdi. Aristotel qarashlarining e'triborli tomonlaridan biri shundaki, u inson psixologiyasini o'zgartiradigan musiqiy ladlari batafsil tasvirlab bergan.

Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan. Musiqa tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblanib o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Hindistonda esa qadimda musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan..

O'rta asrlarda Sharqning buyuk mutaffakkirlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'siri masalalarini o'rganish jarayonida bevosita musiqa psixologiyasini ham tadqiq etishgan.

Barokko davrida paydo bo'lgan ta'sirlar nazariyasi musiqa psixologiyasining rivojlanishi nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg'otadi. Ammo mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida musiqiy psixologiya 19-asrning o'rtalaridan boshlab shakllana boshlangan.

20-asrga kelib esa musiqa psixologiyasi sohasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus olimlari Teplov B.M.[7], Nazaykinskiy Ye. V.[5], Gotsdiner A.L.[2], Sagarelli Yu.A.[8], Smirnov A.A., Petrushin A.A., o'zbek olimlari Davletshin M.G[3]., G'oziev E.G'., Barotov Sh.R., Karimova V.M., To'ychiyeva S.M., Baxriyev A.R., Qodirov R.G'. va boshqalar umumiy psixologiy, muusiqa psixologiysi bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, Qodirov R.G'.[9] "Musiqa psixologiyasi" bo'yicha o'quv qo'llanma yaratgan, Baxriyev A.R. esa ilmiy-tadqiqot ishini bajargan,

Natija va muhokama. Sozandalar nota yozuvga asoslangan musiqiy asar matni ustida ishlash uchun (balandlikni belgilash, ritmik, temp, ijroning dinamik tomonlari) ularda asarning badiiy mazmunini ijodiy aks ettirish talablari qo'yiladi. Nota yozuvi asosida musiqiy obraz yaratish jarayonida "tasavvur qilish" muhim ahamiyat kasb etadi (B. Teplov)[7]. Musiqiy asar uch shaklda, ya'ni bastakor tomonidan yozib qo'yilgan notalar shaklida, sozanda tomonidan ushbu notalar asosida yaratilgan jonli ijro, musiqiy badiiy obrazlarning tinglovchining hayotiy tajribasi bilan o'zaro ta'siri mavjud. Ushbu faoliyatlarning barchasida - musiqa yaratish, uni ijro etish va idrok etish, tasavvur qilish, albatta, mavjud bo'lib, ularsiz to'liq musiqiy faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. Kompozitor musiqiy asar yaratishda tovushlar xayoli bilan ishlaydi, ularni joylashtirish mantig'ini o'ylaydi, musiqani yaratish paytida his tuyg'ular va fikrlarni yetkazadigan intonatsiyalarni tanlaydi. Ijrochi esa matn bilan ishlashni boshlaganda, musiqiy obrazni yetkazishda asosiy vosita uning texnik mahorati bo'lib, uning yordamida kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembr va boshqalarni topadi. Ijroning muvaffaqiyati sozandaning musiqiy asarning yaxlit qiyofasini his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq.

Agar tinglovchining o'zi musiqiy tovushlar asar ruhiga mos keladigan hayotiy vaziyatlarni, obrazlarni va uyushmalarni uyg'otishi mumkin bo'lsa, bastakor va ijrochi nimani ifoda etmoqchi ekanligini tushunishi mumkin.

Rivojlangan musiqiy tasavvurning o'ziga xos xususiyati uning g'ayrioddiy o'zgaruvchanligidir. Musiqiy asarlarni talqin qilishning ko'pligi ijrochining ifodali vositalardan - dinamikadan, agogikadan, artikulyatsiyadan va boshqalarni o'zgaruvchan ishlatishi orqali amalga oshiriladi. Variantlar sonini har qanday musiqiy ifoda vositasini navbatma-navbat o'zgartirib, ko'paytirish mumkin. Ansambl

sozandasi asarni pp dan ff gacha bo'lgan dinamikalar graduslarida, metrometrik aniqlikda va rubato texnikasi bilan, legatosimon va boshqa artikulyatsiya texnikalarida bajarishi mumkin. Har holda, faqat bitta musiqiy ifoda vositasining o'zgarishi musiqiy asarning ajralmas qiyofasida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Tasavvurni rivojlantirishga o'xshash yondashuvni musiqiy ifodalashning umumiy vositalariga o'tkazish va asarni o'zgartirilgan uyg'unlikda, ohangda, melizmlar bilan va ularsiz ijro etilishi mumkin. Bastakor tomonidan notalar yordamida yozilgan musiqa asari bir ma'noda bo'lishi mumkin. Ammo, haqiqiy tovushda u cheksiz ko'p, turli xil ijro etuvchi talqinlarda mavjud. O'qituvchining bajarilayotgan ishlarga o'zgaruvchan yondashuvni rag'batlantirishi, bitta asarning bir nechta bajaruvchi rejalarini tuzishi ansambl a'zolarida boy ijodiy tasavvurning shakllanishiga olib keladi, ijroning badiiy ifodaliligini oshiradi.

Badiiy ifodalashning barcha vositalarini o'zlashtirish asosida asarning badiiy qiyofasi yaratilishi kerak. Badiiy ifoda vositalari kompozitor va ijro etuvchi vositalariga bo'linadi. Bastakorning ifoda vositalariga musiqiy matnda aniq belgilab qo'yilgan barcha narsalar kiradi: uslub va tonallik, uslub va janr, shakllar (uni qismlarga bo'lish), ohang va uning tuzilishi, uyg'unligi, ritmi va metroritmi, temp, agogika, artikulyatsiya, qisman asarning o'ziga xos ijro uslubi va xarakteri (frazirovkasi). Ijro etuvchining vositalari - tembr, temp, agogiya, dinamika, artikulyatsiya, so'z birikmasi, ijro uslubi, applikatura va badiiy obrazdir.

Musiqiy ifoda vositalari o'zaro bog'liq va bir-biriga aloqadorlikda bo'ladi. Buni, masalan, ijro uslubi va artikulyatsiyaning musiqiy ibora qurilishining tuzilishi bilan bog'liqligini tahlil qilish orqali bilib olishimiz mumkin. Cholg'u ansamblida eng muhim ifoda vositasi – bu, musiqiy asarning ohangdorligi, ohangni rivojlantirish mantig'i (har bir intonatsiya yoki motivning to'liqligi va ularni iboralar, jumlalar, davrlar)ni tushunishdir.

Ansambl sozandalariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – bu, musiqa asari ijrosida ayrim jumlalarni aniq, bo'rtirib beruvchi vositalar: dinamika, artikulyatsiya, zarblar, applikaturani to'g'ri ifodalashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, dinamika va tembr musiqiy ifoda etishning asosiy vositalaridan biridir. "Tembr va dinamika – bu, birinchi navbatda ijrochi yaratadigan materialdir", deydi B.M.Teplov. Akustika nazariyasida musiqiy asbob tembrining faqat registrlarda o'zgarishi odatda qabul qilingan. Shu bilan birga, ohang olinadigan kuchga qarab, tembrning ham o'zgarishi mumkinligini sezish uchun maxsus tadqiqotlar talab qilinmaydi. Ovozning dinamikasi, ya'ni ovozining kuchliligi to'g'ridan-to'g'ri tembrga bog'liq. Ijroning yorqinligi ansambldagi har bir asbobning tembr imkoniyatini boshqarish orqali erishiladi. Musiqachilarning kasbiy mahorati tembr dinamik eshitishning rivojlanishi, uning aniqligi va ravshanligi bilan bog'liq. Tembrni eshitish ansamblda chaladigan, boshqa asboblarning ovozini doimo eshitadigan va shu sababli boy eshitish taassurotlarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan musiqachilarda yaxshi rivojlangan.

Ansamblda cholg'ular orasidagi tovush muvozanatini hisobga olgan holda dinamik gradatsiyalarning butun ko'lamini o'zlashtirish kerak: pp dan ff gacha; qarama-qarshi dinamikasi (f - p yoki p - f; sf; fp) va izchil dinamikasi (kreshchendo, diminuendo). Har bir cholg`u asbobi tarkibining o`ziga xos takrorlanmas tembri mavjud bo'lib, asarning obrazli tuzilishini rivojlantirish uchun tovush tuslarini tanlashda katta rol o'ynaydi.

Tabiiyki, musiqa asari ijrosi davomida ayrim jumlalarni aniq, badiiy bo'rtirib berish jarayonida ansambl rahbari doimiy ravishda uchta asosiy masalani: musiqiy material jumlalarini mazmunan munosabatda bo'lishi, birlashishi va artikulyatsiyasiga ko'ra ularni birikmalarga ajratishni hal qiladi. Ansambl a'zolari har qanday vaziyatdan unumli foydalanib, har bir musiqiy iboraning his qilishni, asarning ohangdor chizig'ining rivojlanishini ko'rish va eshitishni o'rganishlari kerak. Zero, ijro uslubining o'ziga xos muhim jihati shundaki, ansambldagi ohangdor chiziqni turli xil asboblarga sezilmaydigan tarzda o'tkazish va shu orqali tovushlar tizimini yaratishdir. Asarning ayrim muhim o'rinlarini aniq va ravshan ifodalash – bu, ansambl to'qimalari ifodaligining asosiy elementlaridan biri bo'lib, u kuy tuzilishiga, dinamikaning o'zgarishiga, avjlarning aniqlanishiga va asarning ajralmas dinamik shakli, artikulyatsiyasi, zarblari, applikaturasiga ta'sir qiladi.

Ma’lumki, artikulyatsiyaning asosiy vositasi zarblardir. Zarb – bu, musiqa cholg’u asboblarida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish birligini, rang-barangligini ta’minlaydi. Ijro turiga ko'ra zarblarning ko'p turlari mavjud. Asar ijrosida zarblarni tanlash asar ovozining xarakteriga ta'sir qiladi. Ansamblda yaxlit ovozni rivojlantirish mantig'ini his qilib, ansamblning barcha a'zolari tomonidan turli xil asboblarda zarblarni bajarishda yagona talablarga rioya qilish muhimdir. Bunday vaziyatda applikatura (uni tanlash) masalalari quyidagicha ko'rib chiqilishi kerak:

1. Texnik vositalar.
2. Musiqa xususiyatiga qarab badiiy ifoda vositasi.

Musiqiy asar sur’ati badiiy obrazning muhim jihatlaridan biridir. Ansamblda sur’atni tanlashda har bir musiqachining texnik imkoniyatlarini hisobga olish va uni muallif (yoki muharrir) ko'rsatmalariga e'tibor qaratib, badiiy natijaga erishish vositasi sifatida aniqlash kerak. Agogika (asar sur’anida kichik og'ishlar) - ansambl texnikasining asosiy vazifalaridan biri. Asarni ijro etish jarayonida sur’atning agogik burilishlari kuzatiladi. Rahbar doimiy ravishda musiqachilarning e'tiborini sur’at og'ishlarining moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligiga qaratishi kerak. Kantilena (ohang)da agogika ustida ishlashda, turli uslubdagi musiqa ijrosini hisobga olgan holda, ma'lum bir qiyinchilik tug'diradi. Musiqiy matn tarkibidagi barcha xususiyatlarni yetkazish uchun har bir musiqachining shaxsiy xususiyatlarini saqlagan holda ansamblning barcha a'zolarining ijro etuvchi usullarini birlashtirish juda muhimdir.

Zamonaviy musiqiy psixologiyada musiqa asarining badiiy qiyofasiga uchta tamoyil - moddiy, ma'naviy va mantiqiy birlik sifatida qaraladi. Musiqiy asarning moddiy asoslari ohangdorlik, metro ritm, dinamika, tembr, registr, uslub kabi parametrlar bilan tahlil qilinadigan tovush chiqaruvchi moddalarning akustik xususiyatlari ko'rinishida paydo bo'ladi. Faqat tasavvur va iroda bog'langandagina badiiy obraz paydo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, musiqiy matn va musiqiy asarning akustik parametrlari uning moddiy asosini tashkil etadi. Kayfiyat, uyushmalar, turli xayoliy tasavvurlar musiqiy obrazning ma'naviy, ideal tomonlarini yaratadi. Musiqiy asarlarni uning uyg'un tuzilishi nuqtai nazaridan rasmiy tashkil etish, jumlalar ketma-ketligi musiqiy obrazning mantiqiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Bastakor, ijrochi, tinglovchi ongida musiqiy obrazning barcha ushbu tamoyillari to'g'risida tushuncha mavjud bo'lgandagina biz haqiqiy musiqiy fikrlash borligi haqida gaplasha olamiz. Bunday fikrlash asoslari xayolot va mantiqiy fikrlashni uyg'otish uchun oziqa beradigan eshitish sezgisi va in'ikoslari asosida rivojlanadi.

Asarning badiiy mazmunini ifodali ravishda takrorlash va tinglovchiga yetkazish ansambldagi musiqachi-ijrochilarning asosiy vazifasidir. Har bir ishtirokchining ijrochilik ijodkorligi va ansamblning barcha a'zolarining ijro etuvchi uslublarini birlashtirish, musiqiy asarning jamoaviy talqinini ishlab chiqish rahbarning asosiy vazifasidir. Asarning badiiy mazmunini ochish va amalga oshirish metro-ritmik impulsning birligini, musiqiy ifoda vositalaridan foydalanish, nota matnining barcha xususiyatlarining yagona uzatilishini birlashtirishning uyg'unlik izchilligiga erishish jamoaviy tuyg'usi bilan yuzaga keladi.

Xulosa. Musiqa asari ustida ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun uning badiiy obrazini ochishga yo’naltirilgan barcha vositalardan o’rinli foydalanish kerak. Ijroning muvaffaqiyati sozandaning musiqiy asarning yaxlit qiyofasini his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq. Musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o’rganish kabi ko’plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, asarni o’rganish jarayonida musiqachining ijrochilik va umuman, professional saviyasi oshib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qarori

2. Готсдинер А.Л. Музыкальная психология. — М. : 1993

3. Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2012.

4. Каримова Д. А. Мусиқий педагогик маҳорат асослари. Олий ўқув юртлари учун дарслик. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008.

5. Назайкинский Е. В. О психологии музыкального восприятия [Текст]. - Москва: Музыка, 1972.

6. Ruziyev, D. Yu. Konsert ijrochiligi asoslari. Darslik - Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.

7. Ruziyev, D. Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti Darslik -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021.

8. Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей — М. : 1961.

9. Цагарелли Ю.А. Музыкальная педагогика и психология — М. : Композитор, 2008.

10. Qodirov R.G'. "Musiqa psixologiyasi". T.: ”Musiqa " nashryoti 2005 .

Siddiqov Zayniddin Xoldarovich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

CHIZIQLI REGRESSION MODEL TENGLAMASINING KO‘RINISHINI ANIQLASH MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada X omillar belgisining* $x_i, i=\overline{1,n}$ *qiymatlari va ularga mos ravishda Y natijaviy parametrning* y_i, $i=\overline{1,n}$ *qiymatlari berilganda chiziqli regression model tenglamasining ko‘rinishini aniqlash masalalari bayon qilingan. Modellashtirish fan yo‘nalishi sifatida bir qator maxsus tushunchalarga egaki, ular bu fanning boshlang‘ich metodologik asosini tashkil etadi. Modellashtirishning falsafiy konsepsiyasini akslantirish va bilish nazariyalari, modellashtirishning formal-metodik asosini esa o‘xshashlik, tajriba nazariyalari, matematik statistika, matematik mantiq hamda modellashtirish usullari yordamida tadqiq etiluvchi predmet sohalarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishlar tashkil etadi.*

Tayanch so‘zlar: *Model, modellashtirish, metodologik, konsepsiya, o‘xshashlik, tajriba nazariyalari, matematik statistika, matematik mantiq, modellashtirish usullari.*

ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ВИДА УРАВНЕНИЯ МОДЕЛИ ЛИНЕЙНОЙ РЕГРЕССИИ

Аннотация. *В статье описаны вопросы определения вида уравнения модели линейной регрессии при заданных значениях факторов X и соответственно значения результирующего параметра Y. Моделирование как отрасль науки имеет ряд специальных понятий, составляющих исходную методологичес-кую основу этой науки. Отражая философскую концепцию моделирования и теории познания формально-методическую основу моделирования составляют научные направления, изучающие предметные области, исследуемые с помощью аналогии, экспериментальных теорий, математической статистики, математической логики и методов моделирования.*

Ключевые слова: *Модель, моделирование, методологическая концепция, аналогия, экспериментальные теории, математическая статистика, математическая логика, методы моделирования.*

PROBLEMS OF DETERMINING THE TYRE OF EQUATION FOR A LINEAR REGRESSION MODEL

Annotation. *The article describes the issues of determining the type of linear regression model equation for given values of factors X and, accordingly, the value of the resulting parameter Y. Modeling as a branch of science has a number of special concepts that form the initial methodological basis of this science. Reflecting the philosophical concept of modeling and theories of knowledge, the formal and methodological basis of modeling consists of scientific directions that study subject areas studied using analogy, experimental theories, mathematical statistics, mathematical logic and modeling methods.*

Key words: *Model, simulation, methodological, concept, analogy, experimental theories, mathematical statistics, mathematical logic, modeling methods.*

Kirish. Modellashtirish ilmiy tadqiqotning samarali usularidan biri hisoblanadi. Modellashtirish keng ma’noda shunday ilmiy yo‘nalishni bildiradiki, unda real dunyoni bilib olish uchun modellarni qurish va ulardan foydalanish usullari o‘rganiladi.

Ilmiy texnika taraqqiyoti hisoblash texnikasini keng qo‘llanishi asosida jarayonlar va tizimlarni avtomatik hamda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridan foydalanib, mamlakatimiz xalq xo‘jaligiga fan texnikaning eng yangi yutuqlarini keng ko‘lamda qo‘llab borishni taqozo etadi.

Xalq xo‘jaligini muvaffaqiyatli boshqarish uchun ularning alohida sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish yyetarli emas. Murakkab tizimlarni va jarayonlarni to‘la tahlil qilish uchun texnik kibernetika usullarini keng qo‘llash zarur bo‘ladi. Ishlab chiqarishda tobora keng yoyilib borayotgan texnik-kibernetika tadbiqiy fan bo‘lib, bu fan nazariy kibernetika ishlab chiqqan vositalar bo‘yicha murakkab jarayonlar va tizimlarni EHM yordamida, kompyuterlar yordamida boshqarish usullarini o‘rganadi.

Hozirgi davrda modellashtirishning regression, korrelyatsion, o‘xshash, taqlidiy, argumentlarni guruhlab hisobga olish usullari keng tarqalgan.

Matematik modellar ob’yektni nazariy va amaliy tahlil qilish natijasida yaratiladi. Tajribalarni matematik rejalashtirish usullari qaralayotgan jarayon yoki tizimning matematik modelini chiquvchi ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi faktorlarning o‘zgarish miqyosida optimal usulda qurish imkonini beradi.

Kibernetika fani “tirik mavjudodlar va mashinalar aloqasi hamda ularni boshqarish” haqidagi fan sifatida N.Viner tomonidan kashf etilgan. Kibernetikaning tez taraqqiy etishi yana ba’zi bir unga yaqin fanlarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Lekin XX asr 60-yillarining boshlariga kelib kibernetikaning markazga intilma tezligi sekinlashdi. Bunda matematik modellashtirish jarayoni hisoblash mashinalari va tarmoqlarni optimal konstruksiyalash kabi xilma-xil kibernetik masalalarni yechishda biriktiruvchi bo‘g‘inga aylandi. Matematik model – ob’yekt yoki jarayonning tenglama, tengsizlik, formula, jadval yoki grafik ko‘rinishdagi ifodasidir. Kibernetika murakkab ob’yektlar aloqalarini va ularni boshqarishni modellashtirish haqidagi umumiy, yagona fandir. N.Viner ta’biri bo‘yicha modellashtirish, bu o‘rganishdir.

Agar bitta faktorning qiymatlarini o‘zgaruvchi deb qarab, qolganlarini shartli ravishda statsionar deb qarasak, bir faktorli matematik model qurishimiz mumkin. Agar hamma faktorlarni o‘zgaruvchi deb qarasak, ko‘p faktorli matematik modelga ega bo‘lamiz. Matematik modellar o‘z navbatida statik va dinamik matematik modellarga ajraladi. Agar modelning faktorlari ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lsa, model regression model deyilib, bunday modelni qurish jarayoni regression tahlil deyiladi. Modelning faktorlari ham, o‘zi ham tasodifiy bo‘lsa, bunday model korrelyatsion model deyilib, model qurish jarayoni korrelyatsion tahlil deyiladi.

Agar modelning faktorlari ko‘rsatkichga bog‘liq bo‘lsa, bunday model dinamik model deyiladi. Agar modelning faktorlari faqat bitta ko‘rsatkichga bog‘liq bo‘lsa, bunday model markazlashgan ko‘rsatkichli dinamik model deyiladi. Agar modelning faktorlari bittadan ortiq ko‘rsatkichga bog‘liq bo‘lsa, bunday model taqsimlangan ko‘rsatkichli dinamik model deyiladi. Markazlashgan ko‘rsatkichli dinamik modellar oddiy differentsial tenglamalar tizimi bilan taqsimlangan ko‘rsatkichli dinamik modellar xususiy hosilali differentsial tenglamalar tizimi ko‘rinishida ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Modellashtirish fan yo‘nalishi sifatida bir qator maxsus tushunchalarga egaki, ular bu fanning boshlang‘ich metodologik asosini tashkil etadi. Modelllashtirishning falsafiy konsepsiyasini akslantirish va bilish nazariyalari, modellashtirishning formal-metodik asosini esa o‘xshashlik, tajriba nazariyalari, matematik statistika, matematik mantiq hamda modellashtirish usullari yordamida tadqiq etiluvchi predmet sohalarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishlar tashkil etadi.

X omillar belgisining $x_i, i=\overline{1,n}$ qiymatlari va ularga mos ravishda Y natijaviy parametrning $y_i,\ i=\overline{1,n}$ qiymatlari berilgan bo‘lsin.

$$f_1(x)=a_0+a_1x$$

chiziqli regressiya koeffitsiyentlarini hisoblash uchun eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda quyidagi

$$S(a_0,a_1)=\sum_{i=1}^{n}(y_i-a_0-a_1x_i)^2$$

miqdorni minimallashtiramiz.

$S(a_0, a_1)$ funksiya o‘z argumentlarining silliq qavariq funksiyasi hisoblanadi va shuning uchun uning minimumi

$$\frac{\partial S(a_0, a_1)}{\partial a_0} = 0, \qquad \frac{\partial S(a_0, a_1)}{\partial a_1} = 0$$

statsionarlik shartlaridan aniqlanadi.

$S(a_0, a_1)$ funksiyaning statsionarlik shartlari quyidagi tengliklarga ekvivalent bo‘ladi:

$$\sum_{i=1}^{n}(y_i - a_0 - a_1 x_i) = 0, \qquad \sum_{i=1}^{n}(y_i - a_0 - a_1 x_i)x_i = 0.$$

Bu tenglamalarni ixchamlashtirib, quyidagi sistemaga ega bo‘lamiz:

$$na_0 + a_1\sum_{i=1}^{n} x_i = \sum_{i=1}^{n} y_i,$$

$$a_0\sum_{i=1}^{n} x_i + a_1\sum_{i=1}^{n} x_i^2 = \sum_{i=1}^{n} x_i y_i, \quad (3)$$

(3) sistemani noma’lum a_0, a_1 koeffitsiyentlarga nisbatan yechamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$a_0 = \frac{\sum_{i=1}^{n} y_i \sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} x_i y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)^2} = \frac{1}{n}\left[\sum_{i=1}^{n} y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i a_1\right], \quad 4)$$

$$a_1 = \frac{n\sum_{i=1}^{n} x_i y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)^2}, \quad (5)$$

Shunday qilib,

$$y = a_0 + a_1 x$$

chiziqli regressiya koeffitsiyentlari (4), (5) formulalar yordamida aniqlanadi.

Hisoblash qulay bo‘lishi uchun kerakli yig‘indilar hisoblanib va yozib olinadigan yordamchi 1-jadvaldan foydalanish mumkin.

1-jadval

x_i	y_i	x_i^2	$x_i\ y_i$	y_i^p	$\left(y_i^p - \bar{y}\right)^2$	$\left(y_i - \bar{y}\right)^2$
…	…	…	…	…	…	…
$\sum_{i=1}^{n} x_i$	$\sum_{i=1}^{n} y_i$	$\sum_{i=1}^{n} x_i^2$	$\sum_{i=1}^{n} x_i y_i$	…	$\sum_{i=1}^{n}\left(y_i^p - \bar{y}\right)^2$	$\sum_{i=1}^{n}\left(y_i - \bar{y}\right)^2$

1-jadvalda

$$y_i^p = a_0 + a_1 x_i, \ \bar{y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} y_i.$$

Misol. Firma shahar ichidagi qisqa masofalarga turli xil yuklarni tashish bilan shugullanadi. Firma menedjeri oldida yukni yetkazib berish vaqti bilan bog‘liq bo‘lgan bunday xizmatni baholash masalasi turadi. Yukni yetkazib berish vaqtiga ta’sir qiladigan muhim omil sifatida menedjer bosib

o‘tgan masofa tanlanadi. 10 ta yuk yetkazib berish bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Masofa, km	3,5	2,4	4,9	4,2	3,0	1,3	1,0	3,0	1,5	4,1
Vaqt, min	16	13	19	18	12	11	8	14	9	16

Berilgan ma’lumotlar grafigini qurish, u asosida masofa va sarflangan vaqt orasidagi bog‘liqlik xarakterini aniqlash, eng kichik kvadratlar usulini qo‘llash imkoniyatini tahlil qilish, regressiya tenglamasini qurish, regression bog‘lanish kuchini tekshirish vanihoyat, 2 km ga yukni yetkazib berish vaqti bo‘yicha ma’lumot (prognoz) berish talab etiladi.

2-jadvalda 10 ta yuk yetkazib berish bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumotlar grafigi qurilgan.


Yukni yetkazib berish vaqtiga, masofadan tashqari, yo‘llardagi transport tirbandligi, yuk yetkazilayotgan sutka vaqti, yo‘ldagi ta’mirlash ishlari, ob-havo, haydovchining malakasi, transport turi kabi boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababga ko‘ra, hosil qilingan nuqtalar aniq

$$y = a_0 + a_1 x$$

chiziqda joylashmagan. Lekin 2-jadvaldan hosil qilingan (x_i, y_i), $i = \overline{1,10}$ nuqtalar to‘g‘ri chiziq atrofida yig‘ilgan.

Shuning uchun parametrlar orasida chiziqli munosabat mavjud, deb taxmin qilish mumkin. Barcha hosil qilingan boshlang‘ich nuqtalar taxmin qilinayotgan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab bir tekisda joylashgan(1-rasmga qarang).

Bu esa eng kichik kvadratlar usulini qo‘llash imkonini beradi.



Parametrlar orasida chiziqli munosabat. 1-rasm.

Qaralayotgan misol uchun 1-jadvalni to‘ldiramiz. Natijada 3-jadvalga ega bo‘lamiz.

3-jadval

x_i	y_i	x_i^2	$x_i\ y_i$	y_i^p	$\left(y_i^p - \overline{y}\right)^2$	$\left(y_i - \overline{y}\right)^2$
3,5	16	12,25	56,00	15,233	2,634	5,76
2,4	13	5,76	31,2	12,297	1,698	0,36
4,9	19	24,01	93,1	18,947	28,590	29,16
4,2	18	17,64	75,60	17,085	12,145	19,36
3,0	12	9,00	36,00	13,893	0,086	2,56
1,3	11	1,69	14,30	9,371	17,884	6,76

1,0	8	1,00	8,00	8,573	25,271	31,36
3,0	14	9,00	42,00	13,893	0,086	0,16
1,5	9	2,25	13,50	9,903	13,668	21,16
4,1	16	16,81	65,60	16,819	10,362	5,76
$\sum = 28{,}9$	$\sum = 136$	$\sum = 99{,}41$	$\sum = 435{,}30$	—	$\sum = 112{,}424$	$\sum = 122{,}4$

3-jadvalni (4), (5) formulalar bo‘yicha to‘ldirishda quyidagi chiziqli regressiya koeffitsiyentlarini hisoblaymiz:

$$a_1 = \frac{10 \cdot 435{,}30 - 28{,}9 \cdot 136}{10 \cdot 99{,}41 - 835{,}21} = 2{,}660\ ;\ a_0 = 0{,}1\left(136 - 2{,}660 \cdot 28{,}9\right) = 5{,}913\ .$$

So‘ngra izlanayotgan

$$y^p = 5{,}913 + 2{,}660\,x$$

regression bog‘liqlikni aniqlab, y_i^p, $\left(y_i^p - \overline{y}\right)^2$ larni hisoblaymiz. (2) formula bo‘yicha determinatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$r^2 = \frac{112{,}424}{122{,}400} = 0{,}918 \quad \text{yoki} \quad 91{,}8\%.$$

Natija va muhokama. Shunday qilib, hosil qilingan chiziqli model yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi 91,8% vaziyatni tushuntirib bera oladi. Yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi 100% - 91,8% = 8,2% vaziyat esa, unga ta’sir qiladigan, lekin regressiyaning chiziqli modeliga kiritilmagan, qolgan omillar bilan bog‘liq.

Xulosa. Determinatsiya koeffitsiyenti yyetarlicha katta qiymatga ega bo‘lganligi va prognoz qilish talab etilayotgan 2 km masofa boshlang‘ich ma’lumotlar diapazonida joylashganligi sababli, hosil qilingan

$$y^p = 5{,}913 + 2{,}660\,x$$

regressiya tenglamasidan prognoz uchun foydalanish mumkin, ya’ni

$$y(2км) = 5{,}913 + 2{,}660 \cdot 2 = 11{,}2 \quad \text{minut.}$$

Agar regression model real bog‘lanishga yaqin bo‘lsa, unda

$$\varepsilon = \left(y_i^p - y_i\right)$$

xatolik(chetlanish) tasodifiy xarakterli bo‘ladi va ularning yigindisi 0 ga yaqin bo‘ladi. Qaralgan misol uchun $\sum_{i=1}^{10} \left(y_i^p - y_i\right) = 0{,}004$.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Э.Алиев, Н.Уразов. Моделирование процессов и систем. – Ташкент. ФАН. 1986 г.
2. Н.Уразов ва бошкалар. Жараён ва тизимларни моделлаштириш. –Фарғона. Техника. 2002й.
3. Самарский А.А., Михайлов А.П. Математическое моделирование. Идеи. Методы. Примеры. М. Наука. Физматиздать. 1997г.
4. В.Л.Кузнецов. Математическое моделирование. МГТУ. Учебное пособие. – М. часть 1. 2003г.

Xolbekov Abdusattor Maxammatovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISHGA OID ILMIY MANBALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutgan asosiy omil sifatida, axborot texnologiyalari va raqamli vositalar orqali talabalar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Maqolada turli ilmiy manbalardan foydalanib, axborot texnologiyalarining talabalarning axloqiy va ma'naviy jihatlarini shakllantirishdagi roli, ta'lim jarayoniga qo'shadigan yangi yondashuvlar va metodologiyalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining pedagogik jarayonlardagi samaradorligini oshirishda ularning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanishdagi o'rni keltiriladi. Tahlil qilingan manbalar orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirishga oid mavjud tadqiqotlar, strategiyalar va ulardan samarali foydalanish yo'llari haqida umumiy tushunchalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviy-axloqiy sifatlar, axborot texnologiyalari, ilmiy manbalar, raqamli texnologiyalar, axloqiy tarbiya, ta'lim texnologiyalari.*

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИСТОЧНИКОВ О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МОРАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты совершенствования духовно-нравственных качеств студентов с помощью информационных технологий. Духовно-нравственное воспитание, являющееся важным фактором в развитии общества, открывает новые возможности для положительного воздействия на сознание студентов посредством информационных технологий и цифровых средств. В статье, с использованием различных научных источников, рассматривается роль информационных технологий в формировании моральных и духовных аспектов студентов, а также новые подходы и методологии, которые они вносят в образовательный процесс. Кроме того, обсуждаются воспитательные возможности информационных технологий и их роль в повышении эффективности педагогических процессов и личностном развитии. На основе проанализированных источников представлены общие представления о существующих исследованиях, стратегиях и эффективных способах использования для совершенствования духовно-нравственных качеств.*

Ключевые слова: *Духовно-нравственные качества, информационные технологии, научные источники, цифровые технологии, нравственное воспитание, образовательные технологии.*

ANALYSIS OF SCIENTIFIC SOURCES ON IMPROVING SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN STUDENTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of enhancing students' moral and ethical qualities through information technology. Moral and ethical education, as a key factor in the development of society, opens up new opportunities to positively influence students' consciousness through information technologies and digital tools. The article explores the role of information technologies in shaping students' ethical and moral aspects, as well as new approaches and methodologies they bring to the educational process, using various scientific sources. Additionally, the educational potential and the role of information technologies in personal*

development and increasing the effectiveness of pedagogical processes are discussed. The analysis of the sources provides a general understanding of existing research, strategies, and effective ways of utilizing these technologies to enhance moral and ethical qualities.

***Keywords**: Spiritual and moral qualities, information technologies, scientific sources, digital technologies, moral education, educational technologies.*

Maqolaning dolzarbligi. Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, malakasini uzluksiz oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “...Maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yish, tahsil oluvchilarning jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish”[1] kabi ustuvor vazifalar qo‘yilgan. Bundan kelib chiqqan holda oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy-metodik tavsiyalarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Muammoning ishlab chiqilishi. Uzluksiz ta’lim jarayonida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi keng o‘rganilgan sohalardan biri bo‘lib, o‘ziga xos pedagogik tizimning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi. Bu masalada M.Ochilov, K.Hoshimov, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Qurbonov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Sh.Xalilov, N.M.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Q.Quronboyev, Sh.Olimov, G.Maxmutova va N.N.Djamilova kabi olimlar ta’limning turli bosqichlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida ayniqsa, oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, mazkur jarayonda milliy tarbiya asoslaridan samarali foydalanish, shaxs tarbiyasi modelining ishlab chiqilganligi e’tiborga loyiqdir.

Muammoning ilmiy yangiligi. Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishning qayta ta’sir etish darajasi mutanosibligini ta’minlash uchun ma’naviy-axloqiy tarbiya komponentlari didaktik talablarni joriy qilish asosida, ma’naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishning kasbiy kompetensiya komponentlarini tarbiyaviy jarayon dinamikasiga tarbiya metodlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] Farmonida axborot – kommunikatsiya axborot texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko‘rsatishning barcha sohalariga joriy etishdek vazifa qo‘yilgan bo‘lsa, 2017 yil 27 dekabrda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu-kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [2]-deb ta’kidlagan edilar.

Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 mart PQ-5040-sonli qarorida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan—milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020

barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish muhim ekanligini ta'kidlaganlar[3].

Ma'naviyat (arabcha "ma'nolar majmui") tushunchasi "insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalaydi"[4**],**u "axloqiy holat va axloqiy xususiyatlar"**,**"ijtimoiy hodisa" va "insonning ichki olamiga taalluqli bo'lgan yashashdan maqsadi, fikr yuritishi,orzu-istaklari, intilishlari hamda his-tuyg'ularidir"[1]. Bu yondashuvlarning barchasi ma'naviyatning pedagogik xususiyatlarini belgilab olish imkonini beradi. Unga ko'ra, ma'naviyat shaxs uchun axloq va tarbiya omili, uning ruhiy va aqliy olamini shakllantiradi, ijtimoiy hodisa sifatida axloqini tarkib toptiradi hamda hayotga yo'naltiradi. Chunki, Davlatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan zamonaviy kadrlarning madaniyati darajasiga bog'liqdir. Shunday ekan oliy ta'lim muassasalarining talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish, ta'lim mazmunini yanada chuqurlashtirishda qudratli kuch sifatida katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlar talabalar kasbiy faoliyatida muhim jarayonlarni ifodalaydi. Bu borada Sharq allomalarning hozirgi kungacha o'z mavqeini yo'qotmagan fikrlari mavjud, jumladan, Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy inson faqat ma'naviyati tufayli boshqa jonzotlardan ajralib turishi va ma'naviyat faqat insonga xosligini asoslab ko'rsatgan.

Mutafakkir olim Yusuf Xos Hojib (1019-1088) "Qutadg'u bilig" asarida Ma'naviyat tushunchasini o'zbekcha "bilig" tushunchasi bilan ifodalaydi. Bu bilim va odob majmuasidir degan fikr bildirgan. Ma'rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy (1876-1930) "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida deydi: "Ba'ni odamda axloq tug'ma bo'lmaydi, lekin uning asosi bo'lgan tuyg'u inson fitratida (tabiatida) tug'ma mavjud bo'ladi. Tarbiya vositasi ana shu tuyg'ular natijasida rivojlantiriladi shu tariqa axloq yuzaga keladi" degan fikr yuritgan. Pedagog bolaning tug'ma va sof tuyg'ulari yaxshilikka yo'naltirilsa yaxshi fazilatlarni o'zlashtiradi; aksincha, tarbiya sust bo'lsa bolaning tuyg'ulari yomonlik xususiyatlarini yuqtiradi va uning xulq-atvori buziladi degan g'oyalarni ilgari suradi.

Mutafakkir Ahmad Yassaviy (1103-1166) esa "Devoni hikmat" asarida deydi: "Bizga tarbiya yo'lini olib kelgan Muhammad (SAV) arablardan edi, uning tarbiya yo'li axloqlar majmuasidan iborat". Shu ma'noda ma'naviyat axloqlar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Abu Ali ibn Sino (980 - 1038) "Donishnoma" asarida farzand tarbiyasi uchun zarur bulgan asosiy tarbiya yo'nalishlarini asoslab bergan. Ibn Sinoning bu yondoshuvi Osiyo ta'limi tizimida qabul qilinganligi ta'kidlash joyiz. A. Irisov, S. Rahimov kabilarning tadqiqotlarida Ibn Sinoning ta'lim–tarbiya asoslariga doir qarashlari tadqiq etilgan. Bugungi ta'lim–tarbiya jarayonimizda Ibn Sino tavsiyalari to'liq qabul qilingan.

Ma'naviy-axloqiy va targ'ibot-tashviqot ishlarining mezoni, avvalo, ularning el-yurt turmushiga o'tkazadigan hayotbaxsh ta'siri bilan belgilanadi. Yoshlarning hayot so'qmoqlarida adashmasliklarini ta'minlash, ularni shiddatkor zamonning bo'ronu to'fonlaridan himoya qilish lozim. Ayniqsa, diniy aqidaparastlik, mafkuraviy kurashdagi loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin.

"Axborot" atamasi "axbor" ma'lumotlar, ko'p xabarlar degan ma'noni anglatadi. Bunda turli ma'lumotlar qayta ishlanib, ayrim jihatlariga tuzatishlar kiritiladi. Axborotlarning ijtimoiy borliqda kechayotgan voqea hodisalar, alohida shaxs tomonidan bajarilayotgan ish, xatti-harakat, faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish, xabar berishdan iboratdir. Axborotdan muhim manba sifatida foydalaniladi va unda, ko'nikma va malakalar egallanadi.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish quyidagi xususiyatlarga ega:

[1] "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori

axborot umuminsoniyat boyligi sifatida rivojlanib boradi;

axborotlar mazmunida u berayotgan ma'lumotning kengligi bilan belgilanadi;

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish negizida insonning moddiy va ma'naviy uzviyligini rivojlantirishda muhim bo'lgan innovatsion axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari, odamlar orasidagi o'zaro munosabatlar asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar turli kasb egalarining ijtimoiy –iqtisodiy hayotini, uning moddiy turlarini aniqlashga yordam berishi bilan birga shaxsning ichki dunyosining faolligini oshiradi. Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishda axborotlarni qabul qilish, uzatish, saqlash, foydalanish, ularni o'zlashtirish kabilar har bir mutaxassisning kasbiy faoliyatida amalga oshadi.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish bilan kasb faoliyatini takomillashtirish, uni egallash, to'ldirish va qayta ishlashda yangi bilimlar bankini vujudga keltirish, uni uzatish va ulardan amaliy jihatdan foydalanish kabilarni o'zida mujassam etadi. Bular bevosita mutaxassisning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib unda, amalga oshiriladigan ishlar axborot orqali bajarilishi va unga munosabat bildirish, to'plangan materiallardan foydalanish, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, ularni qayta ishlash va saqlash muhim hisoblanadi.

Proteomika - organizmlar yoki hujayralarning butun protein to‘plamini o‘rganish bo‘lib, bioinformatika bu jarayonda proteinlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirlarni va ularning funktsiyalarini tahlil qilishga yordam beradi. Biotexnologiyada proteinlar va ularning modifikatsiyalari muhim ahamiyatga ega, chunki ko‘plab biotexnologik mahsulotlar protein asosida ishlab chiqariladi.

- Mass-spektrometriya: Proteomik tahlil uchun mass-spektrometriya texnologiyalari qo‘llaniladi. Bioinformatika yordamida bu ma'lumotlar tahlil qilinadi, proteinlarning tuzilishi va faoliyatini aniqlash uchun algoritmlar ishlab chiqiladi.
- Protein Interaksiyasi: Proteinlarning o‘zaro ta'sirlarini o‘rganish va ularning yangi biotexnologik mahsulotlarga ta'sirini tahlil qilish.

Metabolomika va Biokimyoviy tahlil

Metabolomika biologik tizimdagi barcha metabolitlarni o‘rganadi. Bu ma'lumotlar bioinformatika yordamida tahlil qilinadi va biotexnologiya jarayonlarida qo‘llaniladi. Masalan, bioyo‘qilg‘ilar ishlab chiqarish jarayonida metabolik yo‘llarni o‘rganish va optimallashtirish mumkin.

GC-MS va LC-MS Texnologiyalari: Metabolomik tadqiqotlar uchun gazli xromatografiya (GC-MS) va suyuq xromatografiya (LC-MS) kabi ilg‘or texnologiyalar qo‘llaniladi. Ular orqali metabolitlarning o‘lchovlari olinadi va bioinformatika yordamida tahlil qilinadi.

Metabolik tarmoq modellashtirish: Metabolik tarmoqni modellashtirish va uni optimallashtirish, biotexnologik jarayonlarda samaradorlikni oshirish.

Eksperimental tadqiqot metodologiyasini biotexnologiyada qo‘llash ko‘plab sohalarda yangi innovatsiyalarni yaratishga yordam beradi. Quyidagi amaliy qo‘llanilishlar, bioinformatika yordamida amalga oshiriladigan eksperimental tadqiqotlarning ba'zi misollaridir:

Yangi dori vositalarini ishlab chiqish: Yangi dori vositalarini topish uchun genetik va proteomik tahlillar yordamida molekulyar darajada tahlil qilish, biotexnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish, yangi dori modellarini yaratish.

Transgenik o‘simliklar va hayvonlar yaratish: Genetik modifikatsiya qilish va yangi transgenik organizmlar yaratish uchun bioinformatika vositalaridan foydalanish.

Biokatalizatorlar ishlab chiqish: Yangi biokatalizatorlarni, shu jumladan, fermentlar va oqsillarni optimallashtirish va ishlab chiqish jarayonlarini tahlil qilish.

Bioinformatikaning biotexnologiyadagi o‘rni muhim va keng qamrovli bo‘lib, u biologik tizimlarning tahlilini, genetik manipulyatsiyalarni, yangi dori vositalarini ishlab chiqishni va biotexnologik jarayonlarni optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Eksperimental tadqiqot metodologiyasining ilmiy yutuqlari bioinformatika yordamida ko‘plab biotexnologik sohalarda yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa ilmiy va sanoat tadqiqotlarining tez rivojlanishiga olib keladi.

Natijalar va tahlil. Bioinformatikaning biotexnologiyadagi eng muhim qo‘llanilish yo‘nalishlaridan biri genetik modifikatsiya qilish va transgenik o‘simliklar yaratishdir. Bioinformatika yordamida o‘simliklarning genetik xaritalari va ularning o‘zgarishlari tahlil qilinadi, bu esa yangi, yuqori mahsuldor va kasalliklarga chidamli o‘simliklarni yaratishga imkon beradi.

Bioinformatika yordamida o‘simliklarning genetik modifikatsiyasi aniqlanadi va ularni optimal ravishda modifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. Masalan, pestitsidlarga chidamli o‘simliklar yoki yuqori mahsuldor o‘simliklar ishlab chiqildi. Bioinformatika texnologiyalari genetik xaritalarni yaratishda yordam beradi, bu esa yangi o‘simlik turlarini yaratishda vaqtni kamaytiradi. Bioinformatika yordamida genetik tahlillar yanada aniq va tezroq amalga oshiriladi, bu esa transgenik o‘simliklarning yaratish jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. O‘simliklarning genetik modifikatsiyalari bioinformatika orqali monitoring qilinadi, bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

Bioinformatika dori vositalarini ishlab chiqish va kasalliklarning molekulyar mexanizmlarini o‘rganishda katta yordam beradi. Dori vositalarining samaradorligini prognoz qilish, yangi molekulalarni yaratish va mavjud dori vositalarining yanada takomillashtirishda bioinformatikaning roli juda katta.

Bioinformatika va molekulyar model yasash texnologiyalari yordamida yangi dori modellarini ishlab chiqish tezlashdi. Dori modellarining samaradorligini aniqlash uchun molekulyar simulyatsiyalar va tahlillar amalga oshirildi. Dori vositalarining tasvirini yaratish va ularning ta'sirini molekulyar darajada o‘rganish, dori vositalarining samaradorligini oshirishga imkon yaratdi. Dori vositalarini yaratishda bioinformatika yordamida olingan natijalar dori sinovlarini samarali o‘tkazish va vaqtni tejashga yordam beradi. Bioinformatikaning molekulyar model yasash texnologiyalari dori ishlab chiqarishni yanada individualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa bemorlar uchun yanada samarali va xavfsiz dori vositalarini ishlab chiqishga olib keladi

Xulosa. Bioinformatikaning biotexnologiyadagi o‘rni juda muhim va keng qamrovli. Bioinformatika yordamida erishilgan natijalar biotexnologiyaning har bir sohasida yangiliklar yaratishga, jarayonlarni optimallashtirishga va yangi mahsulotlar ishlab chiqishga olib keldi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bioinformatikaning qo‘llanilishi orqali biotexnologiyada ilmiy tadqiqotlar va amaliy yutuqlar tezlashgan va yangi imkoniyatlar yaratilgan. Bu esa biotexnologiya sohasida yanada samarali va innovatsion yechimlarni taqdim etadi. ioinformatika va biotexnologiya o‘rtasidagi integratsiya so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda sezilarli yutuqlarga olib keldi. Bioinformatikaning biotexnologiyadagi o‘rni shundan iboratki, u biologik ma'lumotlarni tahlil qilish, genetik modifikatsiya, yangi dori vositalarini ishlab chiqish, proteomika, metabolomika va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.Eksperimental tadqiqot metodologiyasi va innovatsion texnologiyalar yordamida bioinformatika biologik tizimlarni yanada samarali o‘rganish, optimallashtirish va yangi mahsulotlar yaratishga yordam bermoqda. Genetik tahlil, proteomik tahlil, molekulyar simulyatsiyalar va metabolomika kabi metodlar biotexnologiyada yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bioinformatika dori vositalarini ishlab chiqish, transgenik o‘simliklar yaratish, yangi biokatalizatorlar va ekologik texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, bioinformatika biotexnologiyaning ilmiy va amaliy sohalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Uni qo‘llash orqali biotexnologiya jarayonlari samarali, tezkor va aniq amalga oshirilishi mumkin. Bu esa yangi ilmiy yutuqlarni va amaliy innovatsiyalarni yuzaga keltiradi, natijada, bioinformatika biotexnologiyada muhim strategik vosita sifatida o‘rnatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Matsumoto, T., & Kawano, R. (2018). Big Data and Bioinformatics: New Approaches in Research and Education. Frontiers in Genetics, 9, 428.

2. Koh, C.Y., & Lee, H.T. (2016). The Role of Bioinformatics in Drug Discovery. Pharmaceutical Sciences, 22(3), 112-118.

3. Vidal, M., & Cusick, M.E. (2014). Protein Interaction Networks and the Informatics Behind Them. Proteomics, 14(1), 11-21.

4. Liu, X., & Li, Y. (2019). Metabolomics and Bioinformatics for Biotechnology. Bioinformatics Journal, 35(7), 137-147.

5. Meyer, S., & Griffiths, M. (2018). Bioinformatics Applications in Agricultural Biotechnology. Advances in Agriculture, 23(5), 85-94.

6. Wang, L., & Xu, F. (2017). Bioinformatics in Food and Agricultural Biotechnology. Springer. 2(4), 25-27.

7. Deng, Z., & Wang, L. (2020). Bioinformatics in Environmental Biotechnology. Environmental Science and Technology, 54(10), 321-329.

UDC (UO'K, УДК):81'362

Achilova Dilnoza Kuldashevna
O'zDJTU katta o'qituvchisi, BuxDU mustaqil izlanuvchisi
E-mail. 28-dilya@mail.ru

O'ZBEK VA FRANSUZ XALQ MAQOLLARINING BADIIYATI XUSUSIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va fransuz maqollarining badiiyati xususida fikr yuritildi,nazariy asoslari tatbiq etilib,mavzuning dolzarbligi yoritilib berildi.Tilshunoslikda mavjud bo'lgan maqollarning badiiy asarlarda qo'llanilishi fikrga ta'sirchanlik va hissiylik beradi. Ular insoniy muloqotning eng muhim vositasi, fikrlarni aniq va ta'sirchan uzatish vositasidir*

Kalit so'zlar: *xalq maqoli, badiiyat, xususiyat, poyetik forma, semantika, o'zbek va fransuz, til, lingvistika.*

О ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОСОБЕННОСТЯХ УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются художественные особенности узбекских и французских пословиц, применяются теоретические основы, и раскрывается актуальность темы. Пословицы, существующие в лингвистике, при использовании в художественных произведениях усиливают выразительность и эмоциональность мысли. Они являются важнейшим средством человеческого общения, инструментом точной и убедительной передачи идей.*

Ключевые слова: *народная пословица, художественность, поэтическая форма, семантика, узбекские и французские, язык, лингвистика.*

ON THE ARTISTIC FEATURES OF UZBEK AND FRENCH PROVERBS

Abstract. *This article discusses the artistic features of uzbek and french proverbs, applies theoretical foundations, and highlights the relevance of the topic. Proverbs in linguistics, when used in literary works, enhance the expressiveness and emotional impact of thoughts. They serve as one of the most important tools of human communication and a means of conveying ideas clearly and effectively.*

Keywords: *popular proverb, artistry, poetic form, semantic,uzbek and french, language, linguistic.*

Kirish. Xalq og'zaki ijodining noyob namunasi hisoblangan maqolda insonning hayotiy tajribalari, atrofdagilarga munosabati, o'tmishi, ichki dunyosi va kechinmalari mujassamlashgan. Tilda ularning ko'pligi har bir til leksikasining naqadar boyligining yaqqol isboti sifatida ko'rinadi. Maqollar yillar va asrlar mobaynida insonning odatiy vaziyatlaridan orttirilgan bo'ladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har bir maqolning paydo bo'lishi, rivojlanishi, bundan tashqari ularni omma tomonidan jonli muloqot muhitiga olib kirilishi va ommalashtirilishi uzoq davr talab qiladi.

Maqollarning badiiy asarlarda qo'llanilishi fikrga ta'sirchanlik va hissiylik beradi. Ular insoniy muloqotning eng muhim vositasi, fikrlarni aniq va ta'sirchan uzatish vositasidir. Maqollar muayyan tilning asosini tashkil etadi, uning yashovchanligini ta'minlaydi. Ayonki, til milliy madaniyatning ko'zgusi, uning qo'riqchisi vazifasini bajaradi. Har qanday boshqa tilda bo'lgani kabi fransuz tilida ham tilning milliy-madaniy semantikasi muhim ahamiyatga ega. Fransuz tili xususiyatlarini aks ettiruvchi, qayd etuvchi va avloddan-avlodga o'tkazadigan lingvistik ma'nolar maqollarda yaqqol o'z ifodasini topgan. Ularda fransuz xalqi tarixi, hayoti va urf-odatlari, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzilishi, folklor, badiiy adabiyot, san'at, fan kabi sohalarning eng muhim jihatlari yorqin aks etadi.

Shunga ko‘ra tilni to‘liq o‘zlashtirish, yaxshi anglash uchun maqollarning milliy-madaniy semantikasini yaxshi bilish zarur. Maqollarni fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda ma’lum qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu ularning semantik xususiyatlari bilan izohlanadi. Shu uchun tarjima jarayonida hech qanday qiyinchilik yuzaga kelmasligi uchun bu muammoni har tomonlama o‘rganish va ko‘rib chiqish kerak.

Xalq maqollarining o‘rni xalqimiz ma’naviy olami, kamoloti va farzandlar tarbiyasida beqiyos o‘ringa egadir. Paremik janr og‘zaki ijodning qadimiy va ommaviy janrlaridan bo‘lib, xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Ular jamiyatda ro‘y berayotgan voqelikni o‘zida aks ettiradi. Maqollar rang-barang mavzularni aks ettirishi bilan xarakterlidir. Xalq maqollari va iboralari inson hayotining har bir jabhasini qamrab oladi. Ularda qayg‘uli kunlar ham, shodlikka to‘la lahzalar ham aks etadi. Ularda xalq tafakkuri aks etadi. Har bir hikmatli jumla ko‘pchilikning turmush tarzi va fikriga mos kelgandagina maqolga aylanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot o’zbek va fransuz xalq maqollarining badiiy xususiyatlarini o’rganish, ularning lingvistik, madaniy va estetik qirralarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlar birgalikda qo’llanildi.

Maqollarning yod olinishi oson bo‘lib, ularning yodlanishiga turli undoshlar, qofiyalar, ritmlarning o‘zaro mos bo‘lishi yordam beradi. Suhbatda ular doimo yodga tushadi, xuddi o‘zlarini yaratgan odamlarga o‘xshab, hazilomuz, ogohlantiruvchi, o‘rgatuvchi, kayfiyat bag‘ishlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, xalqda qancha tuyg‘u bo‘lsa, barchasi maqollarda to‘liq namoyon bo‘lgan. Maqollar yuksak san’at va kundalik nutqning to‘liq birligini namoyish etadi. Filologiya fanida maqollarga xos xususiyatlar to‘liq o‘rganilgan emas. Maqol turli hayotiy hodisalarni ifodalaydi va to‘liq jumla (oddiy yoki murakkab) shakliga ega bo‘ladi, to‘liq hukmni ifodalaydi.

Maqollar to‘g‘ri va ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, grammatik jihatdan tugallangan gapni tashkil etadi. “*Que l’enfant s’amuse comme il peut, pourvu qu’il ne pleure pas*”, “*Bois tordu ne se redresse pas*” kabi maqollar qo‘shaloq – to‘g‘ri va allegorik ma’noda qo‘llaniladi. Maqollar xalq og‘zaki ijodining ommaviy janrlaridan biridir. Asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan maqollar xalqning dunyoqarashi, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi. Ular o‘zining ixcham, pishiq va puxta ishlanganligi bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Folklor asarlarining boshqa janrlari kabi maqollarda ham mehnatkash xalqning orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, qisqasi barcha ijobiy fazilatlari aks etgan bo‘ladi. Shu sababdan ham ularning tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat kattadir. Turli mavzulardagi o‘zbek va fransuz xalq maqollarini qiyoslash ushbu xalqlarning har birining madaniy qadriyatlari va xususiyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Maqollar folklorning boshqa janrlari, jumladan, dostonlar, ertaklar va qo‘shiqlarda ham ko‘p uchraydi. Ko‘pchilik xalq ertaklarining oxiri qissadan hissa tarzida maqol yoki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan biron bir pand-nasihat bilan tugaydi.

Adabiyotshunos B. Sarimsoqov maqollardagi keng mazmun haqida gapirar ekan, o‘zining “Badiiylik asoslari va mezonlari” asarida buni bir maqol misolida izohlab shunday deydi: “Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin” maqolini oling. Birgina shu maqolda shirin so‘zlik, odamiylik, lutf-ehson, mehmondo‘stlik haqidagi xalqning ko‘p asrlik tajribalarida jamlangan xulosalari mujassamlashgan. Agar birgina shu maqol mavzuida, unda ifodalangan g‘oyani ifodalovchi epik, lirik va dramatik asarlar yaratilmoqchi bo‘lsa, o‘nlab roman, yuzlab hikoya, yuzlab she’r yoki doston, ko‘plab dramalar yozish mumkin. Shunda ham mavzu va g‘oya maqoldagidek aniq, lo‘nda va yorqin ifodalanmaydi.” [8, 2004]. Bu fikr ixcham shakl, keng mazmun uchun bildirilgan eng aniq xulosadir”.

Maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr esa qat’iy, lo‘nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo‘ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beruvchi ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan yaxlit kompozisiya asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham maqolda biror ortiqcha so‘z, ortiqcha tasviriylik va tavsifiylik uchramaydi. Chunki maqoldagi ixcham fikrning o‘zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Bu mohiyatning yuzaga chiqishi hamma vaqt ixcham badiiy shakl vositasida amalga oshadi.

2. Maqol uchun ma’lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat’iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Qaysi bir maqolni olmang, u voqelikni mudom yo keskin salbiy nuqtayi nazardan yoki izchil mantiqiy fikrda baholaydi.

3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotadi.

4. Maqollar o‘z ham ko‘chma ma’nolarda qo‘llanish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning mavzu doirasi va qo‘llanish chegarasini kengaytiradi.

5. Maqol nutqda dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Bulardan tashqari maqollar folklorning boshqa janrlari uchun taalluqli bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ham ega. Shunday xususiyatlardan biri maqolning juda sekinlik bilan yaratilishidir. Bu xususiyat bevosita maqol mazmunining shakliy jihatiga uzviy bog‘liqligi bilan izohlanadi. Ma’lumki, har qanday fikr ibratli bo‘la olmaydi va har qanday ibratli fikr maqol bo‘la olmaydi. Shunday ekan ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun ayrim shartlar mavjud.

Birinchidan, maqolga aylanuvchi har qanday fikr xalqning ko‘p yillik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotiy tajribasida sinalgan bo‘lishi lozim. O‘shanda u fikr ibratlilik kasb etadi, kishilarni ishontira oladi. Ikkinchidan, maqolda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etishi lozim. Uchinchidan, har ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixchan, mukammal, badiiy jihatdan puxta shaklga ega bo‘lishi kerak.

Ko‘rsatilgan ana shu uch shart to‘liq yuzaga chiqqandagina, ibratomuz fikr maqolga aylanadi. Xalq maqollarining xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liqligi ularning milliy o‘ziga xosligini, ayni paytda, umumbashariy xarakterini belgilab beradi. Bu ikki jihat o‘zbek xalq maqollarining tematikasida, voqelikni aks ettirish tarzida, badiiy-tasviriy vositalarida va, nihoyat, tilida o‘z ifodasini topgan. Mana shu jihatdan qaralsa, o‘zbek xalq maqollarining ikki katta qismdan iboratligini ko‘rish qiyin emas.

1. O‘zbek va boshqa xalqlar aforistik ijodida mavjud bo‘lgan maqollar, boshqacha aytganda, o‘zbek xalq maqollari sirasida mavjud bo‘lgan va boshqa xalqlarda ham uchrovchi paremiologik qatlam. Bu qatlamga mansub maqollar o‘zlarida umuminsoniy jihatlarni ulug‘lashi va ibrat qilib ko‘rsatishi kabi xususiyatlari bilan milliy paremiologik materialga singishib ketgan. O‘zbek xalq maqollari doirasidagi bu qatlam, bir tomondan, bevosita shu xalq hayoti, taraqqiyot darajasining mahsuli sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zga xalqlar paremiologik boyligi ta’sirida paydo bo‘lgan.

2. Faqat o‘zbek xalqi hayotini, dunyoqarashi va turmush tarzini, etik va estetik me’yorlarini, urf-odatlarini ifodalovchi maqollar, boshqacha aytganda, o‘zbek xalq maqollari orasidagi milliy paremiologik qatlam. Bu qatlamga mansub paremik materialning milliy o‘ziga xosligi quyidagi jihatlarda yorqinroq namoyon bo‘ladi:

a) *bevosita o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy va maishiy hayotini aks ettirishda;*
b) *o‘zbek xalqiga xos xarakter-xislatlarning ishonarli ifodalanishida;*
c) *o‘zbeklarga xos toponimika, flora, faunaning ishtirok etishida;*
d) *o‘zbeklarga xos urf-odat hamda marosimlarning mavjudligida;*
e) *badiiy asarlar tilida.*

Xalq maqollarini mavzuiy tasnif etish ahamiyatli masalalardan biridir. Buning zarurligiga folklorshunoslar qariyb bir yarim asrdan buyon ahamiyat berib keladilar. Shu davr mobaynida qator tasniflar ishlab chiqildi. Ularning asosiylari quyidagilar: alifbo tartibidagi tasnif; maqoldagi asosiy so‘z mazmuniga ko‘ra tasnif; monografik tasnif; genetik tasnif; tematik tasnif va boshqalar. Maqollar ular ifodalagan tushunchalarga ko‘ra joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam asari vujudga keladi.

Maqollar xalq donishmandligi gavhari bo‘lib, yorqin, xayolparast, ko‘rish, xulosa chiqarish, o‘xshatish, umumlashtirish qobiliyati bilan ko‘zga tashlanib turadi. Ular doimo voqelik haqida umumlashtiruvchi mulohazalar bildiradilar va didaktik maqsadni ko‘zlaydilar. Maqolning semantik tuzilishi semalarning yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Fransuz maqollarining semantemalari o‘zaro ma’lum mantiqiy-semantik va grammatik bog‘lanishlarga ega. Bu bog‘lanishlar har xil turdagi

gaplarning ichki tuzilishiga xos bo‘lgan bir xil bog‘lanishlardan farq qilmaydi, chunki maqollar bir xil gaplardir.

Maqollar tarkibidagi semantemalarning o‘zi ham erkin gaplar semantemasidan farq qilmaydi, chunki maqollar “tarkibi va qo‘llanishi bo‘yicha barqaror bo‘lgan, nafaqat semantik jihatdan bo‘linadigan, balki butunlay erkin ma’noli so‘zlardan tashkil topgan frazeologik birliklardir”. Bu yaxlit jumla bo‘lib, qayta ko‘rib chiqishning hojati yo‘q. Shuni ta’kidlash kerakki, bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining ma’nosi qayta talqin qilingan va ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan ko‘plab maqollar mavjud. Ismning bir ob’ektdan ikkinchisiga o‘tishi “so‘zlovchining ongida haqiqatning bir segmenti bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi bilan izohlangan” majoziy, metaforik ma’noga ega bo‘lgan tarkibiy qismlarga xosdir.

Transfer, boshqa semantik transformatsiyalar fikrlashning rasmiy va mantiqiyligi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Biroq maqolning har qanday turi uchun eng muhimi maqolni maqolga aylantiruvchi va bu turdagi til birliklari uchun asosiy bo‘lgan semantik xususiyatlardir. Bizningcha, bu asosiy xususiyat, ular ikki olisdagi, bir-biriga o‘xshamaydigan ikkita ob’ekt, tushuncha, hodisalarni taqqoslab, biz bilgan tasvirlarni yaratadi. Binobarin, obrazlilik quyidagi ikki ma’noni birlashtirib, taqqoslash orqali hosil bo‘ladi: maqolning ma’nosi bilan mos keluvchi obraz, qandaydir real nutq yoki matn vaziyatida namoyon bo‘ladigan ikkinchi obraz.

V.G. Gakning fikricha, gapning maqolga aylanishi uchun “....*boshqa sohadan bir ish yoki bir qator holatlarni olish kerak, ma’lum bir obraz allegorik ma’no olishi kerak; keyin u she’riy asarga ham, maqolga ham aylanadi*” [9, 1971]. Masalan, “Le diable n’est pas si noir qu’on le peint” maqolining to‘g‘ridan-to‘g‘ri majoziy bo‘lmagan ma’nosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan. Berilgan jumlaning so‘z-semantemalari: “Shayton uni tasvirlaganlari kabi qora emasdir”. Ammo xuddi shu maqol kengroq ma’noda turli xil vaziyatlarda qo‘llaniladi: «*kelayotgan, kutilgan, sodir bo‘layotgan narsa unchalik qo‘rqinchli emas edi*». Bu maqolning ikkinchi ma’nosidir.

D.B. Abasheva fikricha, aktual ma’no “so‘zning qo‘llanish aktidagi ma’nosi”dan iborat. Maqolning birlamchi holatni aks ettiruvchi lug‘aviy ma’nosini o‘ziga xos hosila asos, boshqa qayta talqin qilingan ma’nolarini esa aktual vaziyat ma’nosiini hosil qiluvchi mexanizm sifatida qarash mumkin. Aniqroq aytganda, bu so‘zlarning ko‘chma va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noli o‘zaro ta’siri tufayli ikki maqol ma’nosi bir birikmani aks ettirishi mumkin. Masalan: “Tel voix, tel écho” – “Ovoz qanday bo‘lsa, aks-sado ham shunday bo‘ladi” – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no, “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” [1, 2015] – bu majoziy ma’no.

V.P. Anikin fikricha, xalqning tarixi qanchalik boy bo‘lsa, uning maqol va matallari shunchalik yorqin va mazmunli bo‘ladi [2, 2014]. Maqol oddiy gap emas. U xalqning fikrini bildiradi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq tafakkuri mushohadalari bor. Har bir maqol ortida ularni yaratgan avlodlarning hikmati bor. Maqolning maqsadi haqiqatni etkazish emas, balki inson tajribasini eslashdir.

Tadqiqotchi T.M. Nikolayeva fikricha, nutqiy vaziyatda ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun so‘zlovchi ijtimoiy makon xayolotini yaratishi, nutqiga maqollarni kiritishi kerak [6, 1978]. Maqollar xotirada mustahkam saqlanib qoladi. Qadimda maqollarni yaratgan xalq o‘qish va yozishni bilmas edi, oddiy xalqda esa o‘z hayotiy tajribasi va kuzatishlarini saqlashning boshqa yo‘li yo‘q edi. Maqollar xalq nutqida qaysi davrdan boshlab qo‘llanila boshlaganini aniqlash juda qiyin masala. Balki dastlabki so‘zlar paydo bo‘lgan vaqtlarda ham maqollar bo‘lgandir, bu bizga noma’lum, ammo bir narsa shubhasiz: maqollar uzoq antik davrda paydo bo‘lgan va o‘sha vaqtdan beri xalqqa o‘z tarixi davomida hamroh bo‘lib kelayapti.

Folklorshunos-paremiolog G.L. Permyakov fikricha, xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlarida bo‘lgani kabi maqol va matallarda ham etnografik voqelikning to‘liq to‘plami, mehnat qurollaridan tortib kiyim-kechakgacha, geografik muhitning landshafti, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosining har tomonlama tavsifi, uzoq o‘tmish voqealari va taniqli tarixiy shaxslar xotiralari, qadimgi diniy e’tiqodlarning aks-sadolari, xalq tarixi va jamiyatning zamonaviy tashkil etilishining batafsil tasviri mavjud [10, 2013]. Xalq va uning tili bilan birga maqol tug‘iladi, xalq u bilan yashaydi, unda uning kechinmalari, kundalik tajribasi, falsafasi bor.

Ba'zi maqollarning ikki xil ma'no anglatishi ular semantikasining asosiy xususiyati bo'lib, maqolning ayrim to'g'ridan-to'g'ri vaziyatlardan kelib chiqqan lug'aviy ma'nosini matndagi boshqa real vaziyatda paydo bo'lgan ma'no bilan bog'laydi. Agar real vaziyatlarning ma'nolari maqolga xos ekanligidan kelib chiqilsa, ularning har biri polisemantik bo'lib chiqadi. Biroq, bu ma'nolar maqolning o'ziga, uning semantik tuzilishiga xos emas, balki nutq yoki matnga tashqaridan kiritiladi. Shundagina ularni bir nechta ma'noga ega deb taxmin qilish mumkin.

Natija. Fransuz maqollarini o'zbek tiliga o'girish oson ish emas. Biroq ularning semantik boyligi, obrazliligi, ixchamligi va yorqinligi tufayli nutqqa ifodalilik va o'ziga xoslik ato etiladi. Maqollarni tarjima qilishda tarjimon ularning ma'nosini yetkazishi va tasvirini aks ettirishi, o'zbek tilida shunga o'xshash iborani topishi va ularning uslubiy funksiyasini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. *Maqollarni tarjima qilishning beshta umumiy usuli mavjud*:

1. Tillarga doir tushunchani ifodalovchi so'zlar to'liq mos keladi. Bunday holda so'zlar kalkalab ko'chiriladi. Kalkalab ko'chirish – so'zma-so'z tarjima bo'lib, unda asl nusxaning semantik va stilistik xususiyatlari ikkinchi tilda saqlanib qoladi. Masalan: "*Avoir la langue bien longue*" – "*Tili uzun bo'lmoq*"; "*De deux maux il faut choisir le moindre*" – Ikki yomondan eng kichigini tanlash lozim".

2. Tillardagi tushunchani ifodalovchi so'zlar ma'nosi mos keladi, iboraning asosiy elementi o'z o'rnida qoladi, biroq bajariladigan harakatlar o'zbek va fransuz tillarida farqlanadi. Masalan: "*A quelque chose malheur est bon*" – "*Bir oz kumush astar*"; "*Qui langue a, à Kiev va*" (Rossiyada), "*Qui langue a, à Rome va*" (Fransiyada) – "*Til bilgan, el biladi*". Bu tarjimalar kontekstga qarab ishlatishi kerak, ya'ni Fransiyada yashovchi odamlar birinchi gapni tushunmasligi mumkin. Kiev va Rim shaharlari uchun ikki xil nomdan foydalanish kerak. Agar bu ibora noto'g'ri ishlatilsa va tarjima qilinsa, chalkashliklar keltirib chiqarishi mumkin.

3. Ochqich so'z o'zbek tilida saqlanadi. Fransuz tilida esa boshqa so'zlar xuddi shu tushunchani ifodalaydi. Masalan: "*Qui rit vendredi, pleurera dimanche*" – "*Oxirgi kulgan odam yaxshi kuladi*"; "*Il faut tourner la langue 7 fois (10 fois) dans la bouche avant de parler*" – "*Yetti o'lchab, bir kes*".

4. Ochqich so'z fransuz tilida saqlanib qoladi. O'zbek tilida esa boshqa so'zlar xuddi shu tushunchani ifodalaydi. Masalan: "*Tel père, tel fils*" – "Olma hech qachon daraxtdan uzoqqa tushmaydi"; "*Tous les jours de chasse ne sont pas les jours de prise*" – "Har kuni yakshanba emas", so'zma-so'z tarjima: "Ov qilganda, har kuni ham o'lja bo'lavermaydi".

5. Tushuncha uchun so'zlar o'zaro tanlanadi, ya'ni asosiy ochqich so'z tananing bir qismini bildirsa, boshqa tilda ham u tananing aynan o'sha qismini bo'lmasa ham, boshqa bir a'zosini bildirishi lozim bo'ladi. Masalan: "*A cheval donné on ne regarde pas la bouche*" – "Tortiq qilingan otning tishlariga qaralmaydi"; "*Le jour parait long, passe vite*" – "Iblis tasvirlanganidek qo'rqinchli emas", so'zma-so'z tarjima: "Uzoq tuyulgan kun tez o'tadi".

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki, tarjima usullari, shubhasiz, tanlangan maqol guruhlarining semantik xususiyatlari bilan belgilanadi. Tarjima usullarini qo'llashda fransuz maqollari o'zbek tilidagidan qanday farq qilishini va ular qanday xususiyatlarga ega ekanligiga doir ayrim misollarni quyida keltirib o'tamiz. Birinchi tarjima usuliga tegishli misol: "*Une âme saine dans un corps sain*" – "Sog'lom tanda sog'lom aql". Bu tarjimada âme – jon, corps – tana, sain – sog'lom so'zlari to'liq mos keladi. "*Ce que femme veut, Dieu le veut*" – "Ayol nimani xohlasa, Xudo shuni xohlaydi"; "*L'homme propose, Dieu le dispose*" – "Inson taklif qiladi, Xudo shay qiladi"; "*A qui se lève le matin, Dieu aide et prête sa main*" – "Kim erta tursa, Alloh rizqini ulug' qiladi".

Tarjimaning ikkinchi usuli – asosiy "ochqich" so'z mos kelganda, berilgan tushunchani ifodalovchi so'zlar qisman mos keladi. "*Les jours se suivent et ne se ressemblent pas*" – "Bir kun bir kundan o'tmagan kun bormi?". Bu yerda asosiy element "les jours" o'z o'rnida qoladi, lekin bajarilgan harakatlar o'zbek va fransuz tillarida farqlanadi, ifoda tomoni tushunchalari esa butunlay bir xil. So'zma-so'z tarjimasi: "Kunlar birin-ketin o'tadi va ular bir xil emas". Quyida ushbu usulning misollarini ko'rishimiz mumkin. "*On ne meurt qu'une fois*" – "Bir boshga – bir o'lim". "*Deux avis valent mieux qu'un*" – (Bir aql yaxshi, lekin ikkitasi undan yaxshiroq".

Maqollar xalq hayoti va dunyoqarashini butun xilma-xilligi bilan aks ettiradi, ijtimoiy, diniy, estetik qarashlar, urf-odatlar, an'analar, xulq-atvor tushunchalari va axloqiy munosabatlarning

xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Maqollar ijtimoiy tajribaga doir ma’lumotlarni avloddan-avlodga uzatibgina qolmay, muloqot vositasi, turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlar manbai sifatida ham muhimdir. Maqollar kundalik muloqotning ajralmas qismidir. Chet tillarni o‘rganishda xalq maqollarining o‘rni muhimdir. Ular nutqni rang-barang qiladi, ijtimoiy muloqotni boyitadi, muayyan xalq mentalitetini yaxshiroq o‘rganish imkonini beradi.

O‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, fransuz tiliga doir mavjud darsliklarda maqollarni o‘rganishga talab darajasida e’tibor berilmagan. Mazkur tilni o‘rganuvchilar maqollarni ko‘proq o‘rganish orqali o‘zlarining so‘z boyligini kengaytirish, nazarda tutilgan tilning tarkibiy va mazmuniy xususiyatlarini chuqur anglashlari mumkin. Odatda maqollar tilning umumiy qoidalariga amal qiladi. Bir mavzu doirasida tasniflangan maqollarni yodlash oson, chunki ular ma’lum mezonlarga muvofiq tuzilgan bo‘ladi.

Maqollarning semiotik birlik sifatidagi mavqei hozirgi zamon tilshunosligida hamon noaniqligicha qolmoqda. Maqollarni frazeologiyaga kiritish masalasida olimlar bir fikrga kela olganlari yo‘q. Fransuz va o‘zbek tillaridagi maqollarning semantik hamda strukturaviy jihatlarini qiyoslashga doir ma’lumotlar ko‘p emas. Turli tillar paremiologiyasi elementlarini taqqoslash masalasi deyarli o‘rganilmaganligicha qolmoqda. Fransuz va o‘zbek tillaridagi maqollarning semantikasi muammosi muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Milliy-madaniy semantika tilning barcha sathlarida mavjud bo‘lsa-da, maqolda yaqqolroq namoyon bo‘ladi, ular tildan tashqari voqelikni, atrofimizdagi olam, narsa, hodisa va vaziyatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiradi.

Maqollar asrlar davomida shakllangan madaniyat tili bo‘lib, u ona tilida so‘zlashuvchi xalq hayoti falsafasining toifalari va munosabatlarini qisqacha aks ettiradi. Sharq xalqlari maqolni “tilning rangi”, “ajralmagan marvaridlar”, yunonlar va rimliklar – “ustun fikrlar”, italiyaliklar – “xalq maktabi”, ispanlar – “ruhning shifosi”, nemislar – “ko‘cha donoligi” deb atashadi. Maqollar muayyan vaziyatlarni umumlashtirishga asoslangan to‘liq hukmni o‘z ichiga oladi, xalq e’tiqodlarini to‘liq aks ettiradi, turli vaziyatlarda baholovchi fikrlar uchun mantiqiy modeldir. Maqollarda xatti-harakatlar qoidalari, milliy madaniyatning hayotiy voqeliklari mavjud. Ular muayyan tilning milliy-madaniy semantikasini aks ettiradi.

O‘zbek xalq maqollarining mavzusi boy va badiiy jihatdan rang-barangdir. Turmushning hamma sohalarida: mehnat jarayonida, jonli suhbatlarda, yozma adabiyotlarda maqol va hikmatli iboralar juda ko‘p ishlatiladi. Anglatilmoqchi bo‘lgan fikrlar obrazli qilib ifodalanadi. Shuning uchun ham xalqimiz “So‘zning ko‘rki – maqol”; “Yaxshi naql – tomiri aql”; “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” deb bekorga aytmagan. O‘zbek va fransuz xalq maqollarini mavzu bo‘yicha taqqoslash har ikki xalqning madaniy qadriyatlari, turmush tarzi va mentalitetidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mana shunday taqqoslashga misol bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir nechta mavzularni keltirishimiz mumkin :

I. Tabiat va atrof-muhitga doir maqollar. O‘zbek maqollarida ko‘pincha insonning tabiat va ona er bilan bog‘liqligi aks etadi. Masalan, “Sizning eringiz boy, lekin tilingiz kambag‘al”. Fransuz maqollarida tabiat tasvirlari ham mavjud, lekin ular ko‘pincha romantizm va go‘zallik kontekstida qo‘llaniladi. Masalan, “*Jour de printemps, rêve d’été*”.

II. Oila va munosabatlarga doir maqollar. O‘zbek maqollarida oila, qarindoshlik rishtalari, an’analar muhim o‘rin tutadi. Masalan, “O‘g‘il – lochin, ota – bulbul”. Fransuz maqollari sevgi, do‘stlik va oilaviy rishtalarning ma’nosini ta’kidlashi mumkin. Masalan, “*Là où il y a l’amour, il y a l’harmonie*”.

III. Mehnat va mehnatsevarlikka doir maqollar. O‘zbek maqollarida mehnatkashni hurmat qilish, mehnatsevarlikni yuksak qadrlash ko‘p uchraydi. Masalan, “Birovning bergani – ko‘rgulik, Mehnatning bergani – to‘ygulik”. Fransuz maqollarida mehnat va qat’iyatning muhimligi tan olinadi, ammo boshqa jihatlarni ham ta’kidlashi mumkin. Ularda kuch bilan emas, balki aql bilan ishlash muhimligi ta’kidlanadi. Masalan, “*La chance aide parfois, mais le travail toujours*”.

IV. Donolik va hayotiy tajribaga doir maqollar. Har ikkala madaniyatdagi kishilar donolik va hayotiy tajribani qadrlaydi va bular ko‘p maqollarda o‘z aksini topgan. Masalan, o‘zbekcha: “Aql – boshda, G‘ayrat – yoshda, Asl – toshda”, fransuzcha: “*Mieux vaut sagesse que richesse*” kabi maqollarda donolik va hayotiy tajriba ifodalangan. O‘zbek maqollarida adolat, halollik yuksak

qadrlanadi. Masalan, “Manglay tering bilan topilgan mol, taningga – halol”. Fransuz maqollarida ham axloqiy tamoyillarning ahamiyati aks etgan, lekin mazkur mavzudagi maqollarda kinoya tushunchasi yashiringan bo‘ladi. Masalan, “*L’honnêteté ne fait pas manger*” (kinoyali); “*Dieu habite dans un coeur honnête*” (o‘z ma’nosida).

Xulosa. Maqol xalqning donoligi, tajribasi va qadriyatlarini aks ettiruvchi noyob nutq janridir. U ixcham tarzda chuqur ma’noni o‘z ichiga oladi, u qisqa va lo‘nda ifoda orqali tinglovchiga etkaziladi. Maqollar madaniyatda muhim o‘rin tutadi, urf-odatlar, xulq-atvor normalarini avloddan-avlodga o‘tkazadi. Maqollar xalq og‘zaki ijodining janri sifatida kishilar tafakkuri va turmush tarzining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular nafaqat hikmat va amaliy yo‘l-yo‘riq manbai, balki madaniy merosni asrab-avaylash va yetkazish yo‘li hamdir.

Maqollarda turli xalqlarning madaniy xususiyatlarining xilma-xilligi, ularning tarixiy, ijtimoiy va diniy jihatlari aks etadi. Ular, shuningdek, turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni yaxshiroq tushunish va qadrlash imkonini beruvchi madaniyatlararo almashinuv vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maqol nutqiy janr sifatida til va muloqotni boyitibgina qolmay, balki madaniy merosni asrab-avaylash va etkazishga xizmat qiladi, avlodlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абашева Д.В., Фолклорная идеалност мира и пасторалная идеализасия:к вопросу взаимодействия //Пасторал:метаморфози идеала И реалности:сборник научних трудов/Отв.ред.Т.В.Саскова.М.,2015

2. Аникин В.П., О фолклористике как филологической науке. Журнал ”Традисионная култура: науч.алм.”, Москва, 2014

3. Leclerc J., Langue et société, 2e édition complètement revue et corrigée. Mondial Éditeurs, Laval (Québec), 1992

4. Maloux M., Dictionnaire des proverbes, sentences et maximes. Paris, Larousse, réédition en 2009.

5. Mirzayev T.,Musoqulov A.,Sarimsoqov B., O’zbek xalq maqollari. Toshkent, 2005.

6. Nikolayeva T.M., Matn lingvistikasi. Moskva, 1978

7. Permyakov G.L., Reflection of people ethical ideas in proverbs and sayings. Moscow, Nauka, 1988

8. Sarimsoqov B., “Badiiylik asoslari va mezonlari”. T., 2004.

9. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки). Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1971. – С. 65-71.

10. Принцип объединения паремий (пословиц и поговорок) в формо-образующие классы по методу Г. Л. Пермякова / Л. А. Джелалова // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Гуманитарные науки.–2013. – № 2 (26). – С. 155–168

Sanakulov Jahongir Khudayberdievich
Doctoral student of Urganch State University, Uzbekistan
E-mail: jsanakulov@gmail.com

IMPACT OF MULTICULTURALISM IN FRENCH LINGUISTICS

Abstract. *Multiculturalism, characterized by the coexistence of diverse linguistic and cultural communities within a single society, has become a defining feature of the contemporary world. This article we explore the multifaceted impact of multiculturalism on linguistics, delving into its influence on language contact, linguistic diversity, sociolinguistic dynamics, language preservation, policy development, and the broader context of globalization. Through an interdisciplinary lens, we examine how multiculturalism shapes and is shaped by linguistic phenomena, shedding light on the complex interplay between language, culture, and society.*

Multiculturalism has emerged as a defining characteristic of contemporary societies, challenging traditional notions of linguistic and cultural homogeneity. France, a country with a rich linguistic history and a diverse immigrant population, stands at the forefront of this global phenomenon. Following our research we will explore also the multifaceted impact of multiculturalism on French linguistics, delving into the evolution of the French language, its dialects, and sociolinguistic dynamics in a multicultural context. It also highlights the role of multiculturalism in shaping linguistic policies, identity, and the broader social fabric of France.

Keywords: *Multiculturalism, French linguistics, diversity, immigration, language evolution, regional dialects, sociolinguistic dynamics, language policies, cultural identity, bilingualism, multilingualism, language integration.*

ВЛИЯНИЕ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА НА ФРАНЦУЗСКУЮ ЛИНГВИСТИКУ

Аннотация. *Мультикультурализм, характеризующийся сосуществованием различных языковых и культурных сообществ в рамках одного общества, стал определяющей чертой современного мира. В данной статье мы исследуем многоаспектное влияние мультикультурализма на лингвистику, углубляясь в его воздействие на языковые контакты, лингвистическое разнообразие, социолингвистическую динамику, сохранение языков, разработку языковой политики и в более широком контексте глобализации. Через междисциплинарную призму мы анализируем, как мультикультурализм формирует и сам формируется языковыми явлениями, освещая сложное взаимодействие между языком, культурой и обществом.*

Мультикультурализм стал определяющей чертой современных обществ, бросая вызов традиционным представлениям о языковой и культурной однородности. Франция, страна с богатой языковой историей и разнообразным иммигрантским населением, находится в авангарде этого глобального явления. В нашем исследовании мы также рассмотрим многоаспектное влияние мультикультурализма на французскую лингвистику, изучая эволюцию французского языка, его диалектов и социолингвистической динамики в условиях мультикультурного контекста. Особое внимание уделено роли мультикультурализма в формировании языковой политики, идентичности и более широких социальных структур Франции.

Ключевые слова: *мультикультурализм, французская лингвистика, разнообразие, иммиграция, эволюция языка, региональные диалекты, социолингвистическая динамика, языковая политика, культурная идентичность, билингвизм, мультиязычие, языковая интеграция.*

FRANSUZ LINGVISTIKASI RIVOJLANISHIGA MULTIKULTURALIZMNING TA'SIRI

Annotatsiya. *Multikulturalizm, bir jamiyat ichida turli xil til va madaniy jamoalarning birgalikda yashashi bilan tavsiflanadi, zamonaviy dunyoning muhim belgilaridan biriga aylandi. Ushbu*

maqolada biz multikulturalizmning lingvistikaga ko‘p qirrali ta'sirini o‘rganamiz, bu jarayonda til aloqalari, lingvistik xilma-xillik, sotsiolingvistik dinamikalar, tillarni saqlab qolish, til siyosatini shakllantirish va globallashuvning kengroq konteksti kabi masalalarga e'tibor qaratamiz. Fanlararo yondashuv orqali biz multikulturalizm til hodisalari tomonidan qanday shakllantirilishi va unga qanday ta'sir ko‘rsatishini tahlil qilamiz, til, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqani yoritib beramiz.

Multikulturalizm zamonaviy jamiyatlarning ajralmas xususiyatiga aylanib, til va madaniy bir xillik haqidagi an’anaviy tasavvurlarga qarshi chiqmoqda. Fransiya, boy til tarixiga va xilma-xil immigratsion aholiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida, ushbu global hodisaning oldingi qatorida turadi. Tadqiqotimiz davomida biz shuningdek, multikulturalizmning fransuz lingvistikasiga ko‘p qirrali ta'sirini o‘rganamiz, bunda fransuz tili, uning dialektlari va multikultural kontekstdagi sotsiolingvistik dinamikalar rivojlanishini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, multikulturalizmning Fransiyadagi til siyosatini, identifikatsiyani va kengroq ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishdagi o‘rniga e'tibor qaratamiz.

Kalit so‘zlar: *multikulturalizm, fransuz lingvistikasi, xilma-xillik, immigratsiya, til evolyutsiyasi, mintaqaviy dialektlar, sotsiolingvistik dinamikalar, til siyosati, madaniy identifikatsiya, bilingvizm, ko‘p tildan foydalanish, til integratsiyasi.*

Introduction. France, renowned for its cultural heritage and linguistic influence, has historically been seen as a bastion of the French language and culture. However, the advent of multiculturalism has significantly transformed the linguistic landscape of the country. Multiculturalism, broadly defined as the coexistence of diverse cultural and linguistic groups within a society, has brought about profound changes in French linguistics. This article examines the impact of multiculturalism on the French language, its dialects, sociolinguistic dynamics, language policies, and societal identity.

Methodology. To investigate the multifaceted impact of multiculturalism in linguistics, this research employs a comprehensive and interdisciplinary approach, integrating qualitative and quantitative methods. The study encompasses the following methodological steps:

Literature Review: The research begins with an extensive review of existing literature on multiculturalism and its effects on linguistics. This phase aims to establish a theoretical framework and identify key research gaps.

Data Collection: Primary data collection involves surveys, interviews, and linguistic analyses. Surveys target linguistically diverse communities to gather sociolinguistic data, while interviews provide qualitative insights into individuals’ language choices and identity. Linguistic analyses involve examining language contact, borrowing, and variation.

Quantitative Analysis: Quantitative data is analyzed using statistical tools to identify patterns of language contact, sociolinguistic variation, and language preferences within multicultural contexts. Statistical analyses help quantify linguistic phenomena and their significance.

Qualitative Analysis: Qualitative data from interviews and open-ended survey responses are subjected to thematic analysis. Themes related to language identity, preservation efforts, and policy perceptions are identified and explored.

Comparative Studies: Multiculturalism manifests differently in various geographic regions. Comparative studies are conducted to assess how multiculturalism influences linguistics in diverse contexts, including multicultural cities and regions.

Language Policy Assessment: Language policies are evaluated using policy analysis frameworks to understand their formulation, implementation, and effectiveness in supporting linguistic diversity and integration.

Globalization Impact Analysis: The study examines the impact of multiculturalism on linguistic adaptation to globalization. This involves assessing how multiculturalism influences language choice in international communication.

Ethnographic Research: Ethnographic research methods are applied to immerse researchers in multicultural communities, gaining deeper insights into the lived experiences of individuals navigating linguistic diversity.

Cross-Disciplinary Collaboration: The interdisciplinary nature of this research necessitates collaboration with experts in sociolinguistics, anthropology, policy analysis, and globalization studies.

Synthesis and Conclusion: The findings from diverse data sources and analyses are synthesized to provide a comprehensive understanding of the impact of multiculturalism in linguistics. Conclusions are drawn regarding the multifaceted ways in which multiculturalism shapes linguistic phenomena.

This research methodology combines quantitative and qualitative approaches, drawing on a range of data sources and analytical techniques to comprehensively investigate the impact of multiculturalism in linguistics. It seeks to contribute to a nuanced understanding of the complex interactions between linguistic diversity, cultural identity, and societal dynamics in multicultural contexts.

Results. *Multiculturalism and the Evolution of French*: The French language, as it is spoken today, has evolved over centuries through interactions with various linguistic and cultural influences. Multiculturalism has accelerated this process by introducing new vocabulary, idiomatic expressions, and syntactical features from languages spoken by immigrant communities. For instance, the integration of Arabic, African, and Asian languages into everyday French has enriched its lexicon, reflecting the multicultural character of contemporary France.

Dialects and Multiculturalism: The regional dialects of France have long been a source of cultural diversity within the country. Multiculturalism has amplified the importance of regional dialects as a means of preserving the linguistic heritage of various immigrant communities. These dialects serve as markers of cultural identity and are instrumental in maintaining connections with ancestral languages and traditions.

Sociolinguistic Dynamics: Multiculturalism has given rise to complex sociolinguistic dynamics in France. Bilingualism and multilingualism have become more common, especially among the younger generations who straddle multiple linguistic and cultural worlds. This has led to the emergence of hybrid linguistic identities, where individuals adapt their speech patterns to accommodate different cultural contexts.

